

Xudoyberdi
TO'XTABOYEV



**QIZ BOLAGA
TOSH OTMANG**

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(50')6

T - 98

To'xtaboyev, Xudoyberdi

Qiz bolaga tosh otmang / X.To'xtaboyev. – Toshkent:
Yangi asr avlodi, 2016. – 352 b.

ISBN 978-9943-27-335-1

Ushbu kitobdan sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To'xtaboyevning so'nggi yillarda yozgan ikki romani o'in olgan.

Undagi asar qahramonlari mustaqillik davrining farzandlari. Ular mustaqillik yaratib bergen imkoniyatlardan foydalaniib, fermer xo'jaligi tashkil etadilar.

Jumladan, «Qiz talashgan o'smirlar» romanida ishbilarmon Yo'doshxonning, «Qiz bolaga tosh otmang» teleromanida esa tadbirkor qiz Xurshidaning o'z ishini yuritish, kengaytirish yo'lidagi mashaqqatlari, iztiroblari, yutuqlari, quvonchlari yozuvchi tomonidan qiziqarli voqealar asosida yoritib berilgan.

Asar qahramonlari muhabbat yoshida. Ular bu beg'ubor tuyg'uni ba'zan his etmaydilar, qadriga yetmaydilar...

Keling, yaxshisi kitobni o'qing, gap nima haqida ekanini bilib olasiz.

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(50')6

**Ushbu kitob Uchtepa tuman patent va soliq qo'mitalarinining
balalarni, bolalar adabiyotini sevib, ardoqlab, ham ma'naviy,
ham moddiy yordam berayotgan fidoyi xodimlariga
bag'ishlanadi.**

ISBN 978-9943-27-335-1

© X.To'xtaboyev. «Qiz bolaga tosh otmang», «Yangi asr avlodi». 2016-yil.

ISTE'DODNING OLMOS QIRRASI

Bolalarga kitob yozmoq uchun bolalikka qaytib bormoq kerak. Boshlagan kitobingga oxirgi nuqta qo'yguningcha bola bo'lib yashashing zarur. Bolalik orzulari bir nuqtada turmaydi. Har daqiqada o'zgaradi. Bir kuni militsioner bo'lging kelsa, ertasiga uchuvchi bo'lging keladi. Ko'ngilga tikkan bu niyatlarining sal fursatdan keyin o'zgaradi-yu, birdan shpion tutadigan askar bo'lib qolging keladi. Polvon bo'lib hammani qoyil qoldirging, masxaraboz bo'lib sirkda yuzlab odamni kuldirging, o'rmonlar-u to'qaylarda ov qilib yo'lbars terisini shilib kelging, senga ikki qo'ygan o'qituvchingga lol qoldirging keladi.

Afsuslar bo'lsinki, men mana shunday beg'ubor bolaligimni yo'qotganman. Bolaligim davr to'lqinlarida qirg'oqlarga urilib o'tib ketgan. Qulqlarni fosh qilish, ularni tug'ilib o'sgan yeriga quvish, qishloqlarni kollektivlashtirish, xotin-qizlar boshidan paranjisini tortib olib, o't qo'yish biz bolalarning «siyosiy» vazifamiz bo'lib qolgandi. Oktyabryat bo'dik, pioner bo'dik, komsomol bo'dik. O'ylab qarasam, tug'ilibmiz-u bolaligimiz ustidan hatlab o'tib ketibmiz.

O'sha davr bolalari to'g'risida yozilgan hikoyalarni o'qiganimda go'yo bizning avlod tug'ilib, o'rdakning jo'jasidek tuxumdan chiqqan-u suvda suzib ketavergan. «Tom Soyerning sarguzashtlari» qissasini o'qiganimda, nega men Tomga o'xshagan bo'lmadim, deb o'zimdan o'zim so'rayman. Men Tomning yoshiga yetganimda tepasi teshik tunuka bankani bo'ynimga osib, bozorlarda, hukumat idoralarida, magazinlarda kapitalizm iskanjasida ingrayotgan siyosiy mahbuslarga yordam puli yig'ardim. Qizil alvonga yozilgan «Hamma kolxzogga, yakka xo'jaliklar sho'ro hukumatining dushmanidir» degan shiorni ko'tarib, qishloqma-qishloq kezardim. Qishloq xonardonlarining devorlariga «Qulqlarga shafqat yo'q, ularning joyi uzoq Sibiriya» degan yozuvlarning qancha-qanchasini bo'rib bilan yozganmiz. Endi o'ylab qarasam, bolaligim siyosat

daryosida oqib ketibdi. Pioneerlik, komsomollik bizni «Siyosiy hushyorlik»ka o'rgatib qo'ygan ekan. Otasini «xalq dushmani» sifatida qamatganlar, ta'lim bergen o'qituvchisini fosh qilib, sudda guvohlik bergen «Pavlik Morozovchilar» bizning avlod vakillari edi. Yigirman-chi-o'ttizinchi yillar go'yo xotinlar chaqaloq tug'magan, ovozi do'rillab qolgan yigitlarni tuqqan edilar.

O'sha yillarda yaratilgan adabiy asarlar orasidan bironita bolalarga bag'ishlangan durustroq asar topolmadim. Birgina G'ofur G'ulomning «Shum bola»si nursiz kitoblar orasida yarqirab turibdi. Bunga sabab, qissada sof bolalik hayoti aks etgan edi. Yer kurrasining u tomonida Tom Soyer, bu tomonida davr siyosatini, partiya chaqiriqlarini tan olmagan «shum bola» dunyoga kelgan ekan. Adabiyotimizda bolalar hayotidan yozilgan hikoyalarni inkor qilmaymiz. Ammo ular partiya chaqiriqlariga javoban yozilgan «qizil» hikoyalari edi.

«Sabr qilsang, g'o'radan halvo pishur», deganlaridek, elliginchi yillarning oxiriga kelib bolalarimiz baxtiga Xudoyberdi To'xtaboyev degan iste'dodli bir yozuvchi adabiyotimiz eshigini ochib kirdi. Bolalar adabiyotiga, albatta, shunday bir yozuvchi keladi, deb intiqlik bilan kutgan edik. Uning birinchi hikoyalaridanoq bolalar olamini yaxshi bilgan, ular psixologiyasini, o'y-xayollarini, favqulodda ifodalarga boy biyron tilini, qiliqlarini, xullas, simobdek beqaror hayotini sinchkovlik bilan o'rgangan, o'zi ham boladek har narsaga qiziqadigan mehnatkash yozuvchi safimizga kelganidan quvondik. Xudoyberdi dimiqib qolgan bolalar adabiyotiga musaffo havo olib kirgandek bo'ldi. Uning «Sariq devni minib» degan turkum qissalariga debocha bo'lgan «Sehrli qalpoqcha» qissasi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. U tez kunda bolalarimizning qo'ldan qo'ymay, sevib o'qiydigan kitobi bo'lib qoldi. «Sariq devni minib» degan qissalar turkumi oz fursatda dunyoning 22 mamlakatida 22 tilda juda ko'p nusxalarda nashr qilindi. Keyingi ma'lumotlarga qaraganda, hamon qayta-qayta bosilyapti. Birgina Ger-

maniyada 500000 nusxada bosilgani sinchkov nemis kitobxonlariga qissaning qanchalik manzur bo'lganidan guvohlik berib turibdi. Ukraina bilan Rossiyada bosilgan nusxalari milliondan ham oshib ketdi. Yaxshi kitob o'ziga o'zi yo'l topadi. Qulog'idan cho'zib, bo'ynidan ip bog'lab adabiyotga olib kirilgan kitoblar allaqachon aravadan tushib qolgan.

Mashhur adib Mark Tven tug'ilgan kuni Amerikaning Missuri shtatida Tom Soyer yashagan hovlining taxta devorini oqlash marosimi bo'lishini ko'pchilik bilmasa kerak. Bolalar bu marosimni tantanali bir vaziyatda nishonlashadi. Devor oqlash musobaqasini o'tkazishadi. Musobaqa g'oliblariga Mark Tven kitoblari sovrin sifatida topshiriladi. Xudoyberdining bu ajoyib qissasi Chippolino vatani Italiyada ikki bor nashr qilingani, jahonga buyuk yozuvchilarni bergen Italiya xalqi, sinchkov kitobxonlari nazariga tushgani Xudoyberdining baxti edi. Angliyada, Fransiyada kitob qadriga yetadigan zukko kitobxonlarga manzur bo'lgan bu asar butun o'zbek adabiyotining obro'si, tan olishimiz kerak.

Nima bo'ldi-yu, oltmishinchı yillarga kelib Xudoyberdi yozishdan bir muddat to'xtab qolgandek bo'ldi. Qissalar yozmay qo'ydi. O'zini felyetonchilikka urdi. Respublika gazetalarida kunora felyetonlari bosiladigan bo'lib qoldi. Men bu bolaga mehr qo'ygan edim. Undan yangi-yangi qissalar kutardim. Ammo u felyeton yozishdan bo'shamadi. Bu orada bolalar adabiyotidan bir qadar fayz keta boshlaganga o'xshardi. Uni qidirib redaksiyaga bordim, papiro tutatib, allaqanday sud hukmlari, militsiya tuzgan aktlarga ko'milib, felyeton yozayotgan ekan. Xudoyberdi meni ustoz deb qo'l bergen, yozganlarini nazarimdan o'tqazib turadigan shogird edi. Keyingi ikki yilda negadir mendan o'zini olib qochadigan, uchrashib qolgan paytlarimizda qandaydir gunoh ish qilib qo'ygan boladek ko'zini yashirishga joy topolmay qolardi. Bu holat menga juda tanish. Chunki men ham ustoz Abdulla Qahhor oldida xuddi shunday

ahvolga tushgandim. Bu voqeal bir umr esimdan chiq-maydigan saboq bo'lgan edi.

Ming to'qqiz yuz qirq olti, qirq yettinchi yillarda hikoya yozishni tashlab, felyeton yozishga berilib ketgandim. Nazarimda, o'sha yillar butun O'zbekistonda mendan mashhur, mendan obro'li yozuvchi yo'qdek edi. Sartaroshxonalarga meni benavbat kiritib yuborishardi, restoranlarga menga mutlaqo notanish kishilar yemak-ichmak haqini to'lab qo'yishardi. Mehmon-izlomga borsam, dasturxonning eng to'riga meni o'tqazishar, to o'tirmagunimcha qo'l qovushtirib «odob» saqlab turishardi. O'zimga o'zim «hikoya yozib vaqtimni o'tkazib yurgan ekanman, felyetonchilik g'irt maza ekan» deb, o'zimdan ketgan paytlarim edi. Ana shunday uchib-quvib yurgan paytlarimda redaksiyaga Abdulla Qahhor kelib qoldi. He yo'q, be yo'q, «yozuvchilar soyuzidan chiqishga ariza yozib berasizmi yo o'zimiz o'chirib yuboraveraylikmi?» deb qoldi. Nima uchun bunaqa deyayotganiga tushunmay hayron bo'lib qoldim. Nima uchun ariza yozib berishim kerak? Tilimga gap kelmay chaynalib qoldim.

— Nega unaqa deyapsiz, domla? — dedim qo'rqa-pisa.

— Soyuz a'zolarining hammasi asar yozishayapti. Uch yildan beri biron ta hikoyangizni o'qimadim. Demak, siz yozuvchilikni tashlagansiz. Unday bo'lsa, soyuzni bo'shatib qo'yish kerak.

— Felyetonlarimni o'qimayapsizmi?

— Felyeton adabiyotga emas, jurnalistikaga kiradi.

— Ikki oycha bo'ldi, bitta hikoyam bosilgandi. O'qimanmisiz?

— O'qiganman, — dedi domla. — Hikoyangizdan qamoqxonani hidi kelyapti. Felyeton yozaverib, odamlardan fazilat emas, nuqson qidiradigan bo'lib qolibsiz. Adabiyot o'quvchi qalbiga nur olib kiradi. Go'zallik, odamiylik, rahm-shafqat, hayotga, odamlarga muhabbat tuyg'ularini uyg'otadi. Siz esa odamlarda faqat yomonlikni, yovuzlikni ko'ryapsiz. Attang, attang, sizdan qancha-qancha umidlarimiz bor edi.

Abdulla Qahhor boshqa gap aytmadı. Xayr ham de-may chiqib ketdi. O'tirgan joyimda bir zambil loy bo'lib qolaverdim. Domlaning gaplari qanchalik achchiq, qanchalik «sassiq» bo'lmasin, haqiqat edi. Bu gap, bu xil muomala jon-jonimdan o'tib ketdi. Felyetonchilikni mutlaqo tashlab yubordim. Mana ellik besh yil bo'ldiki, domla aytgan gaplarning zahri tanamdan ketmaydi. Shu ellik besh yil davomida atigi uchta felyeton yozibman. Ochig'ini aytsam, hikoyadan ancha qo'lim charchab qol-gan ekan. O'zimni o'nglab olgunimcha ancha qiyin bo'ldi.

Shu tobda yoshligim, felyeton «qiroli» paytimga ro'ba-ro' kelib o'tiribman. Xudoyberdi mening yoshligim edi, men qilgan xatolarni aynan takrorlab turgan payti edi. Unda jindek havo paydo bo'lgan, g'ururi ham anchagina balandda edi.

— Ahvollar qalay, ukam? — dedim nimadan gap boshlashimni bilmay. U stol tortmasidan o'ntacha bir xil yorliqlarni, dastro'molga tugilgan qo'zichoqning iligidek bir narsani allaqanday maqtanish bilan stolga qo'ydi.

— Bilasizmi, bu nima? Bu – kumush hushtak.

U shunday deya turib ro'molchani yechib, ichidan chindan ham kumush hushtak olib menga uzatdi.

— Buni ichki ishlar xodimlari to'g'risida yozilgan eng yaxshi material uchun mukofotlashgan. Chalib ko'ring, bitta puflab ko'ring, ovozi ham boshqacha.

Xudoyberdi bir vaqlar yaxshi yozuvchi bo'lishni orzu qilgan, yozgan-chizganlari ertaga yaxshi yozuvchi bo'lishiga kafolat beradigan talantini bitta kumush hushtakka almashtirishga tayyor turgan va lekin hali danagi qotmagan, o'z istiqboliga befarqroq, uch ko'cha boshida qayoqqa borishini bilmay hayron turgan «yozu-vchi» edi. Unga qancha tushuntirma, qancha nasihat qilma, hamma gaplardan kumush hushtak afzaldek edi. Uni adabiyotga qanday qaytarish mumkinligini o'ylab, o'yimga yetolmadim. Bu yo'ldan qaytarishning birdan-bir yo'li Abdulla Qahhor uslubi edi. Xudoyberdi juda odobli, madaniyatli, mayin yigit. Dilini og'ritgim

kelmadi. Menda Qahhor domlaning qahri yo‘q. Boyatdan beri uning jon-jonidan o‘tib ketadigan gaplarni o‘ylab o‘tirgan edim. Aytishga tilim bormadi. Uzundan-uzoq leksiya boshladim.

— Gazeta bir kunlik axborot vositasi. Ertasiga uning o‘rniga boshqa gazeta chiqadi. Demak, sen yozgan felyeton ham bir kunda o‘tmishga aylanadi. Bilasanmi, men ikki yuzdan ortiq felyeton yozganman. Qani ular? Hammaning yodidan chiqib ketdi. Faqat felyetonda urilgan, jurnalistlar tili bilan aytganda fosh qilingan odamlar xotirasidagina qolgan. Badiiy asar butunlay boshqa gap. Yuz yillab, ming yillab yashayveradi. Bu gaplarim bilan felyetonni yomon demoqchi emasman. Jamiatni poklash uchun uning ahamiyati katta. Ammo har sohaning o‘z mutaxassisini bo‘lishi kerak. Hayotga maftun, insonlarda go‘zal fazilatlar qidiradigan, uni zavq-shavq bilan tasvirlaydigan, qo‘sinqdek kuylaydigan iste‘dodli yozuvchilarni yo‘ldan toydirishi ham mumkin. Hadeb o‘g‘rilar, poraxo‘rlar, piyonistalar, xotinbozlar to‘g‘risida yozaversang, yaxshi odamlar ham ko‘zingga shubhali ko‘rinadigan bo‘lib qoladi.

Hali uzoq gapirmoqchi edim, gaplarimning daromadini sezgan Xudoyberdi bezovtalanib qoldi...

— Tushundim, domla. Nima demoqchiligingizni tushundim. Felyeton yozaverib, hikoyadan qo‘lim chiqib ketibdi. Bir hikoya boshlagan edim, sira tugatolmayaman. Felyetonga o‘xshab qolyapti.

— Tushungan odamga tushuntirib o‘tirishning keragi yo‘q. Endi buyog‘i o‘zingga havola.

O‘rtamizda boshqa gap bo‘lmadi. Sovuqqina xayr-lashib chiqib ketdim. Shunday dilbar bir yigitning dilini og‘ritganidan o‘zimni koyidim. Kimdir bu gaplarni aytish kerak edi. Men bo‘lmasam, boshqa bir kishi aytardi. O‘zim aytganim durust bo‘ldi. Shu voqeadan keyin gazetani kuzatib yurdim. O‘sha kuni yozayotgan felyetonni gazetada ko‘rmadim. Demak, yarmini yozganiidan keyin buyog‘iga qalami yurmagan. Gaplarim ta’sir

qipti. Keyinchalik eshitishimga qaraganda, u gazetadan bo'shab ketibdi. Menga ko'rinmaydi, matbuotda ham.

Oradan biron yil o'tib, uning Farg'ona kishilariga bag'ishlangan ocherklar turkumi e'lon qilindi. Unda «Konizar» qishlog'ining ajoyib kishilari nihoyatda samimiy bir kayfiyatda tasvirlangan edi. Men Konizar qishlog'iغا ikki-uch marta borganman, sodda, samimiy bog'bonlari, dehqonlari qanchalik samimiy yozilgani menga ayon edi.

1965-yildan boshlangan olti qissadan iborat «Sariq devni minib» romani 1972-yilda yakun topdi. Xudoyberdi bu asar ustida yetti yil ter to'kib mehnat qildi. 1975-yilda esa «Besh bolali yigitcha» qissasini yozib tugatdi.

Ustoz Abdulla Qodiriy bir suhbatda xalq qahramoni Namoz botir to'g'risida bir roman rejalashtirib qo'yanini aytgan edi. Afsuski, o'sha davrdagi ziyyolilarga bo'lgan hujum, qatag'onlar ustozimizga bu rejani amalgalash oshirish imkonini bermadi. Xudoyberdi Abdulla Qodiriya nasib qilmagan mavzuga qo'l urishga qaror qildi. Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlariga borib, Namoz botirni ko'rgan kishilar bilan suhbatlashdi. Arxiv hujjatlarini o'rgandi. Oxiri sinchkovlik bilan qilingan mehnat o'z samarasini berdi. 1981-yili «Qasoskorning oltin boshi» nomi bilan nihoyatda o'qishli bir roman dunyoga keldi. Ko'p vaqt o'tmay, «O'zbekfilm» ijodkorlari roman asosida badiiy film yaratdilar. Xudoyberdi o'zini ijodga urdi. Yilora bittadan roman yo qissa yozar, yozganlari esa nashriyotlarda turib qolmasdi. Nashriyotlar «Xudoyberdi bu yil qandoq roman olib kelarkan», deb kutadigan bo'lib qoldi. Xudoyberdi esa ularni ko'p kuttirmasdi. Nashriyotga, albatta, quruq kelmasdi, qo'llig'ida yangi romanning qo'lyozmasi bilan kelardi.

1983-yili «Yillar va izlar» qissasini olib kelgan bo'lsa, 1985-yili «Shirin qovunlar mamlakati» romanini olib keldi. 1987-yili nashriyotga «Mungli ko'zlar» romanini topshirgan bo'lsa, 1995-yili «Jannati odamlar» romanini topshirdi.

Shuni ham aytish kerakki, uning romanlari bir-ikki yil ichida boshqa tillarga tarjima qilinib, qardosh xalqlar

bolalariga ham sevimli kitob bo'lib qoladi. Keyingi o'n besh yil davomida mamlakatda turizmning rivojlanishi boshqa mamlakatlar hayoti bilan tanishishimizga katta imkon yaratdi. Olimlar, yozuvchilar, jurnalistlar, albatta, borgan mamlakatlaridagi kitob do'konlariga kiradilar. Jahon adabiyotining nodir asarlarini xarid qiladilar. Ana shunday sayohatlarga borgan yozuvchi do'stlar-im Xudoyberdining romani Rimdag'i katta magazinda «Chippolino», «Pinokkio» kitoblari qatorida sotilayotganini aytadilar. Yoki Germaniyada «Sariq devni minib» romani «Gulliver», «Myunxauzen» kitoblari qatorida sotilayotganini aytadilar. Bu, albatta, o'zbek adabiyotining chet ellarda ham mashhur bo'la boshlaganidan darak beradi.

Xudoyberdi To'xtaboyev bugungi kunda o'zbek bolalar adabiyotining zabardast vakiliga aylandi. Uni mamlakatimizdag'i jamiki kitobsevar bolalar yaxshi bilishadi. Uning katta-kichikka barobar manzur bo'lgan kitoblarini qo'ldan qo'ymay o'qiydilar. Xudoyberdi bolalar adabiyotininggina emas, kattalar adabiyotining ham rivojiga qo'shgan katta hissasi uchun «Xalq yozuvchisi» unvoniga sazovor bo'ldi. Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Xudoyberdining ijodi, asarlari maktablarda o'rganilmoqda. Hozir 5-6-7-sinf darsliklarida bir necha soat mobaynida bolalar o'zlarining sevimli yozuvchilari, uning ajoyib-g'aroyib qahramonlari bilan uchrashib turibdilar.

Uning hozir avji kuchga to'lgan payti, u qanchadan-qancha ijodiy rejalar bilan yashayotgan iste'dodli, zahmatkash yozuvchidir. Qo'zichoqning ilik suyagidek kichkinagina kumush hushtak endi Xudoyberdiga ijodining boshlanish davridan bir esdalik bo'lib qoldi.

Said AHMAD,
O'zbekiston Qahramoni,
O'zbekiston xalq yozuvchisi,
2000-yil 19-yanvar

Qiz talashgan o'smirlar

(Roman)



1-QISM
MUHABBAT MAVSUMI

I bob

Alloh bu yurtga mustaqillik degan ne'matni ato qilgandan buyon bir tomoni adirli tog'larga, yana bir tomoni cho'llarga ulanib ketadigan Tagob qishlog'ida uyqusirab yotgan insonlar birdan uyg'ongandek bo'ldi. Tadbirkorlik, fermerlar harakati, xususiy ishbilar monlik deysizmi, shunaqa avj olib ketdiki, ta'riflashga so'z ham ojizlik qiladi. Yigitlar belini mahkam bog'lab, qo'liga tupurib, imkoniyat axtarishga tushgan, ayollar qozon-tovoqni yig'ishtirib, bozorga yugurgan, kampirlar eski-tuski quroqdan yakandozlar yasab, pullashga kirishgan, chollar eski mis qumg'onne chegalatib xaridor axtargan, voy-bo'y, o'smirlar-u bo'yi etgan qizlarni aytmaysizmi! Bittasi velosiped tuzatadigan ustaxona ochib, ustaxonasiga buzuq velosiped kelmay jig'ibiyroni chiqqan, bittasi o'n ikkita buzoq boqib, buzoqlari semirib, sotilib ketguncha erkagi qanaqa bo'ladi-yu, urg'ochisi qanaqa bo'ladi, ana shuni bilmay qolgan, bilmagani uchun o'zini emas, dadasini ayblab yurgan. To'qqizinchi sinfni bitirguncha faqat a'lo baholarga o'qigan Qumrinisa qizaloqlarga ko'ylak, kofta tikanman deb oldirgan mashinasi ip chaynayotgani uchun Amerika, Xitoy-yu Yaponiyaga mashinalaring sifatsiz ekan, deb to'xtamay xat jo'natib turgan.

Lekin qishloqning ko'pchilik o'smirlari hali uyquda, bir xillari mudrab ham yurishibdi. Qobil degan sho'x, shaddod o'smirning onasi u kun bo'yi to'p tepib yuravergani uchun qulog'idan cho'zib, «voy, bolam, sen qachon odam bo'lasan», deb yig'lagan emish. Qishloq markazida ochilgan pullik kompyuter xonasida ko'zini

lo‘q qilib, qulog‘ini ding qilib, olti soatlab g‘alati-g‘alati tomoshalardan boshini ko‘tarmaydigan bir bolaning dadasi eshikdan kirishi bilan derazadan tashlab qochgan emish.

Xullas, qishloqda qiziq-qiziq gaplar, mish-mishlar, haqiqatga yaqin keladigan voqealar ko‘p. Rasuljon degan miyasi yaxshi ishlaydigan bir o‘smir g‘alati kashfiyat yaratibdi. Tog‘ tomondan to‘rt-beshga bo‘linib, jildirab qo‘sniq aytib tushadigan buloq suvini birlashtirib, shovullab tushadigan holatga keltirib, qo‘l bola tegirmon yasab olibdi, butun qishloq unga qoyil qolibdi. Beva onasi ikkovlari hozir tegirmonchilik qilishayotgan emish. Yana qiziq gaplardan biri shuki, bir o‘smir yigitcha urishqoq xo‘rozlarga ishqiboz ekan. Tushiga nuqul dakang xo‘rozdan ham novcharoq xo‘rozlar kirarkan. Toshkentga, Urugvay degan mamlakatning elchixonasiga borib, «sizlarda urishqoq xo‘rozlar ko‘p bo‘larkan, kinoda ko‘rdim, uch marta ko‘rdim, o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, menga o‘sma xo‘rozlardan olishimga yordam bering», deb yolvoribdi. Ehtimol, ko‘z yoshi ham qilgandir. Elchi janoblari avvaliga rosa kulibdi, qotib-qotib kulibdi, chunki Urugvay Urugvay mamlakati nomini olganidan buyon hech kim bu mamlakatga xo‘roz so‘rab murojaat qilmagan ekan. Janobi elchi kula-kula rozi ham bo‘lib, yangi yil arafasida oltin qafasga solingan kekkayib turgan, bo‘ydon xo‘rozlardan oltitasini o‘smirning uyiga yetkazib beribdi. O‘smir bu xo‘rozlardan besh-o‘n kun zavqlanibdi, nihoyat, Tagobdag‘i xo‘rozlarni urishishga qo‘ygan ekan, chatoq bo‘pti, juda chatoq bo‘libdi. Urugvay xo‘rozlaridan birortasi ham urishmay qanotini yozib, Tagob xo‘rozlarini oldiga tushib qochaveribdi, qochaveribdi. O‘smir yig‘lagudek bo‘lib:

– Yo‘q-yo‘q, men Urugvay mamlakatidan emas, Paragvay mamlakatidan xo‘roz so‘ragandim, – deb

yana yo'lkiraga onasidan pul olib, Toshkentga jo'nab ketgan emish.

Xullas, Tagob qishlog'ida ana shunday qiziq gaplar juda ko'p. Juda-juda ko'p. Yigirmatasini qo'yin daftaramga yozib ham oldim. Lekin shu qiziq gaplardan bittasini shunaqa ta'rifladilarki, oqlovchi, qoralovchi so'zlarni shunaqa ko'p aytdilarki, hammasini yozib olay desam, daftarimda joy yetmay qoldi.

Bir qarasangiz, maqtanchoq emish, bir qarasangiz, juda-juda sipo, kamtar emish, bir kun tengqurlari bilan kurashga tushsa, ertasiga dadasi bilan birga borib ashula aytarmish. Shunaqangi bir so'zli ekanki, aytgan so'zidan hech qaytmasmish. Lekin o'ziyam g'oyat ko'rkan, g'oyat go'zal bir yigitcha bo'lib yetishayotgan emish. Ehtimol shuning uchundir, bu yigitchanibir yo'la beshta qiz sevib qolgan emish. Bittasi «Men uni beshinchi sinfdaligimda tanlaganman, qaysi qiz unga sal yaqinlashsa, sochini bittalab yulib, boshiga o'rabit qo'yaman, taqir boshiga qatiq surtib, qizlar o'rtasida sharmanda qilaman», degan emish (qarang, qiz bola ham shunaqa gaplarni aytarkan-da); boshqa qiz «Dadam meni Yo'ldoshxonidan boshqasiga beraman desa, gapni ko'paytirib o'tirmayman, o'zimni daryoga tashlayman», degan emish. Uchinchi bir qiz esa hammasidan ham qiziqroq gapni aytibdi: «Biz kelajakda Yo'ldoshxon bilan turmush quramiz, turmush quramiz-u, darhol Toshkentga ko'chib ketamiz, ko'chib ketayotganda Yo'ldoshxon akamning bog'idan uch yuz tup anjir ko'chati ham olib ketib ko'paytirib, butun Toshkentga anjir sotamiz», degan gaplarni o'ylarmish-u lekin o'yaganlarini hech kimga sezdirmas emish. Tengqurlariga qaraganda xiyol novcharoq, tik qomatli, bug'doy rang yuzli, yuzi-ko'zları lovullab yonib turadi-gan Yo'ldoshxon esa bu gaplarga uncha parvo qilmas emish. O'zi xiylagina hazilkash emasmi, hazilnamo

qilib «men sochidan qatiq hidi kelib turadigan qishloq qizlarini emas, sochini kalta kestirgan, butun borlig‘idan atir-upa hidi ufurib turadigan shahar qizlariga uylanaman», deb xoxolab kularmish. Uning kulgisi shunday samimiy, shunday beg‘ubor va goho shunday qattiq ham bo‘larkanki, astoydil kulsa, daraxtlarga qo‘ngan qushlar gurullab uchib ketarmish.

II bob

Eski, shalog‘i chiqqan, nechanchi yilda dunyoga kelganligini ham bilib bo‘lmaydigan «Jiguli» rusumli ulovda ikki o‘smir shahardan qaytyapti. Mashinaning yukxonasi, orqa o‘rindig‘i bir litrlik, ikki litrlik shisha bankalarga limmo-lim to‘la, bankalar shaqir-shuqur qilib «ashula» aytib kelyapti. Ashulaga yukxonadagi oltita bo‘sh tog‘ora ham jo‘r bo‘lgandek, g‘alati-g‘alati ovozlar chiqarib boryapti.

«Jiguli» aftidan benzinni yaxshi bermayotganga o‘xshaydi, sakrab-sakrab kelyapti. Lekin bu sakrab kelayotgan «Jiguli»ning o‘ziga xos ajoyib fazilatlari bor. Masalan, orqa o‘rindiqqa uch kishi o‘rniga besh kishi o‘tirsa ham g‘ing demay tortaveradi, orqa g‘ildiragidagi ballonlari goh damsiz bo‘lib qolsa ham, motorida moyi tugab qolsa ham «tutun qaytarmay» yuraveradi. Eng muhimi bu emas, muhimi shuki, yo‘l harakati bosh-qaruvi noziri ola tayog‘ini qo‘liga olib orqasidan quvs ham, baribir etolmaydi. Bechora nozir tayoqchasini o‘qtalib «shoshmay tur, seni baribir qo‘lga tushiram», deb qolib ketaveradi.

Ana shu antiqa «Jiguli»da ikki kishi kelyapti. Ruldagisi hozirgina beshta qiz unga ishqiboz bo‘lib qolgan emish, deb ta’riflaganimiz shu yil bahorda yosh fermerlar ko‘rgazmasida ishtirok etib, «Eng yosh fermer» diplomini olgan Yo‘ldoshxon bo‘ladi. Uning

yonginasida esa fermaning hisobchisi, barcha ishlar bo'yicha ana shu Yo'ldoshxonning yordamchisi bo'lmish Zulxumor kelyapti. Ikkovlari ham o'z xayollari bilan band. Olti tog'orada bozorda anjir olib borishgan edi. Anjirlar ko'z yumib ochguncha pul bo'ldi. Zulxumor, ehtimol, shu pullarni hisoblab borayotgandir. Ehtimol, «anjirimizning shig'il pishgan hosilini endi boshqa bozorlarga chiqarsak bo'larmikin», deb o'ylab borayotgandir. Zulxumor, ehtimol, hammasi bo'lib besh qizu besh o'smirdan iborat fermadagi ishlarning ertangi rejasini tuzib borayotgandir. Xullas, bu qiz boshqalarga qaraganda fermaga qattiq berilgani uchun Yo'ldoshxon uni o'ziga o'rinnbosar qilib olgan. Ehtimol, qishloqdagi boshqa fermer yigitchalar unga ko'z olaytirmasin, yaqinrog'imda bo'lsin, deb shu xayolga borgandir. Keyin Zulxumorning to'lib-toshib borayotgan husni-jamoli vaqtı-vaqtı bilan bu yigitchanı o'ziga tortar, ba'zan mast ham qilib qo'yardi. Ehtimol, ana shu quvonchli daqiqalar hamisha menga nasib bo'lib tursin, deb bu qizni yoniga olgandir. Qizning to'lishib borayotgan husn-u latofati qishloqdagi o'zga yigitchalarning ham e'tiborini tortgan bo'lishi kerak. Ehtimol, Yo'ldoshxon, bu go'zal qiz men bilan birga, deb maqtanib yurish uchun ham unga katta-katta ishonch bildirayotgandir. Ehtimol, Zulxumor tumaniga mashhur bo'lgan qattiqqo'l prokurorning qizi, bir kunmas bir kun unga ishim ham tushib qolar, deb o'ylagandir. Xullas, bu o'smir yigitchaning ham, bu o'smir qizning ham o'ylaganlari ko'p. Nima bo'lganda ham ikkovlari hozir shahardan shirin-shirin xayollarga berilib qaytishyapti. Anjirlari yaxshigina pul bo'ldi, shuning gashtini surib kelishyapti.

Anjirlaridan bir qismini ko'tarasiga olgan notanish ayol yoqimtoygina, shirinso'zgina ekan. Gap orasida o'zga yurtdagi shaharda bir dona anjir bir qovun ba-

hosida pullanyapti, degan gapni aytib yubordi. Ataylab aytdimi, bilmasdan aytib yubordimi – bu yolg‘iz Allohnning o‘ziga ma’lum. Harqalay, shu gapni aytди u. Fermerning ham, tadbirkorning ham ko‘zi o‘tkir, qulog‘i ding bo‘ladi, burni ham yaxshi hid olishi kerak, deydilar. Yoqimtoygina ayol e’tiborsizzgina so‘zlayotganida Yo‘ldoshxonning qulog‘i ding edi.

– Opa, qaysi shaharda anjirning bahosi yuqori bo‘ladi? – deb so‘radi u.

– Aylanay, mening katta qizim o‘sha shaharda yashaydi. Mana shu anjirlaringizni shisha bankaga joylab, o‘sha yoqqa jo‘natib turaman. Esingizdam, aylanay, o‘tgan yili ham anjiringizdan oluvdim. Voy, biram shirin ekanki, biram nabiralarim mazza qilishdi-ki, hammasining tomog‘ida angina bor edi, anginasini ham anjirning shirasi tuzatib tashladi.

– Siz aytgan shahar uzoqmi?

– Uzoq ham gapmi, tupkaning tagida.

– Anjirni shisha bankada emas, qutilarga joylab sotsa ham yetadimi?

– Bunisini men bilmayman, lekin yetmasligini biladiganlardan so‘rang, aylanay... Anjiringizdan hali ko‘pmi?

– Bog‘imizdagи anjirlar shig‘il pishdi hozir.

– Qorasidan ham bormi?

– Bor, aylanay, opa, bor, nosqovoq nusxasidan ham, barmoq nusxasidan ham, hammasidan bor, hammasi shig‘il pishdi.

Gap tadbirkor-u fermerning ko‘zi o‘tkirligi, qu-log‘ining ding bo‘lishida ham emas, balki kosaning tagida nim kosasi borligini, eshitganini tezroq hazm qila olishida ham bo‘lsa kerak. Bir dona anjir bitta qovunga teng bahoda pullanadigan bo‘lsa, men o‘sha bozorni tezroq egallashim kerak, deya o‘ylay boshla-di Yo‘ldoshxon. Shoshayotganining sababidan yana

biri shuki, anjirzor bog‘ida yoshi saksonlarga borib qolgan, shu bog‘ning ham qorovuli, maslahatchisi, ham yosh yigitcha-yu qizlarning tarbiyachisidek bo‘lib ishlayotgan Qobil boboga tezroq ro‘para bo‘lishi kerak. Ko‘pincha boboning maslahati qo‘l keladi unga. Uning gapi bilan yutqazay-yutqazay deb turgan o‘yinni yutib olaveradi.

Kolxozlar zamonidan qolib ketgan katta hovuz bo‘yidagi, baland ko‘tarilgan loy supada, urinibgina qolgan to‘sak ustida yonboshlab, ho‘plab-ho‘plab ko‘k choy ichayotgan bobo shoshmasdan o‘rnidan turdi.

Yo‘ldoshxon bozorda eshitgan gapini shoshilib ayt-di, Zulkumor uncha-muncha qo‘srimcha ham qilib turdi. Hozir anjirzorda uch tonnadan ortiq yetilgan meva bor, ularni qadoqlab ham, bankaga solib ham bo‘lmaydi, ko‘tarasiga sotish kerak.

– Bolam, anjirni ko‘tarasiga sotaylik deb keldilar ingmi? – shoshmasdan so‘radi bobo.

– Boshqa ilojimiz yo‘q, bobojon.

– Hoy Zulkumor qizim, sen ko‘pincha dono maslahatlar berasan. Ayt-chi, anjirni ko‘tarasiga sotsanglar bo‘ladimi?

– Bobojon, mening fikrim shunday: qizlar ham kelsin, o‘g‘il bolalar ham kelsin, ovozga qo‘yaylik.

– Lekin baribir aqlisan-da, prokurorning qizi, beriroq kel, boshingni bir silab qo‘yay, – deb qizning boshidan silab qo‘ydi Qobil bobo. – Xudoga shukr, Yo‘ldoshxonga sendek aqli yordamchini ro‘para qilganiga shukr.

III bob

Fermer xo‘jaligi a’zolari bor-yo‘g‘i to‘rt qiz-u to‘rt yigitchadan iborat. Hammalari yaqindagina kolle-jining a’lochi o‘quvchilari edi. Bir-biriga gap bermay, bir-birini turtib-surtib yurgan, yerga ursang, osmonga

sakraydigan, sho'x-shaddod bolalar-u ozoda kiyinish uchun bir-biridan o'taman, deb yurgan qizlar edi. Qarang, bugun viloyatdagi eng yosh fermer – Yo'ldoshxon fermerning a'zolari bo'lib qolishdi-ya! Zudlik bilan hammalari yig'ilishdi. Ishga desang, sustroq kelis-hardi-yu majlisiga desang, mana shunaqangi yugurib kelishardi. Yo'ldoshxon ularga so'z berib o'tirmadi. So'z bersang, sinf majlisiga aylantirib yuborishadi. Voy, bu gapga chechan qizlar, har biri anjirzorni men yaratdim, deb ko'kragiga urib gapiradigan yigitchalar!

– Anjirning pishgan qismini qo'shni yurtga sotmo-qchiman, – deb gap boshladi Yo'ldoshxon. – Mening o'rningga Zulkumor rahbar bo'lib qoladi, kim uning gapini qaytarsa, ishdan haydayman. Tong paytida ham-mang chelagingni ko'tarib kelaverasan, hasharchilarni ham aytinlar. Chelagiga ming so'mdan beraman.

Hayitvoy degan bolaning kallasi kattaroq, jussasi ham yirik bo'lgani sababli tengqurlari uni Hayit polvon deb chaqirishadi. Polvon o'rnidan turib:

- Bir o'zing ketyapsanmi? – deb so'radi.
- Bir o'zim ketyapman, – degan javob qaytdi.
- Meni ham olib ketasan, umrimda chet elga bor-maganman.
- O'tir, bundan keyin gapirmoqchi bo'lsang, qo'l ko'tarib gapir.
- Xo'p, mana qo'limni ko'tardim. Zulkumorni o'rningga qoldirmoqchimisan?
- Albatta, u hamma ishlar bo'yicha mening o'rinnbosarim.
- Zulkumorni o'rningga qo'yma, o'g'il bolalardan tayinla. Zulkumor pulning ko'pini qizlarga beradi, halol emas, qizlarga qosh qalamga, atir-upaga, lab-iga surtadigan bo'yoqlarga, deb biz qiyinchilik bilan topayotgan pulning yarmini beryapti. Mehnatni biz qilaylik-da, huzurini qizlar ko'rsinmi?

Yo'ldoshxonning qovog'i uyildi, achchiqroq bir gap aytgisi keldi-yu, lekin yuziga negadir tabassum yugurdi:

– Hayitvoy, sen ham labingga bo'yoq surtmoqchimisan?

– Men bo'ladigan gapni aytayapman.

– Ayt, sen ham yuzingga upa surtmoqchimisan?

Bunaqa yig'ilishlar anjirzorda tez-tez bo'lib turadi. Fikrlarning bo'linishi, bir-birlarini tasdiqlamaslik ham yuz beradi. Yo'ldoshxon aslida qo'shni yurtga borish masalasini o'rtaga qo'ymasam ham bo'ladi, deb o'ylayapti. Zulkumor, garchi Yo'ldoshxonning yonini olayotgan bo'lsa ham, mayli, chet el savdosini yo'lga qo'yaylik, deb aytayotgan bo'lsa ham, aslida Yo'ldoshxonning o'sha yurtga borishini chin dildan qutlayotgani yo'q. Qiziq, Zulkumorning nazdida Yo'ldoshxon sodda, go'l, hamma uni aldab qo'yayotgandek tuyulaveradi. Shuning uchun Yo'ldoshxonning har bir harakatiga fikr aytadi, mendan nari ketmaysan, bemaslahat ish qilmaysan, degan bir holatda bo'laveradi. Nima ekan bu, yaxshi ko'rishmi, ehtiyot qilishmi yoki ishonmaslikmi? To'planganlar ham g'alati-g'alati fikrni boshlariдан o'tkazishyapti. Hayit polvon nima desak ekan, deb o'zi tanlab kelgan, o'ziga sherik qilib olgan qora qosh Rohila degan qizning ko'zini poylayapti. Shaddod qiz Farida qiziqchi latifachi Akrom bilan fermaga bir kunda kelishgan, ehtimol, g'alati-g'alati maslahatlar qilib olishgandir. Ehtimol, hal qiluvchi gapni Farida, sen aytasan, deb qizni ishontirib qo'ygandir. Bu ikkovlari ham ovoz berishdan oldin bir narsalarni maslahat qilib olishyapti. Chala shoir Safar O'tan o'zi bilan birga kelgan Umida ismli qizning qo'lini ushlab-ushlab qo'yyapti. Ehtimol, qo'llarini ushslash bilan ham allaqanday maslahatlar qilishayotgandir. Garchi o'zi oq-sariqdan kelgan bo'lsa-da, negadir ismi Qorabar-

ot bo'lib qolgan yigitcha ham o'zi bilan bamaslahat kelgan Saddinisodan ko'zini uzmay o'tiribdi. Qiziq bo'yapti, demak, bu qizchalar, bu yigitchalar bu yerga kelishdan oldin ham, ota-onalaridan ruxsat olishdan oldin ham g'alati-g'alati maslahatlar qilib olishganga o'xshaydi.

– Bo'ldi, endi ovozga qo'yaman, – dedi qat'iy qilib Yo'ldoshxon. – Kimda-kim qo'shni yurtga meva soitishimizga rozi bo'lsa, qo'lini ko'tarsin, kimda-kim qarshi bo'lsa, yo'q, boshqalarga sotamiz, ular endi yaxshigina pul beramiz, deb va'da qilyapti, desa o'sha o'rtog'imdan voz kechaman.

Xayriyat, qo'shni yurtga hech kim qarshilik ko'rsatmadi. Endigi gap uzoq mamlakatlarga, uzoq shaharlarga qatnaydigan «Dalnaboy» deb nom olgan ulkan mashinani boshqaradigan Avazbek amakida.

Avazbek amaki Mirzo Bobur Xumoyun o'g'lini qancha yaxshi ko'rghan bo'lsa, yakka-yu yolg'iz, suyukli o'g'li bo'lmish Yo'ldoshxonni ham ana shunchalik yaxshi ko'radi. Avazxon amaki Yo'ldoshxon dan oldin yana ikki o'g'il ko'rghan. Ikkovi ham olamdan o'tgan. Endi bu o'g'liga qattiq bog'lanib qolgan. Nima desa, yo'q demaydi. Qiziq tabiatি bor bu amakining. Ilgari xo'jalikda ishlab yurganida benzin tashiydigan mashina minardi. Odamlar uni «Benzavoz amaki» deyishardi, keyinchalik yonidagi bo'sh o'rinda kampirlarni ko'p olib yurgani uchun «Kampiravoz amaki» deydigan bo'lishdi. Hozir esa uzoqqa qatnagani uchun «Dalnaboy amaki» deyishadi.

Yo'ldoshxon dadasining oldiga tortinibroq keldi. Xayriyat, dadasi boshqaradigan «bahaybat alka» mashinasi shundoqqina ko'cha eshiklari oldida turgan ekan. Dadasi katta ayvonning ho'narisida sigirga g'art-g'urt qilib poya qirqyapti. Qiziq-a, bu odam chap qo'li bilan poyani bosib, o'ng qo'li bilan g'artillatib kesaveradi.

Ikki kishi qiladigan ishni bir o'zi uddalayveradi, usta bo'lib ketgan-da.

Yo'ldoshxon dadasingning qalbini yumshatish yo'llarini ko'p marta sinovdan o'tkazgan. Shoshilib kelib Avazbek amakining qo'lidan ishini oldi, «yo'q, demang, sizdan o'rganganman, sizchalik kesa olaman» deb, bir nafasda poyani bir o'zi kesib tashladi. Kesyapti, dadasining yuziga tez-tez qarab olyapti. Nihoyat:

– Dadajon, sizga bir maslahat bilan keldim, – deb yotig'i bilan gap boshladi u. Otasidan biron narsa undiradigan bo'lsa, ana shunday mayin, yumshoq, yolvorish ohangida so'zlardi.

- Aytaver gapingni, – dedi Avazbek amaki.
- Dadajon, sal nariroqqa boraylik.
- Shu yerda aytavermaysanmi?
- Ayajonim hozircha eshitmay tursa bo'lardi.
- Vahimali gapmi?

Og'ilxonaga kirib, mayda qirqilgan poyalardan si-girning oxuriga bosishdi. Nariroqda ikki buqa ham xo'mrayib, pishqirib turgandi. Ularning oxuriga ham to'ldirib xashak bosdilar. Avazbek amaki bu yil, xudo xohlasa, katta qizini uzatmoqchi, kuyovbola armiya xizmatida, qaytishi bilan to'y bo'ladi. Buqalar to'yga atalib boqilyapti.

– Dadajon, qo'shni yurtda bir shahar bor ekan, – deb gap boshladi o'g'il. Keyin o'sha shaharning nomini aytди.

– Eshitganman, hatto borganman ham. Kolxozning qovun-tarvuzini o'sha shaharga sotardik. Shahar emas, cho'l-u biyobon o'rtasidagi otashxona desak ham bo'ladi. Yozning issig'ida oftobda tuxum pishadi.

- Borganman, deng? – xavfsirabroq so'radi o'g'il.
- Dadang bormagan yurt qoptimi, dunyoda ellik graduslik issiq mamlakatlar bo'ladi, ellik graduslik sovuq o'lkalar bo'ladi.

Yo'ldoshxon o'ylanib qoldi. Ancha uzoq o'ylandi.

– Dada, o'sha shahar taxminan necha kilometr ke-ladi?.. Meni kechiring, anjirni o'sha yurtga olib borib sotmoqchimiz... Sizning mashinangizda olib boramiz!

– Esing joyidami? Hosiling yetilgan bo'lsa, o'g'lim, shahardagi eski mijozlarning shirkatiga sot.

– O'tgan yili ular bizni boplagan, pulini haligacha ololganim yo'q. Dadajon, men ham sizga o'xshab bir so'zliman, qaysarman, gapimdan qaytmayman. Mayli, o'sha yurt issiq bo'lsa, o'sha yerda yonib, kuyib ketay.

Yo'ldoshxon dadasini quchoqlab yerdan dast ko'tardi-da, gir-gir aylantira boshladi. Uning dadasini bu tarzda gapga ko'ndirishga urinishi birinchi bor emasdi, ehtimol oxirgisi ham emasdir, aylantiraverdi-aylanti-raverdi.

– Qo'yib yubor! – dedi otasi.

– Qo'yib yubormayman!

Yo'q, otaning boshi aylandi. Kuchga to'lib borayot-gan o'g'li hali-beri qo'yib yubormaydiganga o'xshaydi.

– Bo'pti, sen aytgandek bo'lsin, – entikib dedi otasi, – lekin bilib qo'y, narxni ikki baravar to'laysan.

IV bob

Katta, ulkan mashina devdek o'kirib boryapti. Uning ruliga goh ota o'tiradi, goh o'g'il. O'g'ilning qo'lida mashina haydashga huquqiy hujjat yo'q. Lekin ko'pincha otasining yonida o'tirib, mana shunday haydab ketaveradi. Rulga o'tirganiga ham uch-to'rt yil bo'lib qoldi, dastlab o'tirgan kuni tormozga oyog'i yetmagan edi. Qarang, ulg'ayib, boshqarishni asta-sekin o'rganib, dadasidan qolishmaydigan bo'lib qolibdi-ya! Buning ustiga ko'zi dadasinikiga qaraganda o'tkirroq emasmi, ho' naridagi do'ppidek keladigan chuqurchani ham hisobga olib, mashinani silliq boshqarib boryapti. Ota Alloh unga ana shunday aqli, tadbirkor o'g'ilni ber-

ganidan mammun, shukrona aytib boryapti. O'g'lining goh tushida, goh o'ngida Xo'jayi Xizr boboni ko'rganligiga oid oilasida, qishloqda gap ko'paygan. Yo'ldoshxonning tili uch yoshigacha «chiqmagan». Uch yoshida tush ko'rib, tushida Xo'jayi Xizr boboni ko'rgan ekan. Xizr boba oltin barkashda limmo-lim anjir keltirib:

– Anjir degin... Anjir degin... Anjir degin, – deganida Yo'ldoshxon to'satdan «anjir, anjir, anjir», deb gapirib yuborgan ekan. Shu yo'sin tili ham chiqib qolgan ekan. O'n uch yoshga yetganida Xo'jayi Xizr boba bir qo'ltilq anjir ko'chati keltirib:

– Buni ekkin... Buni ekkin... Buni ekkin, – deb aytibdi. O'shanda bahor pallasi ekan. Yo'ldoshxon ota-sini qistab, dalada ozgina yerlari borakan, o'sha yerga ko'chat ektirgan ekan. Yo'ldoshxon yoshi ulg'aygan sari kampir buvisining, onajonisining aytishicha, ketma-ket: ham o'ngida, ham tushida ko'chat keltirgan Xo'jayi Xizr boboni ko'ravergan ekan. Avazxon amaki o'g'lining bu gapiga ishonib, ketma-ket ko'chat keltirib, bog'ni kengaytiravergan ekan. Yo'ldoshxonning ham tushida, ham o'ngida Xo'jayi Xizr boboni ko'rdim deyishi qishloqda har xil gaplarning ko'payib ketishiga sabab bo'lgan ekan. Bir xil odamlar «o'g'lingiz ruhiy kasalga chalingan, uni tezroq do'xtirga ko'rsating», deb talab ham qilishgan ekan. Boshqa odamlar bo'lsa, «shu yerlarda, ehtimol, yuz yilmi, ikki yuz yilmi oldin anjir yetish-tirgan katta bog'bon yashab o'tgan bo'lsa kerak. O'sha bog'bonning ruhi Yo'ldoshxonning ko'ziga qayta-qayta ko'rinyotgan bo'lsa kerak, mayli, o'g'lingizning gapiga kirib, anjirzorni kengaytiravering. Xudo xohlassa, bu anjirzorda g'alati-g'alati mo'jizalar yuz berishi mumkin», degan gaplarni ham aytishgan ekan.

Anjirzor kengaydi, rivojlandi, lekin so'nggi kunlarda Yo'ldoshxonning bir o'zi eplay olmay qoldi. Bog' xarob

bo'lishi mumkin edi, shunda Yo'ldoshxonning tushiga yana Xizr bobo kirib:

– Yordamga o'rtoqlaring kelsin. Pok bo'lsin... Halol bo'lsin... Mehnatkash bo'lsin... Rahmdil bo'lsin, – degan gaplarni ham aytgan emish. Shundan keyin Yo'ldoshxon kollejni bitirayotgan o'rtoqlaridan sakkiztasini tanlab-tanlab olgan, lekin ish boshlashdan oldin g'alati bir shartnoma ham tuzishgan ekan, shartnomaning asl nusxasi anjirzorga ham qorovul, ham agronom, ham maslahatchi, ham oshpaz bo'lib kelgan muallim boboning qo'lida saqlanlar ekan.

Ana shu voqealarni xayolidan o'tkazib, rulni tekis boshqarib borayotgan Avazbek amaki o'g'lining yelkasidan silab, zavqi oshib, quvonib:

– Yo'ldosh, ke endi sen ham biroz haydагin, bu sahroda nozir degani yo'q-ku, bemalol haydayverasan, – deb boshqaruв rulini o'g'liga berdi.

Ulkan mashina xuddi suvda ketayotgan kemadek yana yo'lga tushdi. Ikkovlari ham charchab qolmaslik, uyqu tortib ketmasligi uchun yana suhbatlasha boshladilar.

– Obbo, o'g'lim-ey, nimalarni o'ylab ketyapsan? – so'raydi ota.

– Dada, bu yilgi hosilim yaxshi bo'lsa, Zulkumor uni yaxshigina pullab bersa, bilasiz-ku, u yaxshi narxga sotishni biladi, xullas, pulim ko'paysa, o'rik, anjir quritadigan kichkina zavod olmoqchiman. Lekin ikki dunyoda ham eski hamkorlarning sexiga o'xshaganini olmayman. Xudo xohlasa, bolgarlarnikidan olaman.

– O'g'lim, zavodga meva yetkazib bera olasanmi?

– Yetkazaman, o'rtoqlarim bilan qayta-qayta maslahat qilyapmiz. Xo'janazar amakingning yerini sotib olamiz. Amaki yerga qaramaydi, Mirzacho'lga borib qovunchilik qilyapti. Dadajon, men mana shunaqa xayol surishlarni yaxshi ko'raman. Mana, hozir poyonsiz

dashtda ketib boryapmiz. Yerlari biram tekis, tuprog'i ham yaxshiga o'xshaydi. Agar shu yurtning kattalari ruxsat berganda, mana shu keng maydonlarda ham poyonsiz anjirzorlar yaratgan bo'lardik.

– E, o'g'lim, xayol surganing yaxshi, lekin bu atrofda bir tomchi ham suv yo'q-ku.

– Kavlasa suv, albatta, chiqadi.

– Qishi ham qattiq bo'ladi bu joylarda.

– E, dadajon, anjirning ustini bahorgacha bemalol o'rab qo'ygan bo'lardim.

– Lekin, bolam, bu joylardan yer olish uchun kamida bir amaldorning qiziga uylangan bo'lishing kerak.

– Dadajon, agar yer beraman desa, mayli, amaldorning ham qiziga uylanardim.

Dam oladilar, yana yo'nga tushadilar, yana suhbatga beriladilar. Onda-sonda pastak-pastak qurilgan molxonalarini, omonatgina tiklangan ovullarni ko'radilar. Kengliklardan o'tayotganlarida yana va yana kayfiyatları ko'tarilgandek bo'ladi. Yo'l harakatini boshqarayotgan yigitlarning, benzin quyib berayotgan xushmuomala ayollarning, beshbarmoq sotib o'tirgan go'zal-go'zal qizlarning iliq muomalalari ko'tarinki kayfiyatlariga yana shuncha ko'tarinkilik baxsh eta-yotgandek bo'ladi.

Avazbek amaki to'satdan ashula boshlab yubordi. «Na bo'ldi sanga, yorim, manga muncha jafo qilding», deya poyonsiz kengliklarni quvnoq ovoziga to'ldirib yuborgandek bo'ldi. Davomini sen ayt deb, o'y surib borayotgan o'g'lining tizzasiga bir urib ham qo'ydi. Ha, ilgari, bir necha yillar oldin ota-bola ikkovlari birgalashib to'ylarda ashula aytardilar. Ovozlari zo'r edi, jo'r edi. Lekin Yo'ldoshxon odamlarning pul qistirganini yomon ko'raman, xo'rligim keladi, deb ashulachi dadasining yoniga qo'shilmay qo'ydi. Shunday bo'lsa ham, mana, hozir dadasiga qo'shilib gurillagan ovoz bilan ashula ayta boshladi.

Kengliklarni ashula aytib bosib o'tdilar. Pavlodar degan go'zalgina shaharni chetlab o'tdilar.

Tez, tez, tez boryaptilar.

Anjir ezilib qoladi, deb qo'rqib boryaptilar.

Tabiatdan qiziqchilikka moyil bo'lgan, ko'pincha o'g'li bilan ham hazil-mutoyiba so'zлarni aytib yuraveradigan Avazbek amaki o'g'lini zeriktirib qo'ymaslik uchun bo'lsa kerak, qiziqroq bir gap aytgisi kelib:

– O'g'lim, rostdan ham shu yurtning amaldori senga qizini berishga rozi bo'lsa, uylanarmidung? – deb so'radi.

– Dada, rost gapni aytaymi? – uyqusи qochib shoshilib so'radi Yo'doshxon. – Jon-jon deb uylanardim.

– Bechora onang Zulkumorni kelin qilaman, deb yuribdi. Qishlog'imizda, butun vodiyda ham Zulkumordek go'zal qiz yo'q-ku. Unga nima deb muomala qilasizlar?

– Dadajon, men qo'shxotinli prokurorning qizini olmoqchimasman.

– Nega unday deysan, u qizni kelin qilaman deganlar qishloqda to'lib yotibdi-ku.

– Dadajon, Zulkumor yaxshi, juda-juda yaxshi, lekin u tergovchi, har narsalarni so'rayveradi, har narsaga meni tergov qilaveradi.

– Demak, o'g'lim, qiz seni yaxshi ko'rib qopti, yaxshi ko'rganlar, odatda, bir-birini tergashni yaxshi ko'radi.

V bob

Bu shaharda bozorlar ko'p ekan. Markaziy bozorni surishtirdilar. Topish qiyin bo'lmadi. Bu yerda yaxshi odamlar ham ko'p ekan. O'rischalab bo'lsa ham tus-huntirib turdilar. Bozorning to'rt tomonida bir-biridan baland, bahaybat darvozalar bo'lib, shulardan biri oldida to'xtab, ichkariga kirishga ruxsat oldilar.

Bozorqo'm tatar ekan, ham tatarcha, ham o'rischa gapirar ekan. Uch tilni qo'shib gapirsa, bemalol tus-hunsa bo'larkan. Eng muhimi, Avazbek amaki bilan ham, Yo'doshxon bilan ham xuddi eski qadrdonlardek quchoqlashib ko'rishdi. Xush ko'rdik, xush ko'rdik, qardoshlar, qardoshlar, degan so'zlarni tinmay aytib ham turdi. Yukni qayerga tushirishni o'zlarining hal qilinglar, deb butun bozorni ixtiyorlariga bergan bo'ldi. O'ho', bozor behad katta ekan, butun bir qishloqcha keladi-ya. Yo'q narsaning o'zi yo'q, qovunlar deysizmi, tarvuzlar deysizmi, tim ostidagi olma-yu uzumlarni aytmaysizmi! Lekin anjir ko'rinxmayapti. «Xudo xohlasa, boshqa anjir yo'q bo'lsa, bizning anjir yaxshi pul bo'ladim», degan gap o'tdi ota-bolaning ko'nglidan.

Ikki joyga olti qutidan tushirdilar.

Tosh-tarozi oldilar.

Oldilariga oppoq fartuklar tutdilar.

Yuzlariga fotiha tortdilar:

– Allohu akbar...

– Allohu akbar.

Savdo boshlandi... Qiziq, ho' narida qovun-tarvuzlar yaxshigina sotilyapti, ho' berida uzum-u olmaning xaridorlari ko'p, lekin, mana, bir soat bo'lib qoldiki, biron kishi anjir so'rab kelmadidi. Kun peshinga yaqinlab qoldi, bor-yo'g'i ikki quti anjirni arang pulladilar. Yana bu anjirdan besh yuz qutisi turibdi-ya! E, Allah, o'zing savdoga rivoj ber. Allah iltijolarini eshitmayot-ganga o'xshaydi, hamon savdoda rivoj yo'q. Ota-bola bir-birlariga qarab-qarab olishadi. Oxiri Yo'doshxonning sabri chidamadi.

– Dada, ruxsat bersangiz, – deya murojaat qildi u, – boshqa bozorlarni ham borib ko'rsam. Ehtimol, bu bozor anjir sotishga moslashmagandir. Bilasiz-ku, Oloy bozorida anjirni xaridorlar uncha suymasdi, Chorsuda esa talashib olishardi. Bu yer ham shunaqa bo'lsa kerak. Yo'q, dadajon, xaridor axtarishim kerak.

Yo'ldoshxon fartukni yechib, dadasi ruxsat bermasa ham shahardagi boshqa bozorlarga jo'nadi. Darvoza yoniga shundoqqina trolleybus kelib to'xtarkan. Chiqib o'tirdi. Odam kam. Ikki-uch ayol o'zlarining tilida nimalar to'g'risidadir qattiq-qattiq gaplashib borishyapti. Yo'ldoshxonning xayolini trolleybus ichiga osilgan kattagina surat o'ziga tortdi. Ko'zi qisiqroq, yuzi sergo'shtroq, rangi sariqqa moyil yigitcha xuddi Yo'ldoshxonga tikilib turgandek. Lekin juda mag'rur boqyapti. Surat ostiga katta-katta harflar bilan «Ushbu vagonni yosh tadbirkor Beksulton Nurlan o'g'li hadya qilgan, mакtab o'quvchilaridan haq olinmaydi», deb yozib qo'yishibdi. Yozuvning o'rischasini o'qidi. Demak, yaxshi tushundi. Mehribon dadasi beshinchi sinfdaligida shahardagi o'rischa maktabga qatnatib o'qitgan edi. O'qidi, o'qigan sari yuragi hapriqib ketgandek, vujudini havasmi, rashkmi kuydirgandek bo'laverdi. Keyin to'satdan ko'z o'ngi charaqlab ketdi. Nazarida, vagon derazasidan tilla barkash ko'targan Xizr bobo kirib kelayotgandek bo'ldi. «O'sha tadbirkor bola bilan tanishaman, hoziroq tanishaman», degan so'zlar fikrida aylana boshladи. Trolleybus haydovchi amakining oldiga qanday yetib borganini sezmay ham qoldi. Suratdagи yigitchani so'radi, o'rischa so'zni buzib-buzib so'zladi. Trolleybus haydovchi amaki orqasiga o'girilib:

- O'zbekmisan? – deb so'radi.
- Ha, o'zbekman, – shoshilib dedi Yo'ldoshxon.
- Uzum olib keldingmi?
- Yo'q.
- Qovunmi?
- Yo'q.
- Nima olib kelding bo'lmasa?
- Anjir olib kelganmiz.
- Anjiringga men tushunmayman. Qovun-tarvuz olib kelavermabsan-da. Yo bojaxonadagilar o'tkazish-mayaptimi? O'tkazishmasa, trolleybus haydaydigan

Mahanbek amakimga aytib beraman, demabsan-da. Tush endi, ana bozor. Ana temir-tersak do'koni. Ana sen so'rigan yigitcha. Maqtab gapirgin uni. Maqtagan-ni yaxshi ko'radi. Aslida maqtovni kim yoqtirmaydi, deysan, bolam.

Bozor kattagina ekan. Avval bu yerda anjir sotiladimi-yo'qmi, shuni bilib olay deb o'ylagan Yo'ldoshxon shuncha aylansa ham anjir sotilayotganini ko'rmadi. Oq tunukadan pastakkina qilib yasalgan peshtoqiga «Yosh tadbirkor Beksltton Nurlan o'g'li» degan yozuv bitilgan xonaga kirdi. Bunaqa paytda Yo'ldoshxonda ta'riflarga sig'maydigan dadillik, shijoat paydo bo'lardi. Hozir ham xuddi shunday bo'ldi. Xonaga dadil kirib:

- Men yosh tadbirkor Bekslttonni ko'rgani keldim,
- dedi.

Hali trolleybusda ko'rgan yigitcha xiylagina durkun, novcha ham ekan, kulimsirab sekin o'rnidan turdi:

- Beksltton men bo'laman, qayerdan kelding?
- O'zbekistondan.
- Toshkentdanmi?
- Yo'q, Farg'onadan.
- Ataylab meni ko'rgani keldingmi?
- Ham ko'rgani, ham maslahatingni olgani keldim.
- Qani gapir-chi. O'rischani buzib gapirkansan.

O'zbekcha gapiraver.

- O'zbekchani bilasanmi?
- Mening oltinchi buvim o'zbek bo'lgan. Oltinchi bobom o'zbek qizini tuyaga mindirib obqochib kelgan.
- Demak, bobong qiz o'g'risi bo'lgan ekan-da?
- Yo'q, yo'q, unday deb o'ylama, kelishuv shunaqa bo'lgan. Sen go'zal-go'zal kiyimlaringni kiyib, yasan-tusanni joyiga qo'yib, yuzingga atir-upalardan surib, bog' tomonda poylab turasan, men bog'ni aylanib o'tib, seni tuyamga mindirib olib qochaman, deb kelishishgan ekan.

Shu gaplarni aytib bo'lgach, garchi kuladigan o'rni bo'lmasa ham Beksulton shunday qattiq kuldiki, uyning tunuka devorlari zirqirab ketgandek bo'ldi. Qattiq kulishda Farg'onada Yo'doshxoniga teng keladigan o'smir yo'q edi. Astoydil, berilib kulta, anjirzoridagi barcha qushlar gurillab uchib ketardi. Hatto Siroj amaki degan bir odam «Seni bog'imga qorovul qilib olay, uzumlarimni qora zag'chalar yeb ketyapti. Sen kuniga ikki marta kulib bersang bo'ldi, shunda zag'cha zoti yo'q bo'lib ketadi», degan gapni ham aytgan ekan.

Ikki o'smir bir-birlariga qarab kulishdi. Qattiq-qat-tiq kulishib olishdi.

– Haligi gapimga ishonmadingmi? – deb so'radi Beksulton kulgisini bosib.

– Yo'q, ishonmayman. O'zbek qizlari o'zlarini o'g'ir-latgani qo'yishmaydi.

– E o'rtoq, bu gapning tarixi juda uzoq, yana kelsang, aytib beraman.

– Hozir aytaqol, yo'q demagin.

– Chiroli qilib aytolmayman-da. Yaxshisi, onam aytsha bo'lardi. Onam bu rivoyatni juda chiroli qilib aytadi. Shunday chiroli qilib aytadiki, tinglasang yig'lavoray-yig'lavoray deysan. Bechora o'sha oltin-chi buvimga qiyin bo'lgan ekan. Menga qara, oting Yo'doshmidi, sen ham menga o'xshab qattiq kular-kansan. Yuragida g'ubori yo'qlar mana shunaqa qattiq kulishadi. Bilasanmi, sen bilan mening kulgimni nima deb atashadi? Arslon kulgisi deb atashadi. Ikkovimiz ham arslondek kularkanmiz. Mana, to'yib-to'yib kulishdik. Endi yaqinroq tanishsak ham bo'lar. Mening otim Beksulton. Beklar avlodidan bo'lamon. Demak, sening oting Yo'doshxon, xonlar avlodidan ekansan. Bilib qo'y, mening ham Yo'dosh degan bir ukam bor, Moskvada o'qiyapti, lekin u yaxshi kulolmaydi, qornini

silkitadi, xolos. Senga qoyil qoldim, yaxshi kularksan. Necha yoshdasan?

- O'n to'qqizdaman, – dedi Yo'ldoshxon.
- Qiziq, men ham o'n to'qqiz yoshdaman. Men o'n yettinchi avgust kuni tug'ilganman, sen-chi?
- Aytsam, ishonmaysan.
- Aytaver, arslondek kulganlar hech qachon yolg'on gapirmaydi.

– Men ham o'n yettinchi avgust kuni tong paytida tug'ilganman.

– Tong paytida deyapsanmi, shu gapingni yana bir qaytar. Qara-ya, ikkovimiz tong paytida dunyoga kelgan ekanmiz. Hasan-Husan ekanmiz-u, men bu shaharga, sen Farg'onaga tushib qolgan ekansan-da. Tur o'rningdan, o'zbekchasiga bir achomlashib ko'ri-shaylik. Hasan-Husanlarning topishganini qara.

Ichkaridan yoqimtoygina kulimsirab bir qiz chiqdi. Kattakon mis laganda nonushta olib chiqdi. Laganni qo'ya turib, Yo'ldoshxonga iliq bir tabassum qildi. Tabassum emas edi bu, porlab turgan nur edi, charog'on quyoshning bir parchasi edi. Yo'ldoshxon yuragi tez urib ketganini his qildi. Lekin o'zini yo'qotmadni. Yana suhabatga berildilar. Yo'ldoshxon to'satdan boshlanib ketgan bu samimiyat Xizr boboni hozirgina ko'rganidan bo'lsa kerak, deb o'yładi. Dasturxon to'la taom edi. Yoshligida kolbasani, ayniqsa, uning ichidagi sarim-soq piyozning o'tkir hidini yaxshi ko'rardi, shoshilib to'g'ram-to'g'ram kolbasalarning goh unisidan, goh bu-nisidan yeya boshladi. Suhbatlari yana qizib boryapti. Beksulton eski-tuski temir-tersak ham yig'arkan. Tojikistondan, Turkmanistondan yashirinchcha yo'llar bilan keltirib berishar ekan.

– Qani ayt-chi, keltirgan anjiring taxminan necha tonna keladi? – to'satdan so'rab qoldi Beksulton.

– Uch tonna dedim-ku, – dedi Yo'ldoshxon.

– Hammasi o‘z bog‘ingdanmi?.. Bilib qo‘y, hozir shaharda pul yo‘q. Hamma nasiyachi bo‘lib ketgan. Lekin tadbirkor o‘rtoqlarim talaygina, hammasini pullab beraman, bilasan-ku, tadbirkorlar bekorga ishlamaydi, bekorga ishlasa ochidan o‘ladi. Sen mening xizmatim evaziga Farg‘onaning go‘zal bir qizining suratini, manzilini berib yuborasan. Hali aytdim-ku, oltinchi onamiz o‘zbek bo‘lgani uchun mening onam endi senga o‘zbek qizini olib beraman, mana bu qizimni ham o‘zbekka beraman, deb yuribdi. Bozorga o‘zbek kepti, desam, ataylab ko‘rib ketadi. Oysuluv, beri kel, Yo‘ldoshxon bilan tanishib ol, onamizning oldiga borib maqtanasan.

Oysuluv ichkaridan shoshilib chiqdi-yu Yo‘ldoshxonga shunday bir iboli nazar tashladiki, bu nigohda olov bormidi yo ilohiy bir to‘lqinmidi, Yo‘ldoshxonning yuragi gupillab urib ketgandek bo‘ldi. Ikkovlari bir-birlaridan nigohlarini uzolmay bir daqiqa tikilib qolishdi.

VI bob

Nurlanbeklar oilasida faqat oilaga tegishli bo‘lgan bir rivoyat bor ekan. Kim biladi bu haqiqatdir, kim biladi bu chindan ham rivoyatdir. Nima bo‘lganda ham avloddan-avlodga, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan chiroyli manzara ekan bu. Erta bahor pallasi ekan, ariqlar bo‘yida chuchmomalar endigina bo‘y cho‘zayotgan ekan. Qish g‘oyat cho‘zilib ketib, yurtda bir qahatchilik boshlanibdiki, ocharchilik bir avjiga chiqibdiki, yo‘g‘onlar cho‘zilib, oriqlar uzila boshlabdi. Hatto o‘lik ko‘mishga odam topilmay qolgan kunlar ham bo‘lganmish. Ana shunday g‘ussaga limmo-lim kunlardan birida bir boy tuyalarda bug‘doy keltirib, qishloqma-qishloq yurib sota boshlabdi. Puli bor puliga olibdi, puli yo‘q baholi qudrat bisotidan biror narsa olib chiqib bug‘doyaq almashtirib, oilasini ochlikdan

qutqaribdi. Shunda bir qiz otam olamdan o'tib ketgan, onam kasal, yotib qolgan to'rt ukam bor, hammamiz ochmiz, bisotimizda ikkita chinni kosamiz bor, shunga loyiq bug'doy bersangiz, deb yolvoribdi. Tuyakash rozi bo'libdi, chinnini olib, o'rniga bug'doy beribdi. Qomati atirgul novdasidek nozik bu qiz orqasiga qaytayotgan ekan, yengil shabada turib, go'zal yuzidagi harir ro'molini uchirib yuboribdi. Qizning tongda ochilgan guldek yuziga savdogarning ko'zi tushibdi. Ko'zi tushibdi-yu, e Alloh, bu jannat parisi-ku, degan gap ko'nglidan o'tibdi. Ko'nglidan o'tayotganida bu ilohiy so'zlar qalbini lovullatib yondiribdi, ishq otashi tushibdi qalbiga. Yurt kattasini chaqirib, onasi, qarindosh-urug'lari rozi bo'lsa, men bu hurliqoga uylanaman, oilasini, butun qishlog'ini ochlikdan qutqaraman, debdi. O'rtaga yaxshi odamlar tushibdi, sovchilar paydo bo'libdi, ikki tomonning ko'nglini bir-biriga yaqinlashtirguncha o'rtada ancha-muncha yaxshi gaplar ham bo'lib o'tibdi. Nihoyat, Alloh yo'l berib, ona rozi bo'libdi. Oilamizni, qishlog'imizni ochlikdan qutqarish uchun, mayli, men mingdan-ming roziman, debdi qiz.

Karnay-surnaylar chalinibdi, tantanali to'y bo'lib o'tibdi. Tandir-tandir nonlar yopilibdi, qozon-qozon palovlar damlanibdi, nihoyat, qizning uyi bilan, onaizori bilan, ukalari bilan xayrlashadigan payti ham kelibdi, uni e'zoz-u ehtirom bilan baland tuyadagi taxtiravonga o'tkazishibdi. «Qizim, – deya ko'z yoshi qilibdi onaizor, – til bilmaydigan, qaytib kelishing guman bo'lgan begona yurtlarga ketyapsan, borgan joyingda baxtli bo'lgin, umring zavol ko'rmasin, yaxshi o'g'il-qizlar ko'rgin. Lekin ona qizim, farzandlaringni katta qilayotganingda hech qachon alla aytmagin, hech qachon alla aytmagin, hech qachon alla aytmagin, deb takrorlabdi. Butun yurt xaloskor qizni yig'i-sig'i bilan qishloq chetigacha kuzatib boribdi.

Alqissa, qizning turmushi yaxshi kechibди, о‘г‘ил ко‘рибди, qizlar ko‘рибди. Lekin onaizorining iltijosi qulog‘ida ekan, hech qachon alla aytmabди. Bir kun qizidan ko‘рган nabirasini tizzasiga olib o‘tirib, o‘зи bilmagan holda alla aytib yuboribди:

– Alla, bolam, alla-yo, dilbarginam alla-yo, – deb kampir alla ohangiga moslab chayqalarmish. Alla avjiga chiqib borar, kampirning ko‘зидан duv-duv yosh to‘kilarmish. Ko‘з о‘ngidan tug‘ilib o‘sgan uyi, chop-qilashib katta bo‘lgan ukalari, yig‘lab-yig‘lab kuzatib qolgan onaizori, sochiga tasma taqqan dugonalari, mol boqqan dalalari, shovullab oqqan suvlar... Hamma-hammasi o‘taveribди, o‘taveribди, alla ohangida butun yurt uning ko‘з о‘ngida namoyon bo‘libди. Oxiri dod deb o‘rnidan turib ketibди. Erginasi chol bo‘lib qolgan ekan, ha, onasi, nima bo‘ldi, deb ko‘ngil so‘rabди. Kampir bo‘lgan voqeani aytibди: «Alla ohangida butun qarindoshlarimni, el, yurtimni ko‘rdim, ularni sog‘indim, juda-juda sog‘indim», deb yana yig‘labdi. Chol: «E onasi, shunday darding bor ekan, nega ellik yildan buyon bir og‘iz aytmading», deb o‘nta tuyaga bug‘doy yuklab, kampirni ona yurtiga jo‘natibди...

Hali rosmana tanishib ulgurmagan bu ikki o‘smir bir-birlariga yaqinlik tuyayotganini his qilishardi. Beksulton aytmoqchi bo‘lganim tushunarli bo‘lsin, deb goh o‘zbekcha, goh boshqa tilda so‘zlab boryapti. Gap orasida tadbirkor o‘rtoqlari ko‘pligini aytib, temir-tersak bilan shug‘ullanishda singlisi Oysuluv juda ko‘п yordam berayotganini ham aytdi. Goho:

*Temir-tersak ostida,
Tilla kumush bor ekan.
Temir tepib o‘tganlar,
Bir tiyinga zor ekan.*

deya she'rlar ham o'qidi. Shahardagi boshqa yana to'rt bozorni aylanishdi. Beksultonning o'rtoqlari ko'p ekan, o'shalar bilan anjir haqida savdolashgan ham bo'lishdi. Birdan Yo'doshxonning qalbini qo'rquv, shubha bosib kela boshladi. Bordi-yu mana bu yigitcha o'zini menga yaxshi ko'rsatib, bir-ikki bor yaxshiliklar qilib, ishon-chimni qozonib olgach, so'ng juda katta pulga tushirib ketsa-chi, chet elga borganlarning bir xillari tili shirin, tajribali tovlamachilarga uchrab, bor budidan ayrilib kelgan-ku. Ana shu vahima Yo'doshxonni bezovta qila boshladi. Dadamning oldiga tezroq boraylik, deb qistab turib oldi. Besh bozordan besh xaridor topdilar ham, ertaga tong paytida katta bozorga borib, har birimiz uch yuz kilodan anjir olamiz degan gaplarni aytishdi ham, Yo'doshxon uncha ishonmadi.

Avazbek amaki betoqat bo'lib o'tirgan ekan, o'g'lini ko'rishi bilan:

– Bormisan! – andak bo'lmasa baqirib yuborayozdi. – Men seni yana Farg'onaga ketib qoldingmi, deb o'ylabman.

Yo'doshxon otasining ko'nglini tinchitish uchun o'zidagi qo'rquv, vahimani arang bosib:

– Dadajon, ishlar zo'r, – dedi quvnoq bir ohangda, – mana bu yigit bilan o'rtoq bo'ldik, oti Beksulton ekan.

– O'g'lingiz yaxshi bola ekan, – deya tez-tez gapira boshladi Beksulton. – U bilan bir kunda tug'ilgan ekanmiz, Hasan-Husan ekanmiz. Menga o'xshab qattiq kularkan. Qattiq kulganlarni yaxshi ko'raman. Qattiq kulish bo'yicha rekord o'rnatganman. Sheryurak yigitlar sherdek qattiq kuladi, o'g'lingiz ham sherning o'zi.

Beksulton kuladigan gap aytmagan bo'lsa ham bor ovozda kula boshladi. Yo'doshxon qarab turarmidi, undan oshirib yuborgudek qilib kuldi.

Shu payt kutilmaganda quvonsa bo'ladigan yana bir hodisa yuz berdi. Avazbek amaki yo'lda bexavotir

bo'larman, deb o'ylab, yuk mashinasи ustiga «Vodiy mirishkorlaridan alangali salom» deb yozilgan katta bir alvonni osib qo'yanan ekan. Tajribali Avazbek amaki boshqa yurtlarga borganida ham ana shunday alvonlarni ko'p osar, foydasi ham tegib turardi. Bek-sultonning ko'zi to'satdan alvonga tushib qoldi.

– Iya, iya bu qanaqa yozuv? – shoshib so'radi. – Tag'in sizlar delegat bo'lib kelgan bo'lmaninglar.

– Biz delegat bo'lib kelganmiz, – o'rtog'idan ham tezroq ohangda dedi Yo'ldoshxon.

– Nega hali uchrashganimizdayoq aytmadining?

– Sen so'ramading, men aytmadim.

– Mening otam zavoddagi katta garajda direktor. U ham menga o'xshab kuladi, kulish bo'yicha mamlakat championi u. Qattiq kulgani uchun ham garajga direktor qilishgan. Onam bo'lsa ana shu temir zavodida kasaba uyushmasi raisi, beshta kasaba uyushmasi bor, beshtasiga boshliq, uni Gul'sun ona deb chaqirishadi. Esizgina, sizlar shaharga kirib kelayotgandayyoq bizga ma'lum qilishlarining kerak edi. Onam karnay-surnay tashkil qilardi.

Beksulton har qancha qistamasin, Yo'ldoshxon men otam bilan shu yerda qolaman, deb, ko'nmadni. Bek-sulton olov ekan, betoqat ekan. Hali moyi ham artilmagan yangi mashinasiga o'tirib, tezgina jo'nab ketdi. Ota-bola yolg'iz qolishdi. Ertalabdan buyon bor-yo'g'i o'n ikki quti anjir sotilibdi. Agar ana shunday sust-kashlikda sotilsa, yana ellik kun kerak bo'lar ekan. Ota-bola bir-birlariga qaray olmayapti, uh tortishadi. Ota anjir olgan ayolning gapiga nega ishonding, deb bir o'shqirmoqchi, o'g'il nega meni bu qaltis yo'ldan qaytarmadingiz, demoqchi.

Peshtaxtaning shundoqqina yonida Beksultonning mashinasи to'xtadi. Qattiq tormoz berganidan siltanib ham ketdi, ichidagilar birin-ketin tusha boshladilar.

– Otam Nurlan og‘a, onam Gulsun ona, singlim Oysuluv, – deb Beksulton ularni tanishtira boshladi.

Pahlavonlardek keng yelkali, jussador Nurlan og‘a mashinadan tushishi bilan ikki qo‘lini keng yozib keldi:

– Vodiydan kelgan mirishkorlarga alangali salom,
– deb Avazbekni quchoqlab ham oldi. Yo‘ldoshxonni ham quchoqlab o‘pgan bo‘ldi. – Obbo, mirishkor do‘s-tlar-ey, nega shaharga kirayotganda bizga qo‘ng‘iroq qilmadilaring, eski an’anamizga ko‘ra sizdek mirishkor bog‘bonlarni katta tantana bilan kutib olardik-ku!

Oysuluv negadir Yo‘ldoshxonga o‘g‘rincha qarash qilib oldi. Har gal qaraganda qizning nigohi Yo‘ldoshxonni erkalagandek bo‘lar, Yo‘ldoshxon yana bir qara-saydi, deb o‘zicha o‘ylab qo‘yardi.

VII bob

Beksulton behudaga maqtanmagan ekan. Otasi Nurlan og‘a shahardagi eng katta zavodga qarashli bir yuz ellikdan ortiq mashinalarni tuzatadigan kat-ta-kichik ustaxonalarning rahbari ekan. Onasi Gulson ona esa, uni profkom ona deb chaqirisharkan, mana shu atrofdagi zavodga qarashli beshta katta sexning kasaba uyushmasi raislariga rahbarlik qilar ekan. Qo‘l ostida ishlaydigan, mustaqil ish yuritadigan beshta «profkom»ning rahbari ekan. Ertasiga ertalab, yo‘q, ertalab desak, noto‘g‘ri aytgan bo‘lamiz, tong saharda moyi artilmagan mashinasida ota-bolani olib ketgani Beksulton bilan Oysuluv keldi. Aytishlaricha, zavod ishchilari bularni kutib olish uchun tuni bilan ux-lashmabdi, O‘zbekiston bilan do‘stona aloqalarimiz, samimiy bordi-keldilarimiz yana rivojlanadiganga o‘xshaydi, deb xursand bo‘lishibdi. O‘zlarining xonaki orkestrlari bor ekan. O‘sha guruhni zavod darvozasi

yoniga keltirib ham qo'yishibdi. Bu gaplarni hovliqib-hovliqib Beksulton gapirib berdi.

Nihoyat ular Beksultonning mashinasiga o'tirib, zavodning katta darvozasi tomon yo'l oldilar. Beksulton bekorga maqtamagan, Oysuluv bekorga akasining har bir so'zini tasdiqlab turmagan ekan. Zavod darvozasi ro'parasida paydo bo'lishlari bilan orkestr gumburlatib, yuraklarni zirqiratib yuboradigan bir kuyni boshlab yubordi. Yo'doshxon zavod darvozasi tepasidagi har bir harfi zarhal bilan bezalgan alvonni ham tezgina o'qidi: «Vodiydan kelgan qadrdon do'st, mirishkor bog'bonlarga alangali salom!» deb yozib qo'yishibdi.

Ichkariga qadam qo'yishlari bilan polvon Nurlan og'a bilan mehribon Gulsun ona atrofiga ancha-muncha yosh-yalanglarni, zavodning dongdor ishchilarini olib qutlashga shay bo'lib turishgan ekan, gurillatib qarsak chalib yuborishdi. Orkestr ham do'stlik kuyini yanada avjida chalgan bo'ldi. Hovlining o'zida (hovli ham juda katta ekan) tantanani boshlab yuborishdi. So'zga chiqqanlarni, to'lqinlanib tabrik aytayotganlar ni Beksulton tanishtirib turibdi. Bir mahal «So'z delegatsiya boshlig'i Avazbek Asilbekovga», deb e'lon qilib yuborishdi. Lekin Avazbek amaki bunaqangi tantanalarda kamroq ishtirok etganmi yoki tantanali so'zlarni bilmas ekanmi, oddiy qilib so'z boshladи.

– Mana, o'rtoqlar, sizlarga mo'l-ko'l anjir olib keldik. Farg'onada meva serob. Oyoq ostiga to'kilib, chirib yotganni yig'ib kelsak ham sizning shahringizni to'ydirsa bo'ladi, – shu so'zlarni aytishi bilan o'g'li adasining biqiniga turtib, sal tuzukroq so'z aytинг, deb shivirladi.

Avazbek amaki mushtiga yo'talib olib, yana gap boshladи:

– Mevalar bizda shunaqa serobki, qushlarning o'zi yeb ketayotganini biz shu yerga yetkazib kelsak, butun bir shaharning og'zi shirin bo'ladi.

Yo'ldoshxon hushyor yigit ekan, Allohga shukr, o'zini yo'qotmay otasining qo'lidan mikrofonni oldi-da, tutilib-tutilib so'zlay boshladi:

– Biz yosh fermerlar bilan aloqa bog'lash uchun vodiyning yosh fermerlaridan alangali salom olib keldik, – dedi, yana bir so'z aytmoqchi edi, qarsaklar yangrab ketdi, gapirolmay qoldi, nihoyat o'zini tutib olib davom yetdi. – Mana, men kecha Bekulton o'rtog'im orqali beshta yosh tadbirdor bilan tanishdim, ham-malarini vodiya yosh borishga taklif qilaman.

Tantanali yig'ilishdan so'ng oshxonada katta ziyofer ham bo'ldi. Mashinadagi anjir uch tonna, ehtimol undan ham ko'proq edi, anjirni zavodning beshta sexiga, beshta sex qoshida gurillab ishlayotgan oshxona-yu bufetlarga tarqatish haqida maslahat bo'lib o'tgan ekan. Chindan ham zavodda pul kam ekan. Barter qilamiz, degan so'zlarni aytishdi, ya'ni sizlarga kerak bo'lsa, tunuka, yo'g'on-ingichka quvurlar beraylik, deyishdi. Quvur degan so'zni eshitib, Avazbek amaki bilan Yo'ldoshxon sevinganlaridan o'rinalaridan turib ketishdi. Anjirlar osongina pullangani uchun emas, quvurlar olasizmi, degan so'zni eshitganlari uchun sevinib ketishdi. Chunki qishloqqa gaz tushirilayotgan, odamlar bir qulochini falon ming so'mdan olishayotgan edi...

Bu sevinch, bu quvonch, bu shodiyona holatlar kechgacha ularni tark yetmadi. Kechqurun Bekulton bilan Oysuluv mehmonlarni yap-yangi mashinaga o'tqazib, shahar aylantirishdi. Lekin Bekulton ham, Oysuluv ham o'taketgan darajada maqtanchoq ekan. Goh yetti qavatli uyning oldida to'xtab uyni maqtashadi, goh qaysidir daraxt oldida to'xtab, daraxtlarni maqtashadi.

Lekin Yo'ldoshxon ham bas keladiganlardan emas, vodiyning mevalarini shunday maqtadiki, bitta daraxt-

da yetti xil mevani yetishtiradigan bog'bonlar borligini aytib, ularni shunaqa ulug'ladiki, Beksulton ham, Oysuluv ham qani endi o'sha mevalardan bitta-bitta uzib yesak, degan gaplarni ham aytib yuborishdi.

Nihoyat, kech bo'ldi. Nurlan og'a xonadoniga tashrif buyurdilar. Uy ikki qavatli ekan. Birinchi qavatda haddan tashqari rayhon ko'chatlari ko'p, shisha bankalarda, yog'ochdan yasalgan qutichalarda gul ko'chatlari ham shunaqa ko'pki, shunday gurkirab o'syaptiki, xonani rayhon hidi qoplاب, havo faqatgina rayhon isidan iboratdek tuyuladi. Tepa qismini ham qo'yarda-qo'y may ko'rsatib chiqishdi, hay-hay, bu yerda esa rayhon oralatib anvoyi gullar ham o'stirishibdi. Yana qaytib pastga tushishdi. Gulsun ona yaxshigina dasturxon tuzabdi. Dunyoda yo'q mevalardan, qizil olmalar deysizmi, qaysidir vohadan keltirilgan shirin-shirin noklar deysizmi, chinnidek-chinnidek anorlar deysizmi, qarang, tovuqni butunligicha, qo'zichoqning nimtasini yer tandir qilib pishirishibdi.

O'tirishlari bilan Avazbek amaki fotiha o'qidi. Negadir gapni Nurlan og'a emas, Gulsun ona boshladи:

– Mehmonlar, endi yayrab o'tiringlar, Beksulton o'g'lim aytgandir, oilamizning hamma ham bilmaydigan, goho-goho ba'zi mehmonlarimizga aytadigan bir siri bor. Biz aslida o'zbek onadan tarqaganmiz. Oltinchi onamiz vodiydan kelgan. Kela turib tug'ilib o'sgan yurtimdan, unib-o'sgan uyimdan, mehribon onamdan esdalik bo'lsin deb rayhon ko'chati olib kelgan ekan. Rayhonni hidlasam, yurtimga borgandek bo'laman, degan bo'lsa kerak-da. Men o'sha avlodning yettinchi qizi bo'laman. An'anamizni davom ettirib, rayhonlarni paypaslab o'stiraman, rayhonli uyimga xush kelibsizlar.

Pahlavon Nurlan og'a qadahlarga qizil-sariq suvlardan to'ldirib-to'ldirib quya turib:

– Mehmon yo o‘zbekchami? – deb so‘radi. – «Prof-kom» ona, ko‘rib turibsizlar, miting qilishni yaxshi ko‘radi, qo‘yib bersak, tong otguncha ham gapiroveradi... – Qani ko‘tardik, to‘yib-to‘yib ichamiz bugun... Iya, mehmon o‘g‘lim, sen nega ichmading, ha, mayli, sen yuqoriga – o‘rtoqlaring oldiga chiqqaniningda icharsan.

Xuddi shu payt eshiklar katta ochilib, bir-birlari bilan suhbatlashib, qattiq-qattiq kulishib o‘smir qizlar, yigitchalar kirib kela boshladilar. Biri Beksloton bilan ko‘rishyapti, boshqasi onasiga qarashib turgan Oysuluvni o‘payotgandek bo‘lyapti. Qizlar tortinmas ekan, uchovi kelib Yo‘ldoshxonni ham o‘pib qo‘yishdi. Hatto bittasi yelkasini ohista silagandek bo‘ldi. Gurillab va qiyqirishib yuqoriga ko‘tarilishdi. Oysuluv ikkilanib turgan Yo‘ldoshxonni qo‘lidan tortdi: «o‘rtoqlarimga siz kabi mehmonim borligini ko‘rsatib maqtanaman», dedi.

Yuqoriga ham dasturxon tuzashgan ekan. Yo‘ldoshxon avvaliga bu tadbirkor yigit-qizlardan uyaldi, asta-sekin uyatchanligi orqaga chekingandek bo‘ldi. Oysuluv qizlarni tanishtiryapti, ulardan biri Fransiyadan atir-upa keltirib sotarkan, onasi ikkovining kattakon do‘koni bor ekan. Tengqurlariga qaraganda durkunroq, novcharoq bir qiz Turkiyadan idish-tovolar keltirib sotarkan, uchinchi bir qiz kollejni bitiribdi. Ammo qizlar tanishib olishga ulgurmasdan yana maqtanishga tushib ketishdi. Yo‘ldoshxon ham jim o‘tirishni o‘ziga lozim topmadi-da, mening ham o‘ttiz gektar anjirzorim bor, deb yubordi.

- O‘ttiz gektar? – so‘radi qizlardan biri.
- Bog‘ning ichiga kirganda odam adashib ketarkan-da, – dedi qizlardan yana biri.
- Oh-oh, o‘sha boqqa borib, sayr qilishni juda istardim, – deya entikdi uchinchisi.

Qizlarning har biri Yo'ldoshxonga yaqinroq bo'lishga, tanishishga intilayotganlari shundoqqina sezilib turardi. Qizlar Yo'ldoshxonga intilgan sari Oysuluvda g'alati kayfiyat paydo bo'layotgandek, qoshlari beixtiy-or chimirilib, lablari biroz burilib ketardi. Dugonalarining so'zini bo'lib, siltab tashlardi. Tadbirkor yigitchalar ham o'zлari yetaklab kelgan qizlarni Yo'ldoshxonga yaqin yo'latmayotgandek...

To'satdan pastda yengilgina musiqa ovozi yangradi. Qo'shiq ham jo'r bo'ldi, yigitlar dadil turib, qizlarni o'yinga taklif qila boshladilar. Oysuluv ham, mehmon qizlar ham Yo'ldoshxonning qo'lidan torta boshladilar, turing, valsga tushamiz, deb qistashdi. Yo'ldoshxon ko'nmadni, uyaganidan kichkina bo'lib qolgandek, anavi yigitchalar esa nazarida kattalashib, uni ruhan ezib qo'yayotgandek tuyuldi. Oysuluv Osmon degan tadbirkor yigitcha bilan raqsga tushyapti, lekin mayin, erkalovchi nigohini Yo'ldoshxon dan uzmayapti. Nigohida allanarsadan umidvorlik borga o'xshaydi, Yo'ldoshxon har gal uning nigohiga duch kelganda yuragi tez-tez urib ketganini, vujudini allaqanday iliqlik qamrab olayotganini sezadi. Yo'ldoshxon Oysuluv bilan raqsga tushayotgan yigitni yomon ko'rib ketyapti. Qani edi, sharoit ko'tarsa-yu, borib itarib-itarib qo'lidan Oysuluvni tortib olsa. Mayli, bilmasa ham o'sha qiz bilan raqs tushsa. Yo'ldoshxon entikib ketdi. Bunday yig'inlarda hamisha ustun bo'lishni, hech kimdan kam emasligini ko'rsatib qo'yishni istardi. Hozir ham vujudidagi o'sha holat isyon qilgandek bo'ldi. Oysuluv oldida boshqa yigitlardan ustun ekanligini ko'rsatib qo'ygisi kelaverdi. Vujudida yovvoyi bir kuch qo'zg'algandek, bir xayoli borib Oysuluvning yelkasiga ikki qo'lini tashlab olgan yigitning boshiga musht tushirgisi keldi.

Qiziq bo'ldi, juda-juda qiziq bo'ldi, Yo'ldoshxon gu-riyatib, to'satdan ashula boshlab yubordi:

«O'ylasam, bu dilbarim makkorga o'xshaydi-ku...»

Ashula avjiga chiqdi. Raqsga tushayotganlar birin-ketin o'rinalariga o'tirib qolishdi. Kuy sehriga mahliyo bo'lgandek jim bo'lib qoldilar. Goho-goho bir-birlariga ma'noli-ma'noli qarab olishyapti. Bamisolisi yigitlar qizlarga muhabbat izhor qilayotgandek, qarashlarida ana shunday ma'no bordek. O'zbekcha ashula ohangida bamisolisi muhabbat izhori bordek, bir-birlarining qalbini mana shu kuy shundoqqina kaftga qo'yib ko'rsatib berayotgandek...

Yo'ldoshxon esa Oysuluvdan boshqasini ko'rmayotgandek, sehrli kuy ichidan qizning nigohini, o'zini sarxush qilayotgan shu ilohiy nigohni axtarayotgandek. Qizning jamoli uni osmonlarga olib chiqib keta-yotgandek. Oysuluv ham bora-bora Yo'ldoshxon dan ko'zini uzolmay qoldi, nazarida qo'shiqning sehrli so'zlari uning ham xayolini butunlay olib qo'ygandek edi. Oysuluv Yo'ldoshxon dan ko'zini olib qocholmayapti, olib qochsa, yana-yana boqqisi kelyapti.

Vaqt allamahal bo'lib qolgan edi. Tadbirkor yigit-qizlar birin-ketin undan uy manzilini yozib ola boshladilar. Yigitlar yozib olayotganida Oysuluvning uncha ishi bo'lindi, ammo qizlar biz ham yozaylik, deyishganda Oysuluvning jahli chiqib, keyin o'zim yozib beraman, deb, yig'inni tezroq tugatish payida bo'ldi. Buning ustiga ota-onalari ham, endi bas qilinglar, deya ularni kutishayotgan edi. Yigit-qizlar bilan xayrlashgach, pastga tushdilar.

Pahlavon Nurlan og'a yana mehmonlarni taklif qilgan ekan. Suhbat avjiga chiqib, ichkilik ham chakana ketmaganga o'xshaydi, yerda ancha-muncha shishalar dumalab yotardi. Mezbonning qo'lida yana qadah, to'lqinlanib-to'lqinlanib gapiryapti:

– O'g'lim Yo'ldoshxon, bilib qo'y, o'zbek bilan bizning elning ota-bobosi bir bo'lgan. Bir daraxtning soyasida

katta bo'lgan. Tushgacha daraxtning soyasidan o'zbek foydalangan, tushdan keyin uning quyuq soyasida bazing ota-bobolarimiz jon saqlagan...

Vaqt allamahal bo'lib qolgan emasmi, shirakayf bo'lib qolgan mehmonlar bir-birlarini qayta-qayta o'pib tarqalishdi.

Xonardon egalari negadir mast bo'lib qolgan Avazbek amaki bilan Yo'ldoshxonni yotib qolinglar, deb qista-madi. Sizlarga mehmonxonadan alohida joy hozirlab qo'ygamiz, degan gaplarni aytishdi. Gulsun ona bir dasta rayhon olib chiqib, Yo'ldoshxonga berdi, tuni bilan hidlab yotgin, o'g'lim, degan gaplarni aytди. Moyi artilmagan mashinada Yo'ldoshxon bilan qattiq mast bo'lib qolgan Avazbek amakini Beksulton va Oysuluv kuzatib qo'yishdi. Dovdirab qolgan Yo'ldoshxon xayr deyishga ulgurmay, Oysuluvning orqasidan tikilib qoldi.

VIII bob

Ota-bolani Beksulton bilan Oysuluv katta garajning yaxshigina bezatilgan mehmonxonasiiga e'zoz va hurmat bilan joylab ketishdi. Tunda chanqab qolsanglar icharsizlar, deb shirin-shirin suvlardan, ochqab qolsanglar tamaddi qilarsizlar, deya Yo'ldoshxon yaxshi ko'rgan tandir kabobdan talaygina qoldirib ketishibdi. Ota-bola yumshoq-yumshoq o'rnlarga cho'zilishi bilan Avazbek amaki kayfi biroz tarqab, o'ziga kelib so'radi:

– O'g'lim, nega bular bizni bunchalik hurmat qilish-yapti, tag'in biron maqsadi bo'lmasin?

– Dadajon, kechadan buyon aytyapman-ku, bularning eng katta onasi o'zbek bo'lgan ekan, qo'rqish kerak bo'lsa, biz boshqa narsadan qo'rqaylik. Axir biz delegat bo'lib kelganimiz yo'q-ku, qishloqdagilar eshitib qolsa, ustimizdan kuladi-ku, qo'rqsak, ana shundan qo'rqaylik.

– O‘g‘lim, kel yonimga, peshonangdan bir o‘pay, mulohazali yigit bo‘lib o‘sayotganingdan xursandman. Ana shunday farzand ato qilgani uchun Allohga shukronalar aytaman. Lekin tadbirkorlikning yana bir siri bor, shuni senga aytishim kerak. Yigirma yildan buyon uzoq-uzoq shaharlarga mahsulot olib boramman, shu mashinamning tepasiga qaysi shaharga borayotgan bo‘lsam, o‘sha shaharning aholisiga alangali salom, deb alvon osib boraman. Bor-yo‘g‘i bir parcha latta. Lekin bundan shunaqangi hurmat-izzat qaytadiki, buni o‘zing ham kecha ko‘rding... Bilib qo‘y, o‘g‘lim, buni tadbirkorlik deyishadi.

– Dada, qalbim yop-yorug‘, charog‘on. Zo‘r-zo‘r o‘rtoqlar topdim. Bordi-keldi qilamiz, degan tadbirkorlar bilan tanishdim. Ularda pul ham ko‘p ekan. Cho‘ntagi to‘la dollar.

– O‘g‘lim, mehmonlar ketganidan keyin tepada Oysuluv bilan ancha mahal yolg‘iz qolib ketding?

– E, dadajon, – hayajonlanib gapira ketdi Yo‘ldoshxon, – aytganim bilan baribir tushuntira olmayman. Oysuluv menga albomlarini ko‘rsatdi, beshta albom to‘la suratlar. Javondagi kitoblarini aytmaysizmi! O‘zbek yozuvchilari-yu jahon adiblarining asarlari bor. Men esa sizga biz ham kutubxona quraylik desam, avval ikkita qizni erga bervolaylik, keyin quramiz, deysiz. Yana tag‘in Oysuluvning dunyodagi barcha milliarder tadbirkorlarning nodir so‘zlarini yozgan alohida daftari ham bor ekan. Keyinchalik shu daftardan ko‘chirma olib, senga jo‘nataman, dedi.

– Oysuluvning o‘zi qalay ekan? – sirli ohangda so‘radi otasi.

– Dadajon, keyin aytaman.

– O‘g‘lim, mana kayfim tarqab ketdi, hozir aytaqol.

– Dadajon, men sizni juda-juda yaxshi ko‘raman, bilasiz-a? Yo‘q, nima uchun yaxshi ko‘firimni bil-maysiz.

- Qani ayt-chi, o'g'lim.
 - Dada, mening akam ham, ukam ham, yurakdan gaplashadigan tengqur o'rtoqlarim ham yo'q. Siz bilan negadir xuddi sirdosh o'tog'im bilan gaplashgandek gaplashgim kelaveradi... Rostini ayting-chi, sizlar ayajonim bilan bir-birlaringni sevib turmush qurganmisizlar?
 - Ha, endi...
 - Yo'q, ochig'ini ayting.
 - Kitoblarda qanaqa bo'lsa, bizda ham shunaqa bo'lgan-da, o'g'lim. Kel, yaxshisi, uxlaylik, ertaga yo'lga tushamiz.
 - Dadajon, mayli, boshqa vaqtida aytib berarsiz, lekin hozir bitta muhim gap aytmoqchiman. Bugun ertalab men Beksltton sotib olgan vagonda hazrati Xizr boboni ko'rgandek bo'ldim. Hazrat bobo Bekslttonning surati qo'yilgan ramka ichidan asta-sekin chiqa boshladi, qo'lida oltin barkash, hammayoq xuddi chaqmoq chaqqandek yop-yorug' bo'lib ketdi. Keyin dadajon, Oysuluvning xonasiga chiqqanimda uning orqasida oltin barkash ko'tarib turgan Xizr boboni yana ko'rgandek bo'ldim... Bu nima ekan-a, dadajon?
 - Bilmayman, o'g'lim, qishloqqa borganda buvijoningdan so'rarsan.
 - Ehtimol dadajon, Xizr bobo tez-tez ko'zimga ko'rinayotgani uchun ham ishlarim shunaqa yurishib keta-yotgandir. Hozir ham dilim charog'on, xuddi qalbimda chaqmoq chaqayotgandek.
- Ertasiga ota-bola uchun bugungidan ham ko'proq quvonchli kun bo'ldi, qalblari yanada shodlikka to'ldi. Keltirgan anjirlari bir kundayoq tarqatilib bo'pti. «Profkom» ona beshta bufet orqali haqini maosh berganda ushlab qolasizlar, deb anjirlarni nasiyaga berib yuborishga farmon beribdi, yo'q, farmon beribdi emas, o'zi ishboshi bo'libdi. Pahlavon Nurlan og'a esa

bu yerda katta obro‘ egasi emasmi, mashinaga yuklanadigan yo‘g‘on-ingichka quvurlarning eng sozidan yuklabdi. Ishchilar ham nasiyaga olgan anjirlarini to‘yib-to‘yib yeb, og‘izlari shirin, kayflari chog‘ bo‘lib kelgan bo‘lsa kerak, quvurlardan kamida besh yuz kilogramm ortiqcha yuklab yuborishibdi. Kelishuv bo‘yicha sakkiz tonna o‘rniga sakkiz yarim tonna yuklab beribdilar. Ertasiga ishlari yaxshi yurishayotganidan kayflari chog‘, ruhlari baland bo‘lgan ota-bolani shahar chekkasigacha Beksulton bilan Oysuluv boshliq yosh fermerlar kuzatib borishdi. Beksultonning quvonchi ichiga sig‘mas, osmonlarda uchib yurgandek edi, o‘zbek yigit bilan, yana tag‘in tadbirkor yigit bilan tanishib oglani uchun ham xursand edi. Oysuluv negadir xomushroq, g‘amginroq ko‘rinadi. Yo‘ldoshxon ga muhim bir gapni aytmoqchi bo‘lgan-u, aytolmay qolgandek holatda edi, lekin hamon ko‘zidagi g‘amginlik o‘rnini tez-tez charaqlab turgan nur egallab turibdi. Xayrashuv oldidan Yo‘ldoshxon tortinibroq turdi, uning ham tilining shundoqqina uchida aytmoqchi bo‘lgan gapi turibdi, ammo aytishga botina olmadi. Ko‘zlaridagi umidvorlik yanada aniqroq ko‘rinib turgandek bo‘ldi. Qiziq, shaddod Oysuluv shoshilib kelib, yonida turgan boshqa qizlarga ko‘z-ko‘zlagandek uning peshanasidan o‘pdi, uch kundan buyon tushayotgan suratlardan bir necha nusxa keltirgan ekan, o‘shalarni uning qo‘liga ikki qo‘llab tutib: «Qo‘ng‘iroq qilib turasan-a, tez-tez xat yozasan-a», dedi.

Oxirida Beksulton negadir Yo‘ldoshxonni chaqirib, kel, o‘rtoq, xayrashuvdan oldin bir kulishaylik, dedi. Shunday qattiq kuldilarki, ko‘zlaridan tirqirab yosh ham chiqib ketgandek bo‘ldi. Beksulton katta konvert ichidan avaylab xat chiqarib o‘qiy boshladi:

Oltin vodiyning mirishkor bog‘bonlariga. Shirindan-shakar anjirlaringizni butun zavod ishchilariga, oila a‘zolariga tarqatdik. Bir necha kun davomida og‘zimiz-u so‘zimiz shirin bo‘lib turdi.

Rahmatimizni qabul qilgaysizlar.

Biz ham hadya sifatida ehtiyojlaring uchun zarur bo‘lib qolar deb mehnatimiz mahsuli bo‘lmish quvurlar jo‘natayotirmiz.

Do‘stligimiz abadiy bo‘lsin!

Zavod direktori

O. Davlatov

Mahalla qo‘mitasi raisi

N. Boytemirova

Ta‘minot bo‘limining mudiri

T.Shokirov

IX bob

Ota-bola usti to‘la yo‘g‘on-ingichka quvurlar ortilgan, yuki behad darajada og‘ir bo‘lganidan qari ho‘kizdek pishqirib kelayotgan katta mashinani ko‘cha eshiklari oldidagi katta maydonda to‘xtatishdi. Qishloqda gaz quvurlari tortilayotgan edi. Katta ko‘chalarga mas’ul rahbarlar quvurlarni yo‘g‘on-yo‘g‘onidan keltirib, uyingizga tortiladigan ingichka quvurlarni, mana, endi o‘zlarining topinglar, deb ketishgan. Bu gaplar os-hkor aytilganiga ikki oydan oshib qolgan. Tumanning barcha qishloqlarida «Gaz tushirish» harakati avj olib ketgani uchun bir quloch quvurning bahosi falon so‘m bo‘lib ketgan. Topganlar topib kelyapti, topolmaganlar nahotki bu qishni ham shunday o‘tkazsak deb, o‘y surishib yuribdi. Avazbek amaki bilan Yo‘ldoshxon og‘rib qolgan oyoqlarini uqalay-uqalay kabinadan tushishga ulgurmasdanoq, quvurlardan umidvor bo‘lganlar yopirilib kela boshladilar. Qishloqlarda ba’zan avval men bo‘laman, degan odat hukmron bo‘ladi, bu yerda ham oldin olaman deganlar ko‘payib ketdi. Sal qoldi chinakam mushtlashuv boshlanib ketishiga. Eng

avvalo, qishloqdagি yosh tadbirkor yigitchalar janjal boshladi.

– Quvurning yarmini men olaman, – deydi G’ulom degan tadbirkor.

– Bekorlarni aytibsан, – deydi Karimjon ismli boshqa tadbirkor.

Yana bir tadbirkor ushbu quvurlarni qishloq do’koniga olib borib sotasan, magazinchi o’lchab sotsin, deydi. Qishloqda ikki mahalla bor: mahalla umidvorlari ikkiga bo’linib, qo’llarini musht qilib bir-birlariga o’qtalib kela boshladilar. Dasht mahallaga novcha bo’yli, qaddi-qomati ham xo’p kelishgan kishi raislik qiladi. Odamlar uni o’zaro novcha rais deb chaqirishadi. Lekin obro’yi tuman hokiminining obro’yidan past emas emish, mo’ylovini bir burab qo’ysa, bitmagan ish o’z-o’zidan bitib ketaverarkan. Past mahallaga xuddi ataylab qilgandek, pak-pakana, lekin juda serharakat, jahldor Odilxon degan kishi raislik qiladi. Aytishlaricha, uning obro’yi viloyat hokiminikidan kam emas emish. Qoshlarini kerib, burnini bir jiyirib qo’ysa, har qanday muammo ko’z yumib ochguncha hal bo’lib qolarkan. El xizmatida bo’lgan ana shu ikki rahbar darhol yetib kelib, g’ala-g’ovurni bosdi.

Novcha rais baland ovoz bilan:

– Avazbek, sen o’zi yaxshilik uchun tug’ilgansan-da, – dedi.

Pakana rais:

– Yo’ldoshxon o’g’lim, sen tug’ilgan kuni butun mahalla xursand bo’lgan, – dedi.

Shunday qilib biri otani, biri o’g’ilni shu kungacha ishlatmagan so’zlari bilan maqtay boshlashdi. Maqtovlar tagida bir amallab shu quvurlarni biz sotsak edi, degan pinhoniy niyatlari bor edi. Yo’ldoshxonning to’satdan yo’q bo’lib qolishi ikkala raisni ham ozgina tashvishlantirgandek bo’ldi. Bordi-yu bu qaysar, hatto

otasining ham gapiga kirmaydigan o'jar Yo'ldoshxon quvurlarni tuman gazlashtirish idorasiga ko'tarasiga sotib yuborish uchun ketgan bo'lsa-chi, degan tashvish o'yantirdi. Lekin bundan ko'ra xavfliroq, tashvishliroq bir fikr ikki raisni bir-biriga yaqinlashtirib qo'ydi. Bordi-yu Yo'ldoshxonning ruxsatisiz sotsak, yuqoriga arz qilishsa, boshimizga kattaroq tashvish tushmasin, deb bir-birlariga qarab-qarab olishdi. Quvurlarni sotaylik, lekin bizning qo'llimiz bilan emas, betaraf bir kishining qo'lli bilan sotaylik, degan qat'iy qarorga kelishdi. Qishloqda janjallarga aralashishi, ish bitsa-bitmasa, ko'kragiga urib yurishni, har kimlar ustidan har xil ig'volar yozib yurishni yaxshi ko'radigan G'ani terak degan kimsa yashaydi. Biron balo bo'lsa, mayli, o'shaning boshiga yog'ilсин, deb o'ylashdi va uni darhol chaqirtirib kelib:

– Xaloyiq, quvurlarni taqsimlashni G'ani terakka yuklasak, nima deysizlar? – deb so'radi novcha rais.

– Zo'r bo'ladi!

– Tezroq bo'linglar!

– Bo'lmasa qo'l ko'taringlar, – deb gapga aralashdi pakana rais.

Shunday qilib bir qo'lli yo'q G'ani terak quvurlarni taqsimlovchi, bir oyog'i yo'q Ortiqali taqsimlangan quvurlarni yozib boruvchi bo'lib saylandi.

– Demak, taqsimlovchi, bo'lib beruvchi men bo'ldimi? – deb mag'rurona ohangda so'radi G'ani terak.

– Ha, sen bo'lding, – deb qo'ydi novcha rais.

– Bilib qo'y, seni ikkovimiz – ikki rais tavsiya qildik, – deb gapga aralashdi pakana rais.

– Agar meni taqsimlovchi qilib saylamasalaring sen, raislarni ishdan oldirib tashlardim, – yana kekkayib mag'rurona ohangda dedi G'ani terak. – Ikkoving ham halol odam emassizlar, mana, daftarimga yozib olganman.

Raislar bir-biriga qarab qo'yishdi.

– Mana ishni boshladik, menga o'n sakkiz metr ingichkasidan yoz, – deb buyurdi G'ani terak.

– Yozdim, – deb javob qaytardi Ortiqali.

– O'zingga o'n metr yoz.

– Jon aka, bu menga oz.

– Mayli, yana besh metr qo'shib yoz!

– Qo'shdim.

– Dasht mahalla raisiga yigirma metr yoz.

– Yozdim.

– Pastmahalla raisiga ham yigirma metr bo'laqolsin, bo'yi past-ku, lekin o'zi yaxshi odam.

– Yozdim.

– O'lib ketgan sudyaning xotiniga yigirma ikki metr yoz.

– Yozdim.

– Prokurorning ammasiga o'ttiz metr yoz.

– Yozdim.

– Bozorqo'mning tog'asiga o'ttiz metr yoz.

– Yozdim.

– Machitning imomiga yigirma metr yoz.

– Yozdim.

– Ahmadали so'piga yozma, uqlab qolib, azonni kech aytadi.

– Yozmadim.

– Maktab direktoriga yozma, nabiramga nuqlil ikki baho qo'ydiradi. Elektrchiga ham yozma, har kuni elektrni o'chirgani-o'chirgan.

– Yozmadim.

Kutilmaganda hammani hayron qoldirib, to'plan-ganlarning orasini yorib, birini u yoqqa, boshqasini bu yoqqa itarib, anjirzorda ishlayotgan Barotvoy, Hayitvoy, Akrom, Safarlar shoshib kela boshladilar. Bularga bosh bo'lib kelgan, tez kelgani uchun hayajonini bosolmay chuqr-chuqr nafas olayotgan Zulkumor

qanday tezlik bilan kelgan bo'lsa, ana shunday tezlikda Ortiqali cho'loqning qo'lidagi ro'yxatni tortib oldi. Olib g'ijimlab, parcha-parcha qilib yirtdi-da, «nega zo'ravonlik qilasizlar, nega bu quvurlarni qiyinchilik bilan topib kelgan raisimiz yo'qligida taqsimotga aralashasizlar», deb shovqin sola ketdi. Shovqin solganda ham qo'llarini silkita boshladi. Yo'l-yo'lakay menga qo'shilib baqirasizlar, deb o'rgatib kelgan bo'lsa kerak, Rohila qiz, Saddiniso, Farida, Umidalar ham birdan baqirishga, dodlashga tushdilar.

– Anjirzorni yaratgan kim bo'ladi? – baland ovozda so'radi Zulxumor.

– Yo'doshxon bo'ladi, – undan ham baland ovozda javob berishdi fermer qizlar.

– Bog'ni parvarishlab odam qilgan kim bo'ladi?

– Biz bo'lamiz!

– Nihollar quriy-quriy deganda chelaklab suv tashib ko'kartirgan kim?

– Biz bo'lamiz.

– Nihollarga kasal tushganda, barglari quriy-quriy deganda ularni dorilab, davolagan kim bo'ladi?

– Biz bo'lamiz.

– Qishda qattiq sovuq tushganda anjirlarimizni sovuq urmasin, deb uydan ko'rpa-to'shakkacha olib borgan-chi?

– Biz!

– Anjirlarni terib, qutilarga joylab Qozog'istonga jo'natgan kim bo'ladi?

– Biz bo'lamiz!

– Anjirlarni yaxshi pullab, qiyinchilik bilan quvur olib kelgan kim bo'ladi?

– Yo'doshxon.

Bu savol-javoblar oddiygina bo'layotgani yo'q, shovqin aralash, ko'z yoshlari aralash bo'lyapti. Farida, Saddiniso, Rohilalarning ovozi chinakamiga hasratli

yig‘i aralash chiqyapti. G‘ani terak biron ishkjal chiqib qolmasin, deb hammadan oldin jo‘nab qoldi. Raislar tajribali emasmi, shoshmadilar, o‘zlarini yo‘qotmadilari, xuddi mana shu gap bo‘lishini oldindan bilgandek, hatto bu qizlarga o‘zlarini o‘rgatib qo‘ygandek, kulimsirab, beparvogina turaverishdi.

Nihoyat novcha rais:

– Yosh fermerlar ana shunday shiddatli, hujumkor bo‘lishi kerak, – deb gap boshladи. – O‘z haqqini bilishda, huquqini himoya qilishda mana shu Zulkumor qizimdek bo‘lishi kerak. Zulkumor qiz, yaqinrog‘imga kel, peshonangdan bir o‘pib qo‘yay, xudo xohlasa, sen yuksalasan, o‘sasan, xotin-qizlar fermerlar uyushmasiga rais bo‘lasan. Hoy, xo‘roz boqib bir so‘m pul ololmay yurgan o‘g‘lim, hoy urishqoq xo‘rozlar boqaman, deb otasining pulinisovurib yurgan o‘g‘lim, senlar ham Yo‘ldoshxon ga o‘xshashing kerak. Tarqalinglar hammalaring. Yo‘ldoshxon kelguncha biron kishiga bir quloch ham quvur berilmaydi.

X bob

Tong sahardayoq quvurlarni olish umidida ham-qishloqlar yana yopirilib kela boshlashdi. Hammalarining oldida yana o‘sha, men sendan o‘zaman, deb ishi goh yurishib, goh yurishmay turgan o‘smir fermerlar, ular birlashib «qishlog‘imizning cho‘ntagidagi pullarni quvur bahonasida chet elga jo‘natmoqchimisan», deb janjal ham ko‘tarishmoqchiga o‘xshaydi. Zulkumor yana hushyorlik qildi. Ko‘z yumib-ochguncha anjirchilarni yig‘ib chiqishning uddasidan chiqdi. Hammalarini quvurlar yuklangan mashinaning ustiga chiqarib qo‘ydi. Keyin o‘sha yerdan turib:

– Biz zo‘ravonlik qilganlarning ustidan Toshkentga shikoyat yozganmiz, javob kelguncha mana shu yerda o‘tiramiz! – deb e’lon qildi.

Aslida o'tirish niyatları yo'q edi, odamlar tezroq tarqalishi uchun shu gaplarni aytdi. Yo'ldoshxonning katta-katta harflar bilan qiyshiq-qing'ir qilib «Ofis» deb yozilgan xonasiga to'plandilar. Fermer xo'jaligi a'zolari o'rtasidagi suhbat cho'zilmadi. Tezda qaror yozishdi. Husnixati chiroyli Zulkumor yozdi, Yo'ldoshxon aytib turdi.

«Qaror № 64

Keltirilgan quvurlarni qanday sotish haqida tuman gazlashtirish idorasi boshlig'i Oripov amakidan maslahat olindi. Past mahalladagi uylarga gaz kiray-kiray deb turibdi. Avval o'shalarning ishi bitsin. Yana ko'p-ko'p quvurlar keltirishga qaror qildik. Keltiriladigan quvurlarning hammasi yuqori mahalla kishilariga berilsin. Quvurlarning narxini Toshkentdan bilib kelishga qaror qildik. Yuqorida yozganimizdan kelib chiqib «Anjirchi» fermasi qat'iy qaror qiladi. Yo'g'onligi elliktalik, o'ttiz uchtalik, yigirma beshtalik bo'lgan, jami sakkiz yarim tonnalik quvurlar past mahallaga berilsin. Nasiyaga so'rab kelganlarga bir metr ham berilmasin.

«Anjirchi» fermer xo'jaligi raisi Yo'ldoshxon Avazbekov, rais o'rinhosari Zulkumor Isroilova».

Zulkumor aytgan, yozgan har bir so'z sehrli bo'lardi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Qarorni quvur so'rab kelganlarga Zulkumorning o'zi o'qib berdi. Har bir so'zni ta'kidlab, qoshlarini chimirib o'qidi. Bu so'zlarning sirli ta'siri tezgina sezildi. To'planganlar yelka qisishib, bir-birlariga qarab, lablarini burishib, tarqala boshladilar.

– Yoshlikdan chayqovchilikni o'rgangan bu qizlarning ustidan yozish kerak, – dedi bittasi.

– Yo'ldoshxonga bu yo'lni pakana rais o'rgatgan bo'lsa kerak, – dedi boshqasi.

– Hecham-da, axir Zulkumor prokurorning qizi-ku, otasidan maslahat olgan.

– Yo‘q, Zulkumor otasi bilan gaplashmaydi, oralaridan qora mushuk o‘tganini hamma biladi-ku.

Oradan ko‘p o‘tmay past mahallada shunday ko‘tarinki kayfiyat boshlandiki, uylariga quvur tortilgan, porillab gazlarni ham yoqib olganlar bir-birlariga biram mehribon bo‘lib qoldilarki, bir-birlariga biram shirin so‘zlar aytadigan bo‘lishdiki, oddiy jaydari so‘zlar bilan bu quvonch, bu shodlikni ta‘riflab bo‘lmaydi.

Boshqa yurtlarda bo‘lgani kabi Tagobda ham ikki mahalla birlashtirilib, mahallalar ishlayveradi-yu, ikkovilariga bir rais oqsoqollik qiladi. Ana shu oqsoqoldan vakil bo‘lib cho‘loq Ortiqali kelib qoldi-da, hali o‘tirmasdan turib:

– Iloyo omin, qadam yetdi, balo yetmasin, fermer ukalarimning boyligiga boylik qo‘shilaversin, – deb fotiha o‘qidi. Keyin nima maqsadda kelganini shoshmasdan tushuntirgan bo‘ldi. Ya’ni belgilangan qat’iy, qat’iy degan so‘zni ta’kidlab aytdi, qat’iy tartib bo‘yicha hududdagi tadbirkorlar, fermerlar, ya’ni pul topish yo‘liga kirgan barcha fuqarolar yordam fondiga pul ajratishi shart ekan.

– Buni yaxshi bilasan-a? – deb so‘radi oqsoqoldan vakil bo‘lib kelgan yigit.

– Bilaman, – deb qo‘ydi Yo‘ldoshxon.

– Quvurlardan chakana foyda ko‘rmading-a, boyib ham ketgandirsan? Xo‘s, xayriyaga qancha pul o‘tkazmoqchisan?

– Ikki mahalla o‘rtasidagi ko‘priksi tuzatib bermoqchiman.

– E, qo‘ysang-chi, ikkita yog‘ochni yotqizsang – ko‘prik. Tuzukroq pul ajratishing kerak. Qabriston atrofini devor bilan o‘ramoqchimiz, bunga ham pul ajratishing kerak.

- Yaxshi, ajrataman.
- Namozxonlar eski-tuski sholcha-yu kigiz ustida o‘tirib, musulmonlik shartini ado qilyaptilar. Ularga bir gilam olib berishing kerak.
- Yaxshi.
- Nochor oilalarga tuzukroq pul ajratishing kerak.
- Vakil qilinadigan hadyalarni sanayverdi-sanayverdi. Har bir aytganini, katta daftar olib kelgan ekan, ana o’shang aqyd qilaverdi-qilaverdi. Hisob o’n oltiga yetganda qalin daftarni Yo’ldoshxonga uzatib:
 - Qani, chiroyli imzolarini bir qo’ysinlar-chi, – dedi.Yo’ldoshxon hisob o’n ikkiga borgandayoq qaltiray boshlagan edi. Agar vakil aytganlarini pulga aylan-tiradigan bo’lsa, quvurlardan tushgan foyda emas, uning tannarxi ham yetmaydi. Yigitchaning boshidan «insofsizlik qilayapti, insofi yo’q ekan» degan so’zlar bir-biriga mingashib o’taverdi. Beixtiyor o’rnidan turib:
 - Daftaringga qo’l qo’ymayman, – dedi qaltiroq bir ovoz bilan.
 - Qo’ysan, – dedi vakil ham o’rnidan turib.
 - Qo’ymayman, dedim, qo’ymayman.
 - Bilib qo’y, men hukumat nomidan keldim.
 - Hukumat nomidan tilanchilik qilyapsan!Ikkovlari don talashgan jo’jaxo’rozdek tikkama-tikka bo’lib ketishdi. Biri biridan ko’ra achchiqroq so’z aytyapti. Zulkumor ularni yarashtirmoqchi bo’ladi, bas qilinglar, deb tepinib shovqin soladi. Oxiri Yo’ldoshxon dadasinikidek katta mushtini vakilning iyagiga tirab:
 - Mana senga pul! – dedi vajohatli bir ohangda.
 - Nima, nima?! – deb vakil Yo’ldoshxonga tashlandi. Zulkumor yana o’rtaga turib oldi, agar bu qiz bo’lmaganida, xudo biladi, ikkovlari o’rtasidagi bu janjal nima bilan tugardi.

XI bob

Yo'ldoshxonning kayfiyati ta'riflarga sig'maydigan darajada baland. Olis yurtga olib borgan mevalarini tuzukkina pullagani, keltirgan quvurlari qishlog'iga xursandchilik baxsh etgani, ayniqsa, Zulxumorning astoydil turib Yo'ldoshxon manfaatini himoya qilgani, hamma-hammasi dildagi shodlig-u quvonchlarni dengiz to'lqinidek chayqaltiradi, o'zi esa osmonlarga uchgisi keladi.

– Yaxshi, yaxshi, – deb, goho anchadan buyon yo'qotib qo'ygan qahqahasini topib olgandek, sabab bo'lsa-bo'lmasa ham qahqahali kulgiga beriladi, to'yib-to'yib kuladi. Qahqahasida qarshisidagi kishilar ni sevintiradigan, shodlantirib yuboradigan nozik bir ohanglari bo'lsa kerakki, ular ham qahqahaga qo'shib, qalblarini shodlikka, quvonchlarga to'ldirib oladilar. Ilgari dadasiga qo'shib ashula aytgan paytlarida ovozini eshitgan ba'zi bir kishilar, e, uka, ashulangdan ko'ra qahqahangni eshitganimda huzur qilaman, degan paytlari ham ko'p bo'lgan. Ehtimol, ho-zir Yo'ldoshxonga ko'ngil qo'ysammi-qo'ymasammi deb ikkilanib yurgan qizlarning teng yarmi uning beg'ubor kulgusiga ishqiboz ham bo'lib qolgandir.

Yo'ldoshxon anjirzorini aylanyapti. Mevalari g'arq pishgan payt ulardan ko'tarilayotgan yaxshi pishgan mevalarga xos hidlar olamni tutib ketgan. Shiraxo'r hasharotlar shiraga to'yib, o'zlaricha g'ing'illab ashulla aytishardi. Epkindi shamollar orqali mevalardan ko'tarilib-ko'tarilib chiqayotgan ko'z ilg'amas sarg'ish nurlar bir-biriga qo'shib, butun anjirzorni to'lqinlan-tirib yuborayotgandek bo'ladi. Yo'ldoshxonning qalbi nazarida yana ham charog'on bo'lgandek, ko'ksi olam darajasida kengayib ketgandek.

Qiziq, nazarida anjirzorlar oralab Oysuluv chiqib kelayotgandek, qizning beg'ubor, dilbar, yoqimli kulgisi

jaranglab eshitilgandek bo'ldi. Yo'ldoshxonni xayol olib ketdi: butun vujudidan atir-upalar hidi ufurib turgan Oysuluv kalta qirqilgan sochlarini silkitib-silkitib gapiryapti, gapirganda qo'llari bilan Yo'ldoshxonning qaltirab turgan tizzalariga urib-urib qo'yayotgandek. Yo'ldoshxonning qo'lidan tortqilab darsxonasiga olib kiryapti.

– Men o'zbek yozuvchilarini ko'proq o'qiyman. O'zbek tilida onam takror va takror gapirgani uchun yaxshiroq o'rgansam deyman-da. Siz «Qutlug' qon»ni o'qiganmisiz?

– O'qiganman, – tortinibgina deydi Yo'ldoshxon.

– «Yulduzli tunlar»ni-chi?

– O'qiganman, – dedi Yo'ldoshxon. Lekin qip-qizarib ketdi. Chunki bu kitoblarni o'qimagan. Borib albat-ta o'qiyman, degan fikr o'tdi ko'nglidan... To'satdan Yo'ldoshxonning peshonasi lovullab yonayotgandek bo'ldi: Oysuluv xayrlashayotganda uning ana shu lovullab turgan peshonasidan o'pgan edi, seskanib ketdi, ko'ksi gupillab urayotganini sezdi... Nahotki sevgi shunaqa bo'lsa?.. Nahotki men uni sevib qolgan bo'sam?.. Ha, ha, o'sha kechasi ko'rganimdayoq sevib qolganman uni. Endi nima qildim?.. Endi Zulkumorga nima deyman, men Zulkumorni hammadan ko'proq sevaman-ku, o'lguncha sevaman, deb qasamlar ichganman-ku... Yo'q, men Oysuluvni sevib qoldim, mana, kelganimdan buyon qizning charaqlab turgan qiyofasi, umidvor, allaqanday xursandchilikka yetak-lovchi nigohlari ko'z o'ngimdan nari ketmayapti... Axir u xlabelmayapman-ku... Uxladim deguncha Zulkumor ikkovlari kelib ikki tomonimga o'tirib olyaptilaru!

Yo'ldoshxon bir amallab o'ziga kelib oldi. Asta-asta yurib, anjirzorda ishlayotgan o'rtoqlarining oldiga bорди. Ular berilib ishlashyapti, anjirlar tubini chopishyapti, o't o'rishyapti, mevasi og'irligidan past-lab qolgan

shoxlar tagidan ko'tarib, ayri qo'yishyapti. Qiziq, Qobil bobo yakka-yakka bo'lib ishlanglar deyishiga qaramay, yana juft-juft bo'lib olishibdi. Shaddod Farida Akrom bilan yonma-yon, kamgap Saddiniso o'zidan ham kamgap Barotvoyning yonida, bir-birlariga yashirinchha jilmayib-jilmayib qarashyapti. Rohila qo'li ishda-yu Hayitvoyga pichirlab, bir narsalarni tushuntirayotgan bo'ladi... «Ha, bular bir-birlarini sevib qolgan, bir-birlarini sevib, keyin bu yoqqa kelishgan... Ha, hammasidan Qobil bobo xabardor. Bo'pti, sevishsa sevishar, yaxshi ishlasa bo'ldi, xo'sh, ular sevganda nega men sevmas ekanman? Mana bu yigitchalar sochidan qatiqning hidi, ko'yaklaridan yangi o'rilgan beda hidi kelib turgan qizlarni sevganda, nega men butun vujudidan latofat yog'ilib turadigan, borlig'idan atir hidi ufurib turadigan, kulganda quvnoq kulgisidan olam charaqlab ketadigan qizni sevmas ekanman? Men uni sevib qoldim. Zulkumor-chi? Zulkumor, senga xiyonat qilgim yo'q...

Yo'ldoshxon o'rtoqlariga goh hazil gapirib, goh kulib yurganda yonginasiga qo'lida katta daftar bilan Zulkumor kelganini sezmay qolgan ekan. Qiz unga biroz tikilib turdi-da:

– Yo'ldoshxon, boqqa kirishing bilan darrov o'zingni yo'qtasan-da, nimalarni o'ylayapsan? – deya quvnoq ovozda so'radi.

Yo'ldoshxon bir seskanib tushgandek bo'ldi.

– E, Zulkumor, nimalarni o'ylardim, anjirzorning atrofini sim to'r bilan o'ratibsan, shunga rahmat aytmoqchi bo'lib turgandim... Qimmatga tushmadimi ishqilib?

– Yo'ldoshxon, bilasan-ku, men sening har bir tiyiningni tejayman... Anchadan buyon kelmaysan, tinchlikmi yo yana boshqa yurtga ketib qoldingmi? Ayajoning bezovta bo'layotgan emish. Kecha-yu kun-

duz o'sha yoqqa qo'ng'iroq qilayotgan emishsan...
Yo'ldoshxon, ochig'ini ayt, tinchlikmi?

– Tinchlik. Quvurlar yoniga tunuka, darvozalarga ishlatiladigan qalin-qalin temirlar harakatida yurib-man...

– Hal bo'layaptimi axir?

– Zulkumor, sen yonimda bo'lsang, dalda berib tursang, hammasi hal bo'ladi.

Yo'ldoshxonning xayoli parishonroq bo'lgani uchun Zulkumor uni ortiqcha gapga tutgisi kelmadi. Nima maqsadda oldiga kelganini aytdi. Lo'nda-lo'nda qilib aytdi. Umida bilan o'zaro kelishib, bir-birlarini tanlab bu yerga kelgan Safar shoir tez-tez ishga chiq-mayotgan emish, chiqqan kuni ham Umida bilan ho'bog'ning etagiga borib olib, allaqanday she'rlarni o'qib o'tirisharmish. Safar yana bir yomon ish qilibdi. Mana shu yerda ishlayotgan yigitchalar va o'smir qizlarning obro'sini to'kayotgan she'rlar ham yozayotgan emish.

Yo'ldoshxon to'satdan hushyor tortdi.

– She'rlar yozayotganini sen qayerdan bilding? – deb shosha-pisha so'radi.

– Shu yerda ishlayotgan qizlar ham, yigitlar ham allaqachon yodlab olishgan.

– Yomon she'rlarmi?

– Juda-juda yomon.

– Birontasini menga o'qib ber-chi.

Zulkumor uzoqroqda ishlayotganlarga eshitilmay-digan darajada past ovoz bilan qo'lidagi daftardan tanlab-tanlab she'r o'qiy boshladi.

*Yo'ldosh bilan Zulkumor,
Ikkovida bir gap bor.
Bir kun ko'rmay qolishsa,
Ko'z yoshlari shashqator.*

*Qorabarot Saddiga
O't o'rishib beradi.
Saddixon ham tik turmay,
Ko'zin suzib turadi.*

*Hayit polvon polvonmas,
Rohilaxon bo'lmasa.
Ketmon chopmas, suv quymas,
Shu qiz kulib turmasa.*

*Akromjonning jilvasi
Faridaning qo'lida.
Qo'lidasmas, bilinglar,
Shiringina tilida.*

– Bu Safar hammamizning jonimizga tegib ketdi, mayli, bir kun gazetaga bordim, deydi, mayli, bir kun olimpiadaga bordim, deydi. Lekin bu she'rlariga biz chiday olmayapmiz, – hayajonlanib, g'azab aralash gapira boshladi Zulxumor. – Agar bu she'rlar qishloqqacha borib yetsa, o'rtoqlarimning ota-onasi bilib qolishsa, Yo'doshxon, o'layapsanmi, qanaqa fojialar bo'lishini?.. Yo'q, men ham, qizlar ham chiday olmayapmiz. Safarniyam, Umidaniyam bugundan qolmay ishdan haydaysan, sen haydamasang, men haydayman... Agar haydamasang, qizlar ham anjirzoringni tashlab ketishmoqchi.

– Qobil bobo nima der ekanlar?
– She'rni bobomizga ham o'qib berdim.
– Xo'sh?
– Ochig'ini aytaymi, sochlari tikka bo'lib ketdi... Bugundan qolmay Safarni ham, o'sha anjirzor etagiga borib kitob o'qib o'tiradigan Umidani ham haydaysan...

Chindan ham bu she'rlar qizlarining bu yoqqa kelishiga arang rozi bo'lgan ota-onalarining qo'liga

borib tegsa, unda fermaning nomi badnom bo'ladi. Demak, o'g'il-qizlarimiz anjirzorga, ham o'ngida, ham tushida Xo'jayi Xizr boboni ko'rayotgan Yo'ldosh-xoning fermasiga ishlash uchun boryapti, deb yursak, bir-birlariga ishq-u muhabbat izhor qilgani borishgan ekan-da, deb o'yashmaydimi? Qishloqda G'ani ter-akdek ig'vogarlar bor. Birga o'nni qo'shib qizlarning ham, yigitchalarning ham nomini yomonga chiqarib qo'yamaydimi?!

Yo'ldoshxon bir seskanib, o'ziga keldi.

– Hammang +hovuz bo'yiga to'plan, – deb qattiq ovoz bilan aytdi.

Berilib ishlayotgan qizlar-u yigitchalar ko'z yumib ochguncha Qobil boboning «Arshi a'losi»ga – loydan, kesakdan baland qurilgan supasiga to'plandilar.

– Bobojon, sizning she'rdan xabaringiz bormidi? – sekingina muloyim ohangda so'radi Yo'ldoshxon.

– E o'g'lim, bu bolang sal g'alatiroq ekan, – qovog'i solingen holda dedi Qobil bobo.

– O'rtoqlarim, bu yerga yaxshi niyat bilan nomim-izga dog'tushirmaymiz, Xo'jayi Xizr bobo nazar qilgan bog'imizga gap tekkizmaymiz, deb to'plangan edik. Men Safarning yozgan she'rlarini hozir bildim... Bu she'rlarni qishloqdagilar o'qisa nima bo'ladi? Mana, Safarning o'zi ham yo'q, gazetaga ketdim, deb g'oyib bo'lgan, Umida esa anjirzorga kirsa, hamma yog'imni shira bosdi, deb, ko'ylagini almashtirgani-almashtirgan. Hozirdan boshlab ikkovini ham ishdan haydadim. Kim qarshilik ko'rsatsa, uni ham qo'shib haydayman. Gap tamom.

XII bob

Anjir uzish, qutilarga joylash bu gal shunday tez bajarildiki, bu tezlikni xuddi Allohning o'zi qo'llab turgandek bo'ldi. Avazbek amaki oldingi noz-u firo-

qlarini, g'ildiraklarim eski, motorim sal chatoqroq, degan gaplarini bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, safarga tayyorgarlik ko'ra boshladi. «O'g'lim, mana men boraman», deb ko'ksiga urib ham qo'yadi.

Ertaga jo'naymiz deb turganlarida to'satdan hammasi ostin-ustun bo'lib ketishiga sal qoldi. Alamzada Safar buzg'unchilik yo'lini tutibdi. Zulkumorga zimdan ko'z tashlab, nigohlarini poylab, qizdan umidvor bo'lib yurganlar orasida o'zini hammasidan men mana shu qizga loyiqliq, deb yurardi. Safarning qizdan ko'z uzmasligini Qobil bobo bilardi. Har ehtimolga qarshi hushyor bo'lib turardi. Lekin bu yigitcha yovuzlik qilmas, deb o'ylardi. Safar o'zicha «agar omadim kelib Zulkumorga uylansam, prokuror otasi menga ham katta ferma ochib beradi, axir Zulkumorning ikkita opasiga ochib bergen-ku. Xudo xohlasa, menga ham ochib berar yo bo'lmasa meni institutga kiritib qo'ysa, katta huquqshunos bo'lsam... Oh-oh, qanday zo'r bolardi-ya. Axir men Zulkumordan juda uzoqlashib ketmaganman-ku, ikkinchi, uchinchi sinflarda bir partada o'tirganman-ku», degan shirin-shirin xayol-larga borardi.

Niyatlari endigina amalga oshadi, deb turganida uni ishdan haydashdi, juda xunuk qilib haydashdi. Yo'q-yo'q, Safar bunga yo'l qo'ymaydi ham! «Mana shu niyatlariga g'ov bo'lib turgan Yo'ldoshxonni tezroq yo'ldan olib tashlash kerak. Chunki ishdan haydash masalasini mana shu ochko'z, qancha pul topsa yana shuncha topaman, deb qo'lini musht qilib yurgan Yo'ldoshxon tashkil qilyapti. Xizr boboni ko'rgani yolg'on, hamma ishonsa ham, men ishonmayman... Zulkumor ikkovlari o'tasiga nifoq solaman-u, jiqqa-musht urishtiraman, bir-birlarining betiga tupuradi-gan darajaga olib borib qo'yaman», – ana shunday xayollar o'ta boshladi alamzada Safarning boshidan.

Yo'ldoshxon safardan qaytib kelgan kunining ertasigayoq o'sha yoqdan olib kelgan suratlarini maqtana-maqtana, mana, ko'ringlar qanaqangi tad-birkor yigitlar bilan tanishib keldim, deb o'rtoqlariga ko'rsatgan, ko'z-ko'z qilgan, lekin ba'zi suratlarni ehtiyyot qilib cho'ntagining chuqurroq joyiga berkitayotganini Safar ko'rib turgan, bu suratlarda bir sir borga o'xshaydi, degan fikrni o'ylab qo'ygan edi. Yo'ldoshxon uni ishdan haydagach, Qobil boboning baland supasida uzoq o'tirib qoldi, endi qayerga ishga joylashsam ekan, degan o'ya ham bordi. To'satdan jonlanib ketdi-yu, yugurib ichkariga kirib, Yo'ldoshxonning qoziqda osig'liq turgan kostyum cho'ntaklarini kovlashtira boshladi. To'satdan sevinib ham ketdi. Oysuluv bilan Yo'ldoshxonning yonma-yon, yelkasiga qo'llarini tashlab tushgan suratlari talaygina ekan. E Alloh, deb Safar suratlarni bag'riga bosgancha ko'cha-ga otildi. Shum niyatlarini amalga oshirish rejalarini qayta-qayta o'ylay boshladi. Nihoyat kech tushishi bilan Zulkumorning uyiga qarab yugurdi.

Kun bo'yi anjirzorda qizlarga dalda bo'lay, Yo'ldoshxonga yana ham yoqimliroq ko'riny deb hammayog'i chang-u to'zonga to'lgan Zulkumor yuvinishga ham ulgurmagan edi. Safarning oldiga shoshilib chiqdi. Hamisha gapdon, gappa tushganda she'rlar ham qo'shib aytadigan Safar bu gal gapni qisqa qilib, Zulkumorning qo'liga bir yo'la olti suratni uzatdi.

Zulkumor qora qoshlarini chimirib, lablarini qimtib, suratlarga biroz tikilib turdi-da:

- Bularni menga nega olib kelding? – deb so'radi.
- Nega olib kelganimni bilmayapsanmi? – qaltiroq ovoz bilan so'radi Safar.
- Bilaman, Yo'ldoshxon dan o'ch olmoqchisan.
- Yo'q, seni xavfdan ogohlantirmoqchiman.
- Xavf, qanaqa xavf?!

– Mana shu yalpoq yuzli, qisiq ko'zli qizga Yo'ldoshxon uylanyapti, nahotki eshitmagan bo'lsang?

– Safar, qo'y bunaqa bema'ni gaplaringni, – deb Zulxumor sarosimali bir holatda uyiga kirib ketdi. Ostonadan o'tayotib «yo'qol», – dedi va yig'lab yubordi.

«Xudoga shukr, – deb o'yladi Safar, – qizning qalbiga g'azab uchqunini tashladim, ertaga u rashk oloviga aylanadi. Ey, maqtanchoq, Yo'ldosh, Zulxumorni sendan sovitmaguncha qo'ymayman, prokurorga, xudo xohlasa, o'zim kuyov bo'laman, tumandagi eng katta fermani qaynotam menga ochib beradi, bo'sh kelmayman, bo'sh kelmayman!»

Ana shunday shirin xayollar og'ushida o'zi bilan o'zi gaplashib Safar urishqoq xo'rozlar boqib nom chiqargan o'rtog'ining oldiga bordi.

G'ulom hamisha darg'azab yuradi. Katta tadbirkor bo'laman deb, qora zuluklar boqib endi ko'payadi deganda, zuluklari o'lib berdi. Ishongan dakang xo'rozini jangga tushirgan edi, yengildi. Yengilgan xo'roziga qo'shilib ikki yuzta tuxumlayotgan ona tovuqlarini ham boy berib qo'ydi. Dastlabki paytda Yo'ldoshxonning fermasiga borib yurgan edi. Firibgarlik yo'lini tutdi. O'sha yillari anjir sotgani borib, olti tog'ora anjirning pulini paqqos cho'ntakka urib, xudo ursin, o'g'illatib qo'ydim, deb ko'zini lo'q qilib turaverdi. Yo'ldoshxon uni o'sha zahoti ishdan haydadi.

Alamzada Safar omadsiz bo'lib yurgan G'ulomga shunday dedi:

– Bilaman, senga maqtanchoq Yo'ldoshxon tuhmat qilgan, tuhmat qilib seni ishdan haydagan.

– Yo'q, Safar, anjirzordan mening o'zim ketganman, – dedi G'ulom.

– Xo'p degin, haydalganiningni hammamiz bilamiz-ku.

– Xo'p demayman, o'zim ketmoqchi bo'lib turuvdim.

- Mayli, boshqa gapni so'ray.
- Tezroq so'ra, ovqat suzdirib qo'ygandim, sovib qoladi.
- Mana shu anjirzorni yaratishda sen Yo'ldoshdan kam ishlagansan, to'g'rimi?
- To'g'ri.
- Anjir nihollari quriy-quriy deganda sen ko'zada suv tashib tagiga quygansan, to'g'rimi?
- To'g'ri.
- Hosil pishib endi pullaymiz deganda seni ishdan haydagan, sen pulingni da'vo qilib borganingda u senga qo'lini musht qilib ko'rsatgan... O'rtoq, men seni yaxshi ko'raman. Yaxshi ko'rganim uchun ham senga yordamlashay deb keldim. O'rtoq o'rtoqqa mana shunaqa paytda yordamlashmasa, bunaqa o'rtoqning nima keragi bor, to'g'rimi?.. Bilasan-ku, Yo'ldosh muttahamlarning piri bo'ladi. Xizr boboga ro'para kelganman deb, hammani aldab, aslida mafiya bilan aloqa bog'lab yurgan ekan, katta o'g'rilar bilan aloqador ekan.
- Yo'g'e! – dedi G'ulom chindan ham xavfsirab.
- Yaqinda olib kelgan quvurlari ham o'g'rilik quvurlar ekan.
- Yo tavba, – ajablandi G'ulom.
- Agar sen, olib kelgan quvurlaring o'g'irlangan, hozir borib militsiyaga xabar qilaman, desang, bilasan-ku Yo'ldosh o'taketgan qo'rkoq bola, qo'rqiб ketib, darrov kafti bilan og'zingni berkitadi, jon o'rtoq, hech kimga aytma, deb yolvoradi. Ana undan keyin sen bo'sh kelmaysan, so'raganiningni undirib olasan... Sen undan pul so'rab borgansan, to'g'rimi?
- To'g'ri, borganman.
- Pulni nima qilmoqchisan o'zi?
- Sholi oqlaydigan elektr tegirmon olmoqchiman.
- Tegirmon olsang, meni ham ishga olasanmi?

– Bo‘lmasam-chi, hamma bekor yurgan o‘rtoqlarimga ish beraman. Men Yo‘ldoshga o‘xshab o‘ntasini oldim, deb eshigimni berkitib olmayman.

Alamzada Safar o‘g‘rilab olgan suratlardan bir qismini o‘zi bilan olib kelgan ekan, «mana, o‘g‘rilar bilan tushgan suratlari, mana, hammasining beti yalpoq, mana, hammasining ko‘zi qisiq, peshonasi yaltiroq... Men bularni anjirzor ichidan topib oldim», deb suratlarni qayta-qayta G‘ulomning ko‘zi yaqiniga olib borib ko‘rsatdi. Alamzada Safar ketgach, G‘ulom Yo‘ldoshxonning oldiga boraymi-bormaymi, yashirin siridan xabardor ekanligimni aytaymi-aytmaymi, o‘g‘rilar bilan sherik ekanligini aytib qo‘rqitaymi-qo‘rqitmaymi, qo‘rqita turib pul so‘raymi-so‘ramaymi, so‘rasam ko‘p so‘raymi, oz so‘raymi, deb uzoq o‘yladi. Yo‘ldoshxonning ko‘cha eshigi oldida turib ham bir qarorga kelolmay, uzoq tik turib qoldi. Bir oldinga, bir ortiga qaytgan bo‘ldi. Bir uf tortib oladi, bir yengilgina tabassum qiladi. Oxiri qo‘ng‘iroqni bosdi. Bosishi bilan yuragi hapriqib ketgandek ham bo‘ldi. Xayriyat, Yo‘ldoshxon uyg‘oq ekan. Yo‘tala-yo‘tala kelib ko‘cha eshikni ochdi. O‘rtog‘ini tanib:

– Nega qorong‘ida turtinib yuribsan? – deb hazilnamo ohangda so‘radi.

– Yo‘ldoshxon, senga bir gapni aytgani keldim.

– Qanaqa gap?

– O‘sanda meni haydaganingda yolg‘on gapirgandim. Pullarni o‘g‘irlatganim yo‘q edi, o‘lay agar qimorga yutqizib qo‘ygandim... Anjirdan bo‘shagan tog‘oralarni Faridaning oldiga qo‘ydim-da, ishonmasang o‘zidan ham so‘rab ko‘rgin, ho‘ nariga borsam, qimor o‘ynashayotgan ekan. Bilasan, qarta o‘yniga qishloqda mendan ustasi yo‘q. Hammangni qoyil qoldirib yurganman. Qarasam, bitta amaki shapkasini teskari kiyib olib, bir yutqazyapti. Yutqazgani

ozrog‘-u, yutgani mo‘lrog‘. Qo‘limga tupirib, yo Jamshid dedim-da, o‘yinga tushib ketdim. Ikki marta bo‘plab yutib ham oldim, keyin yutsam, bir yo‘la ko‘proq yutaqolay, deb anjirdan tushgan pulning hammasini tikib yuboribman... E, o‘rtoq, e, Yo‘ldoshxon, men o‘zi omadsiz bolaman. Pulning hammasini yutqizib qo‘ydim o‘shanda, mana endi yig‘lagim kelyapti.

– Yig‘lama, uyat bo‘ladi.

– Ozgina pul kerak edi-da, o‘rtoq.

– Pulni nima qilasan?

– Toshkentga borib Vengriya elchixonasiga kiraman.

Janob elchi bilan xat ham yozishib turibman. Eshitgandirsan, venger xo‘rozlari urishqoq, ona tovuqlari sertuxum bo‘larkan. Yiliga uch yuz-u oltmishtagacha tuxum berarkan. Mana, elchidan kelgan xat, keling, maslahatlashamiz, debdi. Ehtimol, mening xo‘roz tanlab kelishim uchun o‘zi pul to‘lab jo‘natar.

– G‘ulomjon, bilaman, sen ko‘ngli ochiq o‘rtog‘imsan, lekin xo‘rozbozlikni tashlasang yaxshi bo‘lardi.

– Yo‘q, o‘rtoq, ko‘rasan, men dunyodagi eng zo‘r xo‘rozni yetishtirib, xo‘rozbozlar ichida dunyo rekordini qo‘yaman. Ko‘rasan, menga xo‘rozbozlar oltindan haykal qo‘yishadi.

– Xo‘p, qancha pul kerak borib kelishingga?

– Toshkentga borib kelishimga qancha ketsa shuncha bersang bo‘ldi.

– Keyin-chi?

– Keyin... Ha, mayli, sen jonajon o‘rtog‘im bo‘lganining uchun bir xavfdan ogohlantirib qo‘ymoqchiman.

– Qanaqa xavf, aytaver.

– Yo‘q, yaxshisi, o‘zing bilib olarsan. To‘g‘ri, men yolg‘onchiman, lekin sotqin emasman. Bo‘pti, beradigan pulingni tezroq beraqol.

Ikki o‘rtoq iliqqina xayrlashdilar. G‘ulom so‘ragan pulini undirganidan mamnun edi. Yo‘ldoshxon bo‘lsa,

bu o'rtog'im qanaqa xavf haqida meni ogohlantirmoqchi bo'ldi ekan, bu gapni u takror-takror aytaverdi, deb ancha mahalgacha uyqusi qochib, goh o'ngga, goh chapga ag'anab yotdi. Har qancha o'yamasin, o'sha xavf nimadan iborat ekanligining poyoniga yetolmay, oxiri uqlab qoldi.

XIII bob

Yo'ldoshxon o'rtog'i ogohlantirmoqchi bo'lgan xavf haqida qancha o'yamasin, baribir poyoniga yetolmadi. Yaxshisi, anjirzorimga barvaqtroq boray, deb o'rnidan turdi. Nonushtalik olib mehribon Qobil bobbyoning huzuriga shoshildi. Bobo, odatdagidek bomdod namozini o'qib bo'lib, anjirzor ichida sharillatib o't o'rayotgan ekan.

Qiziq, Zulxumor shu yerda yuribdi, bunaqa barvaqt keladigan odati yo'q edi. Hovuz bo'yidagi baland loysupada hovuzdagi suvga tikilib o'tiribdi. Iloyo tinchlik bo'lsin-da! O'zi ham ma'yusgina, yoshiga hech yarashmaydigan darajada o'ychanroq ko'rindi. Yo'ldoshxon yaqinginasiga kelib qolguncha ham sezmadni u, xuddi jimirlab turgan hovuz suviga tikilgancha uqlab qolgandek.

Yo'ldoshxon baland ovoz bilan:

*– Ul sanamkim suv yoqosinda bir paridek o'lturur,
G'oyati nozikligidan suv bila yutsa bo'lur*

degancha qizga yaqin keldi. – Zulxumor, esingdami, sakkizinchida o'qiganimizda muallima bu she'rni hammamizga yodlatgan edi. Qiziq, negadir uni men nuqul senga qarab o'qirdim. Go'zal eding o'shanda, hozir ham hammadan go'zalsan!.. Iya Zulxumor, nima bo'ldi, tinchlikmi, nega barvaqt kelding, nega bu ahvolda o'tiribsani, nega xomushsan?

Zulxumor boshini asta ko'tarib, charaqlab kulib turgan Yo'ldoshxon ga xunuk qarash qildi. Nigohida nafrat ham, armon ham, izzat-nafsi xo'ranganlik alomati ham bor edi. Yirik-yirik qop-qora ko'zlarida yiltirab yosh tomchilari ko'rindi. G'azab bilan o'rnidan turdi-da, xo'rsinish aralash yig'lab, pichan o'rayotgan Qobil bobo huzuriga yugurib ketdi.

– Zulxumor, to'xta! – deya baqirib yubordi Yo'l-doshxon.

Zulxumor to'xtamadi, orqasiga qaramay qo'l siltadi.

– To'xta deyapman! – yana hayqirdi Yo'ldoshxon.

Yo'q, qiz to'xtamadi. Yugurgilab borib Qobil boboning bag'riga otildi, ho'ngrab yig'lab yubordi, ko'z yoshlari duv to'kilib, boboning oppoq yoqasini yuvib tusha boshladи.

– Qizim, qizim! – derdi Qobil bobo.

– Bobojon, bobojonim, – deb chiroyli boshini, qop-qora sochlarni alam bilan silkitib-silkitib yig'lardi qiz.

– Nima gap o'zi? – hayrat ichida takror-takror so'radi Yo'ldoshxon.

Qobil bobo qo'li bilan sen nariroq ketaqol, degandek ishora qildi, bu yerda tursa Zulxumorning tinchimasligiga ishongani uchun shunday qildi. Bog' to'la anjir uzishga yordamlashgani kelgan hasharchilarga bobo qizning xunuk holatini ko'rsatmaslik uchun shu gapni aytdi, shekilli:

– Fermer qizim, yur, kulbamga kiraylik, bu ahvolda turishimiz durust emas. Axir sen, qizginam, katta fermaning kichik bo'sang ham muovinisan. Yuraqol, – deb Qobil bobo qizni zo'rma-zo'raki o'zi aytganidek «kulbasi»ga boshlab kirib ketdi.

Shoshilib anjir uzayotgan, uzayotganlarga yordamlashayotgan ziyrak Rohila; gap-so'zlarni hammadan oldin bilib oladigan, bilib olgani uchun hammaga

maqtanib yuradigan Farida; olamni suv bossa ham to‘pig‘iga chiqmaydigandek bo‘lib ko‘rinadigan, aslida boshqalardan ko‘ra ham kuyinchak Saddinisolar bobo bilan Zulkumorning ortidan jimgina sezdirmasdan ergashdilar.

Ko‘pni ko‘rgan Qobil bobo to‘satdan paydo bo‘lib qolgan suratlar haqidagi gapni kechayoq surishtirib bilgan, ba’zilarini o‘zi ham ko‘rgan edi. Qiz yonib-kuyib suratlar haqida gapira boshladi, ba’zi birlarini yirtib-yirtib oyog‘i ostida ezg‘iladi.

– Qizim, endi o‘zingni bos, bu suratlarni aslida sen qayerdan olding? – Zulkumordan so‘radi Qobil bobo.

– Kecha Safar tashlab ketgan, – xo‘rsindi Zulkumor.

– Ota-onangga ko‘rsatdingmi?

– Yo‘q bobojon, ko‘rsatmadim, ko‘rsatishga haqqim yo‘q.

– Qizim, ko‘rsatsang yaxshi bo‘lardi. Bu suratlarni men ham ko‘rganman. Hech qanday yomon joyi yo‘q. Alimpodalarga, tumandagi o‘quvchilarning kengashlariga borarding, musobaqaga qatnashgan o‘smirlar bilan qator turib suratlarga tushib kelarding. Yo‘ldoshxon o‘g‘lim o‘sha suratlarni ko‘rib hech narsa demasdi. To‘g‘ri, Yo‘ldoshxon ga Alloh yoqimtoylilikni ato etdi. Bunday yigitchalar hadeb dunyoga kelavermaydi. Ko‘rgan qizlar ko‘pincha o‘zini yo‘qotib, mahliyo bo‘lib qolaveradi. Lekin, qizim, bilib qo‘y, Yo‘ldoshxon esli-hushli yigit, bugun bu shoxga, ertaga narigi shoxga qo‘nadigan qing‘irlardan emas u. Oriyatli, diyonatli bo‘lib yetilyapti... Bilaman, ko‘ngillaringda bir-birlaringga iliqqina mayllaring bor, bir-birlaringga nozik-nozik talpinishlaringni sezib yuraman. Qorabarat o‘g‘lim Saddinisoni bir nafas ko‘rmasa turolmaydi. Betoqat, qiyqirib kulib yuradigan, hamma narsaga qiziqadigan Farida qizim askiyachi o‘g‘lim Akrom bilan bir-birlariga yashirincha ko‘z tashlab olishlarini

sezmaydi, deysanmi? Hammalaringni kuzataman, xudoga shukr, odobi, axloqi joyida bo'lib o'sishyapti, deb xursand bo'laman. Pokiza niyatlaringga Allohning marhamati yog'ilib tursin, deb joynamoz ustida duolar qilaman... Fermer qizim, men hozir masjidda imom bo'lib o'tirgan bobongni ham o'qitganman, aytganman-a, bilasan-a?

– Aytgansiz, bilaman, bobojon.

– Odamlar o'rtasida haqiqat-u adolat o'rnataman, deb yurgan prokuror dadangni ham birinchi sinfga yelkamda ko'tarib o'zim olib borganman, aytganman-a.

– To'g'ri, bobojon, aytgansiz.

– Bog'chada mudira bo'lib ishlayotgan, chaqalolqlar yig'lasa qo'shilib yig'laydigan, kulta kuladigan, o'shalarga qo'shilib o'yinga ham tushib ketaveradigan mehribon onangni ham men o'qitganman... Ha, qizim, bularning ko'pchiligi mening gapimga quloq solgan, jar yoqasiga borib qolganda ogohlantirganman, daryoga cho'kayotganida suvdan ko'tarib chiqqaman... Alloh meni odamlarga yaxshilik qilgin, deb yaratgan ekan, mana shuning uchun ham sening o'nta tengqur o'rtog'ingga bosh bo'lib kelishingga yo'q demadim.

Bobo bilan Zulkumorning bir-birlariga aytadi-gan gaplari hali tugagani yo'q edi. Xuddi shu vaqt Yo'doshxon huzurlariga negadir sustroq kirib keldi, xayoli ham parishonroq. Zulkumorning yonginasidagi kichikroq stulga o'tirdi. Yo'q, bir-birlarining yuzlariga qarasholmayapti. Zulkumor qaltiroq qo'llari bilan stol ustiga o'ndan ortiq suratlarni yonma-yon terib chiqdi. Yo tavba, oniy lahzada surat bo'lib qotib qolgan bu ruhiy holatlar yaqinginada o'zga yurtdan kelgan edi, har birida bir dunyo mazmun borga o'xshadi. Har biri Zulkumorning nozik qalbiga iztiroblar solayotgandi. Birida Oysuluv Yo'doshxonning keng yelkasi-

ga nozik qo'lchalarini tashlab turibdi. Oh, bu shahlo ko'zlardagi sevinch-u shodliklarni ko'rsangiz, go'yo olov bo'lib lovillab yonayotgandek. Boshqa bir suratda Yo'ldoshxon bilan Oysuluv bir-birlarining yuziga kulib boqib, qo'llarini ushlab turishibdi. Oysuluvning xumor ko'zlaridagi bir olam mammuniyatni, tongda ochilishga moyil turgan g'unchadek chiroyli lablaridagi yoqimli tabassumni ko'rsangiz, yuzlarida bamisoli gullar ochilgandek...

Zulkumor yig'lab o'rnidan turib ketdi.

- Zulkumor, - orqasidan Yo'ldoshxon yugurdi.
- Ket, yo'qol!
- Zulkumor, to'xtagin, tushuntiraman, qasam ichib tushuntiraman.
- Yaqinimga yo'lama, qo'lingni tekkizma menga.

Zulkumorning alami kuchli edi, olamga sig'masdi. Axir qizning qalb gulzorida ochilishi kutilayotgan nozik g'unchalar mana shu Yo'ldoshxonga bag'ishlanayotgan edi-ku! Qiziq, birga o'qiganlarida Zulkumor besh baho olganida nazarida o'sha baholarini Yo'ldoshxon uchun olgandek bo'lardi; mактабда o'tadigan tanta-nali yig'ilishlarda Zulkumor o'tani boshqarar, to'lqin-lanib she'rlar ham o'qirdi, nazarida bu she'rlarini Yo'ldoshxonga bag'ishlayotgandek bo'lardi. Institutda o'qigisi kelmay, o'qishni tashlab kelganda aslida Yo'ldoshxonga boshqa qizlar yaqinlashib qolmasin deb, qo'rqqanidan tashlab kelgandi. Qiziq, kitob o'qiganida, fazilatli qahramonlar uchratganida Yo'ldoshxонни ana o'shalarga taqqoslab ko'rardi, taqqoslagan sari bu yigitchaga bo'lgan talpinishi yana o'n barobar oshib borardi. Goho shirin-shirin xayollarga berilib ketar, xayolida anvoyi gullar qiyg'os ochilgan, lolaqizg'al-doqlar baxmal yoygan adirlarda Yo'ldoshxon bilan quvlashib yurgandek bo'lar, bir-birlariga dasta-dasta gullar uzatishar, boshlariga gulchambarlar qo'yis-

hardi. Bular xayol edi, lekin Zulkumorning xayolidagi go'zal haqiqatlar edi.

Yo'ldoshxon qo'lidagi guldastani Zulkumorning boshiga kiygiza turib:

– Sen malikasan! – derdi.

Zulkumor ham Yo'ldoshxonnikidan ko'ra ixchamroq guldastani boshiga kiygiza turib:

– Sen shahzodasan! – deb qo'yardi.

Ha, bularning ko'pi xayoldagi haqiqatlar edi. Yo Alloh, nahotki Yo'ldoshxon qizning ana shunday go'zal his-tuyg'ularga limmo-lim qalbiga biron marta bo'lsa ham nazar tashlamagan bo'lsa, qizning ma'yus tikilishlari, umidvor nigohlarida yonaman deb turgan olov borligini payqamagan bo'lsa... Faqat sen yaxshisan, sen hammadan yaxshisan deydi, xolos. Mana uch yildirki, Zulkumor undan boshqacha so'zni kutayotgandi. Nahotki, o'sha bir og'iz sehrli so'zni endi boshqa qizga aytib kelgan bo'lsa?..

Yo'ldoshxon Zulkumorni kuch bilan o'ziga tortib, lovillab yonayotgan holatida bag'rige oldi. Ko'ksiga bosib, qizib turgan boshini silamoqchi edi, qiz siltanib, uning qo'lidan chiqib ketdi. Yo'ldoshxon o'zini yo'qtogudek bir ahvolda edi. Stol ustiga yoyib qo'yilgan suratlarni birma-bir yirtib-yirtib:

– Mana, mana, mana! – deb surat parchalarini tepkilay boshladi.

Xuddi shu paytda xonaning omonat eshigi sharaqlab ochilib, hovliqqancha, entikkancha Hayitvoy kirdi-da:

– Nega Zulkumorni yig'latyapsan? – deb qo'lini musht qilgancha Yo'ldoshxonning ustiga bostirib kela boshladi. – Men senga bu qizni xafa qilsang, fermanga o't qo'yaman, o'zingni yer bilan yakson qilaman, deb necha marta aytganman? Zulkumorni hech kim yig'latmasligi kerak.

Hayitvoy Yo'ldoshxonni siltab tashqariga olib chiqib keta boshladi. «Agar bu qizni yig'latsang, seni yer bi-

lan yakson qilaman», deya qayta-qayta ayta boshladi. Tashqarida ichkarida bo'layotgan gaplarni eshitaylik, janjal bo'lsa kuzataylik, deb kelganlar anchagina edi. Farida ham, Saddiniso ham, Rohila ham «yetarlicha» ma'lumot olgandek, asta-sekin tarqala boshladilar. Hatto hasharga kelganlarni ham, uyat emasmi, birovlarning gapini poylash, deb o'zları bilan olib ketdilari. To'planganlarning ovozi o'chishi bilan ichkaridan Zulkumor otilib chiqdi, qiziq, go'yo Yo'ldoshxon bilan o'rtalarida hech gap bo'limgandek, xiyla bosiq, sokin ham edi.

– Kamoliddinov, bekorga sening onang hayit kuni tug'magan, sen tengqurlaring o'rta sidagi mayda-chuya da gaplarga aralashish uchun tug'ilgan ekansan, – shu gaplarni aytib, Zulkumor Hayitvoyni itarib-turtib nariroqqa oborib qo'ydi. – Farida, bilaman, senlar ham gap poylagani kelgansanlar. Bilasanlar-ku, biz Yo'ldoshxon bilan har kuni o'n marta urishib, o'n mar ta yarashamiz. Alloh bizni urishish, yarashish uchun yaratgan bo'lsa kerak. Farida, o'rtoqjon, bu gaplarni qishloqqa yoyib aytib yurma, hech gap bo'lgani yo'q. Hammang anjirzorga! Bugun har bittang sakson chelakdan terib chiqmasang, kechasi uylaringga javob bermayman.

XIV bob

Yo'ldoshxon bilan Zulkumorning o'rtalarida bo'lib o'tgan dilsiyohlikka, xayriyat, hasharga kelganlar uncha e'tibor bermadilar, boshlarini ko'tarmay pish gan-pishgan anjirlarni saralab-saralab qutilarga qo'yaverdilar. Har qutisiga ellik so'mdan oladilar, qishloqda bu chakana pul emas, shuning uchun ham janjalga aralashishdan ko'ra, berilib ishlashni ma'qul deb bildilar. Gap poylab borgan Farida, Umida,

Saddiniso, Rohilalar hech bo'limasa ikki-uch kunga yetadigan gap topib kelishganga o'xshaydi.

– Rohila, eshitdingmi? – deydi Farida ovozini pastlatib, yelkasidagi anjir to'la chelaklarni yerga qo'yarkan.

– Nimani? – deb so'raydi Rohila.

– Sen derazaga yaqinroq turgan eding, meni turtib itarib, derazaga yaqinlatmading, hamma gapni eshitding-ku, – deb qistaydi u.

Rohila qo'lidagi anjir to'la ikki katta chelakni yerga qo'yib deydi:

– Voy, o'rtoqjon, ishlar chatoqqa o'xshaydi. Yo'doshxon pismiq ekan, o'zga yurtdan qiz topibdi. Juda boyning qiziga o'xshaydi, uzoqdan bo'lsayam suratiga bir ko'zim tushgandek bo'ldi, kekkayibroq turibdi.

– Xo'p, bo'lari bo'pti, sen menga Zulxumor haqida gapir. Nega u oldin tepinib yig'ladi-yu, keyin lablarda g'alati tabassum paydo bo'lib qoldi, ana shundan gapir.

Fermer xo'jaligida uch-to'rt yilki besh qiz ishlayotgan bo'lsa, bandasi sezmagan bo'lsa ham Allohgaga ayondir, ana shu qizlarning hammasi Yo'doshxondek yigitga yaqin bo'lishni, agar Alloh yo'l bersa, uning muhabbatiga sazovor bo'lishni istagan paytlari ham bo'ladi. Xayollaridan yashirinchcha orzular ham o'tib turadi. Qizlar orasida, ayniqsa, Rohila bilan Farida Yo'doshxonga yaqinroq bo'lishga ko'proq talpinishhardi. Bir yo'l topib bu yigitchaning qalbidan joy olib, mustahkamroq egallab olayotgan Zulxumorni siqib chiqarish haqida pinhona o'ylashardi. Lekin o'layotganlarini bir-birlariga sezdirishmas, hatto o'ylarini o'zlaridan ham yashirishhardi.

Zulxumor bilan Yo'doshxon o'rtasidagi ko'ngilsizlik tezda ko'tarilganini ko'rib, o'zlaricha «xursand» bo'lgandek bo'ldilar:

– Xayriyat, osongina yarashib olishdi, – deyapti Farida, lekin ko'nglining bir chekkasida yarashganliklari uchun xafalik holati bordek edi.

– Yarashmaganlarida ish chatoq bo'lardi, – deb qo'ydi Rohila.

– Urihib qolsalar Zulkumor butunlay ketib qoladimi, deb juda qo'rqedim.

– E, Rohila o'rtoqjon, Zulkumor arazlab ketishi ni ich-ichingdan kutib turibsan-ku. Ketishi bilan Yo'ldoshxonga osilib olarding-u, lekin Hayitvoydan qo'rqasan-da.

– Voy, Farida, dugonajon, nega unday deysan? Sening Akromdan yashirib, Yo'ldoshxonga ro'molchalar tikib bergenningni bilmaydi deysanmi?..

Ikki dugonaning suhbati shu yerga yetganda anjirzor orasidan Zulkumor chiqib kelayotganini ko'rib, xuddi jinoyat ustida qo'lga tushgandek rangi- qutlari o'chdi-da, bir-birlariga g'alati-g'alati qarab olishdi. Anjur to'la chelaklarni supa tomonga ko'targancha borisharkan:

– Gapimizni poylab turgan bo'lsa-ya! – deb shivirladi Rohila.

– E, dugonajonim, bu Zulkumordan hamma narsani kutsa bo'ladi, – dedi Farida.

Boshqa yo'lakchada aravachalarga anjur to'la chelaklarni yuklab borayotgan yigitchalar o'rtasida ham g'alati-g'alati gaplar ketayotgan edi. Ularning ham tong havosidek musaffo qalblarida Zulkumorning surati o'zgacha o'rin olgandek, qizning o'ziga xos tabassumi, tabassum qilganda yuraklarni o'ynatib yuboradigan hech ta'riflab bo'lmaydigan holati g'alati-g'alati hissiyotlar uyg'otar edi. Ana shu hissiyotlar to'lqinini ko'rganda yigitchalarning yuzi-ko'zlarida ham allaqandeck nur porlab ketgandek bo'lar edi. E Alloh, shu qizning qalbida faqat mening suratim bo'lganda edi, deb yashirinchha o'ylagan bo'lislari ham mumkin.

Hayitvoyning onasi Zulxumorlarnikida kir-chirga, oziq-ovqatga qaraydi. Qattiqqo'l, lekin adolatli prokuratorning atrofida parvona. Agar shu inson yolg'izginam Hayitvoyimga qizini bersa, avvalo o'qitardi, bo'lmasa boshqa kuyovlariga o'xshatib fermer qilib qo'yardi, deb o'ylagan paytlari ko'p bo'ladi. O'ylaganlarini goho «yolg'izgina»siga ham aytса, Hayitvoy jerkib:

– Bas qiling, baland dorga osilishni! – deb betoqat o'rnidan turib ketar, ketardi-yu, lekin qalbining bir chekkasidagi umidvorlikni unutolmasdi.

Zulxumor bilan Yo'ldoshxon o'rtasidagi ozginagini dilsiyohlik baribir fermaning yosh a'zolariga ta'sir qilmasdan qolmadi. Ularning ko'nglida g'alati, bir-biriga qarama-qarshi, ham bir-birinikini tasdiqlaydigan, ham inkor qiladigan fikrlarni uyg'ota boshladi. Qizlar o'zlarini qattiq xafa bo'lgandek qilib ko'rsatishyapti. Ko'pincha kamgap bo'lib, o'tirganlarida qovoqlarini uyib ham olishadi. Shunda qiziqchi Akrom qizlarning bu yasama holatlarini chin deb o'ylab, o'zicha ularni xursand qilmoqchi, kayfiyatini ko'tarmoqchi bo'ladi. Dam olishga o'tirishlari bilan Akrom yengini shimarib:

– Hozir hammangni kuldiraman! – deb qo'yadi.
– Kuldirib bo'psan, – deydi nomigagina unga hamisha qarshi gapiradigan Farida.

– Bilib qo'yinglar, men senlardan ko'ra Zulxumorning kayfiyatini chog' qilmoqchiman. Qani, yaqinroq o'tiringlar-chi. Bitta odam mast-alast bo'lib ko'chalar-da, men zo'rman, men sherman, deb baqirib yurarkan. Bu gap shohanshohning qulog'iga borib yetibdi, tutib kelinglar o'sha bezorini, deb farmon beribdi. Tutib kelishgan ekan, mamlakatda bitta sher bo'ladi, u sher men bo'laman, nega sen sherman deb yuribsan, jallod, boshini ol! – deb buyuribdi.

Bezori shoshilib o'rnidan turib, qo'l qovushtirib:

– Taqsir, men sherning urg‘ochisi bo‘laman, – dermish.

– Kuladigan hech joyi yo‘q-ku, – deb qo‘yishdi qizlar.

– Iya, nega kuladigan joyi bo‘lmas ekan? Qo‘rqoq erkak to‘satdan o‘zini xotin deb e’lon qildi-ku... Mayli, baribir, senlarni kuldiraman. E qizlar, bunisi ham mangga tegishli. Farida, Saddiniso, Rohila, mening mana shu gapimdan keyin qachon erga tegish kerakligini bilib olasanlar... O’n yetti yoshli qizgasovchi kelgan ekan, voy, chiroylimi, qoshi-ko‘zi qanaqa, kiyimlari go‘zalmi, deb so‘rabdi. Yigirma bir yoshli qizgasovchi kelgan ekan, voy, uyi-joyi qanaqa, mashinasi bormi, bankda qancha puli borakan, deb so‘rabdi. Yigirma olti yoshli qizgasovchi kelgan ekan, xudoyim-ey, qani-qani ko‘rsatinglar, tezroq ko‘rsatinglar, deb ko‘chaga hovliqib chiqib ketayotgan emish... Bilib qo‘yinglar, yigirma olti yoshgacha er tanlab yurmanglar. To‘yni tezroq o‘tkazish harakatini ham qilaveringlar. O’sha to‘ylarda qiziqchi mening o‘zim bo‘laman, tag‘in bিortasini olib kelib yurmanglar... Xudo xohlasa, men dunyoning eng zo‘r qiziqchisi bo‘laman, rekordlar qo‘yib, Angliyadagi katta daftarga ham yozilaman... Keyin tagobliklar mana shu yigit bizning qishloqdan chiqqan, deb maqtanib yurishadi.

XV bob

Vodiyda oila a’zolaridan biri safarga otlansa, safarri olisgami, yaqingami, buning uncha farqi bo‘lmay, qo‘ni-qo‘shnilar oq yo‘l tilab, qarindoshlar xayrlashib qolay, deb kelaveradi. Bu gal ham xuddi shunday bo‘ldi. Anjir to‘la mashina Avazxon amakining oldidagi maydonga kelib to‘xtashi bilan avvalgi safar kelgan quvurlardan olib, uylariga gaz tushirib olgan qo‘shnilar, agar yana gaz quvuriga ketishayotgan bo‘lsa,

o'shandan olib, uyimizga zangori olov tushirib olamiz, deb umidvor bo'lganlar oq yo'l tilash bahonasida birov qatlama-yu mayda patir ko'tarib, boshqasi bir lagan chuchvaraning ustini oq doka bilan yopib, birovi laganlarni to'ldirib shaftoli-yu uzum ko'tarib kirib kelaverdi. To'xtamasdan Yo'ldoshxonni maqtashadi, agar u quvur keltirmaganda, bu qish ham gazsiz qolardik, degan gapni aytishadi, ora-chora ana shunday o'g'ilni tagobliklarga tug'ib bergani uchun ayaga rahmatlar aytishadi, aya esa choy tashishdan to'xtamaydi. O'rta yoshlilar orasida esa ulkan mashinani xavf-xatarsiz o'zga yurtga minib borib kelayotgan Avazbek amakiga rahmatlar yog'iladi, amaki qo'lini ko'ksiga qo'yib arzimaydi-arzimaydi, deb qo'yadi.

To'satdan askiya ham boshlanib ketadi:

– Avaz o'rtoq, – deydi qo'shnilardan biri. – Ilgari kampirlarni ko'p tashirding, «Kampiravoz» degan nom oluvding. Endi anjir tashiyapsanmi?

– Ha, anjir tashiyapmiz.

– Demak, endi noming «Anjiravoz» bo'ladimi?

Davrada yengil kulgi ko'tariladi.

Boshqa bir qo'shnisi baland ovozda so'raydi:

– Avazbek, qo'shni yurtga o'rik, mayiz ham olib borib sotyapsanmi?

– Ha, unisidan ham, bunisidan ham bo'lib turibdi.

– Unday bo'lsa nomingni «Mayizzavoz» yoki «O'rika-voy» qo'ysak bo'larkan-de.

Qo'shnilar miriqib kulishadi.

– Avazbek, qo'shni.

– Labbay, qo'shni.

– Haligi bolalar o'ynaydigan paq-paq etib otiladigan narsalardan tag'in olib kelib yurmagin. Unda noming «Mushakvoz» bo'lib qoladi-ya.

Nariroqda Yo'ldoshxonni ham yosh-yosh fermer, tadbirkor o'rtoqlari, biz ham o'shalarga o'xshasak, deb

kelgan umidvor o'smirlar o'rab olgan. Ular uchun ham Yo'ldoshxon go'yo qahramonga aylangan. Uning har bir so'zini eshitishga ishtiyoqmand bo'lib o'tirganlar ham bor. Ana shu umidvor bo'lib kelganlardan biri sekin gap boshlaydi:

– Yo'ldoshxon, jon qo'shni, bizni ham olib ket-sang-chi, tokaygacha Tagobda tappi dumalatib yur-amiz?

– O'rtoq, sigirlarimiz ham tezakni kam tashlaydigan bo'lib qolyapti.

Ikki qo'shnining savol-javobi sabab bo'lib, teng-qurlar o'rtasida qizg'in munozara boshlanib ketdi.

– E, o'rtoqlar, boshqa yurtlarni orzu qilmanglar.

– Orzu qilsak nima bo'pti?

– O'sha yurtdagi ustomonlar o'n so'mga shartnoma tuzib, ishi bitgach, bir so'm ham bermay, tezroq ket, pasporting yo'q ekan, qamayman, der ekan.

– Pasporti bo'lsa-chi?

– Pulini bergisi kelmagandan keyin baribir bir ba-hona topadi-da.

– Yo'ldoshxon, ochiq ayt, yangi ishxona ocharmish-san?

– Xudo xohlasa, ochaman.

– Kimplarni ishga olasan?

– Kam gapirganlarni olaman.

– Unda Juma soqovni ishlatarkansan-da.

– Yo'ldosh, hazilni qo'y, o'rtoq. Rostdan ham ishxona ochasanmi?

– Tunuka, temir sotadigan do'kon ochishni xayol qilib yuribman.

– Lekin do'konni o'zing ochib, molni o'zing sotgan-ing yaxshi. Quvurlaringni past mahalladagi ucharlar ikki-uch barobar qimmatiga sotishdi, bilgandirsan?

– Bilaman, hammasini bilaman!

Izn bersalar, yigitchalar tong otguncha suhbat qurmoqchi edilar. Ammo Hamroxon aya charchadi,

uyqusirab choynak ko'targancha molxonaga ham kirib ketdi. Oxiri «Hoy qo'shnilar, tarqalinglar, bechora bolam tongda safarga chiqadi, ozgina uxlab olsin» deb, yer tepinib qo'ydi.

Kuzatgani kelgan otaxonlardan biri olis safarga ketayotgan ota va o'g'ilga Allohdan himoya so'radi, oq yo'l bersin, dedi. Qishloqqa gaz tushiraman deb quvur olgani ketayotgan ota-bolalarni Alloh o'z panohiga olsin, deb qo'llarini baland ko'tarib fotiha o'qidilar.

Hamroxonaya oqshomdan buyon o'ychanroq bo'lib qolgan o'g'lini yolg'iz topolmay, aytishi zarur bo'lgan ikki og'iz so'zini aytolmay betoqat edi. Qaysi ona o'g'li safarga otlanayotganida betoqat bo'lmaydi, deysiz, ayniqsa, o'g'il yakka-yu yolg'iz bo'lsa!

– Qani bolam, yonimga o'tir-chi, – dedi Hamroxonaya bor mehr-muhabbatini ovoziga jam qilib. – Bir-ikki kundan buyon gaplashaman, deyman, qorangni ko'ssatmaysan. Agar hamma fermerlar ham onasini ana shunday sog'intirib yursa, o'g'lim, yaxshisi fermerligingni tashla, bir kuning o'tar... Qani, o'g'lim, gapirchi, fermangda qanaqa gaplar bo'lib o'tdi? Hayit polvonning onasi Tagobni vahimali gaplar bilan to'dirib yubordi-ku. Bu gaplarni eshitib, zor-zor yig'ladim. Nega uni urding, urmasang ishing yurishmasmidi? Haydayman debsan, bechora yigitcha shaharda sarson bo'lib ish axtarib yurgan, axir.

– Ayajonim, jonio ayam, – deb onasining yoniga surilib o'tirdi Yo'ldoshxon. Bag'riga oldi. Qatiq hidi ufurib turgan sochlardan to'yib-to'yib hidlagan bo'ldi. – Zulkumor bilan gap talashib turuvdik. Hayit to'satdan yugurib kirib, meni sudrab tashqariga olib chiqdi... Keyin Zulkumor ikkovlaring gaplashib turganingda ruxsatsiz bostirib kirganim uchun kechirim so'rayman, deb qayta-qayta yolvordi.

– Bor gap faqat shumi?

- Faqat shu.
- Zulkumor allaqanday suratlarni yirtgan emish, oyog‘ining ostiga olib ezg‘ilagan emish...
 - Kimdan eshitdingiz bu gaplarni?
 - Hayitvoyning onasi aytdi.
- Ayajon, ayajonim, Zulkumor yirtib tashlagan suratlarni sizlarga ko‘rsatganman. Oilaviy suratlar edi. Oysuluvning onasi, otasi, akasi – hamma-hammamiz tushgan suratlar edi.
 - O‘g‘lim, rostini ayt, o‘sha yetti yot begona qiz bilan bir-biringning yelkangga qo‘l tashlab, ko‘zlaringga tikilib turgan suratlar ham bormidi?
 - Bu gaplarni kimdan eshitdingiz?
 - O‘g‘lim, Tagobda gap ko‘payib ketgan... Sen esli-hushli yigitsan. Xorijda ishlayman, deb ketib, sap-sariq qizni yetaklab kelgan Odilga o‘xshamaysan, olis yurtga pul axtarib borib, o‘zidan o‘n yosh katta, kampirdek munkayib qolgan xotinga uylanib, qora chamadonini ko‘tarib kelgan Olimga ham o‘xshamaysan. Sen o‘g‘lim, yurtga so‘zini bermay yurgan Avazbekning o‘g‘lisan... Qadamingni bilib bos. Prokurordek obro‘li odam senga qizimni beraman, deb yuribdi-ya!
 - Ayajon!
 - Jim tur. Zulkumorning ham senda ko‘ngli borligini hamma biladi. Uni ham, otasini ham xafa qilma. O‘sha rahmdil prokuror bo‘lmaganida sen uch gektar yerni qanday saqlab qolarding.
 - Ayajon, men Xizr boboni ko‘rganman, shuning uchun u yerlarni saqlab qolganman.
 - Lekin o‘g‘ilginam, o‘sha yerlarning hujjatini prokuror amaking to‘g‘rilab bergen-ku.
 - To‘g‘ri, to‘g‘rilab bergen, lekin bitta buqaning pulini sanab ham olgan.
 - Jim bo‘l, og‘zingdan chiqarma bu gaplarni, – Hamrohon aya qo‘rqib ketdi shekilli, u yoq-bu yoqqa olazarak qarab oldi.

Avazbek amaki molxonadan shoshilib chiqdi, qiziq odati bor uning, safarga jo'naydigan bo'lsa, xotininim, qizlarim buqalar oldiga borishga qo'rqiadi, deb oxurlarni limmo-lim to'ldirib xashak tayyorlab ketadi. U oqshomdan buyon boshini ko'tarmay jodida poya qirqayotgan edi, ona-bolaning past-baland so'zlari yoqmay:

– Hamro, yana diydiyoingni boshladingmi? – dedi tanbeh ohangida. – Bilaman, safarga jo'nayotganimda bir bahona topib, ichingni bo'shatib olmasang bo'lmaydi. Yo'ldoshxon, yur o'g'lim, poyani ushlab turmasang bo'lmaydi, bir haftalik xashakni g'amlab ketmasak, bu onang novvoslarga ham xashak o'rniغا diydiyo o'qiydi.

XVI bob

O'y surishga, poyoni yo'q xayollar dunyosiga g'arq bo'lishga bu yurtning biyday cho'llari eng qulay ekan. To'rtinchi tezlikda borayotgan mashina bamisoli suvda suzayotgan baliqdek ovozsiz ketaverarkan-ketaverarkan. Atrofdagi kenglik qarama-qarshi o'ylaringga, goh quvonch, goh g'ussa keltiradigan xayollaringga rivoj berib boraverarkan. Hozir ota ham, o'g'il ham o'z o'ylariga «g'arq» bo'lishgan. Bamisoli yelkasidagi og'ir yukni jimgina tortib borayotgan mashina o'zi yurayotgandek, o'zini o'zi boshqarayotgandek, bamisoli bu yo'llardan ilgari bir necha bor o'tgan-u, barcha burilishlarni, barcha chuqur chanoqlarni o'zi biladigandek. Goho ota nimadandir zavqi oshib o'g'lining tizzasiga beixtiyor bir urib qo'yadi, goho o'g'il allaqanday chuqur o'ylarga botib, xo'rsinib-xo'rsinib oladi. Ota buqalarimni yaxshi boqib, yaxshi pul qilsam, katta qizimning to'yiga yetarmikin, deb qiz to'yida katta osh berishni qaysi esi yo'q o'ylab chiqargan ekan, deb g'ijinib-g'ijinib qo'yadi. O'g'il bamisoli ikki o't orasida yonib borayotgandek. Qiziq, Zulkumorni o'ylasa, orqasida charaqlab kulib

turgan Oysuluvni ko'rib turgandek bo'ladi. Xayolini uzib ololmay Oysuluvga uzoq tikilib qoladi. Oysuluv yana charaqlab kulgandek bo'ladi, kulgisidagi quvonch, mamnuniyat, masrurlik olamga to'lib ketgandek bo'ladi... Xiragina ko'rinyayotgan Zulxumor unsiz yig'layotgan bo'ladi, yig'isidagi g'ussa-yu alam yuraklarni teshib yuborgudek bo'ladi. Qiziq, qizlardan biri yuragini o'ng qismida, boshqasi chap qismida o'rin talashayotgandek tuyuladi. «Nega uning suratini yirtding, u senga nima yomonlik qildi, Zulxumor?» deb so'raydi o'zidan Yo'ldoshxon, suratlarni ehtiyoj qilolmagani uchun o'zini o'zi ayblay boshlaydi. Yana bir nafasdan so'ng yig'lab turgan Zulxumorni ko'z oldiga keltiradi-da, endi unga achina boshlaydi, qalbida achinish bilan lovillab yonayotgan olov almashinib-al-mashinib turadi.

Har-har zamonda qalbini lovillatib yondirib kuydirayotgan cho'g' nima ekan?.. Nahotki sevgi deganlari shu bo'lsa, qiziq, sevgi o'zi qanaqa bo'ladi, rangi bormi, ovozi bormi?.. Sog'inishmi, sog'inib ko'rishganda o'zini yo'qotib qo'yishmi?.. Nega Zulxumorni kam o'layapman, nega Oysuluv ko'zimdan nari ketmayapti?.. E, Xudo, e, Xudoyim, e, Xizr bobo menga yordam berinqlar... deya xo'rsina-xo'rsina o'ylab boryapti.

Alloh bandalarimning ishi oson bo'lsin, deb qo'l telefonini yaratgan ekan. Hammasi Allohdan keladi, deganlari rost ekan. Yo'lning yarmini bosib o'tguncha Yo'ldoshxon Zulxumordan ko'ngil so'rab turdi. Qiz quvnoq, shodon ovozda tinch ketyapsizlarmi, tepadagi qutilar qiyshayib, sizlarni qiyab qo'ymayaptimi, Allohim sizlarni qo'llasin, – deb turdi. Yo'lning yarmini bosib o'tishgach, endi Oysuluvning kishiga dalda beradigan ovozi eshitila boshladи: «Qaysi bekatga keldilaring, qaysi bekatda to'xtadilaring, necha kilometr yo'l bosdilaring, balloonlar yorilmadimi...» Oddiygina

so'zlar, ammo har birini eshitganda Yo'ldoshxonning qalbiga shodlik quylgandek bo'ladi, yana va yana eshitgisi keladi.

– O'g'lim, nimalarni o'ylab ketyapsan? – deb so'rab qoladi Avazbek amaki.

– Dadajon, rostini aytaymi? – ma'yus ohangda so'raydi o'g'li.

– Aytaqol, o'g'lim.

– Sizni yaxshi ko'raman.

– Hamma ham o'z otasini yaxshi ko'radi, o'g'lim.

– Yo'q, dadajon, siz boshqachasiz.

– Men qanaqa ekanman?

– Mening akam ham, ukam ham, yuragimga yaqin tengdosh o'rtog'im ham yo'q. Hech kim bilan sirdosh bo'lib so'zlasholmayman.

– Bu yaxshi emas. Har bir kishining ko'ngliga yaqin sirdosh o'rtog'i bo'lishi kerak. U bilan sirlashsa, dili yorishadi, g'am-tashvishlari kamayadi, kayfiyati ko'tariladi.

– Dadajon, qalbimdagи bir sirni sizga aytmoqchiman. Aiting-chi, sevgi nima o'zi, u qanaqa bo'ladi?

– O'g'lim, sevgi ham bog'dagi daraxtlarga o'xshab har xil bo'ladi. Birovi novcha, birovi pakana degandek, birovi mevali, birovi mevasiz, hech biri bir-biriga o'xshamaydi.

– Dadajon, siz ayamni sevgansiz, men buni aniq bilaman. O'shanda siz qanaqa bo'lgansiz?

– Nima desam ekan? Qishloqqa boraverGANman-bo-raverGANman, ko'chasidan ashula aytib o'tavergANman-o'tavergANman. Ko'rsam, xursand qaytGANman, ko'rmasam, yer tepinib qaytGANman.

– Dadajon, yana bitta savol beraman. Qiz bilan yigit bir ko'rishda bir-birini sevib qolishi mumkinmi?

– E, o'g'lim, e, suyangan tog'im, hali aytdim-ku, sevgi har xil bo'ladi. Bu savolga sen javobni aslida

o'qigan kitoblaringdan axtarishing kerak edi. Lekin sen kam o'qiysan. Bilaman, sening sevgan kitobing – anjirzoring. O'sha anjirlarning barini kitob o'rniغا varaqlaysan. Har bir anjir – kitobining varagi. Xullas, o'g'lim, o'zing yaxshilab o'ylab ko'r, har bir sevgi o'ziga xos bo'ladi. Men bilan sirdosh bo'lmoqchi bo'lding, bilganimni aytay. Farhod Shirinni «oynai jahon»da ko'rib qolib sevgan, o'qigansan-a?

– Sakkizinchи sinfda o'qiganmiz.

– Shoira Uvaysiyning she'rlarini ikkovimiz to'ylarda ashula qilib aytardik, esingdami? Ana shu shoira Mashrab degan katta shoirni ko'rmasdan unga oshiq bo'lgan. O'lib ketgan odamga ikki yuz yildan keyin muhabbat izhor qilgan, ana ko'rdingmi, sevgi har xil bo'ladi deyapman-ku. Bir necha yil birga yurib, bir-birini sevolmaganlar ham ko'p, bir ko'rishda os-hiq bo'lib jinni bo'lganlar ham ko'p... Men bilan birga yurib ashula aytadigan Abdufattoh amaking bor edi-ku, eslaysanmi, rahmatli xotinini tushida ko'rib sevib qolgan ekan. Xotini o'luvdi, o'ziyam uzoq yashamadi, tezroq oldiga boray, deb o'ldi-qoldi. Yana aytaman, sevgi ham bog'dagi gullarga o'xshab har xil bo'ladi. Birisi xushbo'y bo'ladi, olamni muattar hidga to'ldirib yuboradi. Bir xili quruq yog'ochdek bo'ladi, hid bermaydi... O'g'lim, suhbatni bas qilaylik, shaharga yaqinlashib qoldik.

O'tgan gal kelganlarida kutib oluvchilar yo'q edi. Bu gal qo'llaridagi telefonning tinmay ishlab turishi, to'xtamay jiringlashi sabab bo'ldimi, kutib oluvchilar ko'proq kelibdi. Chinni bilan savdo qiladigan yigit ham, Turkiyadan meva oladigan yosh tadbirkor ham, O'zbekistonda parfyumeriya – upa-eliq sotiladigan do'kon ochsak qalay bo'lar ekan, deb so'ragan qiz ham, chet eldan ko'proq poyafzal tushirganman, yarmini O'zbekistonga jo'natmoqchiman, deb kuy-

di-pishdi qilgan qiz ham kelibdi. Oysuluvning ikki yonida xuddi malikani kuzatib kelgandek g'urur bilan turishibdi. Oysuluv tongda ochilgan atirguldek yal-yal yonyapti, qo'lida bir dasta gul. Gullarda ham qizil olov chaqnayotgandek. Yo'ldoshxon Oysuluvning yonib turgan ko'zlariga bir boqdi-yu, oyoqlari kalovlanib qoldi. Qizlar ko'rishayotganlarida uning peshonasidan o'pgandek ham bo'lishdi, o'rischalab ancha-muncha so'zlarni aytishdi. Oysuluv uning peshonasidan ko'rishish bahonasida yengilgina o'pganida ko'zları charaqlab ochilib ketgandek bo'ldi. Tagobda yigitlar bilan bo'y qizlarning bunaqa o'pishadigan odatlari yo'q edi. Yo'ldoshxonning dovdirashi yanada kuchaygandek bo'ldi. Faqat:

– Yaxshi, yaxshi, yaxshi, – deb kulib qo'ydi xolos.

Ko'pni ko'rgan Avazbek amaki kutib olganlari uchun behad sevinib ketgan edi. Sevinchini yashirolmay yigitlardan goh unisini, goh bunisini o'pib, bag'riga bosib ko'tarib-ko'tarib qo'yyapti. Beksulton birga kelgan o'rtoqlariga Avazbek amakini tanishtirarkan:

– Farg'ona vodiysining bosh bog'boni, – deb qo'ydi.

– Butun vodiyning quruq mevasi mana shu kishining qo'lidan o'tadi.

Hol-ahvol so'rashish uncha cho'zilmadi. Shoshilib yo'nga tushdilar. Zavodning katta hovlisida yana miting bo'larkan. «Profkom» ona tezroq kelinglar, deb qistab turibdi. Shaharning obro'li kishilari to'plangan emish, do'stona aloqamizni yanada kuchaytiramiz, deb kelishgan emish. O'tgan gal xuddi mana shu zavod hovlisida miting bo'lganida Avazbek amaki «bizda mevalar ko'pligidan tagiga to'kilib, achib-chirib yotibdi, mevalarimizning yarmini qushlar yeb ketadi», deb Yo'ldoshxonning fikricha, ancha sharmanda bo'lishgan edi. Shuni o'ylab Yo'ldoshxon:

– Yana miting bo'ladi? – deb shoshilib so'radi.

– Miting bo‘ladi, lekin qisqa bo‘ladi. Sen qizlar bilan o‘pishib bo‘lguningcha mitingni tugatamiz.

Zavod tomonni mo‘jal olib yo‘lga tushdilar. Mashinalardan birini Oysuluv haydab kelgan ekan. Qo‘yarda-qo‘ymay Yo‘ldoshxonni yoniga o‘tqazib oldi. Tadbirkor qizlar to‘xtamay so‘zlashib borayaptilar, sizlarda tadbirkor yigitlar ko‘pmi, ular qanaqa mashina minadi, sizlarda yigitlar chirolyi bo‘ladimi, qizlar chiroylimi, deb borishyapti. Oysuluv yoniga o‘tirganligi sabablimi, Yo‘ldoshxonda yana dovdirash holati boshlanganga o‘xshaydi.

– Yaxshi – deydi-yu, boshqa biror so‘z aytolmaydi, aytolmagani uchun xijolatligi yana avjiga chiqib borayotgandek bo‘ladi.

Zavodning katta darvozasi oldida mashinadan tushdilar. Mashinadan tushishlari bilan ko‘zlari «Qardosh vodiyan kelgan mirishkor bog‘bonlarga alangali salomlar, xush kelibsiz, aziz mehmonlar!» degan yozuvga tushdi. Yo‘ldoshxon shoshilib dadasingin qulog‘iga «Iltimos, tag‘in so‘zga chiqqa ko‘rmang, yana sharmanda bo‘lamiz», deb shivirladi.

– Qo‘rqma, o‘g‘lim, ularni bu gal boplayman, – deb qo‘ydi otasi.

Hol-ahvol so‘rashish uzoqqa cho‘zilmadi. «Prof-kom» ona yana ishboshi ekan, ayol bo‘lgani uchun mitingga nuqlu ayollarni taklif qilibdi. Ko‘pchiligi ish kiyimida shoshilib, yugurib chiqishayotganga o‘xshaydi. Shahardan kelgan aziz mehmon ham ayol ekan. So‘zga birinchi bo‘lib chiqib, shahar ishchilari bilan vodiyning bog‘bonlari o‘rtasida do‘stona, samimiy aloqa boshlanayotganini aytib, uzoq maqtadi, o‘zi ham vodiya uch bora safar qilgan ekan. Agar vodiyning mirishkor bog‘bonlari qarshi bo‘lsalar, shirin-shakar mevalarga to‘ldirib yuborishlari mumkinligini aytib:

– Vodiyingizga Alloh nazar qilgan! – degan so‘zni aytib, qarsak chalganicha minbardan tushib ketdi.

Raislik qilayotgan «profkom» onaning:

– So‘z vodiy delegatsiyasining boshlig‘iga, – deyishi bilan Yo‘ldoshxon oldingi voqealarni eslab, yana bir qalqib tushdi. Avazbek amaki cho‘ntagidan katta konvert chiqarib, ichidan xat oldi-da, baland ovozda o‘qiy boshladi:

«Alloh nazar qilgan bu shaharning muhtaram saxiy, saxovatli ishchilariga Tagob qishlog‘i mehnatkashlari nomidan alangali salomlar. Aytib ado qilib bo‘lmaydigan minnatdorchiligidimizni qabul qilgaysizlar. Berib yuborgan quvurlar tufayli uylarimizda lovillab gaz yondi. Taomlarimiz lazzatli bo‘lib, kayfiyatimiz ham a’lo bo‘lib qoldi.»

Bog‘chadagi chaqaloqlar rahmat aytyapti.

O‘choq boshidagi onaxonlar rahmat aytyapti.

Masjidga namoz o‘qigani borgan bobojonlar rahmat aytyapti.

Yaxshi pishgan uzumlarimiz, nordon-nordon noklarimiz, shirasi oqib turgan anjirlarimiz, umrni uzoq qiladigan o‘riklarimiz – bog‘larimizda nimani yetishtirayotgan bo‘lsak, endi ularni sizlar bilan baham ko‘ramiz, Allohu akbar.

Tagob qishlog‘i oqsoqollar

kengashi raisi

A. Madumarov

Xoneshon bobo masjidi

imomi xatibi

Hoshim hoji

Mullaboy o‘g‘li»

Yo‘ldoshxon ko‘pgina yig‘inlarda bo‘lgandi, lekin bunaqangi gurillab chalingan qarsaklarni eshitmagan-di, beixtiyor qarsakchilarga qo‘shilib ketdi, dadasini qayta-qayta quchoqlab ham qo‘ydi.

2-QISM
ISHQNING LAZZATLI IZTIROBLARI

I bob

Qishloqqa elyotar paytda kirib keldilar. Mashinani ko'cha eshigi oldidagi yalanglikda qoldirib, oila a'zolari bilan hol-ahvol so'rashishga hollari ham kelmay, es-on-omon ko'rishganlariga qayta-qayta shukronalar aytib, tappa-tappa tashlab uxlab qoldilar. Kun chiqay deb qoldi-yu, na ota uyg'onadi, na o'g'il. Hamro aya erining oyog'idan tortib, o'g'lining peshonasidan ohista-ohista o'pib, betlarini yumshoq-yumshoq silab uyg'ota boshladi.

– Boshimga yana bir dunyo g'alva keltirdilaring, shekilli? – deb jerkib-jerkib gapirib ham qo'yyapti.

Ota-bola darrov o'rinlaridan turib ketishmadi. Olti kunlik yo'l azobi, olti kunlik uyqusizlik hali vujudlarini tark etmagandi. Kerishib-kerishib, esnashib-esnashib o'rinlaridan turishdi.

– Hoy erkak, tezroq bo'sangiz-chi, hamma yoqni odam bosib ketdi, deyapman! – endi rosmana baqirib yubordi ayoli.

Uyquga yaxshi to'yungan Avazbek amakingning qulog'iga «Mashina odam bosib ketdi», deb eshitildi, shekilli, qani-qani, iya-iya, deb sakrab o'rnidan turib, yalang oyoq holda ko'chaga yugurdi:

– Kimni bosibdi, qachon bosibdi?!

Kelganlar ko'p edi, to'p-to'p bo'lib turishardi. Quvurlar bu gal bizga keldi, deb qattiq ishongan dasht mahallaliklar bir guruh, o'tgan gal quvur olib, ishi bitmay qolganlar, xudo xohlasa, bu gal albatta olamiz, deb yeng shimarganlar bir guruh, o'zlarini Yo'ldoshxoniga yaqin olib yurgan yosh-yosh tadbirkor, fermer

yigitchalar yana bir guruh bo'lib, bir-birlariga kesatiq so'zlar aytib turishgan edilar.

– Avazbek, tush ko'rdingmi? – deb so'radi bir kishi.

– Haydovchi xalqi tushida doim odam bosadi, – deb qo'ydi boshqasi.

Xuddi shu paytda «Oq jiguli» to'xtadi-yu, ichidan baland bo'yli, anchagina qorin qo'yishga ham ulgurgan, yelkasida kapitanlik darajasini ko'rsatuvchi pogoni bor qirq-qirq besh yoshlardagi bir kishi tushib, o'-ho', jamoat jam-ku, deb keksaroq kishilardan bir-ikkitasi bilan qo'l berib so'rashdi-da:

– Fermer Yo'ldoshxon Avazbekov qaysi birlaringiz bo'lasiz? – deb quruqroq, sovuqroq bir ohangda so'radi.

Yo'ldoshxon uyqusiragancha uylaridan chiqib kelayotgan edi:

– Men bo'laman, – deb qo'ydi.

– Ofisingiz qayerda?

– Ofisim yo'q, – deb javob qaytardi u, – darsxonamni ofis qilib olganman.

Kapitan o'tirganlarga qarab, ukamiz bilan ozgina suhbatimiz bor, uzr, ichkariga kirishga to'g'ri keladi, deb Yo'ldoshxon «Ofis» deb atagan xonaga kirdilar. Ilgari bu yer ham o'ziga, ham opachalariga darsxona bo'lgani uchun oyoq ostilarida ham, eshigi olib tashlangan shkaflarda ham limmo-lim kitoblar bor edi. Kapitan o'tirmoqchi bo'lib joy axtargan bo'ldi, o'tirishga joy topolmagach, o'zini militsiya idorasidan kelgalligini, unvoni kapitan ekanligini aytib tanishtirdi, cho'ntagidan kichikroq shapaloqdek keladigan hujjat ham olib ko'rsatdi.

– Demak, familiyangiz Avazbekov? – to'satdan so'rovni boshlab yubordi kapitan.

Yo'ldoshbek stul ustidagi dasta-dasta kitoblarni olib, stulni sochiq bilan artgan bo'ldi va kapitanni o'tirishga taklif qildi.

- Demak, familiyangiz Avazbekov? – savolini takrorladi kapitan.
- Xuddi shunday, Avazbekov bo'laman, – shoshilib dedi Yo'ldoshxon.
- Ismingiz?
- Yo'ldoshxon.
- Tug'ilgan yilingiz?
- O'n sakkiz yoshdaman.
- Fermerlik guvohnomangiz bormi?
- Bor. Olti yuz sakson olti raqamli guvohnomam bor.
- Fermerlik harakatini qachon boshlagansiz?
- Aytsam ishonmaysiz, uch yoshimda boshlaganman. Tushimda Xizr boboni ko'rganman. Anjir ko'chatini ek, bolam, fermer bo'lasan, deganlar. O'sha kuni tilim ham chiqqan ekan, anjir so'zini aytishim bilan boshlangan ekan.
- Menga qarang, yigitcha, hazilni qo'ying. Fermerlikni qachon boshlagansiz deyapman.
- Uch yoshimda dedim-ku, amaki.
- Men amakingiz emasman. Rasmiy ish bilan keldim, maynabozchilikni bas qiling.
- Rost gapga ishonmayapsiz-ku.
- Bu gaplaringizga hech kim ishonmaydi.
- Ishonmasangiz, men ham endi sizga javob qaytarmayman. Tuman yosh fermerlar raisi hokimning muovini bo'ladilar, ana shu amaki kimda-kim sizlarni so'roqqa tutmoqchi bo'lsa, oldin men bilan gaplashsin, deganlar. O'sha amakini olib kelmasangiz, sizga javob bermayman.
- E uka, yosh bolalik qilyapsiz. Ustingizdan shikoyat tushgan. O'tgan gal sotganingiz, kecha oqshom olib kelgan quvurlaringizni o'g'irlilik deb aytishyapti, sizni mafiyaga sherik deb yozishyapti.
- Amaki!

- Meni amaki, demang, men kapitan Shokirov bo'laman.
 - Mayli, yana bir marta amaki, deyaveray. Men bu quvurlarni peshona terimiz bilan yetishtirgan anjirlarimizni sotib, ana o'sha pullarga olib kelganman.
 - Xo'p, mayli, o'sha anjirlarni qayerda sotgansiz?
 - Ishqilib sotganmiz-da.
 - Qayerda sotgansiz, deyapman, nega o'zingizni eshitmaganga olyapsiz?
 - Aytmayman, Ochilov amaki siringni hammaga ham aytaverma, degan.
 - Xo'p, mayli, kerak bo'lsa, aniqlab olamiz. Quvurlar qayerdan olinganligi, kim tomonidan berilganligi haqida biror hujjat bordir axir? Qani o'shani ko'rsating menga.
 - Bor, lekin ko'rsatmayman.
 - Qiziq, nega ko'rsatmaysiz?!
 - Ko'rsatishni xohlamayman.
 - Men sizga, Avazbekov, militsiya idorasidan kelganman, deb aytyapman. Savollarimga to'liq, aniq javob bermassangiz, o'zingizga qiyin bo'ladi.
 - Qiyin bo'lmaydi, bizni – yosh fermerlarni hukumatimiz himoya qiladi.
- Ikki tomonlama qarama-qarshi fikrlar asta-sekin kuchayib bordi. Kapitanning qo'lida noma'lum kishi tomonidan yozilgan xat turibdi. Va yana shu kechasi uning uyiga yosh fermer mafiya bilan hamkorlikda yana quvurlar tushirdi, degan qo'ng'iroq ham bo'ldi. Kapitan besh-o'n kun avval viloyat bazasidan hisobsiz quvurlar o'g'irlanganini eshitgan edi. Mana shu tunda bo'lgan ma'lumotlar bilan oldin olgan ma'lumotlarini taqqoslab ko'rsa, chindan ham katta jinoyatga o'xshab ko'rindi. Sapchib o'rnidan turdi, mashinasiga gaz bosdi, Avazbek amakining hovlisi oldiga uchib kelgandek bo'ldi. Mashina ustidagi quvurlarga ko'zi tushdi-yu,

xayriyat, vaqtida yetib kelganim, ozgina kechiksam, yana chalkash bo'lardi, deb o'ylab, savol-javobni boshlab yuborgan edi. Agar bu chindan ham o'g'irlik quvurlar bo'lsa, chindan ham mafiyaga sherik bo'lsa, agar jinoyatning poyoniga yetsam, xudo xohlasa, katta unvon olaman, albatta, mayor degan pogonni yaltiratib yelkamda taqib yuraman, – deb ham o'ylay boshladi.

Yo'ldoshxonning oyoq tirab, qaysarlik qilishiga esa boshqa bir muhim sabab bor edi. Avvalgi safar quvurlar olib kelganida ham qishloqdagi katta-kichik tadbirdorlarning ko'pchiligi «bu oltinga teng molni qayerdan olib kelding, o'rtoq, biz ham sherik bo'laylik, birga boraylik», deyishib, Yo'ldoshxonni xo'p qistovga olishgan edi. Yo'ldoshxonning ichiga joylashib olgan shayton esa «Siringni ochma, qayerdan olganiningni aytma, ular sendan ko'ra tajribaliroq, o'sha yerga borib quvurlarni sendan avvalroq olib qo'yishadi, sen ikki qo'lingni burningga tiqib qolaverasan», deb shivrlagan edi.

«Kapitan o'shalarning odami, mendan sir olish uchun quvurlarni qayerdan olib kelganimni bilib berishini tayinlab jo'natishgan, agar bilib bersang, senga shuncha pul beramiz, degan bo'lishlari ham mumkin.... Yo'q-yo'q, men senlarga sirimni ochib qo'yadiganlardan emasman, quvurlarni olib kelishimda Xizr bobom yordamlashgan menga... Qishlog'imizdagi barcha odamlarga yetarlicha quvurlar keltirmagunimcha, tomlarini oq tunuka bilan yopib olmagunlaricha bu sirni aytmayman, hech kimga aytmayman», deya o'zi bilan o'zi gaplasha boshladi Yo'ldoshxon.

– Nima deb pichirlayapsiz? – hayron bo'lib so'radi kapitan.

– Men Xizr bobom bilan gaplashyapman.

– Avazbekov, men sizga masjidning imomi emasman, xizr-pizr degan gaplarni o'sha yerga borib aytasiz,

olib kelgan mahsulotingizning hujjatini so‘rayapman. Yosh bolalik qilmang, uka.

– Yosh bola emasman, amaki. Men viloyat tanlovida yosh fermerlar o‘rtasida g‘olib bo‘lganman, o‘sha hujjatni ko‘rsataymi?

Ikki tomonning qat’iyati bir-biriga teng kelib, har biri o‘z so‘zida turib oldi. Asabiylashgan va jindek izzat-nafsi ham yerga urilgan kapitan, yur bo‘lmasa hokimning muovini oldiga borib gaplashamiz, dedi. Yo‘ldoshxon bu gapga ko‘ndi. Yetaklashib quvurlar umidida to‘plangan hamqishloqlari oldiga chiqishdi. Kapitan: «O‘rtoqlar, tashvishlanadigan gap yo‘q, quvurlar sizlarniki, hokimning muovini Ochilov bu fermer yigit bilan gaplashmoqchi. Yo‘ldoshxonni biror soatlardan keyin yana o‘zim olib kelib qo‘yaman, hokim so‘ragandan keyin bormasa bo‘lmaydi», degan gaplarni shunday samimiyl, shunday ishonarli qilib aytdiki, to‘planganlar Yo‘ldoshxonni qamash uchun olib ketayotganlari haqida o‘ylab ham ko‘rmadilar. Aslida kapitan masalaga aniqlik kiritguncha Yo‘ldoshxonni panjara ortida ushlab turmoqchi edi.

II bob

Salkam uch ming fuqarosi bo‘lgan bu xilvat qishloqda qanday xabar bo‘lishidan qat’iy nazar, bir daqiqa bo‘lsa ham to‘xtab qolmasdi. Bugun ham xuddi shunday bo‘ldi. Gap ustiga gap qo‘shilib, vahima ustiga vahima qo‘shilib, bu xabar ko‘chadan ko‘chaga, mahalladan mahallaga o‘taverdi:

– Kapitan Yo‘ldoshxonning qo‘lini orqasiga qayirib, mashinaga bosibdi.

– Esizgina, Yo‘ldoshxon saxiy yigit edi-da.

– E, nimasini aytasan, Yo‘ldoshxon qishloqdagi tadbirkor bo‘laman, deb yurgan yigitchalarning sultonini edi.

– Xizr boboning aytganini qilmabdi, anjirzorga ta-horatsiz kirarkan, shuning uchun qamalibdi...

– Bordi-yu quvurlarni chindan ham o‘g‘irlab kelgan bo‘lsa-chi?

Ana shunday gaplar Tagobning u burchagidan bu burchagiga o‘tayotgan paytda anjirzorda ham g‘alati-g‘alati gaplar bo‘layotgan edi. Kamgap Qorabarot, qiziqchi Akrom, pahlavon Hayitvoylar bir fikrni o‘rtaga tashlashyapti, Rohila, Farida, Saddiniso-yu Umidalar vahimaga berilib, bir-birlarini chimdib-chimdib olyaptilar, yigitchalarning gapini yo‘qqa chiqaryaptilar. Eng muhim, agar Yo‘ldoshxon qamalib ketsa, ferma kimning qo‘lida qolarkan, degan fikr hammalarining boshida aylanib qoldi. Akrom qiziqchi o‘zicha, «agar o‘rtog‘im qamalib ketsa, Zulkumor uni o‘lguncha kutaman deb erga tegmay qariydi, qarisa, xudo xohlasa, ana shu qizga o‘zim uylanaman», degan yoqimsiz o‘ylarga ham boryapti. Hayit polvon bo‘lsa, «esizgina yaxshimi-yomonmi, hammamizga ish topib berib yuruvdi, endi ish axtarib yana shaharga borishga to‘g‘ri keladimi», deb bosh qotirayotgandi. Boringki, to‘plangan uch yigit-u to‘rt qiz bir-biriga qarama-qarshi fikrlar ichiga g‘arq bo‘lgan. Kun peshindan og‘ib qolyapti hamki, na yigitchalardan durustroq fikr chiqadi, na hech biriga gap bermayotgan qizlardan bir ma’noli gap chiqadi. Qobil bobo bo‘lsa, yo Alloh, yo Allohim, o‘zing qutqaruvchisan, deb to‘xtamay duo o‘qigani o‘qigan. Akrom pul bilan qutqarsa bo‘larmikin, degan gapni aytgan edi, hammalari urishib berishdi.

Qizlar o‘rtasida ham vahimali gaplar bir kuchayib, bir so‘nib boryapti. Bitta chayqovchi ayol og‘zi to‘la tish bilan qamalgan ekan, qamoqdagi ayollar bitta qo‘ymay tishlarini sug‘urib olishgan emish. Bitta go‘zal ayolni qamoq xo‘jayinlari pul topib kelasan deb kechasi ko‘chaga chiqarib yuborarkan, o‘sha ayol bu harom

mashg'ulot joniga tegib ketib, qamoqxona nozirini pichoqlab tashlabdi.

– Bas qilasizlarmi-yo'qmi! – jahl bilan o'rnidan turib ketdi Zulxumor. – Yaxshisi, tuman militsiya bo'limiga boramiz.

– Zulxumor, militsiyani qo'y, yaxshisi, prokuror adangning oldiga boraylik.

– Bo'limgan gapni aytma. Zulxumorning adasi pulsiz hech qanday ishni bitirmaydi.

To'satdan g'alati bir holat yuz berdi. Zulxumor g'azabi oshib, alami toshib turgan ekan, adasi pulsiz ish bitirmaydi, degani uchunmi, Hayitvoyning yoqasiga yopishdi, ikki qo'llab sochidan tortqilay boshladi, nega dadamga tuhmat qilasanlar, deb boshiga ketma-ket mushtlay boshladi. Hayitvoy bo'lsa alamdan portlay deb turgan bu qizning harakatini hazilga yo'yib ur, uraver, oh qo'llaring biram yumshoqli, oh oladigan xotinimning qo'llari ana shunday yumshoq bo'saydi, deb vaziyatni yumshatishning payida bo'lyapti...

Tuman markaziga borib, militsiya huzuriga kirib, Yo'doshxonning taqdirini bilishga qaror qildilar. O'sha idorada shtatsiz maslahatchi lavozimida so'rab kelgan-larga yo'l-yo'riq o'rgatuvchi bir amaki bor ekan. Juda odil, juda haqiqatchi, judaadolatparvar ham ekan. Militsiya xizmatidan nafaqaga chiqqach, hajga borib kelgan ekan. Uni hamma hoji polkovnik, deb atarkan. Qiziq, masjidga kirganda boshida oq do'ppi, militsiya xonasidagi o'rniliga o'tirganda yelkasiga yaltirab turgan polkovniklik darajasini tasdiqlaydigan pogonlar taqib olarkan. Ana shu odam Zulxumorning qattiqqo'l adasiga bir mahallar ustoz ham bo'lgan ekan. Hoji polkovnikning tug'ilgan kuniga Zulxumor prokuror adasiga qo'shilib bir necha bor borgan ekan.

– Ketdik! – deb hovliqma Akrom sakrab o'rnidan turib ketdi. – Bunday odam bilan tezroq tanishib ol-

ishimiz kerak. Ertaga men qamalganimda ham kerak bo'ladi.

– Yo'lkira mendan! – deb Hayitvoy ham shoshilib o'rnidan turdi.

– Ish bitsa, hammangni restoranga oborib, ziyofat qilmasam, Qorabarot otimni boshqa qo'yaman.

Hovliqishib, entikishib Qobil boboga xayr deyishga ham ulgurmay yo'lga tushdilar. Odil, adolatli, mehribon degan so'zlar hammalarining kayfiyatini ko'targandek edi. Bu so'zlar bor joyda haqiqat, albatta, yuzaga chiqadi, haqiqatga yo'l topiladi, deyishib qishloq markaziga, kirakash mashinalar navbat kutib o'tirgan dargohga qarab yugurdilar. Akromjon Faridaning qo'lidan tortib oldinda boryapti, qoyil, bu ikkovlari ilgari ham chopag'on edi, Hayitvoy jikkakkina Rohilani ko'tarib chopsam qalay bo'lar deb boryapti. Qorabarot bilan Saddiniso esa anovilar nima bo'pti, xudo xohlasa, biz ulardan oldinroq boramiz, deb yugurishyapti. Yolg'iz o'zi yugurayotgan Zulxumor qutqaramiz, xudo xohlasa qutqaramiz, qutqarsak bo'yniga osilaman, kishi yaxshi niyat qilsa, Alloh niyatiga yetkazadi, degan so'zlarni aytib boryapti.

Navbat kutayotgan mashinalar oldiga yetib keldilar. Juft-juft bo'lib mashinalarga o'tirdilar, mashinalar turgan joyidan bamisol qanot bog'lab uchgandek bo'lishdi ham.

– Qutqaramiz...

– Qutqaramiz...

– Qutqaramiz, – deb boryaptilar. Atrofdagi dov-daraxtlar ham, osmonda charx urib uchayotgan qushlar ham:

– Qutuladi! Qutuladi! Qutuladi, – deb aytayotgan-dek.

Ko'z yumib-ochguncha mo'ljalga yetib keldilar. Eshigining tepasiga «Maslahatchi polkovnik Imomali

Botirovning qabul qilish soatlari» deb yozilgan lavha oldida to'xtashdi. Eshik yonida turgan Akromjon tengi bir yigit, xizmatga yaqiniga kelgan bo'lsa kerak, yelkasidagi pogoniga yulduz ham qo'yilmagan ekan, ko'rsatkich barmog'ini labiga qo'yib:

– Shovqin solmanglar, – dedi past ovoz bilan.

Hamma narsaga qiziqaveradigan Akrom eshikni xiyol ochmoqchi bo'lgan edi, bir yo'la katta ochilib ketsa bo'ladi! Hoji polkovnik o'rnidan turgan edi, ulkan gavdali bu kishining salobati hammalarini domdiratib qo'ydi. Ancha-muncha joyda o'zini yo'qtaydigan Akrom sheriklaridan ko'proq domdirash holatiga tushdi.

– Xush kelibsizlar, – dedi hoji polkovnik.

Qizlar yigitlarga, yigitlar qizlarga qaraydi: qani kim birinchi bo'lib gap boshlarkan? Hech kimga gap bermaydigan mahmadona Farida ham jim. Uncha-muncha she'rilar yozib, gazetalarga xabarlar yuborib turadigan Rohila qizdan ham nido chiqmayapti.

– Xo'sh, gapirasizlarmi-yo'qmi? – so'radi hoji polkovnik.

– Men gapira qolay, – xuddi sinf majlisida o'tirgandek dadil bir ohangda dedi Rohila qiz.

Bekorga she'r yozmas ekan, bekorga gazetalarga xabarlar, kichik-kichik lavhalar jo'natib turmas ekan, qarang, gapga ham ustagina, ustalarning ustasi ekan. Ko'z ochib-yumguncha Yo'doshxonning tushida Xizr boboni ko'rganidan tortib, kecha yana o'n tonna quvur olib kelganigacha, bugun ertalab yelkasida to'rtta yulduzi bor militsioner Yo'doshxonni oldiga solib, haydab olib ketganigacha shunaqangi lo'nda, sodda qilib gapirdiki, hatto birga kelgan o'rtoqlari ham uning gapga chechanligiga qoyil qolishdi.

– Obbo, qizim-ey, – dedi hoji polkovnik hamma gapni tinglab, mazasini ham shimib olgach, – demak, uch

gektar anjirzorlaring bor ekan-da. Yaxshigina pishib yetilgan bo'lsa, nega hoji bobolaringga bir chelak olib kelmadilaring?

Akrom shoshilib oldinga chiqdi:

– Hozir borib bir chelak olib kelaymi?

– Yo'q bolam, anjirni nahorda yegan yaxshi. Ertaga olib kelarsan. Endi, bolalarim, hovlida joy bor, o'sha yerda o'tirib turasizlar. Men masalaning poyoniga yetish uchun u yoq-bu yoqqa qo'ng'iroq qilib olishim kerak. Hozir qamoqdag'i o'g'limning otini yana bir aytinglar-chi.

– Yo'ldoshxon, – deb chuvillab yuborishdi qizlar.

– Bo'ldi, qizlarim. Bildim, zo'r yigit bo'lsa kerak, hammalarining yaxshi ko'rib qolganga o'xshaysizlar. Endi hovliga chiqib, muzqaymoq yeb o'tiringlar.

Chindan ham bu paytda hammalarining muzqaymoq yegilari bor edi. Fermer xo'jaligining kassiri ham, iqtisodchisi ham Zulxumor emasmi, halidan buyon o'ychanligi tarqamay beholginga turgan qizni o'rtaga olishdi. Muzqaymoqni shunaqa ko'p keltirishdiki, Hayitvoyning aytishicha, boshqa vaqtida uch kunda ham yeb ado qila olmagan bo'lishardi. Qizlarning kayfiyati baland, qiqirlashib kulishar, hazil so'zlar aytishar, payt poylab bir-birlarining yumshoq-yumshoq joylaridan chimdib-chimdib olishardi. Faqat Zulxumor g'amginroq kuladi, kulgusida quvonch yo'q, motamsaro edi.

Xiyol o'tmay hovlida Avazbek amaki ko'rindi. Ham-qishloqlariga ko'zi tushishi bilan sevinganidan bo'lsa kerak, «iya-iya», deb yubordi. Ketidan birgalashib militsiya kapitani bilan Yo'ldoshxon ham kirib kelishdi. Polkovnik uchovlarini jamlab ichkariga olib kirib ketdi. Hayajonli daqiqalar boshlandi. Yuraklarini hovuchlab turishibdi, bamisol'i Yo'ldoshxonning taqdiri qanday bo'lishi kelajakda ularning taqdirini hal qiladigan-

dek... Har daqqa xuddi bir yildek keladi-ya, vaqt sekin o‘tyapti, g‘oyat sekin o‘tyapti... Nihoyat:

– Hammalaring ichkariga! – deb e’lon qildi pogonsiz militsioner.

Hovliqib, entikib kirib borishdi. Hammalari jim. Yo‘ldoshxonning boshi egilgan, boshqalardan emas, Zulkumordan ko‘zini olib qochayotgandek. Avazbek amaki bo‘lsa, g‘olib bo‘lgan kishidek mag‘rur turibdi. Kapitanning nim tabassumida aybdorlik holati bordek.

– O‘g‘illarim, qizlarim, arz bilan kelib, to‘g‘ri ish qilgansizlar, – dona-dona qilib gapira boshladi hoji polkovnik, – militsiya idorasini haqiqatni yuzaga chiqaradigan, anglashilmovchiliklarning oldini oladigan idora. Bu idorada hukumatning ishonchli odamlari o‘tiradi. Mana bu fermer o‘g‘lim, oting Yo‘ldoshxonmidi, to‘g‘ri ishni noto‘g‘ri yo‘lga burib yuborgan. Quvurlar bo‘yicha barcha hujjatlar, mana, ko‘rib chiqdik, to‘g‘ri, asosli. Qayerdan olib kelganimni aytsam, raqobatda bo‘lgan o‘rtoqlarim mendan oldin o‘sma yerga borib, men topgan mahsulotni olib qo‘yishadi, men kutayotgan foyda bo‘linadi, deb qo‘rqibdi. Tadbirkorning bag‘ri keng bo‘lishi kerak edi... Qani, o‘g‘lim, gapir-chi... Ana, gapira olmayapsan, demak, nohaqsan. Bilib qo‘y, yosh fermerlar hamkorlikda ishlasa ish ham rivojlanadi, foyda ham Sirdaryoning suvidek to‘lqinlanib oqib kelaveradi... Yo donishmand odamlar karvon boshqa, rizqi boshqa, deb noto‘g‘ri aytishganmi? Gapir, gapira olmayapsan.

Yo‘ldoshxon ovoz chiqarmasdan hoji polkovnikning barcha gaplarini bosh irg‘ab ma‘qullab turaverdi.

– Xo‘sh, qizlarim, o‘g‘illarim, menga va‘da qilgan anjirlaringni qachon olib kelasizlar? – kulib yumshoq ohangda so‘radi hoji polkovnik.

Betoqat Akrom shoshilib bir odim oldinga chiqdi:

– Amaki, hozir olib kelaymi?

– Yo‘q, bolam, anjir bilan qovunni nahorda yegan yaxshi, deydilar.

Hoji polkovnik qizlar bilan ham, yigitchalar bilan ham, o‘zini aybdordek his qilib, xijolatnamo jilmayib turgan Yo‘ldoshxon bilan ham qo‘l berib xayrlashdi, yigitchalarning yelkasiga uring-uring ham qo‘ydi. Tashqariga chiqishgach, Akrom shoshilib orqasiga qaytdi-da:

– Amaki, meni militsiyaga ishga olmaysizmi? – deb so‘radi.

– Avval anjirni olib kelgin, keyin gaplashamiz, – dedi polkovnik.

III bob

Tagobda yosh-yosh tadbirkorlar ko‘p edi, lekin Yo‘ldoshxonning ketma-ket quvurlar keltirishi obro‘yini shunaqa oshirib yubordiki, uyiga mana shu quvurlar tufayli gaz tushirib olgan xonodon egalaridan shunaqangi rahmatlar yog‘ildiki, endi boshqa yosh fermerlar, endigina ish boshlagan tadbirkorlar Yo‘ldoshxonning atrofidan ketmay qolishdi. Hatto unga bag‘ishlab she’rlar ham yoza boshladilar.

Bir onaxon o‘n sakkiz metr quvurni tekinga olgani uchun ajoyib she’r to‘qibdi:

*Yo‘ldosh bolam, anjir bolam,
Serg‘ayrat-u abjis bolam,
Anjir berding, davo bo‘ldi,
Bu dunyoga mashhur bolam.
Savob nadir, bilgan bolam,
Ko‘p xayriya qilgan bolam,
Tagob degan bu qishloqqa
Yaxshiliklar qilgan bolam.*

Maqtovlar bo‘lib turibdi, Yo‘ldoshxon ularga uncha berilayotgani yo‘q. O‘ychanligi, xayolparastligi kuchay-

gandan-kuchayib boryapti, xolos. Qalbida Zulkumor yoqqan olov bilan Oysuluv yoqqan olov o'rtasidagi kurash kuchaygandan-kuchayib borayapti. Goh unisi pasayadi, goh bunisi pasayadi, goho ikkovi barobar lovillab yonib, bir necha fursat ichida Yo'ldoshxonni devonasifat qilib qo'yadi.

– E xudo, e xudoyim, yordam bergin! – deya hayqirib yuborgan paytlari ham bo'ladi.

Puli tez ko'payib, to'rt yigit-u to'rt qizga velosiped olib berdi, o'zi shaloq «Jiguli»sini yosh o'rtog'iga hadya qilib, moyi artilmagan «Neksiya» oldi. Shular bilan ovunarmikanman, qalbimdagi poyonsiz dardlar yengil-lasharmikin, deb ham o'yladi. Qiziq, Yo'ldoshxon ham, Zulkumor ham tinmay bir-birlariga talpinishadi, lekin ko'rishishdi degunlaricha aytadigan chiroyli gaplarini yo'qotib qo'yishadi. So'zlarida harorat bo'lmaydi, goho piching, kesatiqlar ham aralashib ketadi.

Sobiq sinf rahbarlari Odina opa kasalxonada ekan, bиргалашиб бориб yo'qlab keladиган bo'ldilar. Yangi mashinasini boshqarib borayotgan Yo'ldoshxon xuddi o'g'irlik ustida qo'lga tushgандек xijолат ichida boryapti. Zulkumor «o'sha o'g'ri»ni o'zi tutib olgандек mag'rur kayfiyatni boshidan kechiryapti.

– Zulkumor, anchadan buyon sendan bir gap so'rayman, deb yuribman, – sekin so'z boshladi Yo'ldoshxon.

– Bugun so'ray qol o'sha gapingni, – javob qaytardi Zulkumor.

– Ochiq javob berasanmi?

– Yo'ldoshxon, men senga hamisha ochiq gapir-ganman.

– O'qishni nega davom ettirmading?

– Bugun ochiq aytaman, ammo aytgan gaplarim ikkovimizning o'rtamizda qolishi kerak... Bu gaplarni aytish menga qiyin, lekin ko'nglimga juda yaqin bo'l-ganining uchun yig'lab-yig'lab bo'lsa ham yuragimdag'i

bu og'ir dardning bayonini senga aytaman. To'g'ri, institutni tashlab keldim, chunki yuristlarni yomon ko'rib qolganman. Yo'q, ular ehtimol yaxshi odamlar- dir, lekin nima qilay, yomon ko'rib qolganman-da... Dadamni yomon ko'raman!.. Yo'q-yo'q, dadajonim yaxshi, juda-juda yaxshi, hammamizga mehribon, boshimizni mehr bilan silaydi.

– Xo'p, unday bo'ssa, institutni nega tashlab kelding yo haydashdimi?

Zulkumor mayin, latif, erkalovchi bir ohangda:

– Seni boshqa qizlar olib qo'ymasin, deb qaytib keldim, – shu so'zlarni aytayotganida Zulkumor yuzi lovillab yonganini his qildi. «Sal boshqacharoq aytishim kerak edi», degan fikr ko'nglidan o'tdi.

Yo'ldoshxon bu so'zlar ostida qanday ma'no borligini his qilib turardi, aslida Zulkumorni ana shunday ma'noli so'z aytishini kutib ham yurgandi.

– Zulkumor, men sendan rost gapni aytishingni so'ragan edim, institutni nega tashlab kelding?

Zulkumorning yuzidagi hozirgina charaqlab turgan latif go'zallik o'rnini g'uussali, g'amgin parda bosib ke- layotganini Yo'ldoshxon sezmadni. Zulkumor chiroyli boshini ohista-ohista chayqab:

- Aytgim kelmayapti, Yo'ldoshxon, – dedi.
- Yo'q, aytasan!
- Baribir hammasini aytolmayman, aytsam yig'lash- ga tushaman.
- Yoningga o'taymi?
- Nega o'tging kelib qoldi?
- Yig'lasang, ko'z yoshlaringni artib turaman.
- Yonimga ham o'tmaysan, sening yoningga ham o'tmayman.
- «Jiguli»mda yonimda yayrab o'tirarding-ku!
- O'shanda odamlar rosa kulishgan ekan. Ayajonim «Endi Yo'ldoshning mashinasiga chiqadigan bo'lsang

yoki orqa o'rindiqqa o'tirasan yo o'sha dalangga piyoda borib kelaverasan», deb qattiq urishdi.

– Zulxumor, ayajoning juda g'alati-da.

– Sening ayajoning ham qolishmaydi.

– Xo'p, institutdan ketish sababingni aytasanmi yo'qmi?

– Ha mayli, endi aytgim kelayapti, faqat mashinangi to'xtatsang aytaman. Keyin gap ham qo'shmay turasan.

– Xo'p, mana og'zimni yumdim.

– Sinf rahbarimiz Darmonxon opamizni ko'rgani kelayotuvdik, to'g'rimi?

– To'g'ri, mana og'zimni yumib turib, «to'g'ri» deyapman.

– Yo'ldoshxon, dardimni bekorga qo'zg'ading. Aytmasimdan oldin yig'i bosib kelayapti meni.

– Yoningga o'ta qolay, yupatib turaman.

– Necha marta aytdimku, endi yoningda ko'rsa, odamlar og'zi qolib, qulog'i bilan kuladi.

Yo'ldoshxon qizning yoniga o'tsa, uning nafasini yaqindan his qilishini, bilibmi-bilmay tizzasiga qo'lini qo'yib olishni, goho ana shunday paytda Zulxumorning yengil-yengil urib qo'yishini istab borayotgandi, ko'ngli o'sha huzurni qo'msayotgan edi.

Zulxumor gap boshlashdan oldin chuqur-chuqur xo'rsinib oldi:

– Yo'ldoshxon, Darmon opamning oldingi eridan qolgan qizi Sharofatni bilarding-a, bizzdan ikki yil oldin o'qirdi, uni ko'p olimpiadalarda g'olib bo'lib kelganini, suratlari ko'rinaradigan joyga osilganini ko'rganmiz, buni ham bilasan-a? O'sha Sharofatxon bilimli bo'lganligi uchun ayajonim o'qishga borsang, o'shaning yoniga o'tirib, tayyorgarlik ko'rasan deb qattiq iltimos qildi. Sharofatxon bir yil oldin o'qishga kirolmay qaytib kelgan edi, ayajonim shu opangda tajriba ko'p, birga

tayyorlanasanlar, deb turib oldi, «xo‘p» dedim. Bechora Sharofat opam ko‘p narsani o‘rgatdi, endi ko‘z yoshim boshlanmasdan turib, senga yana bir narsani ham aytmoqchiman. Dadajonim o‘g‘il tug‘mayapsan, iching to‘la qiz bola ekan, deb bechora ayajonimni yig‘latib, xo‘rlatib o‘zining kotibasiga uylanganligini bilasan.

– Uni hamma biladi, – deb bir xo‘rsinib qo‘ydi Yo‘ldoshxon.

– O‘sanda biz ikkita opacham bilan bog‘bon bobomning qo‘lida qolganmiz, buniyam bilasan-a?

– Bilaman, o‘sanda bog‘bon bobong oldiga men ham borib turardim.

– Opachalarim o‘qiyolmadi, nega o‘qimadi bilmayman, balki bog‘imiz juda chiroyli edi, o‘shani tashlab ketgilar kelmagandir...

Ehtimol dadajonim yordam beray degandir, aya-jonim yordamingiz ham, o‘zingiz ham kerak emas, yo‘qoling degandir... Mana qaytib keldi. Baribir keyingi xotinlaridan ham o‘g‘il ko‘rmabdi, ayajonim ha, mayli shu qizlaringiz haqqi kechirdim dedi... Mana apoq-chapoq bo‘lib ketishdi. Dadajonim huquqshunoslikni – mening kasbimni davom ettiradigan o‘g‘lim yo‘q, endi seni huquqshunos qilaman, deb qattiq turib oldi. Yo‘q desam yana ketib qoladi, deb qo‘rqdik. Sharofat opam bilan o‘sha o‘qishga birga jo‘nadik. Sharofat opam o‘tgan yili xuddi o‘sha institutning huquqshunoslik fakultetiga kirolmay yiqilgan ekan, bitirib kelsam qishloqqa rais bo‘laman, deb orzu qilib yurgan ekan. Mana birlagalashib jo‘nadik ham, hujjat topshirdik, dadajonim alohida kvartira olib berdi. Imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rayapmiz-u nuqlu ko‘z o‘ngimdan bobojonim nari ketmaydi, boqqa birga chiqardik. «Qizim, bu – bodom daraxti, hammasidan oldin gullaydi, bu – behi daraxti, bu – anjur daraxti, anjur gul chiqarmasdan hosil qiladi», der edi. Qiziq, ko‘pincha

Sharofat opamning gapi qulog‘imga kirmaydiku, lekin bobomning gapini eshitib turgandek bo‘laveraman. Dars tayyorlayotgan payti bobojonim bilan opamning gapi qo‘silib ketardi.

– Lekin bobong zo‘r edi-da, bog‘imdagi ko‘chatni o‘sha bobongdan olganman, juda qattiqqo‘l, pishiq odam edi. Ko‘chat berayotganda quritib qo‘ysang, jarimasiga bir hafta ishlab berasan degan.

– Ey, Yo‘ldoshxon, seni ayajonim ham, hammamiz ham yaxshi ko‘ramiz, ilgari bog‘chaga borganingda ayajonim seni quchoqlab olib, «ey Xudo, nega menga shunga o‘xshagan o‘g‘il bermading», deb o‘pib-o‘pib olarkan.

– Zulxumor, yig‘ini bas qil, bo‘lmasa mashinani qaytaraman, – shunday deb Yo‘ldoshxon ortiga o‘girildi. Mashinadan tushib qizning yoniga o‘tib, uning lovillab turgan yuzlarini silabmi, o‘pibmi yupatmoqni ham xayol qildi. Yo‘q, qizning ahvolini ko‘rib, bu fikridan qaytdi. Faqatgina yig‘lashni bas qil, deb qo‘ya qoldi.

– Yo‘ldoshxon! – deya qichqirib yubordi qiz.

– Nima deysan? – hayrati oshdi yigitchaning.

– Men qotilman!

– Nima deding, qotilman deysanmi?

– Ha-ha, cho‘loq Sharofat opamni o‘ldirgan men bo‘laman, jim tur, jim deyapman! – Zulxumor o‘rindiqning suyanchig‘iga jahd bilan boshini ura boshladi, – ha biz qotilmiz, yurist adam ikkalamiz o‘ldirdik uni, biz o‘ldirganmiz!

Zulxumor to‘satdan jim bo‘lib, boshini suyanchiqqa qo‘ygancha hansiray boshladi, keyin Yo‘ldoshga emas, xuddi o‘ziga aytayotgandek qisqa-qisqa nafas olib gapira boshladi. «Men imtihonda u bilan birga o‘tirgandim. Axir familiyamiz boshqa-boshqa edi-ku, «a» bilan «b» boshlanadiganlar birinchi qatorda, yo bilan boshlanadigan Sharofat opam Yodgorbekova

bo'lganligi uchun oxirgi qatorda o'tirishi kerak edi. Yonma-yon o'tqazib qo'yishdi, men o'lgur buni tush-unmay xursand bo'libman, ha, to'rtta fanning savoliga javobni shu opamdan ko'chirganman, bitta ham harfini qoldirmasdan ko'chiribman... Qiziq, yakuni g'alati bo'lib chiqdi, mening hamma baholarim Sharofat opamnikidan o'ttiz bal yuqori, familiyam eng yuqori bal olganlarning ham familiyasidan tepada turibdi. Bechora Sharofat opamning familiyasi esa eng past baho olganlar qatorida turibdi, opam bir haftagacha baho qo'yuvchilarga uchrashmoqchi bo'ldi, yo'q, yo'q, uni hech kim qabul qilmadi. Yig'lab-yig'lab qishloqqa qaytib ketdi. Men o'sha kvartirada andijonlik Habiba degan qiz bilan qoldim... Men nohaqlik bo'ldi deb o'zimni o'zim ayblay boshladim, chunki dadajonim o'sha kunlari «tashvish qilma, hammasi yaxshi bo'ladi», deb boshimni silab ketgan edi... Demak, Sharofat opamga qo'yiladigan baholar menga qo'yilgan ekan. Sharofat opam bor narsalarni derazadan otib, yig'lab-yig'lab qishloqqa ketdi...

– Zulkumor, qolganini aytmay qo'yaqol, men ham yig'lavoray deyapman. Bilaman, Sharofat opam o'zini osib qo'yan, buni ko'r ganlarning hammasi yig'ladi, butun qishloq yig'ladi, bechora Odina opam sal qoldi o'zini daryoga tashlab yuborishiga.

– Yo'ldoshxon, jim tur, iltimos. Hali hammasini aytganim yo'q, yig'lab-yig'lab bo'lsa-da, faqat senga ichimdagini to'kib olmoqchiman, Sharofat opam ketayotganda andijonlik Habibaga «Bu dunyoda haqiqat yo'q, haqiqat bor dunyoga ketayapman», deb ho'ng-ho'ng yig'lagan ekan. Bu gapni Habiba o'sha kuniyoq menga aytgan edi. Men nodon bu so'zlarga e'tibor bermabman, tushunmabman, tushunganimda quchoqlab yo'ldan qaytarmasmidim yo bo'lmasa Darm'on opamga qizingiz shunaqa deyapti, deb qo'ng'iroq

qilmasmidim. Ehtimol, Sharofat opamni yomon fikridan qaytarib olishardi, yo‘q-yo‘q, Yo‘ldoshxon, men qotilman, puldor dadam qotil, ha, institut u yoqda tursin, shaharni ham yomon ko‘rib qoldim, imtihon oluvchilarni, kekkayib yurgan muallimlarning hammasini yomon ko‘rib qoldim, o‘zimni mashinaning tagiga tashlamoqchi bo‘ldim. Onajonimni, seni, o‘rtoqlarimni ko‘z oldimga keltirdim-u fikrimdan qaytdim... O‘qishi ham, instituti ham boshida qolsin, deb qishlog“imizga qaytib keldim. Eshitdim, hammasini eshitdim, Darmon opam bir o‘zidan ketib, bir o‘ziga kelib yotgan ekan, oyog‘iga yiqildim, lekin Sharofat opamning «Bu dunyoda haqiqat yo‘q ekan, haqiqat bor dunyoga ketaman», deganini dard ichida yotgan Darmon opamga aytolmadim, aytishga botinmadim, ha, Yo‘ldoshxon, Sharofat opamni qutqarib qolish mumkin edi. Bu so‘zlarni faqat senga aytdim, kimgadir aytishim kerak edi.

Qiziq, Sharofat opam qishloqqa negadir xursand qaytibdi. «Ey, xafa bo‘lmanglar, bu yil o‘tmasam, yanagi yil o‘taman, ko‘rasizlar, men yurist bo‘lib kelaman, qishloqqa rais bo‘laman...» degan gaplarni aytgan mish. Ertasiga boshqa xotin olib ketib qolgan dadasini ko‘rgani boribdi. Dadasi cho‘lda ekan, sholi ekkan ekan, tizzasidan loyga botib o‘toq qilayotgan ekan. «Dadajon, endi suvning ichiga tushmaysiz, men institutni bitirib kelsam, sizni ishlatmayman», debdi. Dadajonisi men sholi ekmasam turolmayman, debdi. Sharofat opam, sholi ko‘p hosil qilsa, mening to‘yimga katta osh damlab berasiz xo‘pmi, debdi, keyin dadajonisini quchoqlab turib masjididdagi namozxonlarga ham katta osh damlab berasiz debdi. Dadasi «xo‘p-xo‘p qizim, doshqozonda damlab beraman», debdi.

Qiziq, o‘sha kuni kechasi u opasiga yolvorib «Jon opa, bu kecha siz bilan yetaman», deb yolvoribdi.

«Sen har kuni ukalaring bilan yotarding-ku, o'shalar bilan yotaver» desa, «bugun faqat siz bilan yotgim kelayapti», debdi. Ona-bola tuni bilan achomlashib yotishibdi. Sharofat opam onajonining yuzlaridan o'parmish, silab-siypalarmish... Barvaqt turib odaticha hovlilarni, ko'cha eshik oldini top-toza qilib supuribdi. Darmon opam ishga ketibdi, ukalari hovlidagi karovatda bir-biri bilan urishib-talashib, shaxmat o'ynashga berilibdilar. Sharofat opam uyga kirib, to'ylarga kiyib boradigan atlas ko'ylagini kiyibdi, tashlab ketgan dadasi Buxoroga ziyoratga borganda qizim kiysin deb zardan tikilgan nimcha, zar do'ppi olib kelgan ekan, o'shalarni kiyib, yuziga upa-elik suribdi, kayfiyati ko'tarilib, shoshilib ukalarini quchoqlab o'pa boshlabdi, katta ukasi Odil: «Ha, buncha yasan-tusan qilib oldingiz, qayoqqa ketayapsiz» deb so'rabdi, kichik ukasi Hamid: «Opamning atir-upalarini ishlatganiningni aytib beraman, ko'rasan, biqiningni chimidib oladi», debdi. Zilxumor ukalarini o'pa turib kutilmaganda yig'lab ham yuboribdi. Shu holicha og'ilxonaga kirib ketibdi-yu, yo'q bo'lib ketibdi. Tushgacha ham chiqmabdi. Ukasi «Opa, qornim ochib ketdi, shavlangni qachon suzasan», deb baqiribdi, ovoz bo'lmaabdi, yugurib kirishsa, opajonlari og'ilxonadagi yo'g'on xariga o'zini osib qo'ygan ekan. Boshi bir tomonga qiyshayib qolgan emish... Yo'ldoshxon, voqealarni aytib, yuragim yozilarmikin, degandim, battar bo'ldim, axir bu dunyoda haqiqat yo'q ekan, haqiqat bor dunyoga ketayapman, degan gapni birinchchi bo'lib men eshitgandim-ku, uning yo'lini to'ssam bo'lar edi-ku.

– Zulxumor, bo'ldi yig'lama, menga ham yig'i kelayapti.

– Jim tur, Sharifa opa o‘rniga men o‘lishim kerak edi. Insofsiz muallimlar, haqiqatni sotib oladigan puldor otalardan men o‘ch olishim kerak edi, mana endi bilding, institutni nega tashlab kelganimni...

Zulkumor xo‘rsina-xo‘rsina boshini yana suyan-chiqqa qo‘yib jim qoldi. O‘lim oldidagi Sharofatxon opasining holatini ko‘z oldiga keltirdi shekilli, qalbi iztirobga to‘lib, o‘tirolmay o‘rnidan bir-ikki bor turib o‘tirib oldi, Yo‘ldoshxon ham juda siqilib ketgan edi. Zulkumor men ham o‘zimni o‘ldirmoqchi edim deganida, chidayolmay o‘rnidan turib-turib ketaverdi.

Zulkumor yana bir chuqur xo‘rsindi-yu:

– Yo‘ldoshxon kel, qo‘limni ushla, – dedi yolvorib.

– Zulkumor, mana qo‘lingni ushladim, bas qil yig‘lashni. Voy qaltirashingni qara, yonib ketayapsan-ku.

– Yo‘ldoshxon, senga aytgan gaplarimni hech kimga aytmaysan-a?

– Aytmayman, o‘gunimcha aytmayman.

– Mana hech kimga aytmaydigan gaplarimni, yuragimning tub-tubidagi sirlarimni senga aytdim.

Zulkumor «bobom seni yaxshi ko‘radi, ayajonim seni yaxshi ko‘radi, hammamiz seni yaxshi ko‘ramiz», deyayotganda o‘z muhabbatini izhor qilayotgandek edi. Yo‘ldoshxon iztirob ichida hamdardlik bildirib, bularni ilg‘ab olmayotgandek edi. Qiz eng go‘zal, eng nozik, eng muqaddas tuyg‘ularini goh kulib, goh yig‘lab aytayotgandek edi. G‘ussali, qayg‘uli kunlarimda, og‘ir ruhiy holatlarimda ko‘z oldimda faqat sen turgan eding deyayotgandek edi. Ha, bu so‘zlarni ibo pardasiga o‘rab aytayotgan edi.

Yo‘ldoshxon tengdoshlariga qaraganda ancha hushyor, ziyrak, farosatli ham edi. Bu so‘zlarning ohangida oqib kelayotgan muhabbat to‘lqinlarini sezib, goh huzurlanib, goh xijolat olamiga g‘arq bo‘lib o‘tiribdi.

Qiziq, Zulkumorga achinayapti, qalbida mehrli holatlar jo'sh urib, ko'nglini ko'taradigan, g'am-g'ussadan ozod qiladigan so'zlar aytgisi kelayapti, men ham bog'bon bobongni, bog'chaga borganimda bag'riga bosib peshonalarimdan o'pib-o'pib qo'yadigan ayajoningni ham yaxshi ko'raman, o'zingni esa sevaman, degim kelayapti, lekin shu gap ko'nglimga kelishi bilan qarshimda, ha-ha qarshimda to'satdan charaqlab kulib turgan Oysuluv paydo bo'layapti. Sen yig'layapsan, u kulayapti, kulgisi quvnoq, ko'zlar charaqlab turibdi, charaqlab turgan ko'zlarida muhabbat uchqunlari bor... degisi kelayapti.

Jim qolishdi, uzoq jim qolishdi. Zulkumor o'rindiqqa boshini qo'ygancha, peshonalarini o'sha o'rindiqqa ishqalab-ishqalab olayapti. To'satdan cho'chib tushgandek boshini ilkis ko'tarib:

- Yo'l doshxon! – dedi.
- Nima deysan, jo'nayapmizmi? – parishonroq ohangda so'radi Yo'l doshxon.
- Men hamma gapni senga ochiq aytdim.
- Aytding, rahmat, xursand bo'ldim.
- Sening ham qalbingda faqat menga aytadigan gaping bordir?
- Bor, albatta!
- Ayt o'sha gapingni!
- Keyinroq aytaman, ertaga aytaman.
- Yo'q, hozir aytasan.
- Hozir aytolmayman, stansiyaga tunukalar, temirlar kelib tushgan, tezroq borib olishimiz kerak.
- Tunuka, temir?
- Ha, tunuka, temir. Oysuluvning otasi arzon narxda jo'natibdi. Tezroq yur, navbatimiz o'tib ketmasin.
- Oysuluvning dadasi deyapsanmi?
- Yo'q, Zulkumor deyapman, Oysuluv deyotganim yo'q, Oysuluvning akasi deyapman, yo'q, yo'q, Zulkumor deyapman hozir.

Zulkumor shiddat bilan mashinadan tushib, es-higini shunday qattiq yopdiki, mashina o'rnidan qo'zg'alib ketgandek bo'ldi. Vujudi yonib turgan qiz kelib Yo'ldoshxon o'tirgan tomonning eshigini ochib, dovdirab qolgan yigitchaning yuziga tarsaki uring yubordi, so'ng eshikni qattiq yopib, katta yo'lga tushib, jon-jahdi bilan yugurib keta boshladi.

Yo'ldoshxon orqasidan yugurib:

– To'xta, to'xta! – derdi.

Zulkumor yanada qattiqroq baqirib:

– Yo'qol, Yo'qol! – deb yugurardi.

IV bob

Yo'ldoshxonlarning kunga betkay qilib solingan uzunligi naq o'ttiz metrcha keladigan katta ayvoni yosh-yosh yigitchalar-u, bugun o'zlariga o'zgacha oro bergen, sendan qolamanmi, deb yasan-tusan qilgan bo'y qizlarga to'lgan.

Oysuluv bilan Beksulton kecha oqshom mehmon bo'lib kelishgan.

Qishloqda o'zga yurtdan kelgan yigit o'zbek qiziga uylanarmish, o'zga yurtlik qiz o'zbek yigitiga turmushga chiqarmish, bularning yetti avlod o'tgan ota-bobolari o'zbek bo'lgan ekan, degan gaplar tarqalgan. Bu gaplarni maqtanchoq Avazbek amaki allaqachon tarqatib bo'lgan. Bugun to'plangan yigit-qizlarning bir xillari yo qiz yo yigitni tanlash uchun kelishgan bo'lsa ham ajab emas. Avazbek amaki tabiatan maqtanchoq emasmi, yana bir maqtangisi kelib qoldimi, Hamroxon aya ham o'zining hech kimdan qolishmaydigan mehmondo'stligini bir ko'rsatib qo'ydimi, hay-hay, das-turxonni shunday katta tuzabdilarki, pishiriqlardan, meva-chevalardan, faqat Farg'onadagina bo'ladigan lazzatli taomlardan stolning «beli» egilay-egilay deb turibdi.

Avazbek amaki to'y ko'rgan kishi emasmi, to'yda kimning qayerda o'tirishi, o'tirganlarga g'urur, mam-nuniyat keltirishini yaxshi bilarkan. Beksultonni ayvonning naq to'riga o'tqazibdi, Oysuluvning yoniga «voy, o'lay, voy, uyalaman», deyotgan bir-biridan go'zal, bir-biridan barno, bir-biridan shinam kiyingan bo'y qizlarni o'tqazib qo'yibdi. Sal berida Rohila-yu Farida, Saddinisolarning g'urur bilan o'tirganlarini ko'rsangiz! Avazbek amaki chindan ham tajribali ekan, kelgan jami qizlarni Beksultonning ro'parasiga o'tqazgan ekan, endi ana shu qizlarning hammasi xiyol uyalibroq o'tirgan mehmon yigitdan ko'zlarini uzishmayapti.

Beshinchı sinfdan buyon Zulkumor o'rtani olib borishni hech kimga bergen emas. So'zga ustaligimi, ovozining yoqimli, shirali, dilbarligimikin, kimga qachon so'z berish maromini olganidanmi yoki bu go'zal, shaddod, yuz-ko'zları lovullab yonib turadigan qizning husni, latofati zalni charog'on qilib yuborishidan-mikin... Ishqilib, Zulkumor o'rtadagi so'zni hech kimga bermaydi. Mana hozir ham egnida ataylab kiyib kelgan qizil atlas ko'ylagi lov-lov yonib, o'tirganlar oldiga bir-bir borib, kayfiyatni ko'taruvchi so'zlar aytib, o'rtani aylanib-aylanib kelyapti.

– Aziz dugonajonlar, fermer do'stlarim, bugun biz eng aziz, eng mo'tabar, eng zoriqib kutganimiz to'lin oy-dek to'lishib, tong yulduzidek charaqlab turgan Oysuluv dugonamizni, qaddi-qomati kelishgan, beklardek mag'rur o'tirgan, tabassumidan nurlar yog'ilayotgan Beksulton akamizni qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, xush kelibsizlar, deya mehrimizni izhor qilgani to'plandik. Qarsagimiz shu ikki mehmonga bag'ishlansin!

Hamma o'rnidan turib ketdi, qarsak zarbidan ayvonning tomlari ham lapanglab ketgandek bo'ldi, tepaga osilgan elektr chiroqlari chayqalishini aytmay-sizmi!

Zulxumor ehtirosli qarsaklarni bostirib, o'zi ham biroz nafas olgach, quvnoq, dilbar ovozda gapira boshladи:

– Men avlodlar yodini axtarib, yurtimizga mehr-u muhabbat olib kelgan aziz mehmonimiz Bekulton og'amizga so'z beraman, – deyishi bilan yana ki-mo'zarga qarsak ura boshladilar. Bekulton kecha oqshomdan buyon Avazbek amakining oila a'zolari bilan, ayniqsa Ruxsora, Gulsara bilan anchagini erkin gaplashayotgan, so'zlaganda so'zlari orasida o'zbek lahjasи ko'proq bo'layotgan edi. Lekin hozir to'satdan o'zini bir soniyaga yo'qtogandek bo'ldi. Kulib bir Zulxumorga, bir yonida savlat to'kib o'tirgan yosh tadbirkor yigitchalarga qarab oldi:

– Endi, o'rtoqlar, men yaxshi gapirolmayman, – dedi.

Akrom qiziqchi shartta o'rnidan turib:

– Mehmon, bizga qanday gapirsangiz ham tushunamiz, og'zingiz qimirlasa ham mayli, – deb luqma tashladi.

– Bo'pti, boshladim, – deb o'zini bosib oldi Bekulton, – bizning onamizning onasining onasi o'zbek bo'lgan ekan, bobomiz uni oq tuyaga mindirib olib ketgan ekan. O'sha eng katta onamizning tug'ilib o'sgan qishlog'i toqqa yaqin bo'lgan ekan. Shirin-shakar mevalarga mo'l bo'lgan ekan. Dov-daraxtlarga ko'milgan, juda-juda salqin qishloq bo'lgan ekan. Kecha biz singlim ikkovi-miz mana shu mehribon Avazbek amaki boshchiligidа o'sha qishloqni axtarib topdik. Lekin buloq suvi qu-rib, allaqachonlar u yerdagilar ko'chib ketgan ekan. Onamiz bu yoqqa jo'natajotganda o'sha avlodimizdan loaqal birontasini topinglar, topilmasa, mayli mozoris-tonga borib duo o'qinglar, degan. Qabristonga bordik, qabrlar yer bilan tekis bo'lib ketgan, qaysi biri katta buvimizniki-yu, qay biri katta bobomizniki ekanligini bilolmadik. Shundoq bo'lsa ham yaqindagi bir qishlo-

qqa borib, qo'y so'yib xudoyi qildik... Gapim cho'zilib ketdi, bo'lmasa yana ko'p narsani aytmoqchi edim. Do'stlar, biz bugun singlim ikkimiz cho'kib yotgan qabrlarda buvilarimizning, bobolarimizning suratlarini ko'rgandek bo'ldik. So'zlariga qulq solgandek bo'ldik, ular bizga:

– Unutmanglar! Unutmanglar! Unutmanglar, – deyotgandek bo'lishdi... Zulkumor xonim, sizning so'zlariningizda sehr borga o'xshaydi, ilohiy ohanglar oqib kelayotganga o'xshaydi, tinglayotganlarning qalbida quvonch, shodlik uyg'otarkan. Mening shahrimda ana shunday yig'inlar bo'lganda sizni taklif qilsam, borib she'r o'qib bergen bo'larmidингiz?

– Jonim bilan boraman! – quvnoq, dilbar ovozda dedi Zulkumor.

– Agar borsangiz, men sizga mashina emas, samolyot jo'natgan bo'lardim.

– Samolyotning kattarog'idan jo'nating, hamma o'rtoqlarim bilan birga boraman...

Yigit bilan qizning bir-birlariga ma'nodor so'z aytishlari boshqalarning ham rag'batini qo'zg'adi, shekilli, so'z o'yini boshlanib ketdi. Bir-birlaridan qolishmaslikka, bir-birlaridan chiroyliroq qilib gapirishga intilishdi. O'zi aslida Farg'onada shunaqa bo'ladi: so'z o'yinlari boshlanganda kampir-kampir bilan, chol-chol bilan, bog'cha bolasi o'zining teng-qurlari bilan olishib keta-di. Bu yerda ham xuddi shunday bo'ldi. Yigitchalar o'rtasida so'z o'yini boshlandi:

– Mehmon, samolyotning ikki xonaligidan jo'nating.
– Mayli, ikki xonaligidan jo'nataman.
– Bir xonasida kelin, bir xonasida kelinni kuzatib borayotgan kampirlar o'tiradi.

Davrada garchi bugun taklif etilmagan bo'lsa ham o'zicha kelib qo'shilib olgan Safar shoир ham bor edi. Beksulton bilan Zulkumorning aytishuvlarida ishqiy

bir holat borga o'xshab tuyuldi. Safar Zulkumorni yaxshi ko'rardi, qattiq sevardi. Nazarida Beksloton Zulkumorni butunlay olib ketayotgandek tuyulaverdi. Begona yigit o'zbekning go'zal qizini olib ketsa, qarab turaveramizmi, deb o'yladi shekilli, o'zicha o'zbekning sha'nini, g'ururini ko'tarmoqchi bo'lib:

– Yo'q, Zulkumor, hech qayoqqa bormaysan, – deb darg'azab holatda o'rnidan turib ketdi.

– Voy, Safar, tayyor samolyot kelganda nega bormas ekanman? – deb Zulkumor yengilgina bir kulgan bo'ldi-da, so'zini davom ettirdi. – Bugun aziz mehmonlarimizni qutlash uchun ko'pgina tadbirdor o'rtoqlarimiz kelishgan, ruxsat bersanglar navbatdagi so'zni Rasuljonga bersam.

Tengqurlariga qaraganda novcharoq, cho'tir, qora-cha yuzli, kallasi katta Rasuljon o'rnidan turib, nima deyishni bilmay qoldi, goh u qo'li bilan, goh bu qo'li bilan boshini qashlab ancha jim turdi-da dedi:

– To'g'ri, mening yuzim, mana, ko'rib turibsizlar, sal qoraroq. Lekin tegirmonchamda chiqarayotgan unim oppoq. Biz, onam ikkimiz tog'dan chiqib kelayotgan mayda-mayda buloqchalar suvini birlashtirib, shu suv kuchidan foydalanib, tegirmon qurbanmiz. Men bu mehmonni tegirmonimga taklif qilaman...

Rasuljon Beksloton tomon kelib, quchoqlab oldi-da, yigitni ko'tarib-ko'tarib qo'ydi. Keyin Oysuluvning yoniga keldi.

– Oysuluv, siz tegirmondan chiqqan unning jaydari nonini yaxshi ko'rasizmi? – deb so'radi.

– Yaxshi ko'raman, – shoshilib dedi Oysuluv, – faqat bizda sizlarnikiga o'xshagan tandir yo'q-da.

– Oysuluv, agar rozi bo'lsangiz, tandirni ham o'zim olib borib qurib beraman.

– Hoy Rasul, ja oshirvording-ku, borib xamirni ham o'zing qorib bersang kerak?

Shu payt g‘alati holat yuz berdi. Oysuluv yonidagi-lardan uzilib chiqdi-da, tezgina kelib Rasuljonga qo‘l uzatdi:

– Demak, tandir qurib berasiz-a? Xamirni ham qorib berasiz-a? Nonni ham o‘zingiz yopib berasiz-a, – dedi. O‘tirganlar o‘rinlaridan turib ketishdi, qarsaklar yangradi.

V bob

Bazm qizigandan-qizib borardi. Men ham raqs tushmoqchiman, deb qizlar navbat, so‘z so‘ragan yigitchalar mikrofon talashishyapti, Beksulton bilan Oysuluv bo‘lsa bu e’zoz-u, bu hurmat-u, bu dillarni yayratib yuboradigan ashulalar-u atlas kiygan qizlarning raqlaridan kelayotgan huzurlanishdan osmonda uchib yurgandek. Qizlar yigitlar bilan, yigitchalar qizlar bilan o‘g‘rincha bir-birlariga nigoh tashlab olishyapti, Allohning marhamati bo‘lib, nigohlari duch kelib qolsa, ko‘zlarida olov chaqnab, qalblari charog‘on bo‘lib ketyapti. Beksulton bilan Oysuluv vodiyning bu go‘zal qizlaridan, bu quvnoq yigitchalaridan ko‘zlarini uzolmaydilar, qay birini tanlasam ekan, degan fikrlar ko‘ngillaridan o‘tgandek ham bo‘ladi.

Beksulton mamnun.

Oysuluv mamnun.

– Zo‘r! – deydi Oysuluv.

– Juda zo‘r, – deydi Beksulton.

– Aka, ishqilib qolib ketmasang, deb qo‘rqtyapman.

– Oysuluv, men ko‘proq sendan qo‘rqtyapman, bir yo‘la oltitasi seni yutvoray deb turibdi... Qiziq, negadir yigitlardan ko‘ra qizlar senga ko‘proq tikilishyapti. Rashk bo‘lsa kerak!

O‘rtada raqsga tushishyapti. Maktabni birga-birga bitirgan, bitirguncha qayta-qayta raqlarga tushgan

anjirchi qizlar o'ynayapti. «Atirgul» raqsini ijro qilishyapti, yo'q, o'ttada qizlar emas, uch atirgul yaraqlab ochilgandek, qizlar emas, atirgul novdalari tebranayotgandek.

– Aka, bu qizlarga ko'p ham termulaverma, eshitishimcha, bu uchovlarining tanlagan yigitlari bor emish.

– Oysuluv, bordi-yu o'sha tanlagan yigitlaridan biri men bo'lsam-chi!

– Aka, chindan ham vodiyning qizlari go'zal bo'lar-kan-a?

– Eshitmadingmi, ular parilardan tarqalishgan ekan.

Zulkumorga Alloh husn-u latofat bilan aql-u farosatni ham teng bergen ekan. O'zga qizlarning ham raqsga tushgilari kelyapti, tortinib-tortinib ko'z suzishlarini, bir-birlariga qarab qoshlarini chiroyli-chiroyli chimirib qo'yishlarini Zulkumor sezib turardi. U to'satdan baland ovozda so'zлади:

— Ko'z ochar gulshanda g'uncha bulbul afg'on aylagach,
Nega afg'on aylay, ul gul yuzni tobon aylagach,

degan ekan bir shoir. Men endi so'zni gulg'unchalar qachon ochilar ekan, deb betoqat kutib turgan yosh-yosh bulbulchalarga beraman. Ochiqroq aytsam, so'z qiz saylash uchun kelgan yigitchalarga.

Zulkumorning qitiqlovchi so'zları tugashi bilan meh-monga kelgan yosh-yosh yigitchalar, yasan-tusanni joyiga qo'ygan yosh-yosh qizchalarni o'yinga taklif qila boshladilar, juft-juft bo'lib o'ynash Tagob qishlog'ida ham rasm bo'lib kelayotganga o'xshaydi, ozarbayjon yoki turklarning quvnoq kuylari, raqslar harakatiga berkingan shirador ohanglar yosh qalblarni junbishga keltirib yuborgandek. Yigitchalar qizlarning qulog'iga

nimadir aytib shivirlayapti, bo'y qizlar boshlarini egib olayotgandek, xuddi shu paytda qiziqchi Akrom boshqa yigit bilan raqs tushayotgan Faridaga yaqin keldi-da:

– Ha, xonimcha, xiyonat qilishni bugundan boshlab yubordingizmi? – deb kulimsirab turgan Faridani yigitchaning qo'lidan tortib oldi. – Agar yana biron marta begona bola bilan raqsga tushganiningni ko'rsam, qulog'ingning tagiga tarsaki tushiraman.

– Oh, Akrom, – gapni hazilga burdi Farida, – qani endi mana shu qo'llaring bilan qulog'im tagiga har kuni tarsaki tushirsang.

Boshqa bir juftlik – Hayitvoy bilan Rohila ham o'ynayapti. Ular raqs usulini yaxshi o'rganishmaganga o'xshaydi, to'xtamay sakrashadi, silkinishadi, bir-birlarining qulog'iga shivirlashadi.

– Yo'ldoshxon chindan ham o'zga yurt qizini sevib qolganga o'xshaydi, qara, ko'zini uzolmayapti.

– Rohila, lekin Oysuluv deganlari ham go'zal ekan-ku! Bay, bay, bay! Qiz bola ham shunaqa go'zal bo'ladimi?!

– Hayitvoy, yana bir marta o'sha qizga qarasang, ko'zingni o'yib olaman.

– Mayli, ikki ko'zimni o'yib olsang ham o'sha qizga yana bir qaray.

– Hayitvoy, undan ko'ra Zulkumorni o'ylaylik, bechoraga achinib ketyapman. Yo'ldoshxon Oysuluvga o'g'rincha ko'z tashlaganda, bechora Zulkumor turgan joyida sakrab-sakrab ketyapti.

– Oysuluv-chi, uni ham kuzatyapsanmi?

– Yo'q, men ko'proq sen bilan Zulkumorni kuzatyapman, bilib qo'y, ikkovlaringning ham qarashlaringda g'alati-g'alati narsalar bor. Unutma, haligi gapim gap: qizlarga yomon qarash qilsang, hech ikkilanib o'tirmayman, ikkala ko'zingni ham o'yib olaman.

– Rohila, demak, endi umrimni oxirigacha meni yetaklab yurarkansan-da.

Ziyarak Zulkumor Oysuluv bilan Yo'ldoshxonni nazardan qochirmaydi, qani bir-birlariga qanday qarashar ekan, qarashganda ko'zlarida oshiqlarda bo'lgani kabi o't chaqnarmikin, deb goh oshkor, goh yashirin kuzatardi u. Yo'q, ikkovlarining o'tli nigohlari duch kelganini Zulkumor ko'ra olmadi. Yigitlar raqs-ga tushganda, qani, Yo'ldoshxon kimni tanlar ekan, menimi yoki Oysuluvnimi, deb o'ylab, xudo xohlasa, mana endi Yo'ldoshxonning kimligini, ko'ngli kim-daligini bilib olaman, deya dilidan o'tkazdi.

– Endi qizlarni tanlash gali yigitlarga keldi, – deb Zulkumor ataylab baland ovoz bilan e'lon qildi. Qiziq, to'satdan Yo'ldoshxon yo'q bo'lib qoldi. Qatorda o'tirgan Safar chaqqon kelib Zulkumorning qo'lidan tortmoqchi bo'ldi, yo'q, Zulkumor ko'nmadi, u bilan raqsga tushaman deganlar ko'payib, oldin urushqoq xo'rozlarni ko'paytirib yurgan G'ulom keldi. Ketidan novvos boqib go'sht topshirib, suratlari bir necha gazetalarda bositgan Rashidjon degan yigit paydo bo'ldi.

– Yo'q, yo'q, yo'q, – deya javob qaytaryapti Zulkumor. Demak, qizning qalbi boshqa yigitchaga atalgan, Alloh o'sha yigitni tezroq ro'para qilsaydi. Ro'para bo'lar axir. Oysuluv ham, qiziq, ketma-ket yigitch-alarning iltimosini rad qilardi. Uning ham chiroyli ko'zlarini kimnidir axtarayotgani aniq.

Sho'x kuy tindi. Sakrab-sakrab bir-birlariga tal-pinib, chir-chir aylanayotgan yigitchalar-u qizlar o'rinalariga o'tira boshladilar. Xuddi shu lahzada Oysuluvning o'tli nigohi Zulkumorning nigohiga duch kelib qoldi, ikki qizning ko'zlarida ham olov bor edi. Lekin bu olov kimga atalgani ma'lum emas edi. Qiziq, ikkovi bir-birlariga iliqqina, samimiy tabassum qild-

ilar. Tabassumlarida do'stlik ohanglari bordek edi. Zulkumor tezgina borib:

– Oysuluv, o'rtoqjon, ikki og'izgina so'z aytgin, – deb mikrofonni uning qo'liga berdi. Oysuluv yo'q demadi-yu, anchagacha o'ylanib qoldi. Nihoyat aytadigan so'zini ichida takrorlab oldi shekilli:

– Mening onajonim bu yoqqa kelayotganimizda vodiyning qizlari go'zal, yigitlari o'ktam bo'ladi, degan edi, – deb o'ylab olganlarini takrorlay boshladi. – Onajonim rost aytgan ekanlar. Mana shu go'zal qizlarni, mana shu o'ktam yigitlarni ona yurtimga taklif etaman. Zulkumor, dugonajon, siz bosh bo'lib borasiz...

Sevganlar, sevgi axtarib kelganlar shunday qattiq qarsak chaldilarki, Avazbek amakining katta shiyponi yana bir bor ko'tarilib tushgandek, elektr chiroqlar yanada yorqinroq nur sochgandek bo'ldi. Qarsaklar qarsaklar emas, sevgi istab yurgan toza qalblarning nurli sadosi edi. Sadolar shunday kuchli ediki, uni hech kim ta'riflay olmasdi. Uni mana shu yerdagi hajajonga to'lib turgan har bir qiz, har bir yigitchagini ta'riflay olardi.

Vodiyning yigit-qizlari tug'ilganda gulga, bulbulga oshiq bo'lib tug'iladi, chaqaloqning yig"isida she'riy ohang bo'ladi, deyishadi. Bugun Avazbek amakining ko'rimsizgina ayvoniga yig'ilganlar ana shu vodiyning dilbar qizlari-yu o'ktam yigitlari edi. Naq tongotarga-cha muhabbatga tashna qalblarning bir-biriga aytgan she'rlari-yu nolalari yangradi.

VI bob

«Ofis»da ikki o'rtoq nonushta qilishyapti. Ular kech yotishgandi, ikkovining ham ko'zida hali uyqu bor. Qo'shnilaridan yaxshigina yo'qlov chiqqan: biridan odatiy mayda patir, biridan qaymoqli qatlama, yana

biridan yangigina uzilgan uzum. Kimdir mehmon qiz Oysuluv shaftolini yaxshi ko'rarkan, deb eshitgan ekan, kechasi dalaga borib bog'dan shaftoli uzib kelbdi.

– Lekin Yo'ldoshxon, bazmni juda katta uyushtirib-sizlar, – dedi Beksloton.

– Xursandmisan, axir? – so'radi Yo'ldoshxon.

– Xursand bo'ldim-u, lekin uyalib ham ketdim. Sen borganingda men bor-yo'g'i to'rtta yigit-u to'rtta qizni aytganman. Sizlar esa yigitlar-u qizlarni yuzdan oshirib yuboribsizlar.

– Beksloton, bilasan-ku, dadam maqtanishni yaxshi ko'radi.

– Lekin Avazbek amakini yaxshi ko'rib qoldim, xuddi dadamning o'zginasi ekan, saxiy, saxovatli.

– Beksloton, kel o'rtoq, bo'ladigan gapga o'taylik. Sen birorta qizni ko'z ostingga oldingmi? Dadam bu bazmni, mayli, bu o'g'lim qiz tanlab olsin, Oysuluv qizim yigit tanlab olsin, deb ataylab juda katta uyushtirdi. Axir Nurlan og'a bilan Gulsun onamizning iltimosi shu edi-ku... Qizlar bilan o'yinga tushayotganningni kuzatib turdim, o'zbekcha raqsga ham chakki emas ekansan. Birinchi qiz – tortinibroq turgani kattakon tadbirkorning qizi. E xudo, shuni tanlasaydi, otasi sement eltid sotadi, deb o'yladim.

– Atir-upani yuziga ko'p surtar ekan. Ikki marta aylanguncha nafasim qisilib qoldi. Lekin o'zi zo'r, qoshi, ko'zi yonaman deydi.

– Gapga solib ko'rdingmi?

– U meni ko'proq gapga soldi. Tibbiyat kollejini bitiribdi, yana o'qishni davom ettirsammi-yo'qmi, deb turgan ekan.

– O'zi yoqdimi, axir?

– Bilmadim... Yo'ldoshxon, men sen bilan boshqa qiz haqida gaplashmoqchiman. Tuni bilan ana shu

qiz haqida o'ylab chiqdim. Bazm davomida boshqa qizlar menga o'g'rincha qarayverib qiyab yuborishdi, u qiz bo'lsa biron marta ham qiyob boqmadi. Ko'rding, o'yinda ham ikki marta taklif qildim, ko'nmadi, boshini ham ko'tarmadi. Bilasan-ku, men ham ancha-munchaga qaytadiganlardan emasman. Uchinchi marta borib, qo'limni o'zbekchasiga ko'ksimga qo'yib, taklif qilib turib oldim. Qiz boshini ko'tarib o'rnidan turdi, menga nim tabassum qildi, bilasanmi, men nimalarni ko'rdim. Qizning shahlo ko'zlarini tub-tubida g'am, anduh, beqiyos qayg'u bordek edi. Qizdan dimog'imga gupillab rayhon hidi urildi. Bunday paytda atir-upa hididan nafasing qisilib turganda o'zingni rayhonzorga kirib qolgandek his qilarkansan. G'alati bo'lib ketdim, to'satdan rayhon to'la uyimizni eslagandek bo'ldim. Qizning ko'ziga qayta-qayta qaragim kelyapti. Afsuski, shahlo ko'z qiz boshini qaytib ko'tarmadi... Tuni bilan qizning g'amgin qarashi ko'zimdan nari ketmadi, yana bir ko'rgim kelaverdi. Yo'doshxon, jon o'rtoq, shu qizni yana bir ko'ray.

- Jonim bilan-u, bir lekini borda.
- Lekini bo'lsa ham ko'rmoqchiman.
- O'rtoq, undan ko'ra o'ziga to'q oiladan tanlasang-chi, qaynotang bormi desang bor deyishga arziydigan oilalarga bog'lansang-chi. Sudya Hakimov amakining g'oyat go'zal qizi bor, xo'p desang, dadam bugunoq sovchilikka boradi.
- Men o'sha shahlo ko'z qizni ko'rmoqchiman, gap tamom!

Shahlo ko'z qiz soy bo'yida joylashgan Soybo'yi mahallasidan bo'lib, bundan uch yil avval soyning o'ng-u chap qirg'og'ini dahshatli sel olgan, o'nlab uylarни vayron qilgan, bir necha kishining o'ligini ertasiga tosh-u shag'allar orasidan kavlab olishgan. Vayron bo'lgan uylardan biri mana shu shahlo ko'z qizlarniki

edi. Otasi qo'lli-oyoqli, duradgorlikdan uncha-muncha xabardor ekan, u yoqdan-bu yoqdan besh-o'n yog'och topib, omonatgina uy tiklab, qish tushguncha biroz pul topib kelay, deb katta o'g'lini yoniga olib, xorijga jo'nab ketgan edi. Baxt ham, baxtsizlik ham qo'shaloq keladi, deganlari rost ekan, oradan ikki oy o'tar-o'tmas ota-bolaning murdasini temir tobutga solib tashlab ketdilar. O'shanda yetim qolgan o'g'il-qizlar, beva onaning zorlanib faryod chekkanlari, boshlarini yerga urib dodlaganlari...

Yo'ldoshxon ana shu g'arib oilaga o'rtog'ini ro'para qilgisi yo'q, dongdor, ta'rifi butun yurtga ketgan oilaning vakili bo'lib kelgan ekansan, sen ham yuksakroqqa intilishing kerak, deb turib oldi.

Yo'ldoshxon g'arib oilaning ayanchli taqdiri haqida so'zlayotganida Beksultonning ko'z o'ngidan butun borlig'idan rayhon hidi ufurib turgan shahlo ko'z qiz nari ketmadi. Ikki o'rtoq anchagacha bir-birlariga ma'noli qarab jim qolishdi.

– Oilasi juda g'arib deysanmi? – to'satdan jonlanib so'radi Beksulton.

– Ha, ahvollari anchagina og'ir, – dedi Yo'ldoshxon.

– Men o'sha qizni ko'rmoqchiman!

– Beksulton, o'zingni bos, o'ylab ko'r, iloji bo'lsa dadamdan ham bir so'raylik.

– Men o'sha qizni ko'rmoqchiman, – dadil o'rnidan turdi Beksulton, – bormasang, o'zim boraman.

Nonushta chala qoldi. Onalari Hamro aya «Hoy, qayoqqa» degan savoliga javob ham ololmadi. Soybo'yi mahallasi qachonlardir sharqirab oqqan sersuv, katta anhorning ikki tomonida joylashgan. Anhorning o'ngida tojik qavmi, chapida o'zbeklar istiqomat qiladi. Qaysi tilda so'z boshlansa, o'sha tilda so'zlashib ketaveradilar. Bahavo tabiat, bir-biridan baland o'sgan dov-daraxtlari va nihoyat tog'tomondan oqib keladigan

shabbodalari tufaylimi, qizlari, ayniqsa, go'zal bo'ladi. Biz osmondan tushgan parilar avlodidan bo'lamiz, deb maqtanib yurishadi, rivoyatlar ham to'qishgan. Ehtimol shu tufaylidir, o'zga yurtga deyarli qiz bermaydilar.

O'tgan yili Yo'ldoshxon dadasi bilan fotihaga kelgani bois, shahlo ko'z qizning uyini topib borish uncha qiyin bo'lmadidi. Torgina hovli atrofini chaqaloqning bo'yidekkina keladigan tosh devor bilan o'rab olibdilari. Hovlini to'ldirib oq-qora, rangsiz rayhon ekkanlar, rayhonlardan ufurib chiqayotgan is kishini mast qilay deydi. Ichkaridan uch bola yugurib chiqdi, o'n ikki yoshli qizaloq yalang'och bir bolani bag'riga bosib olibdi. Orqasidan ishtonsiz, dingirlarini o'ynatib bir o'g'il bola ham chiqdi. Hoy-hoylab, xamir qorayotgan bo'lsa kerak, ikki qo'li oppoq un, qotmagina bir ayol shoshilib chiqib:

– Voy o'lmasam, voy xudoyim, aziz mehmonlar, qani-qani, ichkariga, – deya qaytib kirib ketdi. Gulli kigizni dumalatib taxlab qo'yanan ekan, yozdi, ikki tomoniga yakandoz soldi, shoshilib dasturxon tuzay boshladi, quruq o'rik, bir hovuch oq qand ham tashlagan bo'ldi.

- Hukumatdan keldilaringmi? – deb so'radi oxirida.
- Ha, hukumatdanmiz, – deyishdi yigitlar.
- Ariza yozuvdik, borgandir-da.
- Ha, bordi, opajon.
- Haligacha dadalarining pensasi hal bo'lmay turibdi, bugun-erta deb, qiynavorishdi.
- Opajon, xudo xohlasa, endi hal bo'ladi.
- Otalaring xorijda o'lgan, pensiyani o'shalar bersin deyishyapti, shu to'g'rimi, inilarim?
- Yo'q, noto'g'ri...
- O'g'lim, sizni tanib turibman. Tag'in Avazbek amakining o'g'li bo'lmaning. Onangiz Hamro buvini ham taniyman...

Hovlida echki ovozi eshitildi, bir emas, uch-to'rt ech-kining ovozi qo'shilib eshitildi. Shahlo ko'z qiz ko'rindi, yigitlar tomonga bir qiyo boqqandek ham bo'ldi. Yo'q, qiz emas, osmondan parivash tushgandek edi. Tol novdasidek nozik qomati, porlab turgan shahlo ko'zları, chimirilib turgan qop-qora qoshları, cho'ziqroqqa moyil bug'doyrang yuzlaridagi ibo nurlari, hammasi qo'shilib hovlida, rayhon hidi ufurib turgan joyda bamisoli bir charaqlab ochilgan gul paydo bo'ldi. Uning holatidagi tortinchoqliq, uyatchanlik, yuzlaridagi ibo nurlari...

– Voy! – dedi-yu qiz Beksultonga g'alati bir tabassum qilib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Tabassum emas edi, unda olam-olam ma'no bor edi.

Hali yalang'och bolani ko'tarib chiqqan qizaloq bir nafasda qumg'on qaynatibdi, katta, qo'pol choynakka choy damladi. Ikki-uch kosada o'rik sharbati keltirib qo'ydi. Ayol xamir yoyib, nonlarni yasab ham bo'ldi, shekilli:

– Qizim, nega qarab turibsan, tandirga o't qo'ysang-chi, – dedi.

Beksultonning ko'zi hovlida edi, onda-sonda echkilarning past-past ovozi eshitilyapti. Lekin shahlo ko'z qiz qayta ko'rinnadi. Beksulton rayhonga to'la bu hovlidan parishonxotirroq bo'lib qaytdi. Bozorga borib, bozorqo'm bilan quruq meva haqida gaplashdilar, poyezd stansiyasiga borib, yuk tushirsak, narxi qanaqa bo'ladi, deb suhbatlashdilar, bu gaplarning hammasi Beksultonning u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketayotgandek.

Ertalab barvaqt turib, Yo'doshxonning oyog'idan tortib uyg'ota boshladi:

– Tur, tez tur, men shahlo ko'zli qizni, albatta, ko'rishim kerak, – deb qistadi.

– O'zingni bos. U yerning yigitlari johilroq bo'ladi, deyishadi. Uch-to'rt yil oldin bir o'qituvchi borgan ekan

o'sha qishloqqa, qizi bor hovliga hadeb qarayveribdi, hovlining oldidan ashula aytib o'taveribdi, qizlarning johil akalari bechora yigitni urib o'ldirib qo'ya yozishgan.

– Mayli, o'ldirishsa ham men shahlo ko'zni ko'rishim kerak.

VII bob

Anjirchi qizlar, yigitlar Bekulton bilan Oysuluvni o'zlarining maqtovlarga sazovor bo'lgan bog'lariga taklif qildilar. Hovuz bo'yidagi baland-baland supalariga atlas ko'rpa chalar to'shadilar. Qizlarning har biri o'z oilasining tansiq taomlaridan keltirdilar, Qobil bobo o'z qo'lim bilan bu ikki mehmonga osh damlab bermasam, armonda qolaman, deb qozon-tovoqqa o'zi unnab ketdi. Aytilmasa ham Hayitvoy, Barotvoy, Akromjonlarning fermer o'rtoqlari allaqachon yopirilib kelib olishgan. Akrom qizi qchilik qilib, mehmonlarni bir nafas bo'lsa ham kuldirsam deydi, lekin o'rniqa qo'yolmaydi.

– Bo'lmasa boshqasini aytaman, – deb Akrom baribir tengqurlariga so'z bermaydi. – Bir odamning ikkita xotini bor ekan. Biri yosh, biri qariroq ekan. Ikkovini qayiqqa o'tqazib dengiz sayohatiga olib chiqibdi. Katta xotini: «Dadajonisi, hozir qayiq chayqalib suvga yiqilsak, avval qaysi birimizni qutqarardingiz, deb so'rasha, eri, onasi, sen axir suzishni bilarding-ku», dermish.

Barotvoyning ko'ngli to'ljadi, shekilli:

– Akrom, hadeb chirana verma, baribir sendan qizi qchi chiqmaydi, – deb qo'ydi. Kulgisiga hech kim qo'shilmasa ham Akrom o'zi xaxolab kula boshladi. Hayitvoyning esa mehmonlarni xursand qilish uchun o'z san'atini namoyish qilgisi kelib qoldi. Uning mana shu bog'da to'rt kilodan o'ttiz ikki kilogacha qirqdan

ortiq katta-kichik toshi bor. Qobil boboning jahlini chiqarib, ko'pincha tosh o'ynagani-o'ynagan. Mana hozir ham o'ttiz ikki kiloli toshni olib, osmonga irg'ita boshladi, irg'itadi, o'ng yelkasida ilib oladi, irg'itadi va chap yelkasida ilib oladi. Bir yo'la qo'shaloq toshni qorniga qo'yib o'ynata boshlagan edi, Rohila qiz yugurib kelib baqirib yubordi:

– Bas qil, qorning yorilib ketadi!

Endigi qarsak Rohilaga bag'ishlandi. Mehmonga kelgan bo'y qizlar, yigitchalar, ha ha, ana bilib oldik, kimning ko'ngli kimda ekan, deb qarsakni yana ham balandroq chala boshladilar.

Qobil bobo damlagan oshini kosalarga suzib ber-gach, yigitchalar-u qizlarning suhbati, o'zin-kulgilariga xalaqit bermay deb boqqa kirib ketgan, sharillatib o't o'rayotgan edi. «Bobojon, bizga fotiha bering, qaytmoq-chimiz», deb asalarilar onasini o'rtaga olib uchgandek, boboni ham o'rtaga olib, hovuz bo'yiga keltirdilar. Akrom shu yerda ham sho'xlik qilib:

– Bobojon, bir yo'la o'n ikki qiz oyog'ingizni uqalab qo'ymoqchi, – deb o'zicha yana gap boshlamoqchi edi, yonginasida, xuddi birov olib qo'yayotgandek biqiniga suyanib o'tirgan Farida: «Jim bo'l, Farg'onaga sharmanda bo'lganining yetmagandek, endi bu yerda ham sharmanda bo'lamizmi», deb gapirtirgani qo'yamadi.

– O'g'illarim, qizlarim, mana, ko'rib turibman, qishlog'imizning fermerchalari-yu tadbirkorchalari to'planibdi, – shoshmasdan gap boshladi Qobil bobo.

– Xudo xohlasa, sizlar katta fermer, katta tadbirkor bo'lib ketasizlar... Qizim, oting Oysuluvmidi, qani, yaqinrog'imga kelib o'tir-chi. Qalay, bizning xilvatdagi qishlog'imiz senga ma'qul bo'ldimi?

– Voy, bobojon, men bog'larda ham bo'ldim, Barot-voyning dadasi katta bog'bon ekan. Ishonasizmi, bir tup daraxtda besh xil meva pisharkan. Bobojon, biz

Zulkumor bilan umrbod o'rtoq bo'lishga qasam ichdik, mana shu egnimdag'i ko'ylakni onajonisi sovg'a qildi, xudo xohlasa Zulkumor borganda mening onam ham undan go'zalrog'ini tikib beradi.

– Xo'sh Bekslton o'g'lim, sen ham beriroq kel, yonimga o'tir. Xo'sh, sening ishlaring qalay bo'ldi?

– Zo'r-zo'r o'rtoqlar topdim.

– Xudoga shukr, sizlarga o'xshagan fermerlarga, tadbirdorlarga yo'l ochiladigan zamon kelibdi. Endi bir-birlaring bilan ahil bo'linglar, bordi-keldi qilinglar, ziqna, xasis bo'lmanglar, har bir harakatingizda xayriya bo'lsin. Xayriya qilgan kishining yonida Alloh bo'ladi. Sizlarga bir rivoyat aytib beraman. Bu gaplar Oysuluvga ham, Yo'doshxoniga ham, hammalaringga tegishli. Shoshayotganlaring yo'qmi?

– Shoshayotganimiz yo'q, bobojon.

– Rivoyatim cho'zilib ketsa-chi?

– Cho'zilib ketsa ham aytavering, bobojon.

– Bo'pti, o'g'llarim, boshladim: Arab sahrosida bir baland tepalik bor ekan, tepalik yonida bir darvesh g'imirsirab yurgani yurgan ekan. To'satdan qibla tomondan qator-qator tuyalarni haydagan, tuyalari to'la boylik bo'lgan bir savdogar kelib qolibdi. Darvesh uning yo'lini to'sib chiqib:

– Ey, Allohnning suyukli bandasi, qornim och, o'zim tashnaman, ozgina yegulik, ozgina suv bergen, – deb yolvoribdi. Tuyakash o'zini eshitmaganga solib, yo'li-da davom etaveribdi. Darvesh yana yo'lini to'sibdi. Tuyakash boy biron narsa so'ragan odamni yomon ko'rarkan, asabi buzilib:

– Yo'qol, hech narsam yo'q, – deb o'shqiribdi.

– Tuyalar senikimi? – so'rabdi darvesh.

– Meniki.

– Yo juda qarzing ko'pmi?

– Hech qanday qarzim yo'q.

- Yo savdoingdan foyda chiqmayaptimi?
- Chiqqan-chiqmagani bilan sening nima ishing bor, yo'qol.

Shunday deb ziqna boy darveshni nari itarib, yo'lida davom etayotgan ekan, darvesh: «Ey, boy, Alloh meni nochor qilib, seni esa boy qilib yaratdi, boylar nochorlarga yordam bersin deb, senga boylikni behisob berdi, – deb bir xo'rsinibdi-da, so'zida davom etibdi.

- Ey, g'ofil banda, bu gal ham Allohnинг senga atab qo'ygан nasibasidan benasib qoladiganga o'xshaysan.

«Nasiba» degan so'zni eshitib, tuyakash boy hushyor tortibdi, to'xtab orqasiga o'girilibdi:

- Qanday nasiba haqida so'zlayapsan?
- Allohnинг amri bilan bu yerdan xushfe'lli, mehribon, saxovatli, odil bandasi qachon o'tarkin, deb poylab o'tirgandim.
- O'sha saxovatli, odil kishi o'tsa nima bo'lardi?
- Unga mana shu tepalik ostida yotgan dur-u gavarlar nasib bo'lardi.
- Ey, darvesh, o'sha sen aytgan xushfe'l, saxovatli, odil odam mana, men bo'laman.
- Ey boy, tepalikni ochishning nozik sirlari bor.
- Ayt, o'sha sirlarni.
- Oldin shartlashib olishimiz kerak.
- Shartingga roziman, tezroq ayt.
- Shartim shuki, tepalik ostidan qancha dur-u gavar, qancha oltin chiqsa, teng bo'lamiz.
- Ey, darvesh, men adolatli odamman, tepalik ostidan nimaiki chiqsa, teng bo'lamiz yo qasam ichaymi?
- Yo'q, qasaming shart emas, – shunday deb darvesh tuyakash boyni baland tepalik yoniga boshlab boribdi, cho'kka tushib uzoq tilovat qilibdi, duo o'qibdi. – So'zingdan qaytmaysan-a? – deb so'rabdi.
- So'zim qat'iy, boylikning yarmi meniki, yarmi seniki, – debdi boy.

Darvesh cho'ntagidan ko'k shishacha chiqarib, oppoq paxtaga tomizib, tuyakashning katta boylik umidida chaqnab turgan ko'ziga tomizibdi. Yo rabbiy, yo Alloh, mo'jizani qarang, tepalikdan qasir-qusur ovoz chiqarib, qo'sh qanotli darvoza ochilibdi, darvesh aytganidek ichi to'la dur-u gavharlar, oltin-u kumushlar emish. Tuyakashning «adolatliman, saxiyman», degan so'zlari esiga tushib, boylikning teng yarmini o'zi olib, teng yarmini darveshga qoldiribdi. Alqissa, boy tuyakash yana yo'lga tushibdi. Oldinda tuyakash, orqada darvesh borarkan. Tuyakash to'satdan orqasiga o'girilib, «Ey, darvesh, yakka-yu yolg'iz ekansan, shuncha boylikni nima qilasan, o'nta tuyadagisini menga bera qol», debdi.

– Ha, mayli, olsang olaqol, – debdi darvesh.

Yana bir kun yo'l bosibdilar. Tuyakash yana orqasiga qarasa, darvesh boylik yuklangan qirqta tuyani hamon yetaklab kelayotgan emish.

– Ey darvesh, sahro-yu biyobonda qirqta tuyadagi boylikni nima qilasan, yana o'ntasini menga bera qol, – debdi.

– Ola qol, – debdi darvesh.

Boy tuyakash yana uch marta orqasiga qarab, yana uch marta yolvorib qolgan o'ttizta tuyadagi boylikni ham bir amallab darveshdan tortib olibdi. Endi dunyodagi eng katta boy bo'ldim, deb gerdayib ketayotgan ekan, tasodifan orqasiga qarasa, oyog'ida choriq, yelkasida xalta bilan darvesh hamon sudralib kelayotgan emish... «Iya-iya, tepalikdagi xazinaning yarmini bo'lishib oluvdik, bu darvesh qolganini nima qildi ekan», deb o'yabdi boy. «Yo biron kishiga hadya qilmoqchimikin, undan ko'ra mening o'zimga bera qolsa bo'ladi-ku», deb o'yabdi yana. Tuyasidan tushib darveshga salom berib, ta'zim bajo keltirib-

di. O'ylaganini bayon qilgan ekan, darvesh o'ylanib turibди-да:

– Yo'q, bu gal ko'zingga dori surta olmayman, dorim juda oz qolgan, – deb zorlanibdi.

– Ko'zimga surtasan, bu ko'zimni ham ochasan, boylikning qolgani ham menga tegishi kerak, – deb do'q-po'pisa qilishga o'tibdi tuyakash boy.

Darvesh qarasa, tuyakashning vajohati yomon emish. Qo'rqibdi, orqaga qaytishga rozi bo'libdi. Tepalik tomonga boribdilar. Darvesh cho'kka tushib, uzoq tilovat qilibdi, qo'lini baland ko'tarib, duo o'qiy boshlabdi-da:

– Ey boy, fikringdan qayt, – deb yolvoribdi.

– Qaytmayman, tepalik ostidagi boylik meniki bo'lishi kerak, – qat'iy tarzda debdi boy.

Darvesh ko'k shishadagi doridan paxtaga tomizib, tomiziqni tuyakashning boshqa ko'ziga surtibdi. Katta boylik umidida porlab, charaqlab turgan ko'z to'satdan yumilib, ikki ko'z birdan ko'r bo'lib qolibdi. Boy faryod chekibdi, yo'q, ko'zlar ochilmabdi. Darvesh: «ko'zi ko'r odamga shuncha boylikning nima keragi bor», debdi-da, tuyalarga yuklangan boylikni noma'lum tomonga olib ketibdi.

Ochko'z tuyakash boy ko'zi ko'r bo'lib qayoqqa yurishini bilmay, yo'l topolmay, hamon cho'l-u biyobonlarda sarson-sargardon yurgan emish.

Tadbirkor qizlar-u fermer yigitchalar boboning pur-hikmat rivoyatini jimgina tinglab o'tirdilar. O'tirdilar-u bir-birlarining o'yga tolgan ko'zlariga tikilib-tikilib oldilar.

Qobil bobo ularning har birini bag'riga bosib, boshlarini silab, erkalab-erkalab kuzatib qoldi.

VIII bob

O'zi ham ikki ishq o'rtasida yonayotgan Yo'ldoshxon o'rtog'ining ahvolini to'g'ri tushundi. «Hozir ikki o't o'rtasida yonyapman. Lekin o'zimni yo'qotmayman, shoshmayman. Beksltton shahlo ko'zni sevib qoldi, lekin o'taketgan darajada betoqat ekan, betoqatlik oqibatida biron falokat yuz berib qolishidan ham qo'rmas ekan. Shu bilan birga, pov etib yonadigan olov to'satdan o'chib qolishi ham mumkin-ku. Mabodo qalbida to'satdan paydo bo'lgan olov yana to'satdan o'chib qolsa, unga singlim Gulsarani berganimizda ikki oilaning barqarorligi yana ham zo'r bo'lardi», – deya har xil xayollarga boradi Yo'ldoshxon.

– Beksltton, axir u qizni paxtaga, hasharga olib ketdi, deyishyapti, – yo'ldan qaytarmoqchi bo'ldi Yo'ldoshxon.

– O'sha hashar deganing shu O'zbekistondami axir? – betoqat bo'lib so'radi Beksltton.

– Lekin juda-juda uzoqda, o'rtoq.

– Cho'lda bo'lsayam, tog'da bo'lsa ham bugundan qolmay uni ko'rishim kerak.

Ishq otashida yongan qalbni puflab o'chirib bo'lmaydi, deydilar. Hashar ketayotgan joyga bormasdan boshqa iloj qolmadi. Yo'ldoshxon fikrli, mulohazali yigit. To'satdan ikki oshiqligini yigitning qizlar ortidan borishi tagobliklar aytadigan ancha-muncha mayda gaplarga sabab bo'lishi ham mumkin. Yaxshisi, Akrom, Hayitvoy, Barotvoy o'rtoqlarimni ham olib boramiz, bir kunlik hasharga keldik, deymiz degan edi, bu fikr Beksltonga ma'qul bo'ldi, lekin shahlo ko'z qizni axtarib borganim o'rtoqlarim o'rtasida kulgiga sabab bo'lmasmikin, deb o'yładi. Bu yoshlarning ham qalblariga ishq asta-sekin mehmon bo'lib kelayotgan edi. Keng dalalarni bir aylanib kelish bahonasida

haligi gapga rozilik bildirdilar. Buning ustiga, talabchan, goho injiq Zulkumor bahordan buyon bularga qishloqdan tashqariga chiqishga izn bermayotgan edi, yo ishlaysan yoki ketasan, degan kunlari ham ko'p bo'lgandi.

Mevali-mevasiz daraxtlarga ko'milgan qishloqlari dan chiqishlari bilan keng dalalar boshlandi. Yo'lning ikki tomoni paxtazor, birinchi terim ham bo'lmaganga o'xshaydi, chinni kosadek oppoq-oppoq paxtalar chanog'idan toshib ketay deb turibdi. Olam faqat ana shulardan taralayotgan oqliklardan iboratdek tuyuladi. Guruh-guruh bo'lib paxta terayotganlar bor, nima sababdandir bir-birini quvlab, bir-biriga ko'sak otayotgan yigitchalar-u qizlar ko'zga tashlanadi. Goh tepasiga osmon barobar paxta yuklangan mashinalar chayqalib-chayqalab o'tib qoladi.

– Hayit, o'ng tomoningga qaragin, – deydi zavqi oshgan Akromjon.

– Qarab kelyapman, – deb qo'yadi Hayitvoy.

– Qari tutlarni ko'ryapsanmi?

– Ko'ryapman.

– Esingdami, Zulkumor tabelchi bo'lgan edi. Eng ko'p paxtani Yo'ldoshxon ga yozgandi.

– Ha, o'shanda ham bularning gapi bir edi. E, Akrom, nimalar bo'lmagandi. Sen ham nuqul Faridaga terisharding. Esingdami, shoир, yozuvchilar kelishuvdi, zo'r-zo'r she'rlar o'qishgan, Yo'ldoshxon ashula aytuvdi... Hayit, sen o'sha shoирning she'rini yodlab olib, keyin Rohilaga o'qib berganding.

*Men hayotman, dardimga
Bol kabi so'zing davo.
Kel, bir marta o'payin,
Sal qisiq ko'zing davo...*

Ha, uyalmay qo'ya qolinglar. Hayit, bu she'rni sen Rohilaga, Barot Saddinisoga, men Faridaga o'qib ber-ganman.

Yigitchalar bora-bora ochilib boryapti, qaysi qizning qo'lini ushlaganini, qaysi qizning qulog'iغا nima deb shivirlaganlarini aytib ham yuboryaptilar. Beksul-tonni amallab suhbatga tortmoqchi bo'ladilar. U esa nigohini keng dalalardan ololmaydi. Goho-goho g'alati jilmayib, o'zicha kulib qo'yadi. Yigitchalar bo'lsa, bu mehmon bilan bir mashinada o'tirib borayotganlari-dan mammun.

Fermerning paxta maydoni shundoqqina daryo bo'yida ekan. U yoqda to'lqinlanib daryo oqyapti, bu yoqda qiyg'os ochilgan paxtazor, paxtalar chanog'idan oqib, to'kilay-to'kilay deb turibdi. Fermer ellik yosh-lardagi, qattiq-qattiq gapiradigan, gapirganda qoshlarini chimiradigan bir kishi ekan. Yordamga kelganlarini eshitib, behad xursand bo'lib, hammalarini bir-bir quchoqlab ham qo'ydi.

- Faqat bir kunga keldik, – deb gap boshladi Akrom.
- E ukalar, bir soatga kelgan bo'lsalarining ham boshim osmonga yetdi. Afsuski, etak yetishmayapti.
- Fermer aka, – yana gapga aralashdi betoqat Akrom, – mana bu ikkoviga etakning keragi yo'q. Ko'ryapsizmi, ikkovining ham og'zi katta, paxtani og'izlariga terishaveradi.

Hayitvoy ham o'rtog'idan ortda qolgisi kelmay:

- Fermer aka, mabodo sizda uzunligi olti metr kel-adigan simyog'och yo'qmi? – deb so'radi.
- Simyog'och? Simyog'och nega kerak? – hayron bo'lib so'radi fermer.
- Simyog'ochni paxtazorning o'rtasiga o'rnatib, Akrom o'rtog'imni radiokarnay o'rniga o'sha yerga bog'lab qo'yardik, paxta mavsumi tugaguncha tinmay javrab turardi.

Kulgi ko'tarildi. Beksloton bilan Yo'ldoshxon ham miriqib kulishdi. O'rtoqlari Yo'ldoshxonning qattiq kulishini bilishar, lekin Bekslotonning ham mana shunaqangi baland ovoz bilan tizzalariga urib-urib kulishini ko'rib hayron qolishdi, hayron qolishdi-yu o'zlar ham beixtiyor kulgiga sherik bo'lishdi.

Paxtazorni hasharga kelgan qizlar «qoplab» ketgan. Etak yo'qligi tufayli qizlar yonida yurib tergan paxtalarini qizlarning etagiga solish haqida maslahat bo'ldi. Ko'z yumib-ochguncha paxtazorga tarqalib ham ketdilar. Beksloton o'rtoqlaridan ajralib, axtargan qizini ko'rdi-yu, qiziq, negadir uning yoniga borishga yuragi betlamadi. To'ppa-to'g'ri uning yoniga borsam, boshqa qizlar ustidan kuladi, deb ham o'yldi. Shuning uchun yonbosh turgan boshqa qizdan:

– Singlim, sizga yordam bersam maylimi? – deb so'radi.

Qiz shoshmasdan boshini ko'tarib, g'alati jilmaydi:

– Voy, nega?

– Biz yordamga keldik.

– Men sizni Avazbek amakinikida ko'rgandim. Darrov tanidim.

– O'sha bazmda siz ham bormidingiz?

– Voy, men bilan o'yinga tushdingiz-ku.

– O'yinga tushganim uchun endi yordamlashay, deb keldim-da.

– Paxta terishni bilasizmi?

– Bilaman.

– Sizlarda paxta yo'q deyishadi-ku?

– Yo'q, ayrim joylarda ekishadi, o'sha yerda terganman.

Qiziq, bu qizning har bir so'zida duo borga o'xshaydi. O'sha so'zlar Bekslotonning kuchli hayajonini bosib, asta-sekin o'ziga keltira boshladи. O'zida dadilik sezdi. Endi dugonangizga ham yordamlashay deb,

to‘rt egat narida ishlayotgan Marg‘ubaxonning oldiga bordi. Ey Alloh, yana qaltirashi boshlandi.

– Men sizga yordamlashgani keldim, – dedi Bek-sulton.

Qiz boshini dadil ko‘tardi. Bu ko‘zlar, lovullab yonib turgan, chaqnab turgan bu ko‘zlar yana uchrashdilar. Osmonda chaqnagan chaqindek bo‘lib faqat pax-tazorgina emas, butun olam yorishib ketgandek, shu yorishib ketgan olam ichida faqat ikkovlari qolgandek bo‘ldi.

Qiz nim tabassum bilan:

– Boshqalarga yordamlashgani kelgandirsiz, – dedi nozli bir ohangda.

- Yo‘q, faqat sizni deb keldim.
- O‘scha kuni nega darrov ketib qoldilaring?
- Uylaringdanmi?
- Ha, uyimizdan.
- Yana kelarman, deb o‘ylovdim.
- Kelmadingiz-ku.
- Kutganmidingiz?
- Yaxshi mehmon kelishini hamma ham kutadi.
- Bo‘ldi, endi tez-tez borib turaman.
- Qo‘ying, bormang, uyatga qolamiz.
- Men uyalmayman.
- El-yurt kuladi ustimizdan.
- Men endi el-yurtdan ham qo‘rqmayman. Qish-log‘ingizga do‘kon qurib bermoqchiman.
- Do‘kon?!
- Ayangiz o‘scha kuni aytdilar-ku. Rahmatli dada-nbiz akangizni yoniga olib, chet elga borib pul ishlab kelamiz, oilaviy do‘kon ochamiz, degan ekanlar.
- Rahmatli dadam, akajonim... – Marg‘uba qiz so‘zlarini oxiriga yetkazolmadi, ko‘zlaridan duv etib yosh to‘kildi. Beksultonning nazarida bular ko‘z yoshi emas, oppoq-oppoq durlar edi go‘yo.

– O'sha do'konni, xudo xohlasa, siz uchun men qurib beraman.

– Hamma bizga qarayapti, Beksulton aka.

– Mening ismimni bilasizmi?

– Bilaman, endi boshqa qizga yordamga o'ting, hamma bizga qarayapti.

– Birozdan keyin yana kelsam maylimi?

– Mayli.

– Kechgacha yoningizda qolmoqchiman.

– Uyat bo'ladi, Beksulton aka.

Qizning «Beksulton aka» deyishi Beksultonning butun vujudini yondirsa ham, kuydirsa ham orom berayotgandek bo'laverdi. Kechgacha, hatto tunda ham Marg'ubanining «Beksulton aka» degan mayin, latif, erkalovchi, sehrli ovozi qulqlari ostida jaranglab turgandek bo'ldi. Eshitgan sari o'rnidan turib-turib ketaverdi.

Yigitlar daladan quvnoq kayfiyatda qaytishdi. Keng dala, tengqur qizlar bilan aytishgan hazil-mutoyiba so'zlar, ayniqsa, Farida, Saddiniso, Rohila, Zulxumorlar yo'q joyda bir-birlaridan go'zal qizlarga to'yib-to'yib boqib olganlari kayfiyatlariga kayfiyat qo'shib, ko'ngil-larini paxtazor osmonidek yana kengaytirib yuborgan edi. Akrom yana to'lqinlanib she'r o'qiy boshladi. Qiziq, bu she'rni negadir o'rtoqlariga qarab emas, Yo'ldoshxonga qarab emas, Beksultonga qarab o'qirdi:

*– Men xastaman, dardimga
Oy kabi yuzing davo.
Ko'chamizga kelgin, yor,
Yerdagi izing davo.*

*Men xastaman, dardimga
Tengi yo'q husning davo.
Ming bor takror aytaman,
Ey jonon, isming davo.*

IX bob

Ikki o'rtoq tuni bilan uqlashmadi hisob. Bu yog'i Farg'ona, u yog'i qo'shni yurt – o'rtada radioto'lqinlar cho'l-u sahrolar osha o'rtoqlarning hayajonli so'zlarini goh u yoqqa uzatadi, goh bu yerda qabul qiladi. Og'ir, tabiatan ancha bosiq bo'lgan Yo'ldoshxoniga qaraganda Beksultonning hayajoni daqiqa sayin oshib boradi. Qo'l telefonini qo'liga olishi bilan:

– Onajonim, o'zbek qiziga uylantiraman derdingiz-ku, o'sha qizni topdim, go'zal, g'oyat go'zal, tanishishimizdan oldin u meni tushida ko'rgan ekan.... Bir yigit kelib uni tuyaga mindirib olib ketgan ekan.... Onajon, tezroq sovchilikka kelmasangiz bo'lmaydi....

– Xo'p, o'g'lim, albatta boraman, xudo xohlasa, otang ikkimiz boramiz.

– Onajon, telefonni otajonimga bering... Assalomu alaykum... To'g'ri-to'g'ri, otajon, shartnomasiz bironta ish qilayotganim yo'q... Muhrini ham bostir-yapman, hokimiyatda yaxshigina odam bilan tanishib oldik. Otajon, bizni tabriklang, Yo'ldoshxon ikkimiz qo'shma do'kon ochdik, «Yo'ldoshxon-Beksulton qo'shma do'koni» deb nom ham berganmiz. Otajon, tezroq kelmasalaring bo'lmaydi, tanlagan qizimning uyiga sovchilar yog'ilib turibdi... Ota, bu qizning onasi ham mening otajonimga o'xshab rayhon o'stirarkan, tuvakchalarda o'stirib, bozorga chiqarib sotib ham turisharkan. Hovlilari to'la rayhon... Endi Oysuluvga bering.

Ishq otashida yonayotgan bu ikki o'smir Tagob degan qishloqda qo'shma do'kon ochish oson emasligini bilishmasdi. Beksulton hayajon ichida, odatda, u betoqat emasmi, do'kon ochdik, deb yubordi. Ikkovi ham suyukli qizi oldida o'zlarini ko'rsatgisi, boshqa yigitchalarga qaraganda ulardan ancha yuqori ekanligini ta'kidlab qo'yishmoqchi. Qo'shma do'konnini

Yo'ldoshxonning hovlisi oldidagi katta maydonda ochadigan bo'ldilar, atrofini simto'r bilan o'raymiz-u bismillo deb, ishni boshlab yuboramiz, deb o'ylagan bo'lishlari mumkin. Lekin ishning anchagina ishkal joylari borligi sezilib qoldi. Maydon ikki mahalla o'rtasida bo'lgani sabab, har bir mahalla raisi, men roziman, deb bularning arizasiga imzo chekib berishlari kerak ekan. Buning ustiga, har ikki mahallaga rahbarlik qiladigan qishloq oqsoqollar kengashi degan idora ham bor ekan, ana o'sha idoraning rahbari ham arizaga imzo chekishi shart ekan. Bu amakilar imzo chekmaguncha oldinga bir odim ham bosolmas ekanlar.

Ishni past mahallaning har qanday muammoni burnini bir jiyirsa hal qilib tashlaydigan pakana raisiga ro'para bo'lishdan boshladilar.

– Lekin Avazbekning o'g'li, zo'r yigit ekansan, qoyil, bir hamla bilan butun qishloqqa gaz tushirishga yordamlashib yubording, – deb yigitchalarni o'tirishga taklif qilib, bir piyoladan qaynoq-qaynoq choy ham uzatdi. – Bilaman, yurtga foyda keltirish barobarida o'zing ham yaxshigina foyda ko'rding, tushgan pullarning sassig'iga uxlay olmayotgandirsan. Lekin otangga o'xshab sen ham ziqna ekansan, mahallaga ozgina xayriya qilmading-a.

– Amaki, Xosiyat xolaga, betini it tishlab olgan Dilbar ammaga quvurlarni tekinga berdim-ku.

– E o'g'lim, sen ham Avazbek dadangga o'xshab gapga usta bo'lib ketibsan. Xosiyat kampir ham, betini it tishlagan Dilbar ham mahallaning faollari emas, faollarga yordam berish kerak, berasanmi?

– Beraman, albatta, beraman, – deb qo'ydi Yo'l-doshxon.

Endi mo'ylovini bir burasa, har qanday chigal ishko'z yumib-ochguncha hal bo'lib ketadigan novcha

raisga ro'para bo'ldilar. Novcha amaki ikki yigitcha do'kon ochmoqchi bo'lganlarini eshitib, ikkovlarining ham qo'llarini siqib, yelkalarini silab-silab qo'ydi.

– O'g'illarim, mard yigit ekansizlar, do'konni oching-lar, mana men yordam beraman. Yo'ldoshxon, zo'r yigit bo'lib yetishyapsan, dadang ham ana shunday qish-loqning zo'r yigitlaridan edi. Senga bir iltimosim bor.

– Ayting, jonio bilan bajaraman.

– Kuyovim Habibni taniysan-a? O'sha bechora ish-siz yuribdi. Uni o'zingga muovin qilib olasan... Xotinini ham hech bo'lmasa farrosh qilib olarsan...

– Hammasini bajaraman, amaki.

– To'xta, o'g'lim, muncha shoshmasang.

– Amaki, tuman markaziga borishimiz kerak.

– O'g'illarim, mana buning oti Beksltton, allaqachon bilib olganman, qomati ham kelishgan, ikkovlaring bir bo'libsizlar, endi tog'ni talqon qilasizlar. Men bug'al-tirlikka tajribali bir yigitni tavsiya qilaman. Bo'lmasa hozir savdoni boshqarish qiyin. Nima ko'p, tovlamachi ko'p. Sizlarga ajoyib bir bug'altirni tavsiya qilmoqchiman, uni ishga olsalaring oshiqlaring olchi, bexavotir ishlayverasanlar... Kuyovimning otasini taniysan-a? Barakalla, ajoyib bir qudam bor-da, oyog'i sinib uyda yotibdi, ana shuni ham ishga olasan...

Bir mo'lyovini burasa har qanday ishni bitirib tashlaydigan amakining ketma-ket qo'yayotgan talablari Yo'ldoshxonga ham, bu suhbatlarni jimgina jilmayibgina kuzatib turgan Beksltonga ham yoqmayot-gan edi. Yo'ldoshxon hamma talablariga xo'p-xo'p deyman-u, baribir, bilganimni qilaman, deb fikrlab ham qo'yayotgandi. U kesatiq ohangda:

– Amaki, mana shu do'konni ochsak, siz direktor bo'lsangiz yaxshi bolardi, – deb qo'ydi.

– Albatta, albatta, – deb shoshilib javob qaytardi novcha amaki, – ishni yo'lga qo'yib olguncha direktor

bo'lib turganim yaxshi. Hozir nima ko'p, tekshiruvchi ko'p. Voy qurmagurlar-ey, biram savlatliki ular, katta-katta papkalarni qo'ltinglab kelishlarini ko'rsang. Ishlaringni yo'nga qo'yib beraman-u, do'konni darrov o'zlaringga qaytaraman. Anavi tegirmon ochgan Rasul degan bola bor edi-ku, o'shaning tegirmonini ham men oyoqqa turg'izib bergenman... Demak, o'g'llarim, kelishdik.

Tagob qishlog'ida «tarvuzi qo'ldan tushdi», degan ko'pchilik tez-tez ishlata digan chirolyi bir ibora bor. Yigitchalarining tarvuzlari qo'ltiqlaridan tushay-tushay dedi-yu, lekin Yo'ldoshxon o'ziga qattiq ishonadiganlardan edi, tashqariga chiqishi bilan raisning idorasini tomonga o'girilib, qo'lini musht qildi:

– Mana senga do'kon!

Maslahat ustiga maslahat boshlandi. Ko'pni ko'r-gan Avazbek amaki keng fikrlari, chuqur mulohazalari bilan yordamga keldi. Shunday bo'lsa ham chet el fuqarosi bilan qo'shma do'kon ochish oson emasligini, o'nlab idoralarning eshigini ochishga to'g'ri kelishini ta'kidlab-ta'kidlab ham turdi.

Beksultonning «Mersedes» mashinasiga o'tirib, anjirzorga jo'nadilar. Yozi bilan anjir sotish, pishib o'tib ketgan mevaning bir qismini shisha bankalarga joylash bilan ovora bo'lib, ketma-ket sug'orilaverganidan anjirzorni o'tga bostirib yuborgan edilar. O't shunday o'sdiki, endi yer bag'rilib qolgan anjirlarning hosilini terish ham ancha qiyinlashib qoldi. Zulkumor tashqaridan keluvchilarga bu o'tlarni o'rdirgani qo'ymadidi, o'zimiz qishda qo'y boqamiz, mol boqamiz, deb qizlar-u yigitlarning qo'liga o'roq tutqazdi.

Ikkovlari tengqur o'rtoqlarining shiddat bilan o'roq tortayotganlariga bir nafas qarab turdilar, Yo'ldoshxon agar do'kon tashvishi bo'limganda, uch-to'rt kun o'roq tortgan bo'lardim, deb ham o'yladi.

Anjirzordan qo'lida o'roq, odatiga ko'ra nim tabassum qilib Zulkumor chiqib keldi.

– Senga bir maslahatli gap bilan keldik, – deb Yo'ldoshxon tortinibroq gap boshladi.

Kecha paxta terimiga borgan hasharchi qizlardan xabar olamiz deb ketganlarida qizlarga, hammadan ko'proq Zulkumorga alam qilgan ekan.

– Maslahatni paxta terayotgan qizlar bilan qilinglar, – deb bor zahrini sochib Zulkumor Yo'ldoshxonga uncha e'tibor bermay, Beksloton bilan quyuqqina so'rashib, suhbatlasha boshladi.

– Zulkumor! – dedi Yo'ldoshxon.

– Suhbatimizga xalaqit berma, – jerkib tashladi Zulkumor.

– Quloq sol, iltimos bilan keldim.

– Iltimosingni paxtazordagi qizlarga borib ayt.

Zulkumorning ovozida ham alam, ham nozlanish ohanglari bor edi. Tabiatan yumshoqko'ngil, kechirimli bo'lgani uchun asta-sekin alamidan tusha boshladi:

– Xo'p, ayt aytadiganingni.

Yo'ldoshxon aytadiganini aytdi, yolvordi, aytganlarini Beksloton tasdiqlab turdi. Zulkumor «To'g'ri, dadamga iltimos bilan borsak, bu ishni bitirishga yordam beradi, yarashish uchun har xil yo'llarni ham axtarib yuribdi, lekin dadamning oldiga bormayman», deb qayta-qayta takrorladi. Oxirida:

– Esingdami, seni qamoqdan qutqarib chiqqan kuniimiz? – deb so'radi. – O'sha ishlarimizga polkovnik hoji dada yordam bergani yodingdami? Yana esingdami, polkovnik nima degandi?

– Esimda yo'q.

– Yo'ldoshxon, terimchi qizlar es-hushingni o'g'irlab qo'yishibdi.

– Zulkumor, tezroq gapir.

– O'sha polkovnik qachon boshlaringga tashvish tushsa, menga kelinglar, degandi. Borsak, o'sha hoji boboga boramiz. Lekin dadamga bormayman.

O't o'rishga berilib ketgan yigit-u qizlar, o'roqlarni ho' nariga, daraxtga osib, yuz-qo'llarini chala-chulpa yuvib, ikki mashinaga o'tirdilar. Oysuluv kelib-ketganidan buyon Zulkumor arazlab, Yo'ldoshxonning yoniga emas, ataylab Bekslttonning yoniga o'tirdi. Mashinada tuman markaziga deyarli uchib bordilari. Qiziq bo'ldi, juda-juda qiziq bo'ldi. O'tgan gal kelganlarida ham xuddi mana shu yelkasida pogoni yo'q yigit eshik tagida turib, ko'rsatkich barmog'ini labiga bosgan edi. Bu gal ham xuddi shunday qildi. Xayriyat, betoqat yigit-qizlarni uzoq to'sib turmadidi. Eshikni xiyol ochdi. Hoji polkovnik egnidagi oq chakmonini yechib, pogonli gimnastyorkasini kiydi, boshidagi oq do'ppisini olib, vahimali ko'rinadigan qizil shapkasini boshiga qo'ndirdi, asta boshini ko'tarib, hayajon ichida turgan o'g'il-qizlarga bir-bir qarab chiqib:

- Ha, shaytonvachchalar? – deb so'radi.
- Keldik, – deb chuvillashdi qizlar.
- Bu gal sizlarni qabul qila olmayman.
- Nega? – yana chuvillashga tushdi qizlar.
- Mana bu ko'zini pirpiratib turgan yigitcha o'tgan gal ikki chelak anjir olib kelaman, deb meni aldab ketgan.

Akrom shoshilib oldinroqqa chiqdi:

- Amaki, hoji bobo, anjir tamom bo'lgan, hozir borib qurug'idan bir qop olib kelaymi?
- Yo'q, endi sen bilan hech qachon gaplashmayman. O'g'lim, sen fermaning boshlig'imiding, otingni esimdan chiqarib qo'yibman.
- Bobojon, otim Yo'ldoshxon.

– Yo'ldoshxon, qani gapir-chi, nega bularni ish-dan qo'yib, oldingga solib qo'y haydagandek haydar yuribsan?.. Mana bu o'g'limning otini ham esimdan chiqarib qo'ydim...

– Beksulton.

– Demak, temir, quvur, yog'och sotamiz deb bir-lashibsizlar-da. Sizlarda yog'och yo'q-ku.

– Bobojon, biz yog'ochni boshqa yurtdan olamiz.

Nima muammo bilan kelganlarini oldin Yo'ldosh-xon, keyin Zulkumor gapirdi. Beksulton qo'shimcha qilib turdi.

– O'g'illarim, qizlarim, ishlaringda qachon muammo tug'ilsa, albatta, militsiyaga kelinglar deb aytganman, bu yerga kelib yana to'g'ri qilibsizlar, – hoji polkovnik gaplarini dona-dona qilib, har so'ziga urg'u berib ga-pira boshladi. – Yaqinda hukumatning qarori chiqqan. Fermer yoki tadbirkor ishlayman, deb yozganida, arizasi o'sha kuniyoq hal bo'lishi kerak. Hal bo'lmasa, to'sqinlik qilgan rahbar o'sha kuniyoq ishdan ketishi kerak. Mana shu qarordan sizlarga ko'chirtirib beraman. Ko'rsatsalaring, har qanday amaldor bo'lsa ham qo'rqb, dovdirab qoladi. Bilasizlarmi, amaldorlar nimadan qo'rqed?

– Yo'q, bilmaymiz, – deb bir ovozdan javob qaytarishdi.

– Amaldorlar egallab turgan yog'li, daromadli o'rinalardan qo'rkishadi... Qaysi idoraga kirsanglar, avval hukumatning mana shu qarorini ko'rsatinglar. Men hozir qo'ng'iroq qilib aystsam ham bo'laveradi, lekin sizlar ham latta bo'lmanglar, bo'sh kelmaymiz, dey-digan bo'linglar. Unutmanglar, hukumat sizlarning tomoningizda.

– Amaki, hoji bobo, siz bilan suratga tushsak maylimi? – shoshilib so'rashdi qizlar.

– Yo'q, sizlar bilan suratga tushmayman, – degan javob qaytdi.

- Voy, nega?!
- Qizlar yolg'onchi bo'larkan. To'yimizga sizni, albat-ta, aytamiz, deb suratga tushishadi-da, keyin baribir aytmay aldab ketishadi.
- Biz hech aldamaymiz, – deb qizlarning yolvorish-larini ko'rsangiz. Hoji polkovnik ular bilan suratga tushdi. Avval kelganlarning hammasi bilan tushdi. Keyin Zulkumorni yoniga chaqirib, u bilan ham alo-hida tushdi. Nega bunday qilganiga Zulkumorning o'zi ham, qizlar ham tushunolmay qolishdi.

X bob

Polkovnik donishmand odam ekan, nima deb maslahat bergen bo'lsa, hammasi to'g'ri bo'lib chiqaverdi. O'sha kuniyoq tuman arxitektura bo'limiga kirib, biz shikoyat bilan keldik, degan edilar, bo'lim mudiri yoshgina yigit ekan, institutni yaqinginada bitirib, adajonisining yordami bilan bir amallab shu ishga joylashib olgan, xudo xohlasa, endi bu yog'li lavozimimni hech kimga bermayman, deganlardan ekanmi, «shikoyat» degan so'zni eshitib, qo'l-oyog'i qaltirab qoldi. Shoshmasdan o'rnidan turib:

- Shikoyat?! – deya vahimali bir ohangda so'radi.
- Ko'pincha shaddod Zulkumor birinchi bo'lib gap boshlardi, bu gal ham shunday qildi. Aslida nima maqsadda kelganlarini tortinibroq turgan Bekulton bilan Yo'ldoshxon ikkovlari aytishlari kerak edi. Yo'q, Zulkumor ularga so'z bermadi, o'zi tushuntirdi. Bo'lim mudiri sal o'ziga kelgandek bo'ldi, rangiga qon yugurdi, qaytib o'rniga o'tirdi.

- Demak, bu ikki ukamiz qo'shma do'kon ochmoq-chi, shundaymi? – deb so'radi.
- Xuddi shunday, – deyishdi Yo'ldoshxon bilan Bekulton.

– Demak, bu ukamiz boshqa yurtdan kelgan. Shunday ekan, nega to'ppa-to'g'ri mening idoramga kelavermadilaring?

– Shunaqa idora borligini bilmas edik.
– Qo'llaringdagi hukumat qarorini qayerdan oldilaring?

– Oldik-da.
– Bu qaror hali bizga yetib kelgani yo'q-ku.
– Bizga bu qarorni hoji polkovnik berdilar.
– Hoji polkovnik?! – bo'lim mudiri yana o'rnidan turib ketdi, xuddi hoji polkovnikning o'zi xonaga kirib kelgandek. O'sha salobatli odamni kutib olmoqchi bo'lgandek hayajon ichida o'rnidan turdi. Hukumat qaroridan qo'rqedimi, hoji polkovnikdan qo'rqedimi, qo'llarini musht qilib turgan yigitchalar-u shaddod qizlardan qo'rqedimi, bunisi yolg'iz Allohga ayon, qo'ng'iroq bosib bir kishini chaqirdi. Ellik yoshlardagi, qop-qora, kaltagina soqolli, boshida bir dona ham tuki yo'q kishi kulimsirabroq kirdi.

– Tagob qishlog'ining xaritasi bormi? – deb so'radi mudir.

– Yangisimi, eskisimi?
– Ikkovini ham keltiring. Tayyorlaning, o'zingiz hozir Tagobga jo'naysiz. Yosh fermerlar haqida hukumatning qarori bo'lgan ekan, nega menga ko'rsatmadingiz?

– Bunaqa qarorlar to'lib yotibdi.
– Nega ko'rsatmadingiz, deyapman!

Voqeaning qolgan qismi betoqat Beksulton kutowtayotgandek shiddat bilan davom etdi, Yo'ldoshxon istagandek fikrga, mulohazaga o'rin qolmadi... Maydon ikki mahallaga tegishli emas, xuddi ikki mustaqil davlat o'rtaida ozgina maydon betaraf, deb e'lon qilinganidek, Avazbek amaki hovlisi oldidagi yarim gektarlik maydon ham betaraf ekan, kimga berishni hukumatning o'zi hal qilar ekan.

– Endi hukumatga ham boramizmi? – shoshilib so'radi Yo'ldoshxon.

– Yo'q, – dedi bo'lim mudiri, – uni biz hal qilamiz.

Maydon rejachilar tomonidan o'lchanayotganda atrofdagi ikki mahalla odamlari bostirib kela boshladilar. Qishloqdagi barcha arizachilarning goh yashirin, goh oshkor rahnamosi bo'lgan G'ani terak hammadan oldin yetib keldi. Novcha, pakana raislar lablarini burib, qoshlarini chimirib turishibdi. Novcha rais «Sen mudircha bilan beruxsat, bizning ishtirokimizsiz o'zboshimchalik bilan ish ko'rayotganing uchun boshqacha gaplashaman», deb siyosat ham qilib qo'ymoqda.

– Rostdan ham, nega biz bilan maslahat qilmayapsizlar? – deb pakana rais gapga aralashdi.

– Maslahat hokimiyat idorasida bo'lib o'tdi, – dedi yosh mudir.

– Kerak bo'lsa, hokimingni ham ishdan oldirib tashlayman, – deya gapdan qolmadi novcha rais.

Yo'q, yosh mudir qaysargina ekan, unisiga ham, bunisiga ham qulq solmadi. Jimgina borib mashinasiga o'tirdi. Qora soqolli, boshida bir tuki ham yo'q amaki mashinaga o'tirish oldidan Beksltonni bir chekkaga tortib, qulog'iga shivirlay boshladi.

– O'g'lim, sen boshqa yurtdanmisan?

– Ha.

– Pul ham olib kelganmisan?

– Olib kelganman, amaki.

– O'sha puldan idoramizga ozginagina kerak edi-da.

– Qancha?

– Qancha bersang, shuncha.

– Hozir beraymi?

– Yo'q-yo'q, o'g'lim, kechqurun alohida kelaman, do'koningning rejasini ham tayyorlab kelaman. Gapi-mizni mana bu yosh mudir eshitmagani yaxshi, yomon bola u, ishonmayman unga... Bizda poraxo'rlik qattiq

taqiqlangan, bergen ham, olgan ham qamaladi... Xo'p, kechasi kelaman.

– Yo'q amaki, oldin rejani olamiz, pulni keyin beramiz.

– Bo'pti, rejani tayyorlab kelaman.

O'lchovchilar kelib-ketganning uchinchi kuni anjirzor fermasini gullatib yurgan Akromjon, Hayitvoy, Barotvoylar-u Farida, Saddiniso, Rohila, Qobil bobo-yu hamma-hammalari Avazbek amakining hovlisi oldidagi qo'shma do'kon quriladigan maydonga to'plandilar. Qobil bobodan fotiha olmoqchi edilar. Bobo goh past, goh baland ovozda tilovat qildi, o'tganlarning ruhiga fotiha o'qidi. So'ng ikki qo'lini baland ko'tarib, anjirchilarga murojaat qila boshladi:

– O'g'illarim, anjirzorda qanday ahil, qanday pok, qanday bir-birlaringga muhabbatli, qanday halol ishlagan bo'sanglar, bu yerda ham ana shunday ishlanglar, ishdan qochmanglar, yolg'on gapirmanglar, birovning haqiga ko'z olaytirmanglar, xasis bo'lmanglar, xayr-ehsonni hech unutmanglar, – deb turdi-da, to'satdan yig'lab yubordi. Oldin xo'rinish aralash yig'ladi, ketidan ikki kafti bilan yuzlarini berkitib, rosmana yig'lashga tushdi. Qizlar ham o'zlarini tutib turolmadilar, ular ham yig'lab yuborishdi. Bobo hiqillab-hiqillab:

– Keksalarни hurmat qilinglar, – dedi.

Maydonda ish shiddat bilan boshlandi. Yo'ldoshxonada pul ko'p ekan, pul bersang, jonim chiqquncha ishlayman deganlar Tagobda ko'p ekan. Tagobda hashar degan bir udum bor. Bu so'zni eshitsa, kattadir, kichikdir, otasini ko'mgani bormaydi-yu, lekin hashar joyiga ketmoni-yu teshasini ko'tarib kelaveradi. Maydon atrofini to'r bilan o'rash, baland-baland qo'sh darvozani o'rnatish, o'ttiz metrli oldi ochiq ayvonning ustini shifer bilan yopish... Hay-hay, Tagob Tagob

bo'lgandan buyon bunaqa shiddatni ko'rmagan bo'lsa kerak.

– Hammasi Allohdan! – deydi Qobil bobo.

– Hammasi men ishga aralashib yurganimdan, – deydi pakana rais.

– Hammasi Xo'jai Xizr bobomni ko'rganimdan, – deydi Yo'ldoshxon.

Betoqat Bekulton qurilish maydonining qoq o'rtafiga stol-stul o'rnatib olgan, shunday qilsam, qo'shma do'kon qurilishi yanada shiddat oladi, deb o'ylagan bo'lsa kerak, shu yerdan turib butun dunyoga qo'n-g'iroq qiladi:

– Oltmishtonna deyapsanmi?

– Yarmi tunuka, yarmi temir?

– Areska keldi, deysanmi?

– Aytyapman-ku, stansiyada vakilim bor, – degan gaplarni ataylab baland-baland gapiradi, qurilishda ishlayotganlar eshitsin deydi. Maydonda ish boshlanganiga quruvchilar xiyla charchab, o'rinlaridan turolmaydigan holatga borib qolgan paytlarida Al-lohning yana bir marhamati bo'ldi, shekilli, tuni bilan stansiyada yotgan Avazbek amakining:

– Quvurlarni keltiryapman, darvozalarni ochinglar, temir, yog'och kelyapti, – deb uchta katta mashinani boshlab qurilish maydoniga kirib kelayotganini ko'rdilar. Quruvchilarning bir-birini tabriklab, quchoqlab, bir-birlarini o'pishib ketganlarini, echki bolasidek sakrab-sakrab qo'yishlarini ko'ring...

3-QISM
MUHABBAT O'LIMDAN KUCHLIMI?

I bob

Yo'ldoshxon mana bir necha kundirki, tuman kasalxonasida yotibdi. Noma'lum kishilar kaltaklab, yap-yangi mashinasi jarga ag'darib ketishgan. Lat yegan joylari asta-sekin tuzalyapti, majaqlangan mashinani oyoqqa qo'yishyapti. Ammo kim keltirdi bu baxtsizlikni, kimlar uyuشتirdi buni, tumanda niqob kiyib, yo'lto'sarlik qiladigan talonchilar yo'q edi, shekilli?! Yoki faqatgina o'sha oqshomda niqob kiyib yo'lga chiqdilarmikin bu bezorilar? Surishtirish olib borayotgan militsiya mayori Ortiqali Sultonov hayron, anjirzordagi qiz-u yigitlar hayron, yosh fermerlar hayron. Avazbek amaki bilan Hamro ayalar esa o'zlarini qo'yarga joy topolmay qolishgan.

- Kim qildi?
- Nega qildi? – butun Tagob ahli shu fikr bilan yashayapti...

Yo'ldoshxon tuman markazidan yo'lim yaqin bo'lsin, deb, dala yo'li orqali qaytayotgan edi, pul topshirgani borgandi, kech qolibdi, topshira olmadi, shirin-shirin xayollarga berilib borayotgandi. To'satdan yo'l ustida ko'ndalang turgan yog'ochga ko'zi tushib qoldi, tushib bir chekkaga surib qo'ymoqchi bo'lgandi, nogahon yelkasiga tayoq kelib tushdi, boshini ko'tarmoqchi edi, yana tayoq tushdi. Yiqilayotganini, so'ng ikki-uchtasi tepkilayotganini arang eslaydi, tepkilayotganlardan birining niqob kiygani ham ko'ringandek bo'ldi, uning boshi sheriklarinikiga qaraganda kattaroq edi, shekilli... Ota-bola suvchilar ko'rib qolib, hay-haylashib yugurib kelmaganlarida, ehtimol, o'dirmoqchi ham

bo'lgandirlar. Suvchilar otga o'ngarib do'xtirxonaga olib bormaganlarida ehtimol, yuragi butunlay to'xtab ham qolgan bo'larmidi... Mashinani ancha naridagi jarga tashlab ketishibdi. Lekin qopdag'i pul yo'q. Pul uchun bo'ldi bu jinoyat, deb o'yashyapti tagobliklar, lekin kim qildi, kimlar sherik bo'ldi ekan, bu savollar jumboqligicha qolaverdi.

Yo'ldoshxonning salomatligi hali unchalik o'nglanmagan edi, uch-to'rt kun yana yotsa bo'lardi. Oqshom olis shahardan bir guruh erkak-ayol mehmonlar kelganini eshitib, tong saharda o'rnidan turdi-da, dala-ma-dala uylariga qarab yugurdi. Mehmonlar cho'zilib yotganimni ko'rishmasin, yana mayda-chuyda gaplar ko'payib ketmasin, deb o'yładi.

Xayriyat, olis yo'l bosib charchab kelgan mehmonlar hali uyg'onishmabdi, dong qotib uqlab yotishibdi. Yo'ldoshxon hovliga chiqib, otasi ekkan gullarni tomosha qilgancha Beksloton bilan Marg'uba o'rtasida bo'lib o'tayotgan voqealarni yana qayta-qayta eslay boshladi, pahlavon otasi bilan mehribon onasi kelibdi, axir ularga biror jo'yali gap aytishim kerak-ku, deb o'yładi.

Tog' kiyigidek hurkak Marg'uba bilan betoqat Beksloton o'rtalarida qanaqangi muhabbat mojarolari bo'lib o'tmayapti deysiz, Alloh sevishganlarga yo'l berarkan, Marg'uba echkiboqar qo'ni-qo'shnilarining sut-qatig'ini bozorga olib kelib sotadigan bo'ldi. Eh, o'shanda Beksltonning quvonganini, to'yib-to'yib qatiq ichganlarini, ichib-ichib ortganini Avazbek amakiniga tashiganini ko'rsangiz. Bir kun to'satdanmi yoki ataylab bo'ldimi, Marg'uba qorong'i tushib qolguncha sut-qatiqlarini sotolmay qoldi. Bundan xursand bo'lgan Bekslton:

– Xudoga shukr, nihoyat seni mashinamda olib borib qo'yadigan bo'ldim! – deb kaftlarini bir-biriga ishqadi.

– Yo‘q, baribir mashinangizga o‘tirmayman, – dedi Marg‘uba, – men qishloqdagi gap-so‘zlardan qo‘rqa-man.

– Marg‘uba, men seni sevaman-ku.

– Unday demang, yig‘lagim kelyapti.

– Yig‘lama, lekin anavi gapingni yana aytgin, chindan ham noma'lum yigit seni tuyaga mindirib olib ketganligi haqidagi tushing rostmidi?

– Beksulton aka, Yo‘ldoshxon akaning uyida siz meni uch marta o‘yinga tortdingiz, oxirida o‘yinga tushdim. Tushimga ham siz kirgandek bo‘ldingiz... Yo‘q, sal bosh-qacharoq bo‘ldi, sizmidingiz, boshqa yigitmidi, tuya yetaklab kelib meni tuyaga o‘tqazgandek, keyin tuyani yetaklab chiqib ketgandek ham bo‘ldi.

– Tushingda tuyaga minganiningni men onajonimga aytdim.

– Onajoningiz nima dedi?

– Onajonim, xudo xohlasa o‘sha qizni tuyaga mindirib olib kelaman, dedi.

Qiz ikki qo‘li bilan yuzini berkitib yig‘lab yubordi.

Beksulton mashinani yo‘l chekkasiga olib to‘xtatdi, qizning yoniga o‘tib, uning hayajondanmi qizib turgan boshini bag‘riga olib, ohista-ohista silagan bo‘ldi.

– Agar onajonim sizga rozilik bersa, meni yurtingizza olib ketarmishsiz, shu rostmi? Bilib qo‘ying, onam ham, buvijonim ham bunga ko‘nmaydi.

– Marg‘uba, men senga, ukalaringga atab soy bo‘yiga savdo do‘koni quryapman.

– Voy, do‘koni mahallamizning raisi quryapti-ku.

– O‘sha do‘konga yog‘och, taxtalarni men beryapman... Yonida senga atab uy ham quryapman.

– Menga atab nega uy qurasiz?

Beksulton qizning yuzlarini ikki kafti orasiga olib o‘ziga qaratmoqchi bo‘lgan edi, qizning duv-duv yig‘layotganini ko‘rdi. Qiz ham, yigit ham lov-lov yonayotgan bir holatda edi.

- Beksulton aka, – sekin shivirladi qiz.
- Marg‘uba, – undan ham past ovozda dedi Bek-sulton.

Yigit bo‘sа olmoqqa talpindi, lablarini qizning qizib turgan peshonasiga bosdi, yo‘q, peshonasiga emas, lovullab turgan olov ustiga bosdi. Qiziq, Beksultonning ham ko‘zlaridan shovullab yosh oqa boshladi.

– Yig‘lamang, – deb shivirladi Marg‘uba, shivir- layapti-yu yigitning yuzi, peshonalarini beozorgina, ohista-ohista silab ham qo‘yyapti.

Beksulton keskin o‘ziga kelib:

– Ertaga senga sovchi yuboraman! – dedi.

Qiz boshini yana egdi, qop-qora ko‘zlaridan op-poq-oppoq marvarid donalari yana to‘kila boshladi. Qiziq, qiz yig‘layapti-yu uning chiroyli lablarida nim tabassum bor, tabassum qorong‘i mashinaning ichini yoritayotgandek...

Beksulton qizni kuzatib qo‘ygach, ikki-uch kunga-cha o‘zida yo‘q bir ahvolda yurdi. Osmonlarda uchib yurgandek, to‘xtamay kuladi, arzimagan narsaga behad sevinib ketadi, duch kelgan odamga yaxshilik qilgisi keladi, olam faqat charog‘onlik, faqat ezgulik, yaxshilikdangina iboratdek tuyuladi. Uchinchi kuni nihoyat Hamro aya bilan Avazbek amakini sovchilik-ka borishga ko‘ndirdi. «Faqat ota-onasining roziliginи оlib kelsalaring bo‘ldi, xudo xohlasa, otam bilan onam o‘zları kelib, yana sovchilikka borishadi. To‘y kunini ham o‘zları kelib tayinlashadi», degan gaplarni aytaverdi-aytaverdi.

Ammo vodiyning g‘oyat go‘zal, g‘oyat suluв qizini o‘zga yurtga olib ketish Beksultonga oson bo‘lmasligini Hamro aya ham, gapga chechan, so‘zlaganda qarsh-isidagi kishini eritib yuboradigan Avazbek amaki ham yaxshi bilardi. Lekin, nachora, borishdi. U yerdan ham masalani tezroq hal qilinglar, degandek ustma-ust

qo‘ng‘iroqlar bo‘lib turibdi-da. Afsus, ish yana betoqat Beksulton kutgandek hal bo‘lmay qoldi. Marg‘ubanining onasi katta oq dasturxonga yangigina yopilgan non-lardan tugib borgan Hamro aya va sertabassum Avazbek amakini ochiq chehra bilan kutib oldi. «Sizlarni tanib turibman, nima maqsadda kelganlarining ham yuragim sezdi, hozir borib onamni boshlab kelaman», deb chiqib ketdi-da, onajonisi ham yaqinginada yashasa kerak, xiyol o‘tmay novcha, qotmadan kelgan, oq oralagan sochini ikkita qilib o‘rib, ikkoviga ham yengil-yengil tosh osib olgan, kulimsirab gapiradigan kampirni yetaklab kirdi. Kampir bir mahallar muallima bo‘lgan ekan, Hamro ayaning onasini ham o‘qitgan ekan. Hamro aya shoshmasdan gap boshladи. Beksultonning yetti avlodi o‘zbek bo‘lganini aytdi. Yigit o‘zbek qiziga uylanmasam, dunyodan toq o‘taman, degan gaplarni qilibdi. O‘zi boy-badavlat, obro‘li xonardonning yakka-yu yolg‘iz o‘g‘li ekan.

Kalta sochiga tosh osgan kampir jimgina tinglab o‘tirdi-da, to‘satdan:

- Nabiramni boshqa millat bolasiga so‘rab kepsi-zlar-da? – deb so‘radi.
- Ona avlodi o‘zbek bo‘lgan.
- Juda boy deysizlarmi?
- Ota-onasining ham bir necha shaharlarda do‘konlari bor.
- Ularning shahrida bu yigitbop qiz yo‘qmikin?
- Qiz ko‘p, bir ko‘rishda nabirangizga oshiq bo‘lib qolibdi.
- Bir ko‘rishda oshiq bo‘lib qolaverarmikin?
- Xolajon, ertaklarda ham shunaqa bo‘lgan-ku axir, to‘g‘rimi?

Avazbek amaki Beksulton tomonni qancha oshirib-toshirib maqtasa, sochiga tosh osgan kampirning qovog‘i shuncha osilib tushaverdi, qoshlari chimirilib,

yuzlarini tirish bosdi. To'satdan bosiqlik bilan gap boshladi:

– Sovchi bo'lib kelganlaring uchun mening ham, beva qizimning ham boshi osmonga etdi, rahmat si-zlarga. Lekin bir rivoyat aytaman, bir mahallar muallima bo'lganman-da, rivoyat aytishni yaxshi ko'raman. O'ng qulqlaring bilan ham, chap qulqlaring bilan ham eshitib olinglar... Qadim-qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Uning ming gektarlik katta bog'i bor ekan. Qushlarning zotini, xilma-xil gullarni yaxshi ko'rarkan u. Dunyodagi eng go'zal qushlarni, eng xushbo'y gullarni bog'iga keltirib ko'paytirarkan. Qushlarning bir-biridan chiroyli, bir-biridan yoqimli ovozini tinglaganida huzur qilarkan, yayrab ketarkan, anvoyi gullarni tong paytida ochilgan holatida ko'rib to'yib-to'yib hidlarkan, bag'riga bosarkan. Malika esa faqat qush go'shtini yer ekan. Kunlardan birida semirib qolgan bir qushchani so'yishayotsa, qushcha tilga kirib, shohanshohga arzim bor, deb qolibdi. Qushchani shohanshohning huzuriga keltirishibdi. «Ey shohim, go'zaldan-go'zal bog'ingizda gullardan gullarga, shoxlardan shoxlarga qo'nib shirin-shakar mevalarni yeb huzur qildik, halovatda yashadik. So'yilishim oldidan ruxsat bersangiz, borib o'z Vatanimni bir ko'rib kelsam», deb zorlanibdi. «Iya, – deb o'yabdi shohanshoh, – bu dunyoda mening bog'imdan ham go'zalroq ma'vo bormikin? Mayli, qushchaga ruxsat beray, orqasidan poyloqchi yuboray, agar chindan ham ushbu makondan ham go'zalroq bir makon bo'lsa, o'shandan ham nusxa olib kelishlarini buyuray».

Shunday deb qushchaga izn berib, orqasidan poyloqchi ham jo'natibdi. Qushcha bir necha kun parvoz qilib, oxiri sahro-yu biyobonga yetib boribdi. Qurib, shoxlarini yashin urib ketgan katta bir daraxt kavagiga

kirib, «oh, onajonimni ko'rgan kavagim, oh, ukalarim bilan cho'qilashib, o'yinlarga tushib katta bo'lgan kavagim, oh otajonim patlarimdan yengil-yengil silab erkalatgan kavagim», deb dumalarmish, dumalarmish, dumalarmish...

Kavakdan ko'z yoshi bilan chiqqan qushcha yana parvozga ko'tarilib, shohanshohning huzuriga kelib qo'nibdi. «Shohanshohim, men ona Vatanimni ko'rib keldim, endi o'limimga roziman, so'yilsam ming-dan-ming roziman, endi armonim yo'q», debdi. Shohanshoh poyloqchi qushni so'roqqa tutibdi. Poyloqchi qush ko'rganlarini oqizmay-tomizmay so'ylab beribdi. Shohanshoh ham dono, ham aqlli, ham farosatli ekan. «Demak, – deb o'ylabdi u, – xaroba bo'lsa ham, xunuk bo'lsa ham, qashshoq bo'lsa ham har bir zotning o'z Vatani bo'lsin ekan. O'zga vatan qancha go'zal bo'lmasin, o'zining xaroba vatanidan olgan zavqini berolmas ekan», deb qushchaga qo'shib bog'dagi barcha qushlarni qo'yib yuboribdi.

Aziz mehmonlar, Hamroxon qizim, – deb sovchilarga murojaat qila boshladi sochiga tosh osgan ona, – kelganlaringizdan behad xursandmiz. Qizimiz bor ekan, yo'qlab kelibsizlar, sizlarni Allah yo'qlasin. To'g'ri, katta seldan keyin qishlog'imiz o'ziga kelolmayapti. Xudo xohlasa, yangi-yangi uylar ham qurarmiz, Allah bersa boyib ham ketarmiz. Lekin nabiraginamni boy-badavlat ekan, deb o'zga yurtga berolmayman, oddiygina bo'lsa ham shu yerdan kuyov chiqib qolar...

II bob

Mehribon Gulsun ona bilan pahlavon Nurlan og'a o'rinalidan turib, yuvinishga ulgurmaslaridanoq maqtanchoq amakining uyi yo'qlab keluvchilarga to'la boshladi. Birovi lagan to'la qatlama, birovi chinni

kosani to'ldirib shirova qaymoq ko'tarib, assalomu alaykum, deb kirib kelaverishdi-kelaverishdi. Qup-quruq dashtda, bir tomchi ham suvi yo'q joyda Rahim qori degan bir mirishkor uzumning shunday navini yaratibdiki, bir boshini zambilga qo'yib ikki kishi arang ko'tarar ekan. Ana shu sohibkor ota bir bosh uzumni savatga solib, arang ko'tarib kirib keldi.

– Agar mana shu mehmonlaringni bog'imga olib bormasang, sen Avazni kechirmayman, – deb ham qo'ydi.

Mana endi ikki mehmonga ko'rsatilayotgan iz-zat-ikromni ko'rsangiz. Yuqori mahallaning mo'ylovini bir burab qo'ysa, har qanday ishni jo'n bitiradigan raisi pahlavon Nurlan og'aning yo'q, yo'q, uyat bo'ladi, deyishiga ham qaramay qo'liga suv quyyapti. Past mahallaning burnini bir jiyrsa, har qanday muammo hal bo'lib ketadigan pakana raisi qo'lidagi momiq sochiq bilan pahlavon Nurlan og'aning yuzidagi suvni artib-artib turibdi. Ayniqsa, chet eldan umidvor bo'lgan yosh fermer-u tadbirkorlarni ko'rsangiz, pahlavon Nurlan og'a o'tirsa o'tirishadi, tursa turishadi.

Dasturxon atrofida asta-sekin mehmonlar ko'payib boryapti, taklif qilinganlar, taklif qilinmaganlar undan ko'p. Yo'ldoshxon bilan Beksulton yugurib, yelib xizmat qilishyapti. Nurlan og'a bilan tuman hokimi Boboxon Sharipov eski qadrdonlardek, bir-birlarini sog'inib yurgandek suhbatga berilib ketishdi.

Bora-bora suhbat maqsad tomonga burila boshladı.

– Demak, Nurlan og'a,sovchi bo'lib kelibsizlar-da?
– deb so'radi Boboxon Sharipov.

– Xuddi shunday, – deb javob qaytardi pahlavon Nurlan og'a.

- Bir-birlari bilan ko'rishganmi?
- Ko'rishgan.
- Bir-birlariga ko'ngillari bormikin?
- Borga o'xshaydi.

- Bular qanday tanishishibdi o‘zi?
- Qiziq bo‘libdi, qiz yigitni tushida ko‘ribdi.
- Qiziq, tushida ko‘rsa ham bir-birini sevib qolishaverarkan-da.

Ichkarida ayollar davrasida hurmat-u e’zozda o‘tirgan Gulsun ona ham Beksulton bilan Marg‘ubanining tanishuvlari haqidagi voqealarni gapirib beryaptilar. Sovchilikka borgan Hamro aya to‘xtamaydi:

- Oshiq bo‘lgan yigit juda boymi, deb so‘radi Marg‘ubanining keksa buvisi so‘nggi bor borganimizda. Boy, deb tushuntirgan bo‘ldim.

Qizning buvisi kulimsirab:

- Agar boy bo‘lsa, qizimga yigirmata tuya bersin, deb qolsa bo‘ladimi! Voy xolajon, hozir tuyalar yo‘q bo‘lib ketgan-ku, deyman.

- Tuyalar yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa, unda bir qop pul bersin!

Xullas, tashqarida erkaklar nima haqida gaplashishayotgan bo‘lsa, ichkarida o‘shaning davomi ketayotgandi. Soybo‘yi mahallasining raisasi gap poylashni yaxshi ko‘radi, shekilli, goh erkaklar orasida, goh ayollar davrasida paydo bo‘ladi. Erkakshoda ayol ekan. Qo‘nji tizzasigacha ko‘tarilib turadigan etik kiyib yurarkan. Iyagida yirik-yirik ikki dona xoli ham bor. Do‘rildoq ovoz bilan erkakcha gapirishni yaxshi ko‘rar ekan. Hokimning bu yerga tashrif buyurganini eshitib, hammadan oldin kelibdi. Sovchilik haqidagi gapga aralashib:

- Agar hokimimiz sovchi bo‘lib borsalar, kampir onamiz o‘z qo‘llari bilan tikkan banoras to‘nni yelkalariga tashlaydi, – degan gapni qat’iy qilib aytdi-da, qo‘sishmcha qila ketdi. – Eshitgandirsizlar, oshiq bo‘lgan o‘g‘lim bizning ko‘rimsizgina mahallamizga kattagina savdo do‘konii qurib beryapti, yana eshitgandirsizlar, agar taqdir o‘sha qiz bilan qo‘shta, o‘sha

yerda ikkovimiz yashaymiz, deb harakat ham qilib yuribdi.

Mehmonlarni qutlab kelgan keksalardan biri qo'lini baland ko'tarib:

– Iloyo qizimiz bilan o'g'limizning yulduzлari bir-biri-ga mos kelgani rost bo'lsin, turmush qurishsin, birlari oy, birlari yulduz bo'lib, olamni yoritib yashasinlar, – deya duo o'qidi.

– Allohu akbar, – deb o'tirganlar yuzlariga fotiha tortishdi.

Mahallaning raisasi ham fotiha o'qiy turib:

– Onajon, sovchi bo'lib kelganingiz yaxshi bo'ldi, mana ko'rasiz, yanagi yil shu vaqtda chaqaloqqa be-shik ko'tarib kelasiz – dedi.

Mahalla raisasi imkoniyat tug'ilsa, o'sha imkoniyatni qo'ldan chiqarmay, foydalanib qoladigan xili-dan ekan. Hokim sovchilikka borayotganini eshitib, hokimning oldiga ham juda ehtiyyotlik bilan bir talab qo'ygandek bo'ldi, mahallaga ham kichkinagina bir bino kerak ekan.

– Xo'sh, qanaqa bino kerak ekan? – so'radi Boboxon Sharipov.

– Xabaringiz bor, oldingi binomizni sel olib ketgan.

– Bilaman, o'sha binoingiz haqidagi aktlarni menga berishgan.

– Boboxon aka, o'sha aktlarni, agar rozi bo'lsalar, Nurlan og'a ham bir ko'rib chiqsalar, o'g'illari o'zлari qurayotgan qo'shma do'kon yoniga mahalla binosini ham o'zim qurib beraman, deb so'z berib qo'yibdilar.

– Yigitchani xo'p o'rtaga olganga o'xshaysizlar.

– Ey, hokim aka, Beksulton saxiy ekan, to'ydan keyin butun qishloqdagilarning tomini tunukadan qilib beraman, deb yuribdi.

G'alati bir holat yuz berdi. Suhbatga berilayotgan-lar to'satdan jim bo'lib qolishdi. Hokim bu ayol yosh

yigitni xo‘p toblaganga o‘xshaydi, degan gapni o‘yladi shekilli, qoshlari chimirilib ketdi. Nurlan og‘a bo‘lsa qurilishi kerak bo‘lgan qo‘shma do‘kon bilan yoniga tushadigan mahalla binosini ko‘z oldiga keltirib, bir zumda xarajatini ham chamalab ko‘rdi chog‘i, ho‘naraida o‘rtog‘i bilan suhbatlashib o‘tirgan Beksltonga qo‘ng‘iroq qildi. Darg‘azabroq ovoz bilan:

– Soybo‘yi mahallasiga nima qurmoqchisan? – deb so‘radi.

– Qo‘shma do‘kon deb aytganman-ku sizga, – degan javob qaytdi o‘g‘lidan.

– Mablag‘ni qayerdan olasan?

– Yo‘ldoshxon ikkovimizniki teng bo‘ladi.

– Juda haddingdan oshib ketmayapsanmi, o‘g‘lim?

– Ota, onamga ham aytganman, olti avlod oldin ketgan onamiz mana shu qishloqdan ketgan ekan.

– Buni sen qayoqdan aniqlading?

– Otajon, sizlar hozir sovchi bo‘lib boradigan uyda ham yuz yillardan buyon rayhon ekishar ekan. Bi-zning uyimizdagi rayhonlarning hidi ham o‘sha rayhonlarning hidiga juda-juda o‘xshab ketadi...

Bir necha soatdan keyin rayhonli hovliga sovchilar kirib bordilar. Yana bir necha soatdan keyin o‘sha rayhonli hovlidan Boboxon Sharipov, maqtanchoq Avazbek amaki, pahlavon Nurlan og‘alar vodiyning zarbosf to‘nidan kiyib chiqishdi.

Ostonada to‘xtab, fotihani uddaburonlik bilan hamma narsani undirib olgan raisadan emas, sochlariga oq tosh bog‘lab yuradigan keksa onadan so‘radilar. Qari ona to‘lqinlandi, shekilli, gapirolmay qoldi:

– O‘g‘lim olamdan o‘tgan edi, o‘rniga Allah menga yangi o‘g‘il jo‘natayotgan ekan, qadamining qutlug‘ bo‘lsin, o‘g‘lim, qizginamni bag‘ringga bosib ehtiyyot qilib yur, – deb so‘zini oxiriga yetkazolmay, yig‘lab-yig‘lab rayhonli hovliga kirib ketdi.

III bob

Allohnning bir kuni quvonchli, bir kuni tashvishli o'tar ekan. Anjirchi qizlar o'tgan, o'tayotgan har bir kunlaridan mammun edilar. Pahlavon Hayitvoyga Alloh kuch-quvvatdan tashqari yetarlicha aql-farosat ham bergen ekan. Yoniga yordamchi olib, temir-tersaklar sotishni yaxshigina yo'lga qo'yib oldi. Qiziqchi Akrom shirinso'z Farida bilan yo'g'on-ingichka quvurlarni faqat biz sotamiz, deb turib olishgan, sotishyapti. Zu-lxumor qat'iyatli, bir so'zli ekanligini yana ko'rsatdi, opachalarim fermer bo'lishdi, biri mol boqyapti, biri bog' parvarish qilyapti, men ham fermer bo'laman, deb anjirzordan ketmay turib oldi. Shunday qilib, har birlari o'zлari tanlagan o'rinalida tappa-tuzuk ishlashayotgan edi.

To'satdan Farida uch kungacha ishga chiqmay goldi. Qo'shni bir qizdan Akromjon bog'imizning etak tomoniga kelsin, bolalar uchun ertak berilayotgan paytda kelsin, zarur, juda-juda zarur gapim bor, deb aytibdi. Shom g'ira-shirasida uchrashdilar. Qorong'iroq bo'lib qolgan bo'lsa ham qizga boqib, Akrom uning ko'p yig'laganini, ko'zлari shishib ketganini payqadi.

– Nima bo'ldi? – deb so'radi u.

Javob o'rнига Farida yelkasini silkitib chuqur xo'rsindi.

– Akrom, meni erga berishyapti.

– Erga, kimga, nega berishyapti?

– Semonchi amakining o'g'liga, Hamidga berishyapti. Uzoq yurtda ishlab, puli ko'payib kelgan ekan, akalarim o'shangang beramiz, sementdan o'n tonna qarzimiz bor edi, qutila qolaylik, deb shivir-shivir qilishyapti.

– Demak, seni sementga almashtirishmoqchimi?!

– Shunaqaga o'xshaydi. Onam akalarimga qo'shilib meni uyga qamab qo'yishgan, ko'chaga ham chiq-

maysan, tunuka sotishga ham bormaysan, deyish-yapti.

– Farida, hozir chiqib o'sha akalaring bilan gaplashib qo'yaman.

– Yo'q-yo'q, shashtingdan tush, akalarim johil, umrida kitob o'qishmagan, seni pichoqlab qo'yishadi. Undan ko'ra sen ham sovchi yubor, iloji bo'lsa tezroq.

– Farida, axir biz anjirchilar, to'rt yigit va to'rt qizning to'yi bir kunda o'tadi, deb qasam ichganmiz-ku!.. Ie, nega yig'layapsan, yig'lama. Bo'pti, men qasamni buzaman, xudo xohlasa, seni sementfurushlarga berib qo'ymayman. Ablah odam u, doim sementga tuproq qo'shib sotadi.

– Sovchi yuborasanmi?

– Farida, biz bir-birimiz uchun yaratilgammiz.

– Akrom, shu gaping gapmi?

– Bu gaplarni men o'lgunimcha aytaman, Farida, sen yaxshisan, hammadan ham yaxshisan...

Farida kuchli hayajon ichida qaltirab o'rnidan turdi-da, ko'zлari porlab, dovdirab turgan Akromning yaqiniga bordi:

– Sovchi qo'yasan-a?

– Qo'yaman, hoziroq sovchilarni jo'nataman, – Akromga Alloh dadillik berdi shekilli, qizni yengilgina bag'riga oldi. Keyin shom qorong'usida butun vujudi allaqanday shodliklarga g'arq bo'lib, ko'chada qayoqqa borishni, bu quvonchini kimga aytishni bilmay anchagacha dovdirab yurdi... Chindan ham to'rt o'smir to'rt qiz bilan maslahatlashib, anjirzorda to'rt yil ishlaymiz, pul to'playmiz, to'yimizni bir kunda o'tkazamiz, deb ahslashgan. Kim bu ahdni buzsa, Yo'doshxonning hisob raqamida to'planayotgan puldan mahrum bo'ladi, deb maslahat qilishgan. O'sha kuni bu maslahatlar bo'layotganda Qobil bobo ham bor edi, duo qilgandi,

Hayitvoyning yaxshigina, shirali ovozi bor ekan, tilovat qildi, hammalari cho'kka tushib qiblagaga qarab:

- So'zimizdan qaytmaymiz.
- Shartnomani buzmaymiz.
- Xo'jai Xizr boboning nazari tushgan bog'ni obod qilamiz.

– Qobil bobomizning so'zini ikki qilmaymiz, – deb yuzlariga fotiha ham tortgan edilar. O'sha zahotiyoyq har birlari uylariga borib, yaxshi niyatlarini ota-onalariga aytgan ham edilar. Bularning hazil-hazil bilan tuzgan shartnomalari keyinchalik qishloqda ovoza ham bo'lib ketgandi. Ko'chalarda sanqib yurgan ba'zi o'smirlarning ota-onalari o'g'lliarining qulog'idan cho'zib, senlar qachon o'shalarga o'xshaysan, deb tanbeh ham berishgandi.

«Yo'q, men qasam ichib tuzgan shartnomamizni buzolmayman... Yo'q, yo'q, men Faridadan ham voz kecholmayman... Ey, Alloh, Farida ikkovimizni ehtiyoq qilgin... Faridani sementchini o'g'liga bermayman, bermayman». Akrom shu so'zlarni aytib, qanday qilib sementchining hovlisi oldiga borib qolganini bilmay qoldi. Hamid ko'cha eshiklari oldidagi supada qo'shnisi bilan qarta o'ynab o'tirgan ekan. Akrom, odatda, bu-naqa paytlarda o'zini tutib turolmas edi. Hozir o'zini bosibroq muomala qilsa bolardi, yo'q, Akromligini qildi. Hamidning yaqiniga borib:

– Yig'ishtir qartangni, – deb do'q urdi. So'ng qo'lidan tortib, nariga sudray boshladи.

– Nima demoqchisan o'zi? – deb Hamid siltanib Akromning qo'lidan chiqди.

- Sen Faridaga sovchi qo'ydirdingmi?
- Sovchi qo'ydirdim, xo'sh, nima deysan?
- Sovchilaringni qaytarib ol!
- Iya, sen menga xo'jayinmisan?

– Men Faridaga xo‘jayinman... Bilib qo‘y, Faridaga ko‘zingni ochibroq qaraydigan bo‘lsang ham ichagingni boshingga salsa qilib qo‘yaman.

– Sen tunuka sotib, kuchayib ketibsan-da!

– Kuchayganim yo‘q, sen o‘zga yurtdagilarning yuvindisini ichib kuchayganga o‘xshaysan. Faridani tinch qo‘y, biz bir-birimizni sevamiz.

– Faridani sendan oldin men sevganman. Uch yil partada birga o‘tirganman. Sen bir marta ham birga o‘tirganing yo‘q, Toshkentga olimpiadaga borganimizda men uni o‘pganman, quchoqlab turib o‘pganman.

«O‘pganman» degan so‘z bamisol Akromning vu-judiga gugurt chaqib yuborgandek bo‘ldi. Ko‘z oldini zulmat bosdi, o‘zini butunlay yo‘qotdi. Bunaqa paytda odam bolasida yovvoyi kuch qayoqdan paydo bo‘larkin, Hamidni bo‘g‘ib, boshiga musht tushiryapti, yotqizib olib, yuzing-ko‘zing demay tepkilayapti... Uylaridan Hamidning onasi bilan ikki ukasi hay-haylab chiqishdi, gap nimadaligini so‘rab o‘tirmasdan Akromni ko‘plashib do‘pposlay ketishdi. Akromning bularga kuchi yetmasligi aniq, qochib qolsa ham bo‘lardi, ammo g‘ururi yo‘l qo‘ymadi. Qochsa, ertaga Farida eshitsa, o‘l, qochib qolibsan-ku, deyishi aniq. Yo‘q, o‘lsam o‘lamanki, bu aka-ukalar bilan jonim chiqquncha olishaveraman, – deb o‘yladi Akrom. Ikki hovli narida yashaydigan Hayitvoy yugurib chiqdi. Akromning kaltaklanayotganini ko‘rib, anjirchilarni urishga hech kimning haqqi yo‘q, deb hayqirdi-yu aka-ukalarning birini u yoqqa, birini bu yoqqa ko‘tarib ota boshladilar.

Asta-sekin tekin tomosha ishqibozlari ham to‘plana boshladilar.

– Nima bo‘pti, qo‘shni? – so‘radi bir ayol.

– Nima bo‘lardi, o‘smirlar qiz talashyapti-da, – dedi boshqasi.

- Voy, xudoym, daraxtning shoxini silkitsang, qiz yog‘iladi-yu, talashishlariga balo bormi?!
- Kimning qizini talashishyapti o‘zi?
- E, qo‘shti, kimniki bo‘lmasin, bahonada bir mushtlashib olishmoqchiga o‘xshashadi.
- Mayli, charchab-charchab yarashib ham ketishadi...

Tagobliklar g‘oyat aqlli bo‘ladi. Hammasidan ham aqllisi, o‘zining aytishicha, G‘ani terak bo‘ladi. U aralashsa, bitmagan ish bitib ketadi, istasa, ikki ahil o‘rtoqni urishtirib ham, istasa, jiqqamusht bo‘lib urishayotganlarni yarashtirib ham qo‘yadi. Istasa, hadididan oshib ketayotgan biron qo‘schnisining ustidan xat yozib, «popugi»ni pasaytirib ham qo‘yadi. Yana istasa, nochor ahvolga tushib qolgan biron chol yoki kampirga badavlatroq kishidan nimadir undirib berib, yarmini o‘zi olib ketaveradi. Ana shunday «qobiliyat»lar ustiga Allah unga yana bir qobiliyat – ya’ni asalariga o‘xshab, hid olish qobiliyatini ham ato qilgan ekan. Qarang, janjal bu mahallada bo‘lyapti-yu, narigi mahallada turib, janjalning «hidi»ni olib, ko‘z yumib-ochguncha yetib kelibdi. Akrom bilan Hamidning qo’llaridan tortib-tortqilab o‘rtaga olib chiqdi.

– Xaloyiq, ko‘rib turibsizlar, – deb baland ovozda gap boshladi, – ikkovi ham jinoyatchi, birining burnidan, birining chakkasidan qon oqyapti. G‘ani terakni bilasizlar, oddiy militsionerdan tortib, polkovnikkacha meni taniydi, hurmat qiladi. Hozir yuz bergan jinoyatning xabarini militsiyaga yetkazzam, darhol ikkovolarini ham qamoqqa olib, javobgarlikka tortish uchun tergov boshlab yuboradi. Akrom o‘zga yurtdan tunuka bilan quvur olib kelib, qishloqni obod qilyapti, Hamid boshqa yurtdan dollar ishlab kelib, do‘kon ochib, kavush sotyapti, bu ham zo‘r. Xaloyiq, shu ikkovini yarashtiraymi yoki ishini sudga oshiraymi?

- Yarashtiring...
- Sudga bermang, – degan past-baland ovozlar eshitildi.
- Yaqinimga kel ikkoving, bir-biringga qo'l uzat, kaftingni kaftingga bos. Xaloyiq, yarashtirganim uchun G'ani terakka mukofot berishsinmi yoki militsiyaga o'ttiz ming so'mdan jarima berishsinmi?
- Mukofot berishsin.
- Mukofot berishmasa, javobgar bo'lishsin, – degan gaplar eshitildi.
- Xaloyiq, – deb yana so'zini davom ettirdi G'ani terak, – jim bo'linglar, Akrom, sen onangga ayt, ertalab menga bir kosa qaymoq chiqarsin. Hamid, sen kalish olib kelganiningni eshitganman, o'zimga, xotinimga bir juftdan kalish chiqarasan. Rozimisizlar?
- Roziman, – dedi Akrom.
- Kalishni hoziroq beraman, – dedi Hamid.

IV bob

Qobil bobo barvaqt turib, fermadagi katta molxona eshigi oldida xat topib oldi-yu, betoqatligi boshlandi. Yoshi saksonga qarab boryapti-yu, lekin bunaqangi haqoratli holatni hech qachon boshidan kechirma-gandi. Uh tortadi, qo'lidagi xatni takror-takror o'qiydi, xat tashlagan kishi anjirzor orasida bo'lmasin, deb o'sha yoqqa yugurib boradi, g'ijimlangan xatni yana o'qiy boshlaydi.

«E, saksonga kir yapman deb, hammani og'ziga qaratib yurgan, namoz o'qishni bilmaydigan, to'ylarga kir ko'y lak ustidan qizil bo'yin bog' taqib boradigan chol, sen qo'shmachisan! Senga ota-onalari ishonib topshirgan Zulkumor, Saddiniso, Farida, Rohila, Umida degan go'zal-go'zal qizlarni kechalari uchar, yolg'onchi, tovlamachi Yo'ldoshxonga, pulim ko'p deb tunukasini

besh baravar qimmat sotayotgan Beksltonga qo'shib berasan, qo'shib berasan-u pullarini shilib olasan. Qizlarning hammasi hozir homilador. Agar ota-onalariga ma'lum qilsam, seni «Oq mozor»ga janozasiz ko'mishadi. Kechagi bozorda kattagina novvosni yaxshigina pullab kelding, pullarni tolning tagida o'tirib olib, chotingni orasiga olib rosa sanading, o'sha pullarning yarmini bugun shu kechadan qoldirmay bizga berasan. Tarnov oldidagi qumga ko'masan. Birovga aytsang ham, pul bermayman desang ham o'lim, ikki o'lim senga tikilib turibdi.

Qimorboz o'g'ling».

– Tavba, – deb o'yladi Qobil bobo, – Yo tavba, yo Allohim, nega puli ko'p Yo'doshxongami, Beksltonga-gami yozishmadi ekan bu xatni? Yo xatni Beksltonga ko'rsataymikin, yo'q-yo'q, bu yigitcha tutaqib ketadi, xat egasini topaman deb, butun qishloqni oyoqqa turg'izadi.

Bobo qayta-qayta o'yladi, kecha oqshom qiz talashib mushtlashganlarni ko'z oldiga keltirdi. Ehtimol, bu xat o'sha mushtlashganlarga aloqadordir, deb o'yladi.

Nihoyat Qobil bobo o'ziga kela boshladi, anjirchilarini shoshib toplash ko'nglidan o'tdi. Bir soat o'taro'tmas yigitlar-u qizlar jamuljam bo'ldilar. Boboning kuchli hayajon ichida qolganligini darhol sezdilar.

– Bobojon, nima bo'ldi? – deb so'rashdi qizlar.

– Jim bo'llaring, bugun faqat men gapiraman, – deb bobo hammalarini jerkib-jerkib berdi. – Mana bu menga yozilgan dahshatl xat tuhmat, qotilning qo'li bilan yozilgan xat, yo'q, boshingni qimirlatma qizim, baribir o'qimayman... Mana bu xat senlarning mana shu hovuz bo'yida, mana shu tuproq supada o'tirib yozgan qasamyod xatlarining. Akrom, betoqat bo'laverma, deyapman. «Biz, to'qqizinchı «A» sinfning har yo-

qda sarson bo'lib yurgan o'quvchilari Yo'ldoshxonning xarob bo'lgan bog'ida to'plandik», deb yozgandilaring.

– Ha, shunday deb yozgandik.

– Xizr bobo nazar qilgan bog'ni yana obod qilamiz, deb yozgandilaring.

– Ha, yozgandik.

– Bog'imiz daromadini to'plab, to'yimizni bir kunda o'tkazamiz, deb yozgandilaring. Qobil bobo rozi bo'lsa, kecha-yu kunduz bizdan xabardor bo'lib tursalar, to'yimiz o'tgan kunning ertasiga bobomizni haj safariga jo'natamiz, degandilaring... Yoki mendan biron yomonlik ko'rdilaringmi?

– Yo'q, yo'q, bobojon, faqat yaxshilik ko'rdik.

– Mehnatga o'rgatdingiz.

– Rostgo'y bo'lishni o'rgatdingiz.

– Bir-birimizni hurmat qilishga o'rgatdingiz.

– Xizr boboning nazari tushgan bog'ni ehtiyyot qilishni o'rgatdingiz.

Qizlar, yigitlar gapiryapti, Qobil bobo boshini egib olgan. Boshi egilgan ko'yi xira tortgan ko'zlaridan yosh tomchilari yiltirab ko'rindi. Qiziq bo'ldi, Qobil bobo na gapiradi, na to'planganlar bir gap qo'sha oladi, faqat hovuz bo'yidagi tollardagi chumchuqlar chirqillashadi, ancha naridagi molxonada qizlarning buzoqlari ma'rayotgandek bo'ladi. Nihoyat, o'yga berilgan Qobil bobo boshini ilkis ko'tardi, endi yuz-ko'z ifodalarida g'ussa, tashvish kamroq edi.

– Qizlarim, o'g'llarim, o'sha xatda Qobil bobomizning har bir so'zi biz uchun qonun deb yozgandilaring.

– Ha, yozganmiz, – deyishdi qizlar.

– To'ylaringni bir yil oldin boshlaysizlar. Hech kimga savol berishga ruxsat bermayman. Buning sababi ko'p, ruxsat deyishim bilan ana, serg'ayrat Farida qizimning ko'zлari charaqlab ketdi... Demak, hammalaring ham

to'yni ertaroq o'tkazishga tayyor bo'lib qolgansizlar. Yo'ldoshxon o'g'lim, betoqat bo'lma, Zulkumor qizim, qo'lingni tushir, bugun aytdim-ku, faqat men gapi-raman. To'ylaringga ruxsat berdim, ahil edilaring, muhabbatli edilaring, bir-birlaringni sinashga ham kelgan edilaring, Allohg'a ming bora shukr, yuzlaringga dog' tushirmadilaring... Beksulton o'g'lim, sen Tagob degan bir joyga mehmon bo'lib kelgansan, qut-baraka olib kelgansan. Otang bilan ham, onang bilan ham yaxshigina tanishib olganman. Yaxshi odamlar ekan. Sen Soybo'yi mahallasidagi qiz bilan uchrashib yur-ganingni eshitdim. To'y ham qilmoqchi emishsizlar, o'sha qutlug' kunni qaysi kunga belgiladilaring?

– To'yimizni onamning tug'ilgan kunida qilmoq-chimiz, – xuddi esidan chiqib qoladigandek shoshilib javob berdi Beksulton.

– Onangning tug'ilgan kuni qachon bo'ladi?

– Har yili yigirma uchinchi avgustda o'tkazamiz. Bizda o'g'ilning uylanish to'yi onaning tug'ilgan kunida o'tadi, deb kelishilgan.

– Yo'ldoshxon o'g'lim, beshta to'y o'tkazishga puling yetadimi?

– Bobojon!

– Yo'q, o'tir o'rningga, beshta to'yga puling yetadimi deyapman.

– O'nta to'yga ham yetadi-yu, lekin bobojon...

– O'g'illarim, qizlarim, ota-onalaring oldida, el-yurt oldida, yaratgan Alloh oldida hammalarining yu-zlaring yorug' bo'lsin. Iloyo umrlaringni oxirigacha ana shunday yorug' yuz bilan yashanglar... Demak, yigirma uchinchi avgust kuni xudo xohlasa, oltita nikoh to'y birga o'tadi.

– Bobojon, – sakrab o'rnidan turib ketdi betoqat Akrom, – Faridaga bugun sovchi qo'ymoqchiman, sovchilikka siz borasiz.

– Boraman, o'g'lim. Xudo xohlasa, hammalaringga ham sovchi bo'lib boraman, lekin bugun emas.

Kecha oqshom qiz talashib bo'lib o'tgan mushtlashuv, olishuvni hammalari eshitgan, bobomiz bizni shu munosabat bilan to'pladi, qo'lidagi sirli xat ham o'shang aloqador deb o'ylashayotgandi. Hammalari bir ovozdan:

– Yomon xat bo'lsa, egasini topamiz, – deb chuvilashib ketdilar.

Qobil bobo ertalabdan buyon qo'lida ushlab, g'ijimlab-g'ijimlab yurgan xatni boshi uzra baland ko'tardi-da, parcha-parcha qilib yirtib, Akrom, ma, buni o'choqqa tashla deb qo'ydi.

V bob

Allohga shukr deyish kerak, Tagobning ko'chalari xushxabarsiz, vahimali gaplarsiz qolgan emas. Bir ko'chada Qorabarot degan go'zal yigitdan Saddiniso degan yuvoshgina qizga sovchi kelgan ekan, onasi qo'rqiб, voy o'лmasam, qorasi kiyimlarga yuqsa, qizgin-amning boshi kir yuvishdan chiqmasmikin, degan gap bo'lyapti. Boshqa ko'chada pahlavon Hayitvoydan nimjingga, jikkakkina Rohilaga sovchi kelgan ekan, onasi u pahlavon bo'lsa, nimjon qizimni bir kechada o'ldirib qo'yadi-ya, deganga o'xshash gaplar qilyapti. Qo'rquamang, onasi, degan mish o'sha ko'chadagi ayollar, nimjon-nimjon qizlar ko'pincha devdek-devdek yigitlarni holdan toydiradi.

Uchinchi ko'chada esa suvgaga chiqqan ikki juvon suvning jildirashi ohangiga moslab, past ovozda suhbatlashyapti:

– Qiziq-a, Faridaxonga bir vaqtda uchta sovchi kelibdi.

– Rost aytyapsizmi?

- Mening erim hech qachon yolg'on gapirmaydi.
 - Keyin nima bo'libди?
 - Uchta sovchi bir vaqtda kelib, ko'cha eshik oldida uchrashib qolishib, oldin men kiraman, yo'q, men kiraman, deb rosmana janjallashib ketishibdi. Shom g'ira-shirasi payti ekan, atrof qorong'iroq ekan, Faridaning onasi yugurib chiqib, ularni ajratmoqchi bo'lgan ekan, sovchilar uning o'zini tanimay, surib-surib ho' nariga olib borib qo'yishibdi.
 - Shaddod Farida nima debdi?
 - Hech narsaga e'tibor bermay, povullatib sigir sog'ib o'tiraveribdi... Muncha shoshasiz, to'xtang, yana bir gap aytay.
 - Aytsangiz, tezroq aytинг, qozon ostiga olov qalab chiqqanman.
 - Bir begona yigit Soy mahalladan go'zal qizni tanlab, unga uylanaman, deb qatnayverib, oxiri qizning onasiga sizlar uchun dang'illama uy qurib beraman deb, o'sha qaysar ayolni ko'ndiribdi. To'y kunini belgilab ham qo'yishgan ekan. Qizning sevgan yigitini bor ekan. Kechasi kelib olib qochib ketibdi.
 - Qizni-ya?!
 - Qizni bo'lmay, onasini olib qocharmidi!
 - Endi to'ylari nima bo'larkan?
 - E, qo'shnijon, nima bo'lardi, ularda pul ko'p, unisiga bo'lmasa, bunisiga uylanib ketaveradi-da.
- Olti ko'chada bo'lib o'tayotgan olti xil gapning hammasini qog'ozga tushirish shart emasdir. Ammo shulardan yana biri haqida biroz to'xtalib o'tishning zarurati ham yo'q emas.
- Zulkumor ham, Yo'ldoshxon ham erta-yu kech shirin-shirin xayollarga, yaxshi-yaxshi orzularga g'arq bo'lib yashashyapti. Biri temir quvurlar-u arzon tunukalar haqida o'ylasa, boshqasi anjirzorda shuncha o't nobud bo'lib ketmasin, molxonani kengaytirsam-

mikin, deb o'ylayapti. Lekin ikkovining qalbida ham muhabbat uchquni bor, goho-goho chaqnab, lovul-lab yonib-yonib ham turibdi. Ikkovlari ham to'yimiz haqida, bugun bo'lmasa, ertaga gaplashib kelishib olamiz, deb ko'ngillariga tugib yurishibdi. Ayniqsa, Zulkumor ko'proq o'ylaydigan bo'lib qoldi. Xudoga shukr, Oysuluv yo'q bo'lib ketdi. Yo'ldoshxon ham o'zga yurtga kam boryapti. Iloyo, Yo'ldoshxon sochi kalta qirqilgan qizni unutgan bo'lsin, deb o'ylaydi, Allohga iltijo qiladi. Muhabbatimga hech kim raxna solmasin, deb Allohdan qayta-qayta madad so'raydi. Lekin Saddiniso, Farida, Rohilalar to'y harakatiga tushib qolishdi. Zulkumorning ham mehribon onasi prokuratura tergovchisi Husniddin degan g'oyat ke-lishgan bir yigit haqida tez-tez gap ochadigan bo'lib qoldi. Zulkumor esa «uf» deb hovliga chiqib ketadi. Uch kun oldin qo'shni qishloqdagi dongdor fermerga turmushga chiqqan opachasinikiga mehmonga borgandi. Opa-singil bir kecha uxmlamay, faqat bir-birlariga aytishi mumkin bo'lgan sirlarini aytib, suhbat-lashib chiqishdi. Mana shu xonadonning Toshkentda o'qiyotgan xushro'ygina, kelishgan yigitga bor ekan. U uch yildan buyon Zulkumorning suratini ko'krak cho'ntagida saqlab yurarmish.

– Bas qiling bu gaplarni! Bo'lmasa hozir jo'nab qolaman, – deb opachasini jerkib berdi Zulkumor.

Hali bular holva ekan. Qattiqqo'l, shafqatsiz prokuror otasi ham bir boyning to'ng'ich o'g'lini mo'ljalga olib yurgan emish. Agar otasi ham o'sha yigitga tegasan, deb gap ohib qolsami... Yo'q, yo'q, xudo saqlasin!

Yo'ldoshxon to'satdan anjirzorga borib qoldi. Zulkumorning ishlarini maqtadi:

– Yangi odamlarni ishga olibsan, molxonani kengaytiribsan, bankadagi anjirlarni sota boshlabsan, Zulkumor, baribir zo'rsan, juda-juda zo'rsan, – dedi.

– Sen bilan birga ketmoqchiman, – deb to’satdan Yo’ldoshxonning mashinasiga o’tirib oldi Zulkumor.

– Sen har kuni shu vaqtida ishdan ketasanmi? – shunchaki so’rab qo’ydi Yo’ldoshxon.

– Yo’q, bugun seni sog’inib qoluvdim, shuning uchun erta ketmoqchiman, – boshini silkitib kuldi Zulkumor. – Anchadan buyon sen bilan gaplasholmayapmiz, sening ham gaplaring yig’ilib qolgandir.

– To’g’ri, ikkovimiz ham ishga qattiq berilib ketdik, – o’ychan bir holatda so’zladi Yo’ldoshxon.

– Eshitdingmi, Hayitvoy bilan Rohilalarning ota-on-alari to’y haqida kelishib, oqo’rar ham qilishibди.

– Ha, eshitdim, zo’r bo’libdi.

– Yo’ldoshxon, bilgandirsan, Beksulton unashgan qiz chindan ham boshqa yigit bilan qochib ketibdimi?

Yo’ldoshxon yana o’ya berildi, shekilli, biroz xayol surib turdi-da, to’satdan dedi:

– Yolg’on... U yerdan kelgan tunukalar Ukrainianadan kelganga qaraganda ancha yupqa ekan, boshim qotib qoldi, kelib tushgan narxida sotsam, yo’lkirani qayerdan chiqarib olaman?

Zulkumor tengqurlarimizning to’yi haqida gap boshlasam, Yo’ldoshxon ham to’yimiz haqida gap ochar, mashinani to’xtatib, darhol yonimga o’tar, faqat seni, faqat seni sevaman, degan so’zlarni hech bo’lmasa hozir aytar, deb o’ylagandi. O’ylagan sari vujudida iliq bir qaltiroq qo’zg’alib kela boshladi, nazarida hayajonlar olamiga g’arq bo’layotgandek bo’ldi. Yo’ldoshxon esa shu daqiqalarda kostyuming o’ng cho’ntagida kulib, charaqlab turgan Oysuluvning suratini paypaslab-paypaslab qo’yyapti, xuddi bosh-qarib borayotgan rulning shundoqqina ustida kulib turgan Oysuluvni ko’rgandek bir holatda. Aqli, ziyrak Zulkumor baribir o’rtalarida kimdir turgandek bir

yoqimsiz holatni his qilardi. Kim ekan u?.. Nahotki o'zga el qizi bo'lsa?

– Bildingmi, – yana suhbatni ko'nglidagi gapga tomon burgisi keldi Zulkumor, – Safar bilan Umida shuncha gaplardan keyin kelishib olishibdi, turmush qurishmoqchi emishlar.

– E, Zulkumor, bunaqa gaplarni qizlar biladi-da, men qayoqdan bilay!

– Yo'doshxon, biz oltita nikoh to'yini bir kunda o'tkazamiz, desak, qishloqdagi boshqa yoshlari ham shunaqa qilamiz deyishayotgan emish... Men nima deyapman-u sening xayollarining qayoqlarda yuribdi... Menga ham sovchi kelyapti.

– Zulkumor, g'alatisan-a, qiz bola balog'atga yetganda sovchilar albatta keladi-da.

– Nahotki kimdan deb so'ramasang?

– Bitta-yarimta boyning bolasidandir-da.

– Nima deb javob berishni bilmayapmiz.

– Zulkumor, sen mendan ham ko'ra aqliroqsan, mendan ham ko'ra kengroq fikrlaysan, nima deb javob berishni o'zing yaxshi bilasan.

Zulkumor to'satdan qichqirib yubordi:

– To'xtat mashinani!

– Nima, nega? Tinchlikmi?

– To'xtat, nomard.

Yo'doshxon hamon orqasiga o'girilib qaragani yo'q, hamon rulning shundoqqina ustida Oysuluv o'tirgan-dek, xushbo'y atirlar hidi ufurib turgan kalta-kalta sochlarini silkitib-silkib qo'yayotgandek. Yo'doshxon qattiq tormoz berib mashinani to'xtatdi. Zulkumor sakrab mashinadan tushdi. Aylanib o'tib, Yo'doshxonning yuziga ketma-ket tarsaki urdi.

– Yo'q, yo'q, yo'q, – degancha noma'lum tomonga qarab yugurib ketdi.

VI bob

Yo'ldoshxon bu kecha uxlay olmadi. Ko'z o'ngida ikki qiz, ikki hurliqo, biri o'ychan, g'amgin, nim tabassum bilan jilmayibroq boqadi. Boshqasi sharaqlab kuladi, kulgisi jarangli, beg'ubor, bu kulgidan olam charog'on bo'lib ketgandek bo'ladi. Zulkumor tumanga mash-hur bo'lgan nomdor prokurorning qizi, Yo'ldoshxonga vaqtida yordami tegdi, yordami bo'lmaganda shuncha anjirzorni ololarmidi, ololmasdi. Ehtimol, yana yorda-mi tegar... Lekin Oysuluvni tanlasa, qizning tadbirkor dugonalari bilan yaqindan aloqa bog'lashi mumkin. O'sha shaharda dovruq taratib yurgan qizlardan biri yurtingizga borib parfyumeriya do'konini ochaman de-gan, ana shu qiz qayta-qayta qo'ng'iroq ham qilgan. Oysuluvning yana bitta dugonasi O'zbekistondan nafis, go'zal chinnilarni keltirmoqchiman, degan... Ularda pul ko'p, dollar ko'p... Prokuror bo'lsa so'nggi paytlarda ancha xasis bo'lib qolgan. Yo'ldoshxon bir bora pul so'rabi borganda, o'zimda yo'q-ku, senga qa-yerdan topib beraman, dedi... Yo'q, endi prokurordan umid qilmaslik kerak.

«Men tadbirkorman, deb o'ylay boshladi yana Yo'l-doshxon, tadbirkor foydani, foydani, yana foydani o'ylashi kerak. Agar foydani ko'paytirishni o'ylamasa, olishuvda yutqazib qo'yadi, kasodga uchraydi. Men tadbirkor bo'laman, deb o'ylayotgan ekanman, demak, avval qishlog'imdag'i, so'ng tumandagi puldor-puldor tadbirkorlar bilan olishishimga to'g'ri keladi. Xudo xohlasa olishaman ham, yengaman ham. Oysuluv, bekorga seni sevib qolmadim, sen orqali tunuka-yu quvurni ham qo'lga kiritaman... Zulkumor, meni ke-chir, seni sevardim, jon-u dilimdan ortiq sevardim, hozir ham sevaman. Axir sevgi deb boshqa joydan shovillab oqib keladigan boylikdan voz kecholmayman-ku!

Zulxumor, sen aqli qizsan, juda-juda aqlisan, meni kechirishingga ishonaman», deb ana shunday o'ylarga botadi Yo'ldoshxon. Ko'krak cho'ntagida ehtiyotlab olib yuradigan ikki qizning ikki suratini olib, stol ustiga qo'ydi, goh unisiga, goh bunisiga uzoq-uzoq tikildi va «e xudo, axir men ikkovini ham bir xilda sevaman-ku», deb jahl bilan stolni mushtlab o'rnidan turib ketdi. Jahl ustida ichkariga kirib, allaqachon uyquga ketgan onasini uyg'otdi.

– Voy bolam, haligacha uxlamadingmi? – hayron bo'ldi uyqusirab Hamro aya.

– Ayajon, men uylanishga qaror qildim, – hayajon ichida dedi Yo'ldoshxon.

– Xayriyat, xudoga shukr, – dedi onasi o'rnidan turib, boshiga ro'molini o'rarkan. – To'rtta o'rtog'ing ham allaqachon to'nya tayyorgarlik ko'rishni boshlab yuborgan. Sen bo'lsang, bugun deysan, erta deysan, uf tortasan.

– Ayajon, men Oysuluvga uylanaman!

– Nima, nima deding? Bekorlarni aytibsan. Zulxumor seni deb qanchadan-qancha sovchilarni qaytarib yuribdi. Seni deb institutni tashlab kelganini butun qishloq biladi-ya! Meni sharmanda qilma. Zulxumorning onasi bilan biz allaqachon quda-andachilikni boshlab yuborganmiz.

Onaizor yig'lab yubordi, oyoqlari qaltirab o'tirib qoldi. Tizzasiga urib-urib yig'lashga tushdi. Shu paytda Avazbek amaki ham uyg'onib ketdi. Ona-bolaning bahsiga qulq solib, bir nafas jim yotdi. U o'g'lining o'sha yurtga kuyov bo'lishi tarafdori edi. Bordi-keldi boshlangandayoq Beksultonga qizlarimdan birini beraman deb yurdi, Beksulton sevganini topib olgandan keyin esa Oysuluvni, albatta, kelin qilaman, degan orzuni ko'ngliga tugib oldi. Uning ham ko'nglidan yakka

o'g'lim o'sha tadbirkorlar bilan bog'lansa, qanday soz bo'lardi-ya, degan fikrlar tez-tez o'tib turardi.

– Ayasi, – deb sekin gap boshladi Avazbek amaki, – yig'lama, zamonlar o'zgarib ketdi. Hozirgi yoshlari faqat o'zi tanlagan qizga uylanadi, qizlar bo'lsa, o'zim tanlagan yigitga tegaman, deb oyoq tirab turib ola-di. Onasi, bu haqda hukumat qonun ham chiqarib qo'ygan, kimda-kim qarshilik ko'rsatsa, jinoiy javob-garlikka tortiladi, deb belgilangan. Buning ustiga o'g'ling o'sha yurtdagi dong'i ketgan katta boyning qiziga uylanmoqchi.

– O'sha boyliklaring boshlaringdan qolsin, – ona bechora gapira olmadi. Yig'lab-yig'lab hovlida aylan-ib, goh oyoq ostidagi supurgini tepgan, goh zarur bo'lmasa ham mollarning oxuriga quchoq-quchoq o't solgan bo'ldi.

– Dada, – xo'rsinib gap boshladi Yo'ldoshxon.

– Xafa bo'lma, – deb qo'ydi Avazbek amaki, – ayol zotining hammasi shunaqa: pov etib yonadi, puf etib o'chadi. Taqdiringda bo'lsa, nachora, uylanasan. Sov-chilikka kimni yuborsak ekan?

– Dada, o'zingiz sovchi bo'lasiz.

– Yo'q, o'g'lim, bunaqa paytda o'rtada turib ishni bitiradigan, tomonlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan odamlar bo'lishi kerak.

– Bozorqo'm amaki birga borsa-chi?

– Bozorqo'm amaking yomon odammas, har qalay undan ehtiyyot ham bo'lib yurishing kerak. Mayli, sov-chilikka o'sha bora qolsin. Bekslotonning otasi bilan onasi kelganda ikki bora uyiga mehmonga chaqirdi, yaxshigina tanishib ham olishgan... Bir jihatdan o'shanda bizning obro'yimizni ham ko'tardi bu odam. O'zi ham gapga chechangina.

Hamro aya hali jahlidan tushmagan ekan, shoshilib kirdi-da:

– Hoy erkak, bilib qo'ying, Zulkumordan boshqa qizni bu uyga kiritmayman, – deb baqirdi. – Agar boshqa qizga uylanadigan bo'sang, mana shu uyga o't qo'yaman, – dedi.

Ota ham, o'g'il ham onaning zorlanib aytgan bu gaplariga uncha e'tibor berishmadi. Xudo xohlassa, ertaga jahlidan tushib, to'yga tayyorgarlikni boshlab yuboradi, deb qo'ya qoldilar.

Bozorqo'm ellik yoshlardagi Nasimbek degan kishi, lekin salkam yigirma yildan buyon bozor rahbari bo'lgani uchun odamlar uning asl ismini unutib ham yuborganlar. Hatto xotini ham «hoy bozorqo'm» deb chaqiradi. Qiziq bir voqeа ham bo'lgan: qizi birinchi sinfga borganida muallima:

- Otangning ismi nima? – deb so'rabdi.
- Bozorqo'm, – debdi qizaloq.
- Familiyasi-chi? – yana so'rabdi muallima.
- Familiyasi ham bozorqo'm, – deb javob qaytaribdi qizaloq.

Xullas, ham ismi, ham familiyasi bozorqo'm bo'lib ketgan mana shu odam hozir ishq ko'yida yonib borayotgan Yo'ldoshxonning yonida sovchilikka ketyapti. Xursand bo'lib ich-ichidan sevinib ketyapti. Bir amallab o'sha shahardagi tadbirkorlar bilan aloqa bog'lab olsam edi, deb o'ylaydi u, bu Yo'ldoshxon deganlari hali yosh, g'o'r, tadbirkorlikda tajribasi ham yo'q, bu sohaning biram og'zi katta ajdarlari borki, tunuka savdosini ham, quvur savdosini ham uning qo'lidan, albatta, tortib olishadi, harakat ham boshlab yuborishgan... Yo'q, yigitchaning qo'lidagi savdoni bir amallab men qo'limga olishim kerak. Bu maqtanchoqqa anjirzorning o'zi ham yetib ortadi.

Allohning qahri keldimi, qarangki, sovchilikka ana shu shum niyatlar qilib yurgan kishini Yo'ldoshxon-

ning o'zi tanladi. Xudo ishlaringni o'ngidan keltirsin, deb Avazxon amaki fotiha ham berdi.

Shirin-shirin xayollarga berilib, entikib, cho'llardan o'tib borayotgan Yo'ldoshxon tezroq Oysuluvga yetishishni o'ylaydi. Bir amallab Yo'ldoshxonning qo'shma do'konini o'ziga olish yo'llarini ko'zlab borayotgan bozorqo'm nimadandir xursand bo'lib, goho-goho Yo'ldoshxonning yelkasiga qoqib-qoqib qo'yadi.

– Lekin Yo'ldoshxon uka, senga butun yurtning havasi kelyapti, – deb ham qo'yadi. – Gadoy topmas uzoq bir qishloqda tug'ilib o'sgan sendek bolaga o'zga yurtning eng boy qizi ro'baro' bo'lgani uchun ham odamlar senga qoyil qolishyapti. Lekin Oysuluv ham, hay-hay g'oyat go'zal ekan. Ota-onasi bilan Beksloton uchchovlarini mehmonga aytganimda butun mahallaning qizlari ko'rib hayron qolishgan. Kelinoying ham bunaqa go'zal qizni umrimda ko'rmanganman, degan edi. Kulganda bamisoli atirgul ochilgandek bo'larkan, olam charog'on bo'lib ketarkan... Lekin bir narsadan tashvishdaman, uka, seni hozir mafiya har tomoningdan o'rab olgan... Ikkovimiz hamkorlik qilsak, deyman, birlashsak, deyman. Mafiyaning katta og'iz kitlariga ikkovimiz qarshi tursak, deyman-da...

Shu yo'sin o'zga elning go'zal qiziga uylanish umiddida yonib borayotgan Yo'ldoshxon bilan uni bor boyliklariga qo'shib yutib yuborishga reja axtarayotgan bozorqo'm suhbatlashib borishardi.

VII bob

Bozorqo'm bilan Yo'ldoshxonni Nurlan og'a bilan Gulsun ona xuddi qadrdonlaridek e'zoz-ehtirom bilan kutib oldilar. Suhbat boshlanib ketdi. Vodiyning shirasи tilni yorar shirin-shakar mevalari-yu bu yurtning temir-tunukalari haqida gap ko'p ekan, talay-talay

rivoyatlar ham bor ekan. Gap orasida gapga usta bo-zorqo'msovchi bo'lib kelganlari xususida eslatib-es-latib ham qo'yyapti. Bozorqo'mdan ham ziyrakroq va so'zamol bo'lgan Gulsun ona juda yumshoq, juda silliq qilib, avval o'g'il-qizlarimiz bir gaplashib olishsin maz-munida chiroyli lutf ham qilib qo'yyapti. Yo'ldoshxon rulni boshqarib kelgan emasmi, qattiq charchagan ekan, uqlab qoldi. Oysuluv kelib yuqoriga – o'z xonasiga ko'tarilayotganda, mast uyquda yotgan yigit uyg'onib ketdi va beixtiyor orqasidan yurdi.

– Oysuluv, huzuringizga kirmsam maylimi? – deb so'radi yuqoriga ko'tarilgach.

– Ko'ryapsiz-ku, men endi keldim, ust-boshimni almashtirishim kerak, – dedi Oysuluv Yo'ldoshxonga tanish bo'lgan yumshoqqina ohangda.

– Biroz turib kiray bo'lmasa.

– Yo'q, charchaganman, dam olaman.

– Oysuluv!

– Charchaganman, deyapman.

– Bir og'izgina so'zim bor.

– Yo'q, dedim-ku, qancha gapingiz bo'lsa, boshqa vaqt gaplashamiz. Yaxshisi, erkaklar oldiga tushing, gaplashishyapti, aroq ichishyapti, ashula aytishyapti. Siz ham yaxshi ashula aytardingiz-ku, ashulalarin-gizni o'shalarga aytib bering. Uzr, qattiq gapirgan bo'lsam.

Oysuluv eshikni yopib, ustidan parda ham tushirib oldi. Yo'ldoshxon siniq bir kayfiyatda bir-bir bosib pastga – suhbatlashayotganlar huzuriga tushdi. On-alar hushyor, otalar ziyrak bo'ladi, deydilar, Yo'ldoshxonning mahzun kayfiyatini darhol payqashdi. Payqadilari-oldingidan ham ko'proq mehr-muhabbat ko'rsata boshladilar. Gulsun ona bir marta o'g'lim desa, pahlavon Nurlan og'a yetti marta o'g'lim deb, xudo xohlasa, Beksloton ikkovlaring qator-qator do'konlar

ochasizlar, deya ko'ngilni ko'taradigan so'zlarni aytib-aytib qo'yyapti.

Mehmonxonaga g'amgin, ruhlari tushgan bir kayfiyatda qaytdilar. Yo'ldoshxonning butun borlig'ini allaqanday tubsiz xavotir qoplab olgan edi.

– Amaki, ota-onam nomidan sovchi bo'lib kel-ganiningizni ularga tushuntirdingizmi? – deb so'radi bozorqo'mdan.

– Aytdim, tushuntirdim, – xushlamaygina javob qaytardi bozorqo'm.

– Tushuntirgan bo'lsangiz, ular nima deyishdi?

– Uka, gap sal boshqacharoq bo'lyapti.

– Qanday... boshqacharoq bo'ladi?

– Qizimizni o'zbek xonadoniga kelin qilib berish haqida, o'g'limizga vodiyidan kelin olish haqida qaror qilganmiz, bu maqsadimizni ko'pchilikka oshkor ham qilganmiz. Qizimiz kimni tanlashini o'zi biladi, xohishi ni o'zidan so'ranglar, deyishdi.

– Xuddi shunday deyishdimi?

– Ha, xuddi shunday deyishdi.

– Xayriyat, xayriyat! – deb Yo'ldoshxon sakrab o'rni-dan turib ketdi.

Ertalab barvaqt turishdi. Quyuqqina nonushta qildilar. «Beksulton-Yo'ldoshxon» deb nom berilgan qo'shma do'konga shoshib jo'nadilar. Do'konda faqat vodiyidan kelayotgan quruq mevalar emas, yana qanchadan-qancha nomdag'i mahsulotlar shundoqqina yonginasida qurilgan do'konchalarida ham sotilarkan. Ha, qo'shma do'kon xiyla kengayibdi. Yo'ldoshxon o'zi-cha mag'rurlanib ham qo'ydi. Ushbu do'konga oddiy-gina sotuvchi bo'lib kelgan, qishloqda tegirmончи deb nom chiqargan Rasuljon yugurib chiqdi. Endi Rasuljon ham, Oysuluv ham kichik-kichik guruhlarning rahbari bo'lib ketishibdi. Ko'rishib, hol-ahvol so'rashib olgan-laridan so'ng bozorqo'm Nurlan og'a bergen mashinaga

o‘tirib, uzr, men yana bir-ikki bozorga o‘tib kelaman, deb jo‘nab ketdi. Qiziq, Yo‘ldoshxon bamisolı o‘sha amakiga suyanib turgandek, suyanchig‘idan ayrıilib qolgandek bir holatga tushib, vujudida allaqanday behuzur qiluvchi qaltiroq boshlandi. Bu holat uzoq cho‘zilmadi, Yo‘ldoshxon o‘zini tutib:

- Oysuluv, men sen bilan gaplashgani keldim, – dedi.
- Gaplashyapmiz-ku, – beparvogina javob qaytdi Oysuluvdan.
- Yo‘q, tushunsang-chi, men alohida gaplashaman, deb keldim.
- Do‘konda hech kim yo‘q, aytadigan gapingizni aytavering.
- Iltimos, Oysuluv, hech bo‘lmasa hovli orqasiga o‘taylik.

Oysuluv jiddiy, qovog‘i solinganroq, qora, quyuq qoshlari chimirilgan holatda, Yo‘ldoshxon esa butun borlig‘ini qaynoq hayajon yondirayotgan bir holatda do‘kon orqasiga o‘tib, bir-birlaridan uzoqroq o‘tirdilar.

– Oysuluv, yaxshimisan? Anchadan buyon qo‘ng‘iroq ham qilmay qo‘yding? – yolvorgandek hazin ohanga so‘radi Yo‘ldoshxon.

– Xudoga shukr, yomon emasman, – deb qo‘ydi Oysuluv.

- Oysuluv, men seni sevaman!
- Meni sevadiganlar juda ko‘p.
- Yo‘q, yo‘q, Oysuluv, men seni boshqacha sevaman.
- Boshqacha sevadiganlar hammasidan ko‘p.
- Men, men... senga chin muhabbatimni izhor qilgani keldim, to‘yimiz kunini belgilaylik, deb keldim.
- Yo‘ldoshxon, rost gapni eshitgani keldingizmi?
- Bo‘lmasam-chi, o‘sha birinchi ko‘rishgan kuni-mizdanoq seni unutolmay qolganman, tushimda ham, o‘ngimda ham sensan. Suratingni bag‘rimga bosib, xayolimda osmonlarda uchib yurgandek bo‘laman.

– Yo'ldoshxon, o'zingizni bosib oling, osmonga boshqa vaqtida ucharsiz, – Oysuluv o'rnidan turib, ostidagi stulni yana nariroqqa surdi. O'tira turib Yo'ldoshxonga achingannamo qarash ham qilib qo'ydi. – Rost gapni eshitgani keldingizmi axir?

– Oysuluv, jonim!

– Kitoblardan yodlab olgan so'zlariningizni bir chek-kaga yig'ishtirib qo'ying, – endi jerkish, tanbeh ohangida so'zlay boshladi Oysuluv. – To'g'ri, birinchi bor uchrashganimizda mening ham yosh qalbimda iliqlik paydo bo'lgandi. Mening orqamdan ergashib yurgan yigitchalar ichida siz eng ko'rkami, eng chiroylisi, eng yoqimlisi edingiz. O'sha kecha ashula aytdingiz, qayta-qayta kuyladingiz. Men sizga mahliyo bo'lib goldim. Onajonim xudo xohlasa, seni o'zbekka bera-man, derdi. O'zbekka bersa, Yo'ldoshxon, men albatta sizni tanlayman, deb o'yladim. O'sha oqshom qalbimga cho'g' tushdi, asta-sekin lovillab yona boshladi ham. Mashina-mashina mevalar olib kelganingizda yoningizdan ketmasam derdim, telefon qilganingizda kechgacha gaplashsam derdim, ovozlariningiz qulog'imaga yoqimli kuydek eshitilib, butun borlig'imni yayratib yuborardi. Chiday olmadim, yurtingizga bordim, afsus, ming afsus meni sevmasligingizga, telefonda aytayotgan gaplaringiz qalbingizdan chiqmaganligiga ishonch hosil qildim. Ha-ha, xo'rsinib-xo'rsinib ishonch hosil qildim. Qarang-a, bir emas, beshta qizning boshini aylantirib yurarkansiz. Ayniqsa, Zulkumorga achindim. Bechoraning sizga boqqanda yig'lavoray-yig'lavoray deb turishlarini ko'rib ezildim. Hammasi hovlingizda o'tkazgan bazm vaqtida bo'ldi, ha, men uchun qizlar bazmini uyushtirib berdingiz. Men sizni uch marta raqsga taklif qildim, agar meni tanlasa, demak, meni sevadi, deb o'yladim. Siz esa ko'chaga qarab qochdingiz. Menga ko'nglingiz borligini

boshqa qizlardan, ayniqsa, Zulkumordan yashirmoqchi bo'ldingiz. Ertasiga undan battarrog'i bo'ldi. Daryo bo'yiga qizlar bilan meni ham sayohatga olib bormoqchi bo'ldingiz, yoniga o'tiray, bir-birimizga ko'ngil qo'yanimizni brigadangizdagi boshqa qizlar ko'rsin, demoqchi edim, yo'q, yoningizga barvasta bir yigitni o'tqazib oldingiz. Brigadadagi yigit-qizlar bir-birlariga ko'ngil qo'yishgan ekan, har bir harakatlaridan sezilib turibdi, ko'ngil qo'yanlari bilan naridagi daraxtlar soyasida, maysa bo'lib o'sgan o'tlar ustida yonboshlashib, juft-juft bo'lib suhbatlashishdi. Ularni ko'rib, o'lay agar, juda-juda havasim keldi. Oldingizga borsam, menga emas, huv naridagi yigit-qizlarga qaraysiz, yana borsam, qozonga olov qalayotgan bo'lasiz, boshingizni ko'tarmaysiz. Yo'ldoshxon, men sizga rost gapni, qalbimda borini aytdim, o'sha kuni daryo bo'yidan qalbim muz bo'lib qaytdi... Lekin mehribon onajonimning seni o'zbek yigitiga beraman, degan orzusini unutmadi. Xudo xohlasa, vodiyga kelin bo'lib boraman, ko'nglimga yoqqan yigitni tanlab ham bo'ldim, aytaymi?

– Kerak emas, – deb Yo'ldoshxon sakrab o'rnidan turib ketdi.

– Yo'q, eshiting, eshitishingiz shart.

– Kimning nomini aytsang ham, hozir borib uni pichoqlayman.

– Biz hamqishlog'ingiz Rasuljon bilan bir-birimizga ko'ngil qo'yidik.

– Tegirmonchi bilan-a?

– Ha, men o'sha yigitga tegaman. Olti yigit-qiz to'ylaringni bir kunda o'tkazmoqchi ekansizlar, yettinchi bo'lib biz ham qo'shilamiz...

Oysuluv do'konga kirib, choynak bilan piyola olib chiqdi-da, bir og'iz ham gapirmay, yana do'konga kirib ketdi. Yo'ldoshxon boshini eggan ko'yi uzoq o'tirib

goldi. Yig'layaptimi, kulyaptimi, bilib bo'lmashdi. Faqat ahyon-ahyonda elkasi silkinib-silkinib qo'yyapti. U dast o'rnidan turdi-da, qo'li mushtga tugilgan, ko'zlar kosasidan irg'ib chiqqudek katta-katta ochilgan bir ahvolda ichkarida quruq mevalar bilan shoshilib sa-vdo qilayotgan Rasuljonning qo'lidan jahl bilan torta boshladi:

– Ablah, seni bu yerda ishlashga kim tavsiya qilgan edi?

- Nima gap?.. Kim?.. Sen tavsiya qilgansan.
- Sen ablah ekansan.
- Nima?!

– Sen men sevgan qizni yo'ldan urish uchun kelgan ekansan-da. Sen ablah o'z do'stingga xiyonat qilding-mi, yovuzsan, iflossan.

Yo'ldoshxon o'zini unutgan, nima deyotganini, nima qilayotganini bilmashdi. Aqliga, butun borlig'iga shayton hukmronlik qilayotgandek edi uning. Avval choy to'la piyolani otdi. So'ng yonidagi choynakni olib, Rasuljonning boshiga tushirdi. Ko'z yumib-ochguncha ikki hamqishloq olis yurtda, begonalar oldida sharmanda bo'lib qolishdan qo'rqlmay, bu haqda o'ylab ham ko'rmay, rosmana mushtlashib ketdilar.

VIII bob

Hamqishloq yigitchalarning begona yurtda qiz talashib birining boshi yorilib, boshqasining qo'li chiqqani, bularni yarashtirish uchun pahlavon Nurlan og'a bilan Gulsun onaning mehmonxonaga tinmay qatnayotgani, jon o'g'lim, taqdirlaringga shular yozilgan ekan, nachora, bo'lari bo'ldi, bir-birlaringni kechira qolinglar, deganlari, kaltakni ko'proq yeb, boshi yorilgan bo'lsa ham Rasuljon uzr ustiga uzr aytib, ham-qishlog'ining yonidan ketmayotgani, Oysuluv ikkovlari

qaysidir ovuldan tabib topib kelib, Yo'ldoshxonning chiqqan qo'lini o'rniغا tushirishga yordamlashganchulari... Yana qanchadan-qancha to'g'ri, noto'g'ri gaplar bozorqo'm amakining qo'lidagi telefoncha qutisidan uchib chiqib, tagobliklarning vahimasiga vahima qo'shayotgan edi.

Tagobda so'nay-so'nay deb turgan mish-mishlar, rost yoki yolg'on gaplar yana qanot bog'lab ucha boshladi. Anjirchi yigit-qizlar esa butunlay dovdirab qoldilar. Axir hammalarining to'yi bir kunda o'tishi kerak edi-ku! Hammalari Yo'ldoshxon bilan Zulxumor bir-birlarini qattiq sevishadi, xudo xohlasa, hammamizning to'yimiz bir kunda o'tadi, deb sevinib yurishgan edi-ku, shunga tayyorgarlik ko'rayotgan edilar-ku! Maslahat ustiga maslahat bo'lyapti. Yigitlar Yo'ldoshxonni kechirish kerak, bir sho'xlik qilsa qipti-da, deyishadi, qizlar so'zida turmagan yigitning sochini bittalab yulish kerak, deyishadi. Ko'pincha qizlar nomidan gapirishni yaxshi ko'radigan shaddod Farida bo'lsa «bilib qo'y, ey, Yo'ldosh, Zulxumor aqli qiz, go'zal qiz, tengini topib ketadi, sen esa sharmanda bo'lding, bir umrga sharmanda bo'lding», degan gaplarni telefon orqali Yo'ldoshga jo'natgisi keladi.

Nihoyat, Yo'ldoshxon tuzalib kelganining o'n uchin-chisida ko'chaga chiqib, to'satdan anjirzor tomonga qarab jadal yurib ketdi. Mashina haydamadi, piyoda ketdi. Odatda, biror qarorga kelganida, qarori qat'iy bo'lganida ana shunday piyoda yurishni xush ko'rardi. Nazarida aytadigan gapi esidan chiqib qolayotgandek juda jadal yurdi. Jadal borib, bog'dagilar bilan ham durustroq so'rashmay, Zulxumorning qayerdaligini so'radi. Xayriyat, anjirzor etagida, qari o'rikning kundasida o'tirib, bir narsalarni yozish bilan mashg'ul ekan. Xuddi yaqin kishisini qabristonga ko'mib kelgandek g'amgin edi qiz.

– Zulkumor, seni axtarib keldim, – siniq ohangda so‘z boshladi Yo‘ldoshxon.

Zulkumor o‘rnidan turib, Yo‘ldoshxonga nafrat bilan qaradi. Nigohi ham olovli, ham nafratga to‘la bo‘lgani uchun qizning borlig‘ini qaltiratib yuborayotgan edi.

- Kelgan bo‘lsang nima qilay?
- Sendan uzr so‘ragani keldim.
- Menden nega uzr so‘raysan?
- Meni shayton yo‘ldan ozdirdi.

– Seni shayton yo‘ldan ozdirganini cho‘ntagingdan Oysuluvning surati chiqqan kuni bilganman. Bir quruq mevani bahona qilib, bir tunukani bahona qilib, o‘sha yurtga yugurayotganingdayoq bilganman. Endi senga gapning rostini, ochig‘ini aytib qo‘ya qolay: baribir sendan ko‘nglimni uzolmasdim. Esizgina, senga sakkiz-inchi sinfdaligimdayoq ko‘ngil qo‘ygandim. Boshqa bolalarga qaraganda senga ko‘nglim yaqinroq edi, tez-tez ko‘rgim kelaverardi, seni sinfimizdagи hamma qizlardan qizg‘anardim. Sen bo‘lsang, men bilan o‘tirarding-u orqadagi partada o‘tirgan Sharofatga xat yozarding. Birgalashib ashula aytardik, esingdami, lekin sening ikki ko‘zing Nigorada bo‘lardi...

Zulkumor ikki qo‘li bilan yuzini berkitib, boshlarini alam bilan silkitib-silkitib yig‘lashga tushdi. Yo‘ldoshxon uning qo‘llarini ushlamoqchi bo‘lgandi, itariib tashladi. So‘ng «yo‘qol, yo‘qol», deb qichqira boshladi.

– Seni deb men otamning ra‘yiga qarshi bordim, seni deb institutni tashlab keldim, seni deb xohishim bo‘lmasa ham fermangga a‘zo bo‘lib kirdim, sening lovullab yongan ko‘zlarining ko‘pincha boshqa qizlarda bo‘lardi, men rashk olovida yonib ketardim. Xudoyim, bu azoblarni menga nega bergen ekansan, deb yig‘lardim. Qiziq, seni ham sevardim, ham yomon ko‘rardim. Oysuluvga uylansam, yarim boyligi menda bo‘lardi, degan gaplariningi ham orqavarotdan eshit-

ganman, xudo xohlasa, prokurorning qizini qo'ldan chiqarmayman, hali menga ko'p yordami tegishi kerak, degan gaplaringni ham eshitardim. Baribir seni qattiq sevardim...

Yo'ldoshxon, sen oxirgi kuni umidimni yo'qqa chiqarding, sovchilikka ketayotganining bozorqo'mning xotinidan eshitdim. Yugurib oldingga borib, oxirgi so'zingni, menga aytadigan so'zingni ayt, deb yolvordim, sen yana ko'zingni olib qochding. Ko'zingda boshqa qizning surati borligini iztirob chekayotgan qalbim sezib turuvdi, esingdami, qayta-qayta yolvordim, o'sha sehrli so'zingni ayt, deb yig'ladi ham. Sen bo'lsang yog'och savdosi, tunukaning narxi haqida gap ochding. O'shanda mening xo'ranganim, haqoratlanganim... Hey, nomard, Oysuluv kattakon boyning qizi bo'lsa, men mashhur prokurorning qiziman, bilib qo'y... Alloh menga muhabbat dardini berdi, shifosini ham beradi... O'sha xo'rangan kunimdan boshlab qalbimni dardlardan, azoblardan forig' qilgin deb Xudoga yolvordim... Mana, hammasini shu daftarga yozib yuribman, ilgari senga atab she'rlar ham bitardim, suratlar ham chizardim... Sahifalardagi mana bu gullarning nafis-nafis barglarini senga atab yopishtirardim, tugadi, hammasi tugadi. Endi yo'qol, tezroq yo'qol, – deb yer tepindi qiz.

Bu alamli so'zlarni Zulkumor ovoz chiqarib oshkor aytdimi, ko'nglidan o'tkazdimi, hamma-hamma qalbini to'lqinlantirib ruhidan o'tayotgandi. Yig'idan to'xtab, qo'llarini yuzidan olib, Yo'ldoshxonga yana bir alamli qaradi-da, jadal yurib keta boshladи. Keyin birdaniga to'xtadi. Keskin orqasiga burilib, ortiga qaytdi-da, qo'lidagi qalin muqovali daftar bilan Yo'ldoshxonning boshiga ura boshladи. So'ng daftarni dovdirab turgan yigitning yuziga otib:

– Yo‘qol, yo‘qol! – degancha anjirzorning narigi tomoniga yugurib keta boshladi. Yo‘ldoshxon, to‘xta, to‘xtagin, deya qizning ortidan yugurmoqchi bo‘ldi. Quvib yetolmasligini ko‘zi anglagach, mayli, jahlidan tushsa, holatimni boshqacharoq tushuntirarman, deb o‘yladi. Daftarni qo‘ltig‘iga qisib, shiypon tomonga yurdi.

Zulxumor anjirzorni mustaqil boshqarayotganidan buyon bu yerda ishslash uchun boshqa qizlarni, yigitchalarni taklif qilgan, qizlar konserva qadoqlashga usta ekan, ishlari yurishib ham ketgan edi. Yo‘ldoshxon Zulxumorni axtarib u yoq-bu yoqqa ko‘z tashladi. Yo‘q, ko‘rinmaydi, ketib qolganga o‘xshaydi.

Yo‘ldoshxon Qobil bobo bilan uchrashib, belgilangan to‘y muddatini biroz ortga sursa bo‘ladimi, deb so‘ramoqchi edi. Ko‘ngliga sig‘madi. Holsiz, ruhi siniq holda orqasiga qaytdi. U tengqurlaridan hamisha o‘zini yuqori tutar, buning uchun bor imkoniyatini ishlatar, lekin hech qachon birovning o‘zi ustidan kulishiga yo‘l qo‘ymasdi.

IX bob

Maqtanishni, maqtanib yashashni istardi u. O‘rtoqlarining quvnab-quvnab, katta to‘yga tayyorgarlik ko‘rayotganlari, uning esa bir yo‘la ikki qizning qaynoq muhabbatidan mahrum bo‘lib turgani alam qildi. Uyiga arang yetib bordi. Yotoqxonasiga o‘tib eshikni ichidan berkitdi-da, o‘zini yumshoq o‘ringa tashladi. Yo‘q, yotolmadi. Qalin daftarni varaqlay boshladi. Qarang, ikkinchi sinfliklarida birgalashib suratga tushgan ekanlar. Daftar ana shu surat bilan boshlanibdi. Surat ostiga

*«Qo'l ushlashib turibmiz,
Qo'l ushlashib qo'yibmiz»,*

degan so'zlar bitilgan. Qiziq, Yo'doshxonning oilalarida tug'ilgan kunlar deyarli nishonlanmas, nishonlanganda ham nomigagina bo'lib o'tardi. Zulkumor bo'lsa uning har bir tug'ilgan kuniga sahifa ocharkan, sahifani gullar bilan bezarkan, ostiga:

*Qizg'anchiq bo'lib qoldim,
Nasini qizg'anib.
Ismin o'ylab chiqaman,
Kechalari uyg'onib.*

deb yozilgan bitiklar bor. Shoirlarning yuraklarga taskin beradigan baytlari jo etilgan. O'qigan kitoblaridan ishqqa, vafoga, xiyonatga oid so'zlar ko'chirib yozilgan. Yana gul, bulbullar surati, yana Yo'doshxon ikkovilariga aloqador voqealarning ixcham-ixcham tasviri.

*Ovozin eshitsam dillarim yayrab ketadi,
Qalbim gulzorida ishq bulbuli sayrab ketadi.*

degan she'rlar bitilgan.

Yo'doshxon o'qiyapti, hayajon to'la qalbi junbishga kelib, o'rnidan turib-turib ketyapti... Zulkumorning tug'ilgan kunida ularning uyiga borib, unga atab ashulalar aytganini, o'sha kuni gul ham olib bor-ganini esladi. Qiziq, o'sha gullarning nafis yaproqlaridan Zulkumor Yo'doshxonning suratlari atroflariga yopishtiribdi. Ostiga she'rlar ham yozib qo'yibdi:

*Yoshlikda bergen ko'ngil
G'uncha bo'lib ochilsin.*

*Ochilsin-u olamga
Xushbo'y hidlar sochilsin.*

Yo Alloh, Yo'ldoshxon qalin daftarni varaqlay turib, to'satdan tuman markazida bo'lgan bir voqeani esladi. O'shanda Karimjon degan bola Zulxumorning yelkasi-ni bilmasdan silab qo'ygani uchun Yo'ldoshxon u bilan rosa mushtlashgan edi, keyin Zulxumor bilan dala yo'llar orqali qishloqlariga qo'l ushlashib ketishgandi. O'shanda Yo'ldoshxon qizchaning qulog'iga birinchi bor «sen hamma qizlardan yaxshisan, senga kim qo'lini tekkizsa, uni o'ldiraman», deb uning peshonasidan omonatgina o'pib, xuddi xunuk ish qilib qo'ygandek, ura solib qochgandi.

– Men uni sevardim! Birinchi sevgim u edi, – deb Yo'ldoshxon xuddi esini yo'qotib qo'ygandek o'z xonasi-da u yoqdan-bu yoqqa yurib, oxiri rosmana qichqirib yubordi. – Mening birinchi muhabbatim edi u. Eh, meni shayton yo'ldan ozdirdi.

Yo'ldoshxon yugurgancha ko'chaga chiqib ketdi. Yoshligidan shunday odati bor uning: qattiq haya-jonlanganida, qo'rqqanida, qattiq sevinganida o'zini rosmana yo'qotib qo'yar, beixtiyor baqirib yuborar, onasi qo'rqb, uni ikki-uch bor duoxonga o'qitgan ham edi. Bu odati hamon qolmagan. Baqirishi avjiga chiqib borardi. Baqir-chaqirni eshitib choc tikib o'tirgan onasi yugurib chiqdi:

– Nima gap bo'ldi, bolam?

Xayriyat, Yo'ldoshxonning ruhiy tushkunlik holati tezgina qaytdi. Tashvishga tushgan onajoniga qarab yoqimli jilmayib:

– Hechqisi yo'q, – deb qo'ydi.

Sokin bir holatda, ehtimol onajoni uchun shunday qilgandir, xonasiga qaytib kirib, qalin daftarni yana qo'liga oldi, yana bag'riga bosib, ha-ha, men shay-

tonning izmiga kirdim, shaytonning tuzog‘iga ilindim, deya javrab-javrab o‘rniga cho‘zildi.

«Shayton» degan so‘z uch kungacha og‘zidan tushmadi. Nihoyat, Alloh ko‘ngliga yaxshi niyatlarни soldi, shekilli, o‘rnidan shoshilib turib tezda yuviniб kiyindi. Keyin yaxshigina ovqatlandi. Shoshilgancha borib prokuorning ko‘cha eshigini taqillatdi, Zulxumordan yana bir bor kechirim so‘rash uchun bordi. Zulxumor chiqmadi. So‘ng qizni anjirzordan axtardi, u yerdan ham topolmadi. Anjirzorga aloqador bo‘lgan barcha hujjatlarni papkaga solib, papkani velosipedning shoxiga ilib ketibdi. Qizlardan surishtirib ko‘rdi. Uch-to‘rt kundan buyon daragi yo‘q emish. Rohila unga yaqin sirdosh edi, o‘shandan:

- Nega kelmayapti ekan? – deb so‘radi.
- Kasal emish, – sovuqqina javob qaytardi Rohila.
- Qanaqa kasal ekan?
- Qanaqa kasalligini men qayoqdan bilay, o‘zing borib so‘ramabsan-da. Bilaman, prokuorning eshigi hamisha berk turadi, senga ochishmaydi ham.

Suhbatga shaddod Farida aralashdi:

– E kichkina xo‘jayin, e, Yo‘ldoshxon, eshitmagan bo‘lsang, eshit: sen go‘zal Zulxumorni, birinchi muhabbatingni qo‘ldan chiqarding, endi uni unut. Es hitmadingmi, Zulxumor allaqanday yigitga unashar bo‘ldi-ku.

- Unashar, kimga unashar bo‘ldi?
- Viloyat prokuraturasidan kelib yuradigan yigit bor edi-ku, ana o‘shanga unashdilar. Rohila, onang ularning uyida xizmatchi-ku, qolgan gaplarning hammasini sen onangdan eshitgansan, bir boshidan gapirib bergen. Ehtimol, kichkina xo‘jayinning ko‘ngli ozgina taskin topsa!..

– Yomon bo‘libdi, juda-juda yomon bo‘libdi, bechora Zulxumorning otasi majbur qilibdi. Yo shu

yigitga tegasan yo seni butunlay oq qilaman, debdi. Zulkumor bechora, tegmayman, tegmayman, deb dodlabdi. Prokuror amaki yolvorishga o'tibdi: «Qizim, mening kelajakda shu vazifamda turib qolishim, fermer opachalaring ishining rivoji mana shu yigitning otasiga bog'liq. Bu yigit o'sadigan xilidan, kelajakda respublika prokuraturasiga o'tib ketishi ham hech gap emas. Jon qizim, oilamizni vayron qilma», deb yolvoribdi. Bilasan-ku, Po'lat amaki qo'rqtishga ham, avrashga ham usta. Bechora Zulkumor boshini ko'tarib, dadajon deya yig'lab yuboribdi... – Rohila qiz so'zlayapti-yu Farida, Saddiniso, Umidalar yig'lash-yapti, xo'rsinib-xo'rsinib qo'yishyapti. Yo'ldoshxonning nazarida butun anjirzor qo'shilib yig'layotgandek, har kuni chaqchaqlashib sayrayotgan qushlar ham yig'layotgandek bo'lib ketdi... U o'tirib qoldi, ikki soat chamasi behol o'tirdi. Qizlar qo'ltig'idan olib, mashi-nasiga o'tqazib qo'yishdi.

– Menden Zulkumor xafa, qizlar xafa, yigitlar xafa, Qobil bobo xafa. Onajonim ham xafa, Beksulton xafa, Xizr bobo xafa. Mana, qushlar ham xafa ekan... Men hammalariga xiyonat qildim. Xiyonatchini hech kim kechirmasligi kerak. Zulkumor, shayton yo'ldan ozdir-gan Yo'ldoshni kechira olasanmi?

– Yo'q! Yo'q! Yo'q! – degan ovozlar kelyapti atrofdan.

Yo'ldoshxon o'zida yo'q, behush edi. Goh o'ngga, goh chapga chayqalib borayotgan mashinani qanday boshqarayotganini ham bilmassi. Oziq-ovqat do'konidan bir shisha sirka olganini, temir sandiqchasidagi qalin daftarni olib, ustiga, «onajonim, bu mening bir-inchi muhabbatim edi, qabrimga mening yonginamga qo'shib ko'ming», deb yozganini ham bilmaydi. Shishadan piyolaga sirka quyayotganini ham anglamay-di. Bularning hammasi bamisolli tushida, olislarda, kimlarningdir qo'li bilan bajarilayotgandek, bularn-

ing hammasi vujudiga huzur bag'ishlayotgandek edi. Sirkani ketma-ket ho'plashi bilan tomog'i kuyib, ko'zi ochilgandek bo'ldi:

– Onajonim, men ketyapman! – deya qichqirib yubordi.

X bob

Tagob Tagob bo'lgandan buyon ming-ming quvonchli, hayajonli voqealarni, ming-ming tashvishli onlarni boshidan kechirgan. Quvonchli kunlar kelganida hadlaridan oshmaganlar, maqtanib ketmaganlar, g'uussali onlar ichida qolib, o'zlarini yo'qotmaganlar. Ammo bu galgisi, hay-hay, g'uussali va quvonchli voqealarning aralash-quralash bo'lib ketishi, yo'q-yo'q, uni oddiy yozuvchining oddiy so'zlari bilan ta'riflab bo'lmas. Ta'rifini, tasvirini gapga chechan tagoblik ayollarning o'zları aytgani ma'qul.

«Yo'doshxon-Beksulton» qo'shma do'koni maydonida butun olamni zirqiratib qo'shkarnay chalinyapti. Farg'onaning novcha karnaychilari bilan Toshkentdan taklif qilingan, har puflaganda tomog'i qumg'ondek shishib chiqadigan atoqli karnaychilar bahslashyapti. Har zamonda do'mbira gumburlab, butun qishloqni zirillatib yuboryapti. Gumbur-gumbur ovozlar qishloq ahlini goho allalab, goho erkalab, goho to'lqinlantirib oyoqqa turg'izyapti.

Bugun yetti qishloqqa osh berilyapti. To'ylari bo'layotgan yetti qizning otalari osh berishmoqda. Uyqusirab bo'lsa ham osh yeishiga o'rganib qolgan yigitlar qomati tik otaxonlarning orqasida mayda qadam bo'lib borishyapti. Oshni yeb, kekirib-kekirib chiqayotgan yosh-yalanglar goh osh ustiga bosilgan seryog' go'shtni, goh devzira guruchni maqtab-maqtab boryapti.

Ko'cha to'la yosh-u qari. Keksalar o'zlaricha gurunglashib, bo'layotgan to'yga oid fikrlarni bayon qilishyapti. Ayollar ham guruh-guruh bo'lgancha, bo'lib o'tayotgan voqealarga o'z baholarini berib borishyapti. Bir-birini hamisha «ovsin» deb chaqiradigan ikki yosh juvon ham ko'cha eshiklari oldiga kelgan ikki talaba qizga voqealarning nozik-nozik holatlari haqida gapirib beryaptilar:

- Yo'g'-e, - e'tiroz bildiradi Dilbarxon.
- Jim o'tiring endi, voqeа xuddi men aytgandek bo'lgan, - bidirlaydi Maqsudaxon.
- Nima desangiz deng-u qo'shnijon, ammo men aytgandek bo'lgan, - deb dugonasiga gap bermaydi Dilbarxon. - Yo'ldoshxon Zulxumordan ayriladigan bo'sam, uning «Ishq daftari»ni bag'rimga bosib o'lay, bu daftar mening birinchi muhabbatim edi, tobutimga solib ko'minglar, deb vasiyat yozgan, so'ng zahar ichgan.
- Hoy Dilbarxon, necha marta aytdim, zahar emas, sirka ichgan, - yana e'tiroz bildirdi Maqsudaxon.
- Gap qo'shmay turing, deyapman, avval men bilganimcha gapiRAY, mana bu mehmon qizlar tus-hunmay qolishsa, mayli, siz gapga chechanroqsiz, qo'shimcha qilasiz... Shunday qilib, Yo'ldoshxon «Ishq daftari»ni bag'rige bosib, tayoqdek qotib qolgan. Bu daftar aslida Zulxumorniki ekan. Zulxumor Yo'ldoshxon boshqa qizga uylanaman, deb o'zga yurtga ketib qolganida daftarni anjirzorga otib yuborgan ekan... O'zga yurtdan dili vayron bo'lib kelgan Yo'ldoshxon daftarni topib olib, yig'layvergan, yig'layvergan... Oxiri jinni bo'lib qolgan.
- Keyin zahar ichgan, - deb gap qo'shadi dugonasi.
- Zahar emas, sirka ichgan, deyapman. Ichgan-u tili yo'q bo'lib, bo'g'zi shishib, gapirolmay qolgan... Uni chala o'lik holida kasalxonaga olib borishgan. Bechora

yigit o'sha yerda tamom bo'lgan. Ko'kragini teshib dori quyishsa ham baribir odam bo'lмаган. Uch kungacha kutishgan, har-har zamonda bir-bir xirillab qo'ygan, xolos. Qarindoshlari, ayniqla, anjirzordagi qizlar, yigitlar to'planishib rosa yig'lashgan. Yig'layotganlar orasida baxtsiz Zulkumor ham bor ekan. Qotib qolgan murdaning ko'ylagini yirtishsa, ichida «Ishq daftari» shundoqqina turgan emish. Bu daftar meniki edi, deb Zulkumor dodlab yuborgan. Demak, kichkina xo'jay-inning o'limiga men sabab bo'libman, deb yig'lashni avjiga chiqargan. Agar Yo'ldoshxon ga bu daftarni bermaganimda, ichidagini o'qimagan, sirka ichmagan, demak, o'lмаган bo'lardi, deb Zulkumor ham bir-ikki bor o'zidan ketgan. Shu ahvolda daftarni bag'riga bos-gancha uylariga ketgan, baribir uxlay olmagan. Daftarning shundoqqina ustida «Zulkumor, meni kechir», degan so'zlar bor ekan, ana shu so'zlar qiz bechoraga uyqu bermagan. Bilasizlar-ku, muhabbat o'zi jinnilik, deyishadi. Zulkumor jinni bo'lib qolgan. Yo'ldoshxon o'lyapti, uning o'limiga men sababchi bo'ldim, yaxshisi, men ham o'lay, o'lsam birga o'lay deb, vasiyat yozgan. Vasiyatda meni Yo'ldoshxonning yoniga qo'yinglar, degan so'zlarni ham yozgan. O'tkir pichoqni qo'liga olib, tomirini kesmoqchi bo'lgan, yo'q-yo'q, o'lsam, Yo'ldoshxonni yana bir ko'rib o'lay deb, qorong'i kechada jonlantirish xonasiga qarab yugurgan. Yigitning oldiga kirish ham qizga oson bo'lмаган, kirgizmasang, senlarni so'yaman, deb do'q urgan. Oldiga kirganida yigitni allaqachon o'diga chiqarib yuziga oq doka yopib qo'ygan ekanlar.

– Yo'ldoshxon, men seni ko'rgani keldim! – deb qichqirib yuborgan qiz.

Mo'jiza yuz bergan, ha-ha, chinakam mo'jiza. Al-lohning inoyati bilan sovib qolgan tanada jon paydo bo'lgan. Yo'ldoshxonning ko'zlarini ham ochiq ketma-

sin, deb yumib qo'yishgan ekan. Yumuq ko'zlardan biri xiyol ochilib, ikki tomchi yosh dumalab tushgan.

– Voy, Xudoyim! – deb dodlab yuborgan Zulxumor. Dodlashi bilan endi ikkinchi ko'zi ham ochilib, undan ham oq marvaridlar yosh donasi to'kilgan. Narigi xo-nada do'xtirlar, hamshiralar yig'ilishib, allanarsalar haqida maslahatlashib o'tirishgan ekan:

– Iya, iya!

– Tirik ekan!

– Voy, Xudoyim!

– Aktni tezda yirtib tashlanglar, yigit tirikka o'xshay-di, – deb hayajon ichida bir-birlarini quchoqlashib tabriklay ketganlar... Mana shunaqa, mehmon qizlarim, muhabbat o'likni tiriltirar ekan, bunga butun Tagob qishlog'i guvoh bo'ldi, sevsalaring, Zulxumordek sevinglar.

– Dilbarxon, ovsinginam, miriqib gapirib oldingiz. Bilaman, eringiz o'sha yerda «medbirad» bo'lib ishlaydi. Lekin mening jannatmakon qaynibuvim jonlantirish xonasida yigirma yildan buyon hamshira bo'lib ishlaydi, bir qulog'i og'ir eringizdan ko'ra ikki qulog'i ding qaynibuvim bor gapni hammadan oldin bilib oladi... Ha-ha, o'sha kunlari o'sha soatda bo'ldi shamol, bo'ldi to'polon, deganlaridek, jonlantirish xonasi atrofida katta-katta janjallar-u mushtashuvlargacha bo'lib o'tibdi. Zulxumor qaysar, bir so'zli qizlardan ekan. Yo'doshxon tirik ekan, oyoqqa turmaguncha hech qayoqqa ketmayman, og'zi, bo'g'zi, tillarining shishi ketib, o'rniga qaytib, bir og'iz so'z aytmaguncha yoni-dan jilmayman deb, uyidan olib kelgan o'tkir pichoqni mahkam ushlab turavergan. Uni uylariga olib ketish uchun bechora otasi qancha yolvorgan, onaizori qan-chaga yig'lagan. Nursuk qishlog'ida fermer bo'lib ishlay-digan opachasi o'ttizta buqam, qirqta sog'in sigirim bor deb, maqtanib yuradigan o'sha opasi ham yolvorgan.

«Hey singil, ko'zingni och, sen prokurorning o'g'liga unashar bo'lgansan, fotiha buziladigan bo'lsa, otamiz bosh ko'tarib yurolmaydi, onamiz sharmandalikka chidamay, o'zini daryoga tashlaydi», degan gaplarni ham aytgan. Zulxumor esa o'tkir pichoqni tomiriga qadab tek turavergan, uning atrofini anjirchi qizlar-u yigitlar o'rab olishgan va hech kimni qizning yoniga yo'latishmagan. O'sha kunlari Tagob ahli naqd ikkiga bo'linib ketdi. Zulxumorni himoya qilgan anjirchi qizlar-u yigitlar bir tomon, prokuror amakining butun avlodlari yig'ilib, ular bir tomon... Hali aytdim-ku, bo'ldi shamol, bo'ldi to'polon... Ana shunday vahimali kunlarda machitga kirganda oq do'ppi kiyadigan, ko'chaga chiqqanda yelkasiga polkovniklik pogonini taqib yuradigan hoji polkovnik anjirchi qizlarni o'z himoyasiga olibdi. To'ppa-to'g'ri prokurorning uyiga kirib:

– Xo'sh, prokuror o'g'lim, – deb salmoqlanib gap boshlabdi, – ota o'z qizini zo'r lab erga bersa yoki bermoqchi bo'lsa, O'zbekiston jinoyat kodeksining qaysi moddasi bilan ish qo'zg'agan bo'larding? Prokuror boshini egib anchagacha jim o'tiribdi, ketma-ket uh tortarmish, oxiri «ustoz, o'zimning ham boshim qotib qoldi, bunaqangi voqeа mening oilamda bo'ladi, deb hech o'ylamagan edim... Bo'ları bo'ldi, mayli, o'sha Yo'ldoshxonning otasi Avazbek ikkovlaring shu bugundan qolmay Yo'ldoshxon nomidan sovchi bo'lib kelinglar, men bu issnoddan tezroq qutulay», debdi... Ana, mehmon qizlarim, ko'rdilaringmi, tagoblik qizlar qanaqa bo'larkan, birlashsa prokurorni ham yengadi, birontasini sevib qolsa, sevgisi uchun o'lguncha olishadi... Demak, to'yga kelibsizlarda, xudo xohlassa, zo'r to'y bo'ladi. Bu oqshom yetti yigit-u yetti qizning nikohi o'qiladi. Mayli, birgalashib boramiz. Men ham u yoq-bu yog'imga qarab olay. Ayollar ko'ziga surma,

qo'liga xino qo'yib to'yga bormasa, erlari aynib qoladi-ya. Hozir erkaklarning hammasi labida qizili borgarga qaraydigan bo'lib ketishgan. Ovsin, gapingizning chalasi bo'lsa, navbat sizga...

Mana, kech ham kira boshladи. To'yxonaga «Yo'l-doshxon-Beksulton» do'konining old tomonidagi katta maydon tanlangan. Qishloq ahli juft-juft, guruh-guruh bo'lib, o'rtakashlar ko'rsatgan joylarga borib asta-sekin o'tiryapti. To'yni tuman hokimining yosh fermerlar bo'yicha o'rnbosari Ochilov amaki boshqaryapti. Qaysi mehmon qayerga o'tirishini aftidan ana shu amaki belgilayapti. Mehmonlar shunday tartib, shunday intizom bilan joylashibdilarki, agar suratga olib qo'yishsa, tagobliklarga yuz yillar davomida bir esdalik bo'lib qolgan bo'lardi. Pahlavon Beksulton og'a tuman hokimi Boboxon Sharipov bilan yonbosh o'tirishibdi, goho-goho yengil-yengil kulib qo'yishyapti. Zulxumorning prokuror otasi yelkasidagi polkovniklik pogonini yechib, boshiga oq do'ppi kiyib olgan hoji buva bilan allaqachon gapga kirishib ketishibdi. Prokurorning yuzi, ko'zlarida mammuniyat aks etgan. Yugurib-yelib xizmat qilayotgan Avazbek amaki uning ko'zlaridagi mammuniyatni ko'rib, «xayriyat, qizini kelin qilganimga, Zulxumor Yo'ldoshxonga tekkaniga xafa emasga o'xshaydi», deya ko'nglidan o'tkazib-o'tkazib qo'yyapti. Ochilov amaki yetti kelin-kuyovning o'n to'rt qaynibuvisini bir qatorga tizibdi – haligi, qaldir-g'ochlar simyog'ochda qator o'tirishadi-ku, ana o'shalarga o'xshab o'tirishibdi. Eng saodatli, eng faraxbaxsh kunlaridan biri emasmi, g'oyat go'zal kiyinishib, katta buvalaridan meros qolgan oltin, kumush taqinchoqlarini taqishib, g'urur, iftixor bilan o'tirishibdi. Anchadan buyon ochilmagan «gapqop» xaltalarining og'zini keng ochib

qo'yishibdi, qisilib, bo'g'ilib, bir-birini ezib yotgan, bir-biridan chiroyli so'zlar quvalashib chiqib kelyapti.

Tagob qizlarining kiyinishi... Hay-hay, yetti iqlimda ularga teng keladigani yo'q. Marg'ilon atlasidan kiyinishibdi, egnilaridagi qizil atlaslar lov-lov yonib, atrofni bamisololi lolazorga o'xshatib yuborishibdi. Ha-ha, Ochilov amaki davrani boshqarishga usta ekan, kimni qayerga o'tkazishni yaxshi bilarkan, Tagobning oltmishdan ortiq go'zal qizlarining qarshisiga yetti qishloqdan taklif etilgan yosh-yosh fermerlarni, yosh-yosh tadbirkorlarni o'tqazibdi. Bu qizlar-u bu yigitchalarning bir-birlariga ko'z suzib tikilishlarini ko'rsangiz.

To'satdan karnaylar chalinib, nog'oralar birdan gumburlab ketdi. Shu asnoda o'tirganlar ham gurillab o'rinalidan turishdi. To'yxonaning katta darvozalari keng ochilib, qishloqda qancha yosh bola bo'lsa, ham-malarining qo'lida bittadan gul.

– To'y keldi!

– To'y olib keldik, – deyishib, bir-birlarini itarishib, qo'llaridagi gulni kimga berishni bilmasdan kirib kela boshladilar. To'xona qarsak ovozidan larzaga kelgandek bo'ldi. Xuddi Tagobdag'i barcha daraxtlar ham, daraxtlarga qo'ngan barcha qushlar ham qarsakka jo'r bo'layotgandek. Nihoyat karnaychilar kirib kela boshlashdi, ulardan so'ng do'mbirachilar gumburlatib kirib kela boshlashdi, nihoyat yetti kelin, yetti kuyov ham kirib keldi. Eng oldinda Zulkumor bilan Yo'doshxon kirib kelyapti. Zulkumor kelinlik sarposining shunday harir, shunday nafis, shunday oqidan tanlabdiki, bamisololi nur ichida kirib kelayotgandek. Zulkumorni nurli davraga olib kirayotgandek. Yo'doshxonning boshidagi kuyovlik toji shunday yarashibdiki, bamisololi shahzodalarga o'xshab ketibdi. Beksulton Marg'ubaning qo'ltig'idan olgan, Ha-yitvoy Rohilani avaylab

ushlagan, Barotvoy Saddinisoni qoʻltiqlab olgan, Rasuljon Oysuluv bilan tenglashib olgan... Hammalari bir-bir qadam bosib kirib kelyaptilar. Yigitlarning boshi baland, qalblarida mana shu qiz endi meniki boʻldi, degandek bir iftixor bor. Oq kapalaklardek kiyingan qizlar bu yigitni endi hech kimga bermayman, deb kirib kelayotgandek, barchalarining yuzi-koʻzlarida quvonch, iftixor nurlari charaqlab oʻynayapti. Tagobning namozshomdagi bu kechasini ketma-ket otilgan mushaklar toʼsatdan yoritib yuborgandi. Bolalar qiyyiqryapti, mehmonlar qarsak chalishyapti, osmonda mushak koʼpmi, yulduzlarmi, bilib boʼlmaydi. Ha... Tagob Tagob boʼlgandan buyon bunaqa quvonchni, bunaqa shodiyonani koʼrmagandi.

Oʼsha kuni toʼyda men ham bor edim, goh u davraga, goh bu davraga kelib xursandchilikka qoʼshildim. Pahlavon Nurlan ogʼa oʼn ikki yogʼoch bochkada qimiz keltirgan ekan, hali bazm boshlanmasdanoq, qimizzoʼrlik boshlanib ketgan edi. Men ham yoshlarga qoʼshilib, goh unisidan ichdim, goh bunisidan ichdim. Qarang, qimiz ham mast qilarkan, toʼsatdan yoshlarga qoʼshilib oʼyinga tushib ketganimni bilmay qoldim...

YOZUVCHI ASARIDAGI O'ZIGA XOS USLUB HAQIDA

E'tibor berilsa, Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalar, o'smirlar hayotiga bag'ishlangan barcha asarlari «men» nomidan hikoya qilish asosiga qurilgan. Bu usul yosh o'quvchilarning asar voqealarini ichiga chuqurroq va osonlik bilan kirishga, hikoyachi-qahramon bilan ham, boshqa personajlar bilan ham bevosita yaqindan tanishuviga qulay imkoniyat yaratadi. Kattalar hayotini tasvirlovchi «Qasoskorning oltin boshi», «Yillar va yo'llar» romanlaridagi muallif-hikoyachi esa sahna ortiga yashiringani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Biroq bizning niyatimiz mahoratli san'atkori Xudoyberdi To'xtaboyev qaysi asarida badiiy nutqning qanday turi va shakllaridan foydalanganligi to'g'risida umumiy fikr yuritish emas, balki bitta asari misolida keyingi yillarda o'zbek nasriga kirib kelgan va muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan yangicha nutq shakli — hikoyachi-roviyning asar makrostrukturasida tutgan o'rni, uning obraz timsolida namoyon bo'lish omillari, asar voqealarini bayon qilish va rivojlantirishdagi rolini aniqlashdan iboratdir. Buning uchun biz sevimli yozuvchimizning «Qiz talashgan o'smirlar» nomli sarguzasht-romanini tanlab oldik. Chunki bu romanda adibning boshqa barcha asarlaridan farqli o'laroq, hikoyachi-roviy o'zini g'oyatda erkin tutadi, xuddi asar qahramonlarining tengdoshi (17 yashar), do'stidek mulohaza yuritadi. Roviy asar personajlari bilan yonma-yon yurib, birga harakat qilayotgandek, ularning har bir qadamini, xatti-harakatini kuzatib yurgandek taassurot qoldiradi. Ammo ularning faoliyatiga, voqealar yo'nalishiga mutlaqo aralashmaydi,

xolisona fikr yuritadi. Bu xususiyat uni o'quvchiga yanada yaqinlashtiradi.

Romanda hikoyachi-roviy nutqi shu darajada erkin va hayajonliki, uning hikoyasidagi ba'zi yetishmovchiliklar, qahramonlarning rejalari va ishlari hech qanday to'siqsiz, osonlik bilan amalga oshayotganligi, personajlarning faqat ijobiy tomonlarini, yutuqlarini ko'rib, qiyinchiliklar, o'zaro tortishuvlar, qarama-qarshiliklardan ko'z yumib o'tayotgani ham o'quvchiga erish tuyilmaydi. Roviyning hikoya qilishicha, asar voqealari «bir tomoni adirli tog'larga, yana bir tomoni cho'llarga ulashib ketadigan Tagob qishlog'i»da bo'lib o'tadi. Makonning kengligi va go'zalligi Vaqt (Zamon) omiliga ham bog'liq. Roviyl o'quvchiga o'zi yaxshi bilgan Tagob qishlog'idagi odamlarning «Alloh bu yurtga mustaqillik degan ne'matni ato qilganidan» keyingi hayoti to'g'risida hikoya qilib berishni maqsad qilib olgan. Mustaqillikdan keyin «Tagob qishlog'ida uyqusirab yotgan insonlar birdan uyg'ongandek bo'ldi. Tadbirkorlik, fermerlar harakati, xususiy ishbilarmonlik deysizmi, shunaqa avj olib ketdiki, ta'riflashga so'z ham ojizlik qiladi». Hikoyachi-roviyning bu holati uning nutqi ohangi va yo'nalishini ham belgilab beradi. Hikoya ko'tarinki, balandparvoz ohangda olib boriladi. Roviyl hamqishloqlarining birday uyg'onib, mustaqillik yaratib bergan imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadida astoydil urinib, ajoyib ishlar, kashfiyotlar qilayotgani, barcha katta-yu kichik qo'li dan kelganicha tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganligi haqida juda quvonib, to'lqinlanib gapiradi.

Hikoyachi-roviyning asosiy maqsadi Yo'ldoshxon ismli o'quvchi amalga oshirayotgan ajoyib tadbirkorlik ishlari to'g'risida hikoya qilishdan iboratdir. Roviyl uni o'z tug'ishganidek yaxshi ko'radi, yigitchaning

har bir qiligi, harakati, gap-so‘zi, jesti va mimikasi hatto kulishidan ham fazilat qidiradi va o‘quvchiga yetkazadi. Yo‘ldoshxon o‘zining tashqi ko‘rinishi bilan ham tengdoshlaridan farq qiladi: «Tengqurlariga qaraganda *xiyol novcharoq*, tik qomatli, *bug‘doy rang yuzli*, yuzi, ko‘zlari lovullab yonib turadigan *g‘oyat ko‘rkam*, *g‘oyat go‘zal* bir yigitcha»dir. Qahramoning portretidagi roviy qo‘llagan so‘zlarga e’tibor bering: uning «Tengqurlariga nisbatan xiyol novcharoq»ligidan keyingi tasvirlar qiz bolaning qiyofasiga xos belgilarni anglatmayaptimi? Buning ustiga uning tik qomatli, bug‘doy rang yuzli ekanligidan, ko‘zlari yonib turishidan tashqari yana «*g‘oyat ko‘rkam*, *g‘oyat go‘zal*» deb ta’riflanishi ortiqchadek tuyiladi. Odatda, bunday iboralar qiz bolaga nisbatan ishlatsa, uning qiyofasiga yopishib turgan bo‘lardi.

Shunday deyman-u, mabodo, hikoyachi-roviy A.Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanini o‘qigan bo‘lsa, Yo‘ldoshxonini «*ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshlik*» Otobek akasiga o‘xshatib tasvirlashni istadimikin deb o‘ylab qolaman. Faqat Yo‘ldoshxon Otobek singari «og‘ir tabiatli» emas. Garchi «fikrli, mulohazali yigit» bo‘lsa-da, ba’zida o‘ylamay, shoshqaloqlik bilan qilgan harakatlarining jabrini tortadi. Buni qarangki, Otobek ham, Yo‘ldoshxon ham tadbirkorlik bilan shug‘ullanadilar. Ikkovi ham savdo ishi bilan uzoq shaharlarga boradilar. Ammo zamon boshqa, makon boshqa bo‘lganligidan ikkovining taqdiri bir-biridan tubdan farq qiladi.

Yo‘ldoshxon mustaqillik davrining farzandi sifatida o‘zini nihoyatda erkin, bemalol va mag‘rur tutadi. Niyatlarini amalga oshirish yo‘lida u hech qanday to‘sinqqa uchramaydi, qiyinchilikni boshidan kechir-

maydi. Roviy bu muvaffaqiyatli yurishning ikkita muhim asosiga ishora qiladi. Birinchisi, Yo'ldoshxon go'dakligida Xizr bobo bilan uchrashgan. Uning o'rgatishi tufayli «anjir» so'zini aytib tili chiqadi, ham anjirga ishqni tushib, bog' tashkil qiladi va ko'p hosil yetishtirib boyib ketadi. Ikkinchi asos esa bu mustaqillik tufayli yaratilgan imkoniyatlardir. Garchi roviy ochiq aytmasa ham o'quvchi mamlakatimizda ishbilarmon, tadbirdor va fermerlarga qulay sharoitlar yaratib berilayotganligidan voqif bo'ladi. Yo'ldoshxonning faoliyati hamma joyda qo'llab-quvvatlanadi, unga to'sqinlik qilayotganlar darhol jazosini oladi. Masalan, tuman hokimining o'rinnbosari, yosh fermerlar jamiyatining raisi Ochilov ularni «kimda-kim sizlarni so'roqqa tutmoqchi bo'lsa, oldin men bilan gaplashsin», deb ishontirgan. Ichki ishlar boshqarmasida iste'fodagi polkovnik hoji aka qo'llab-quvvatlaydi. Anjirzor bog'da esa o'qituvchilikdan nafaqaga chiqqan Qobil bobo yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Shu tufayli ularning ishi yurishgandan yurishadi.

Roviy «Qiz talashgan o'smirlar»ning turli sarguzashtlarini uch bo'limga ajratib hikoya qiladi. O'n olti bobdan tashkil topgan «Muhabbat mavsumi» deb atalgan birinchi bo'lim «hammasi bo'lib besh qiz-u besh o'smirdan iborat» bitiruvchi sinf o'quvchilarining Yo'ldoshxon rahbarligida ish boshlagan anjirchilik fermasidagi faoliyatiga bag'ishlanadi. Hikoyachi-roviy bu besh qiz, besh yigitchani shu qadar mehr bilan tasvirlaydiki, eng yomonini ham (masalan, ig'vegar Safarga o'xshash) yaxshi ko'rib qolamiz. O'n bobdan iborat ikkinchi bo'limda esa bu yigit-qizlar boshidan kechirgan «Ishqning lazzatli iztiroblari»dan xabardor bo'lamiz. «Muhabbat o'limdan kuchlimi?» deb atalgan uchinchi bo'limda (10 boblik) oshiq-ma'shuqalarga

xos chinakam sarguzashtlar hikoya qilinadi. Ikki o‘t orasida qovrilgan Yo‘ldoshxon goh sinfdoshi Zulxumor, goh o‘zga yurtdan topgani Oysuluvdan qaysi birini tanlashni bilmay arosatda qoladi. Roviyning aytishicha, Yo‘ldoshxon nazarida «*bu qizlarning biri yuragining o‘ng qismida, boshqasi chap qismida o‘rin talashayotgandek tuyuladi. Qalbida Zulxumor yoqqan olov bilan Oysuluv yoqqan olov o‘rtasidagi kurash kuchaygandan kuchayib borayapti*». Ammo shunga qaramay, hikoyachi-roviy sevgi yoshidagi yigit-qizlarning o‘ziga umr yo‘ldoshi tanlashda his-tuyg‘uga emas, balki aql-farosat bilan ish tutishiga e’tiborni ko‘proq qaratadi. Masalan, Oysuluv mehmon bo‘lib kelganida Zulxumorning ko‘zlarida Yo‘ldoshxonga nisbatan kuchli muhabbat o‘tlari yonib turganini ko‘rib, o‘z niyatidan qaytadi va oddiy tegirmonchi yigit Rasuljonne tanlaydi. Beksulton esa hech ikkilanmay otasiz o‘sgan ko‘ngli yarim Marg‘ubani sevadi va ayrim to‘sqliarga qaramay, unga yetishish yo‘llarini izlaydi. Qolgan yigit-qizlar ham o‘z tanlaganlari bilan topishadilar.

Hikoyachi-roviy chindan ham «Muhabbat o‘lim-dan kuchli» ekanligini voqealar rivojida isbotlab beradi. Oysuluv sevgisini rad qilgandan keyin Yo‘ldoshxon yana Zulxumorning huzuriga bo‘yin egib keladi. Umuman, hikoyachi-roviy tomonidan bu oshiq-ma’shuqlar o‘rtasidagi ishqiy mojarolar ni-hoyatda tabiiy tasvirlangan. Odatda, bir joyda o‘sgan, sinfdosh bo‘lgan yigit-qizlar o‘rtasidagi sevgi-muhabbat shunaqa bo‘ladi. «Qiziq, — deb hikoya qiladi bu haqda roviy, — Yo‘ldoshxon ham, Zulxumor ham tinmay bir-birlariga talpinishadi, lekin ko‘rishishdi, degunlaricha aytadigan chiroyli gaplarini yo‘qotib qo‘yishadi. So‘zlarida harorat bo‘lmaydi, goho pich-

ing, kesatiqlar ham aralashib ketadi». Haqiqatdan ham yurakda kuchli intilish bor, ammo oraga tushgan sovuqchilik bu talpinishga biroz xalaqit beradi. Oqibat shu bo'ladiki, Zulkumor ham muhabbatini rad etgach, bu sharmandalikka chidolmagan Yo'ldoshxon sirka ichib o'zini o'ldirmoqchi bo'ldi va og'ir ahvolda shifoxonaga olib kelindi. Yigitning o'limiga o'zini sababchi deb bilgan Zulkumor jonlantirish xonasiga kirib, baland ovozda: «Yo'ldoshxon, men seni ko'rgani keldim!» deydi. Shunda roviyning quvonib hayqirishicha: «**Mo'jiza yuz bergan, ha-ha, chinakam mo'jiza! Allohning inoyati bilan sovib qolgan tanada jon paydo bo'lgan**».

Yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev mustaqil mam-lakatimizni boyitish, gullatish, farovon tur mushni barpo etish uchun tinmay urinayotgan, ham ishni, ham ishqni do'ndirayotgan yosh avlodning murod-maqsadiga yetishini niyat qilib, qo'liga qalam olganligini roviy nutqi orqali ehtiros bilan ilgari suradi. Buni ayniqsa, hikoyachi-roviy tomonidan olti juft oshiq va ma'shuqaning to'yi marosimini nihoyatda ko'tarinki ruhda batafsil tasvirlanishida his qilish mumkin. «*Ha... Tagob bo'lgandan buyon bunaqa quvonchni, bunaqa shodiyonani ko'rmagandil! O'sha kuni to'yda men ham bor edim, — deb hikoyasini yakunlaydi roviy asar so'nggida o'zini yanada ochiq namoyon etib. — Goh u davraga, goh bu davraga kelib xursandchilikka qo'shildim. Pahlavon Nurlan og'a o'n ikki yog'och bochkada qimiz keltirgan ekan, hali bazm boshlanmasdanoq qimizxo'rlik boshlanib ketgan edi. Men ham yoshlarga qo'shilib goh unisidan ichdim, goh bunisidan ichdim. Qarang, qimiz ham mast qilarkan, to'satdan yoshlarga qo'shilib o'yinga tushib ketganimi bilmay qoldim...*» Ha, xuddi ertaklardagidek hamma

murod-maqsadiga yetdi. Zero, mustaqillikka erishgan yurtda tadbirkorlar qo'llab-quvvatlanar ekan, bunday bazm davom etaveradi!

Xullas, badiiy nutq poetikasiga oid muammolar ni tadqiq etish uchun O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning har bir asari yetarli materiallar bera oladi. Bu esa kelgusida adabiyotshunoslarimizning jiddiy tadqiqotlar olib borishini taqozo etadi.

*Yo'ldosh SOLIJONOV,
filologiya fanlari doktori*

Qiz bolaga tosh otmang

(Teleroman)



BIRINCHI QISM

Molxona oldidagi keng maydon. Har joy-har joyda beda, dag‘al xashak g‘arami, o‘rtada katta hovuz. Suv bir tomondan kirib, ikkinchi tomondan chiqib turibdi. Darvoza oldida 50-60 ta stullar qator qo‘yilgan. Xalat kiygan yosh-u qari erkaklar, ayollar aralash o‘tirishib-di. Bahrom yelkasida videokamera, ularni joylashtirish bilan band.

BAHROM: — Takror aytaman, hurmathli tagobli-
lar, mehnatkash hamqishloqlarim, omadlarining kelib
fermamiz mudiri, mening qattiqqo‘l opam Respub-
lika tanloviga qatnashib, ikkinchi o‘rinni olib, «Tiko»
mashinasini minib kelmoqda. Demak, hozir bu yerda
miting bo‘ladi. «Yoshlik» studiyasi topshirig‘iga binoan
mitingni men tasvirga tushiraman. Tushunarlimi?
Oldin ozgina mashq qilib olamiz.

OVOZ: — Tezroq boshlasang-chi, Hadichanining
mahmadona o‘g‘li.

MOLBOQAR YIGITCHA: — Buzoqchaga o‘xshab
muncha ma’rading.

BAHROM: — O‘nboshi bobo, siz orqaga o‘ting, bu
yerda faqat ayollar o‘tirsin.

O‘NBOSHI: — Men majislarda hamisha birinchi
qatorda o‘tirganman.

OVOZ: — O‘tiraversin, qirqta makiyonga bitta xo‘roz
ham kerak-da.

OVOZ: — O‘nboshi boboning xo‘rozligi qolibdimi,
makiyonni ko‘rsa qanotini hurpaytirib qochadi-yu.

O‘NBOSHI: — Rais, qayerdasan, yoningga boraqo-
lay. Endi bizning birinchi qatorda o‘tiradigan zamoni-

miz o'tibdi. Ha, mana sen ham raislikdan tushganining dan buyon o'zingni panaga oladigan bo'lib qolibsan.

BAHROM: — Shunday qilib, aziz tagoblilar, Kurshida bahonasida sizlar ham bir televizorga chiqadigan bo'ldilaring. Tasvir chiroyli chiqsa, «Yoshlik» studiyasi, albatta, ikki marta ko'rsatadi. Bilasizlar, hozir televizor dasturi «Sputnik»ka ulangan. Demak, Qatron tog' etaklaridagi mana shu do'ppidekkina Tagob qishlog'idagi qahramonni kutish voqeasini butun dunyo ko'radi. Bu yog'i Tojikiston, bu yog'i Qirg'iziston, bu yog'i Gollandiya...

OVOZ: — Hoy, emchi uka! Anavi kuni Sarvinisoning to'yida tasvirga olganingda nuqul meni teskari turganimni olibsan. Agar bugun ham shunday qiladigan bo'sang, yelkangdagi qutichani sindiraman, bilib qo'y.

BAHROM: — Yo'q, opajon. Bugun boshqacharoqsiz, qoshda o'sma, ko'zda surma, qo'llar xinodan lolarang, qulqodagi oltin sirg'alar yal-yal yonayapti. Shunday chiroyli tushirayki, tagobi sut sog'uvchi opalar qanday go'zalligini butun dunyo ko'rib qo'ysin.

*Go'zallikda tengi yo'q tagobimning qizlari,
Atirgulning o'zidir yuzlari qirmizlari.
Boqishlari o'zgacha, sirlidir nigohlari,
Har kishini rom qilar charaqlagan ko'zlari.*

...Yaxshi, yaxshi, ana shunday o'tirganlaringda mukofotga olingen «Tiko»ni o'zi haydab, yonida hokim muovini bilan Xurshida opam kirib keladi. Yo'q, mana bu tomonidan kirgani yaxshi. Hamma o'rnidan turib qarsak chalib yuboradi. Yarning «Tiko»ni, yarning Xurshida opamni qurshab olasizlar. O'pasizlar, quchoqlaysizlar, bir-ikkita keksa ayol hokim muovinini ham o'pib qo'yadi. Inoyat aya, siz qizingizni o'pa turib, yig'lab yuborasiz. Kel qizim, hurmatli Prezidentimiz

o'pgan muborak peshonangdan onaginang ham o'psin, deysiz-da, yana yig'laysiz. Ana shu holatni men yirik planda tasvirga olaman...

SHOKALON: — Men qishloq fermerlar va tadbirkorlar uyushmasining bosh maslahatchisiman.

O'NBOSHI: — Lekin sizni hech kim saylagan emas-ku, o'rtoq?

SHOKALON: — Men shu kolxozda o'n to'rt yil rais bo'lganman.

O'NBOSHI: — To qo'lingdan yetaklab, ko'chaga olib chiqib qo'ymagunlaricha raislik qilmoqchi eding.

SHOKALON: — Xurshida qizimning fermasini men tashkil qilib bergenman.

O'NBOSHI: — O', rais, hadeb men, men deyaverma, Xurshidaning marhum otasi bilan ayasi Inoyat qizimizga ferma ochamiz, deganda bugun-erta deb ikki yil sudragansan. Qisir sigirga o'xshab kavsh qaytarib turavergansan.

SHOKALON: — Ho', O'nboshi senam och qolgan buqaga o'xshab hadeb baqiraverma. O'n to'rt sigirni buzog'i bilan suvtekinga bergen men edim.

O'NBOSHI: — Keyinchalik buzoqning beshtasi meniki deb da'vo ham qilgansan.

SHOKALON (*baqirib*): — Bas qil, hozir mitingdan chiqarib yuboraman.

O'NBOSHI (*kulib*): — Majlisdan chiqarib yuborish sening eski odating-ku.

BAHROM: — Amakilar, sizlarning bu tortishuvlar-ningi tasvirga tushirib bo'lmaydi.

*Tagobimning keksa otaxonlari,
Yoshlarning e'tiqodi, imonlari,
Orzulari amalga oshmay qolgan,
Qalbi to'la behisob pushaymonlari.*

XABARXON: — Esimni tanibmanki, bu ikkovi xo'roz bo'lib bir-birini cho'qiydi, buqa bo'lib bir-birini suzadi.

MO'MINAXON: — To'g'ri, cho'qishadi-yu, lekin qon chiqarishmaydi.

XABARXON: — Ikkoviyam Xurshidani kelin qilaman, deb o'g'llarini uylantirmay yuribdi.

MO'MINAXON: — Sen o'lgur hamma narsani bila-san-a!

XABARXON: — Nima qilay, o'rtoqjon, shunaqa kasalim bor. Hamma narsani hammadan oldin bilgim kelaveradi.

BAHROM: — Ho', soy mahallalik opajonlar, gapni bas qilinglar, tasvirga tushirayotganimda ham mana shunaqa pichir-pichir qilib tursalaring, ishim rasvo bo'ladi. Keyin buyurtma bermay qo'yishadi.

XABARXON: — Ovozimizni chiqarganimiz yo'q-ku.

BAHROM: — Manzura opa, siz...

O'NBOSHI: — Hoy bolam, men gapimni tugatganim yo'q. Sen mendan Xurshida qizimiz bu obro'ni qanday topdi, deb so'rashing kerak edi.

BAHROM: — Ha mayli, ayta qoling.

O'NBOSHI: — Xurshida o'zi yosh bo'lsayam boshida to'rtta donishmand cholning aqli bor. O'ziyam molxonada tug'ilgan. Inoyatbonu, mana shularni gapisang-chi.

INOYAT: — Qo'ysangiz-chi bunaqa gaplarni.

BAHROM: — Rahmat amaki, otaxonda aql ko'p, ham maqol-u naql ko'p. Manzura opa, yaxshisi, gapping o'g'il bolasini o'zingiz aytasiz. So'z ilg'or sog'uvchi Manzura opamga deyishim bilan paysalga solmay, paxsaga loy bosgandek lo'nda-lo'nda gapirasiz, meni qaymoqlarga to'ydiradigan opajonim.

*Qaymoq bersang tovoqda ber,
Katta kosa lapoqda ber.*

*Ham qishda-yu ham yozda,
Issiqda-yu sovuqda ber.*

Qani boshlang, opajon.

MANZURAXON: — Voy tavba, hozirgina o‘ylab turuvdim. Hammasi esimdan chiqib qoldi-ya... Hozir, hoy emchi uka, nega endi paxsaga loy bosgandek gapiraman? Qog‘ozga o‘ralgan qanddek shirin-shirin gapirsam bo‘lmaydimi?..

Kollejni bitirayotgan kechamiz to‘rt yigit, to‘rt qiz direktorimiz oldida fermer bo‘lamiz, Katta Tagob qishlog‘ini gul-gul yashnatamiz, niyatimizga yetma-guncha erga ham tegmaymiz, uylanmaymiz ham deb qasamyod qilganmiz. To‘g‘rimi, Mahfirat?

MAHFIRATXON: — Gap navbatи keb qoldi. Endi tong otguncha gapirasan.

MANZURAXON: — Men allaqachon erga tegib, ikkita bola tug‘ib olganman.

MAHFIRATXON: — Sen hech qachon so‘zingda turmas eding.

MANZURAXON: — Mana, Beksulton g‘isht zavodini boshqaryapti. O‘rningdan tur, odamlar chiroyli qomatingni bir ko‘rsin.

BEKSULTON: (*o‘rnidan turib*): — Nima tagoblilar ilgari meni ko‘rmabdimi?

MANZURAXON: — Bugun qora ko‘zlarining bosh-qacharoq charaqlayapti. Mana, Shoumar, sen ham o‘rningdan bir tur. Uch gektar o‘rikzorim bor deb bir maqtansang-chi, mana bu menga gap bermayotgan Mahfiratxonim bo‘lsalar, tikuvchilik sexi ochganlar. Foyda ko‘rmayapman deb yig‘lagani-yig‘lagan.

MAHFIRATXON: — Hoy o‘rtoq, men qachon yig‘lab-man?

MANZURAXON: — Menga yig‘lamagan bo‘lsang ham buyurtmachilar borsa unim yo‘q, bunim yo‘q deb

rosa diydiyo qilarmishsan-ku... Qasam ichgan Foziljon bo'lsa hozir bozorda qosh qalam sotib yuribdi...

Xurshida o'zi boshqacharoq chiqdi, g'alati edi u... O'zi molxonada ishlasayam doim fransuz atirini sepib yurardi. Germaniyada o'qib keldi-yu...

ISMOIL: — Germaniya emas, savodsiz, Gollandiya...

MANZURAXON: — Ishqilib, o'sha yoqda o'qib kel-di-da.

ISMOIL: — O'qigan emas, fermada tajriba o'rganib keldi.

MANZURAXON: — O'sha yoqdan olib kelgan 12 ta buzoqchasi sabab bo'ldimi...

ISMOIL: — Manzura, sen gapning o'zagini topa olmayapsan. Xurshida fermani olgunga qadar yem o'g'irlardik, tashqariga xashak sotardik, sutga suv qo'shardik.

BAHROM: — Bunaqa bemaza gaplarni tasvirga berib bo'lmaydi.

ISMOIL: — Jim o'tir, rost gapni hamma joydayam yaxshi ko'rishadi. Gollandiyadan o'rganib kelib, mao-shimizni ikki barobarga ko'paytirdi. Mana endi o'n sakkiz soatlab molning tagidan chiqmaymiz. Buni progress deydilar, savodsiz. Mana gapning o'zagi qa-yerda!

OVOZ: — To'g'ri gapni aytayapti.

OVOZ: — Aslidayam shunday bo'lgan.

ISMOIL: — Xurshidaxon Toshkentga keta turib, mukofot tegsa, eng kattasi sizniki degan, to'g'rimi?

OVOZ: — Bu gapni biz eshitganimiz yo'q. Yolg'on gapiryapsan.

ISMOIL: — Qulog'imga shivirlab aytgan. Mana uch kundan buyon er-xotin uxlamay Xurshidani duo qilib yotibmiz.

XABARXON (*Mo'minaxonga*): — uch kundan buyon uxlamagan bo'lsa, Oysara endi sakkizinchisini tug'ib beradi.

ISMOIL: — Hoy, Xabarxon. Nega odamni masxara qilib kulyapsan?

XABARXON: — Xotinimning ustiga to'nimni yopib qo'ysam ham bo'yida bo'laveradi, degandingiz, o'shani eslab kuldik.

ISMOIL (*kilib*): — Lekin bilib qo'y, o'sha to'nning ichida hamisha o'zim bo'lganman.

MANZURAXON: — Ismoil aka, menga navbat ber-asizmi, yo'qmi?

ISMOIL: — Molxonada demokratiya bo'lishi kerak. Ozgina sen, ozgina men so'zlayman. Erim buxgalter deb maqtanaverma.

MANZURAXON: — Voy xudoyim-ey, qani maqtanganim?

ISMOIL: — Otang ham senga o'xshab ezma edi.

MANZURAXON: — Xo'p, qisqa qilay bo'lmasa. Shunday qilib, Shoumar, Beksulton, Xurshida, Mahfiratlar so'zlarining ustidan chiqishdi. Korxona-yu fermalar ochib olishdi. Lekin turmush qurishmadid. Pana-panada bir-biriga ko'z qisishib yurishgandir. Xudo xohlasa, yaqinda to'ylar ham boshlanib ketadi.

XABARXON: — Beksulton ham, Shoumar ham Xurshidani o'lgudek sevishadi. Xurshida qay birini sevishini sen bilasanmi?

MO'MINAXON: — Sendek sinchkov dugonam bil-masa, men qayoqdan bilay.

XABARXON: — Ko'rasan, hali bu ikkovi rosa qir-pichoq bo'lishadi.

BAHROM:

— Yoshlik qudrat, shiddatdir,

Tez o'tguvchi fursatdir.

Fursat g'animat ekan,

Ushbu so'z sizga ibratdir.

....Umidaxon, Xurshida opangiz haqida ikki og'iz so'z aytsangiz yaxshi bo'lardi. Yaqinda Gollandiyaga

ketayotgan emishsiz. Teletomoshabinlarga qanday tilaklar bildirib ketmoqchisiz?

UMIDA: — Qaytib kelganimdan keyin aytarman.

BAHROM: — Bo'limasa, mening dasturim mazmunli bo'lishi uchun bitta ashula aytib bering.

UMIDA: — Yo'q, ashulaniyam keyin aytaman.

BAHROM: — So'zlamasang, ashula aytmasang, bilib qo'y, buzoqlaringga yem bermayman.

UMIDA: — Yemingni o'zing yeyaver, ozib ketgansan, qaytaga men kelgunimcha ancha semirib qolasan.

XABARXON: — Bu ikkoviym hozir Tohir-Zuhra bo'lib qolishgan.

MO'MINAXON: — Sen o'lgurdan hech kim qochib qutula olmaydi.

XABARXON: — Fe'lism yomon-da, bilmaguncha qo'ymayman.

SABRINISO: — Hoy, emchi bolam, buncha ezmalik qilding, onang tengi ayol halidan buyon qo'l ko'tarib turibman-u, menga qaramay, ona suti og'zidan ketmagan qizaloq bilan gap sotishasan-a. Hozirgi yoshlarga hayronsan, sigirning emchagi bilan buzoqchaning chukini bir-biridan ajratolmaydi-yu, to'xtamay gap sotishadi. Menga ham so'z ber, suratimni ham ol. Armiyadagi o'g'lim bir ko'rsin. Keyin o'g'limga aytginki, agar pensiyaga chiqsam, Xurshidaxon bitta sog'in sigirni buzog'i bilan beradigan bo'ldi. Gollandkasidan beradi.

ISMOIL: — Gollandiya zotli sigirlari xonadonda boqishga berilmaydi.

SABRINISO: — Hech kimga bermasa ham, menga beradi. Hoy, qaymoqxo'r Ismoil, o'ttiz yildan buyon govmishlarning emchagini tortqilayman-a. Hamma soqqan sutlarimni to'plasa, Otaxonboyning hovuzidaqa hovuzdan yettitasi to'lardi-ya. Ha, menam ja orqada qoladiganlardan emasman. Uch marta sanoq

komissiyasiga a'zo bo'lganman... Suratga tushirsang, bo'y-bastim bilan tushirasan.

BAHROM: — Xo'p, xolajon, bo'y-bastingiz bilan tushiraman... Yaxshi, yaxshi, mashqimiz chakki chiq-mayapti. Ham mazmunli, ham hayajonli. Inoyat aya, qahramonning onasi sifatida siz ham ikki og'izgina shirin luqma qilsangiz bo'lardi.

INOYAT: — O'ttiz yildan buyon gapirganim yetar.

O'NBOSHI: — Inoyatbonu, haligi suratga tushadi-gan sigiring bor edi-ku, o'shani bir gapirib bermay-sanmi?

INOYAT: — Qo'ysangiz-chi, eski gaplarni.

O'NBOSHI: — Bahrom bolam, men gapirsam may-limi?

BAHROM: — Mayli, bir daqiqa vaqt beraman.

O'NBOSHI: — Bu gapga o'ttiz yillar bo'ldi-yov, lekin o'ziyam ajoyib govmish edi-da. Kuniga olti chelak sut berardi. Ovozasi butun respublikaga ketgandi. Muxbir ustiga muxbir kelib, nuqlul suratga olishardi. Govmish tek turib bersin deb, hovuchlab oq qand berishardi. Sigir qurmagur ham qand yeb suratga tushishga shunaqa o'rganib qoldiki, darvoza orqasidan begona odam ko'rinsa, arqonini uzib o'sha yoqqa yuguradi. Qishloqqa yangi kelgan o'ris muallima yelkasiga surat oladiganini osib, molxona oldidan o'tib qolgan ekan, govmish arqonini uzibdi-yu, tumshug'ini oldinga cho'zgancha muallimaning orqasidan yuguribdi. Be-chora muallima bunday qarasa, fildek bir maxluq lapa-nqlab ma'ragancha orqasidan quvarmish... Muallima maktabga yetgun-cha ishtonini ho'l qilib qo'ygan ekan.

XABARXON: — Qo'y, o'rtoqjon, o'sha miyasi aynigan cholning gapini.

MO'MINAXON: — Miyasi aynigan bo'lsayam, Inoyat ayamizga ketma-ket sovchi qo'yayotgan emishlar.

XABARXON: — Ayamizdayam bir gap borga o'xshaydi. Cholni ko'rganda ranglariga qizil yugurib, qo'l-oyolari qaltirab qoladi.

BAHROM: — Beksulton aka, siz zavod direktori sifatida Xurshida opam haqida biron gap aytasizmi?

BEKSULTON: — Mukofot muborak bo'lsin, deymiz-da.

BAHROM: — Shumi?

BEKSULTON: — Hozircha shu.

BAHROM: — Shoumar aka, bir narsa aytmoqchi bo'lib turibsiz.

SHOUMAR: — Xurshida ham, mana bu maqtanchoq Beksulton ham dadam tufayli odam bo'lishgan. Yaxshilikni unutgan odamni dadam ham, men ham yomon ko'ramiz.

BEKSULTON: — Yana g'idi-bidingni boshladingmi?

SHOUMAR: — Eng avval dadamning yaxshiligini sen unutyapsan.

BEKSULTON: — Bas qil!

SHOUMAR: — O'dag'aylama. Sening kimligingni televizordagilar ham ko'rib qo'yisin.

* * *

XABARXON: — Voy, ana boshlandi.

MO'MINAXON: — Nima boshlandi?

XABARXON: — Beksulton bilan Shoumarning dovlashishi boshlandi. Ko'rasan, bechora Xurshida ikkovining o'rtaSIDA rosa talash bo'ladi.

MO'MINAXON: — Olishuv qattiq bo'ladi, deysanmi?

XABARXON: — Ish pichoqqqa borib yetmasa bo'ldi.

MO'MINAXON: — Xurshidaxon aqli qiz, bunga yo'l qo'ymas.

XABARXON: — E, o'rtoq, muhabbatning ko'zi ko'r bo'ladi, ko'rasan, bu uchchovi ko'r, bir-birini yuzini rosa yulishadi.

BAHROM: — Hov, opajonlar, nega iyakni iyakka qo'yib gapga tushib ketdilaring? Abdusamat aka, gapirmaysizmi?

ABDUSAMAT: — Aslida gapni mendan boshlashing kerak edi.

BAHROM: — So'z Xurshida opamning hamma ishlari bo'yicha o'rinnbosari, yetti kasb egasi, yetti bola-ning otasi Abdusamat akamga deyishim bilan mana bu yerga chiqib, sal kulimsirabroq gap boshlaysiz. «Yoshlik» qovog'i soliq odamlarni yoqtirmaydi. Vaqtingiz bir daqiqa.

ABDUSAMAT: — Bir daqiqaga fermaning faoliyati sig'maydi.

BAHROM: — Bir daqiqada nechta so'z ayta olasiz?

ABDUSAMAT: — E, kim o'lchab ko'ribdi deysan?

BAHROM: — Xurshida opamning asosiy fazilati nimada?

ABDUSAMAT: — Ishchanlik.

BAHROM: — Yana.

ABDUSAMAT: — Tashkilotchilik.

BAHROM: — Yana.

ABDUSAMAT: — Tashabbus boshlaganlarni rag'batlantirish.

BAHROM: — Yana.

ABDUSAMAT: — Yangilikka to'xtamay intilish.

BAHROM: — Yana.

ABDUSAMAT: — Hamma gapni rost gapirsin deydi.

BAHROM: — Yana.

ABDUSAMAT: — Aytdim-ku, yolg'onchini yomon ko'radi, deb.

BAHROM: — Abdusamat aka, qoyil, eng mazmunli intervyuni sizdan oldim. Keyinchalik sizni «Yoshlik»-ka muxbir qilib olishsa bo'larkan (*Bahromning cho'ntagidagi uyali telefon jiringlaydi, qo'liga oladi*). Opajonim meni yaxshi ko'radi. Keta turib telefonini

ham menga tashlab ketgan. Allo, ha-ha, menman. Hammasi joyida. Toshkent bilan gaplashdim. Tasvirga men o‘zim tushiradigan bo‘ldim. Ertalab aeroportga olib chiqib beraman... Nima, nima, bo‘limgan gap! Abdusamat aka, mana sizni so‘rayapti opam.

ABDUSAMAT: — Muborak bo‘lsin! Yo‘g‘-e, biz juda yaxshi tayyorgarlik ko‘ryapmiz... E, chakki bo‘pti-da. Ha mayli, hukumatchilik (*Uyali telefon jum bo‘ladi. Abdusamat odamlarga qarab gapiradi*). Reja o‘zgaribdi. Butun viloyat fermerlari yig‘ilib, mitingni Oltiariqda o‘tkazisharkan. Hokimning o‘zlari shaxsan ishtirok etarkanlar.

SHOKALON (*o‘rnidan turib*): — Nima deding, Oltiariqda deysanmi? Qahramonni biz tarbiyalar ekanmiz-u, mitingni oltiariqliklar o‘tkazarkanmi? Yo‘q, bunaqasi ketmaydi.

ADBUSHAMAT: — Kelin qilib tushirib olib ketayotganlari yo‘q-ku, kechqurun qaytadi-da.

BAHROM: — Oltiariqliklarning odati shunaqa. Qayerdan nomdor tadbirkor otilib chiqsa, darrov sotib olishadi.

SHOKALON: — Mitingda viloyat hokimi shaxsan bo‘larmikin?

ABDUSAMAT: — Ha, o‘zlari boshqararkanlar.

SHOKALON: — Qani, menga bir ber-chi. Gaplashaychi (*Ishdan allaqachon bo‘sagan raisning to‘ppa-to‘g‘ri hokim bilan gaplashishi odamlarni hayron qoldirdi*). E, Sattor Shokirovich, assalomu alaykum, bormisiz, omonmisiz, men Shokalon raisman... Ha, ha, ana shunaqa, ovozimizni tanimay qolassiz-da. Xudoga shukr, hammasi joyida, kelinoyingiz ham, bolalarimiz ham, hamma-hammamiz duoijoningizni qilib yuribmiz. Tumanga kelganda meni so‘roqlabsiz. Boshim osmonga yetdi (*Yanayam baland ovoz bilan*). Xurshidaxonmi, ha, ha, qo‘limdan kelgancha ehtiyotlayapman. Yo‘l-

yo'riq beryapman. U yoqda siz, bu yoqda biz, tepada Alloh degandek, xabardor bo'lib turamiz-da. Menga mashina jo'natay deyapsizmi, yo'q-yo'q, borgunimcha kech bo'ladi (*Odamlarning hayrati oshadi, sobiq raisga e'tiborlari kuchayadi*).

BAHROM: — Mana shunaqa, qishloq tasvirchilariga oson emas, esizgina, yaxshigina mavzu qo'dan ketdi-ya, kamida yigirma daqiqa berishardi-ya, bizga qolgani nuqlu kelin-kuyovning nikohi-yu qudalarning charlari...

* * *

Molxonaga kiraverishdagi buzoqxona, uni ma'naviyat xonasi deb ham atashadi, stol atrofida o'n-o'n besh chog'li erkag-u ayol. To'rda Xurshida, onasi, ikki singlisi bilan o'tiribdi. Xursandchilik, tanlov qanday o'tganligi haqida suhbatlashishmoqda.

SHOKALON: — Yig'in Oltiariq markazida bo'ldimi?

XURSHIDA: — Yo'q, Yangiarab qishlog'ida o'tdi.

SHOKALON: — Fermasi chinakamiga zo'r ekanmi?

XURSHIDA: — Maqtasa arzigulik.

SHOKALON: — Sattor Shokirovich meniyam taklif qildi, ko'p qistadi, mashina jo'nataymi ham dedi, xohlamadim. Xurshidaxon qizimga otalik qilib turing dedi, o'rgating, talab qiling, dedi. Mana bular hammasi eshittdi. Ajoyib inson-da.

XURSHIDA (*bu gaplarga chippa-chin ishonib*): — Ha, u kishi uzoqni ko'zlab ishlaydi-da.

SHOKALON: — Endi tarqalaylik, Xurshida qizim ham charchagan, damini olsin. Ha, aytganday, ertaga miting qilamizmi?

XURSHIDA: — Miting bo'lmasayam yig'ilsak, yan-giliklarni so'zlab bersam, Abdusamat aka bir novvos so'ysinlar. Semizrog'i bormi, axir?

ABDUSAMAT: — 300 kilogacha yuki bor.

XURSHIDA: — Yaxshi, qancha tuxumingiz bor?

ABDUSAMAT: — 3 kunligini topshirganim yo‘q.

XURSHIDA: — Ertaga osh oldidan har biriga 3 kilodan go‘sht, 30 tadan tuxum tashkil qiling. Ismoil aka, sovrinning eng kattasi sizga degan edim, mana bu «Tiko»ning kaliti, eson-omon yotib tursak, ertaga osh oldidan topshiraman.

ISMOIL: — Xurshida qizim, beradigan bo‘lsang, kalitni hoziroq beraqol. Bolalarimni bir suyuntiray.

Xurshida Ismoilga kalitni topshiradi.

ISMOIL: — Bu qadoq qo‘llarim buqaning arqoni-yu novvosning shoxidan boshqasini ushlagandি (*to‘sat-dan yig‘lab yuboradi*).

XURSHIDA: — Yig‘lamang, amaki, xudo xohlasa, mashinani ertaga qozon boshida topshiraman.

ISMOIL: — Qizim, singlim, axir men...

XURSHIDA: — Bo‘ldi, bo‘ldi, yig‘lamang, qiziq, Prezidentimiz qo‘lidan kalitni ola turib, men ham yig‘lagandim (*kuladi*). Endi kalitni ola turib, siz ham yig‘layapsiz. Nima balo, bu kalitning sehri bormi, deyman.

Akmalxon qori tilovat qiladi. Hamma tarqaldi.

* * *

XURSHIDA: — Qani opajon, tez-tez ayting, nima gaplar bor?

XABARXON: — Qishloqdamni yoki fermadami?

XURSHIDA: — Ikkovidayam.

XABARXON: — Qishloqda xunukroq gap bor. Yaxshisi aytmay qo‘ya qolay.

XURSHIDA: — Yo‘q, aytasiz.

XABARXON: — Meni urishmaysizmi?

XURSHIDA: — Yo‘q.

XABARXON: — Ilgari rahbarlar bitta-yarimta qizni yaxshi ko'rib qolsa, yasantirib, tez-tez majlislarga olib ketardi, viloyat hokimi ham Xurshidaxonni sevib qolganga o'xshaydi. Nuqlu majlisga chaqiryapti, degan gaplar qanot bog'lab uchib yuribdi.

XURSHIDA (*g'azabdan qizarib*): — Sizningcha, bu gap kimdan chiqishi mumkin?

XABARXON: — Voy, bu gap, albatta, Mahfirat du-gonangizzdan chiqadi-da.

XURSHIDA: — Xudo olsin o'sha ichiqorani.

XABARXON: — Yana aytaymi?

XURSHIDA: — Tez-tez aytинг.

XABARXON: — Singlingiz Bahrom bilan sevishib qolgani aniq. Molxonada uch marta uchrashishdi.

XURSHIDA: — Bori shumi?

XABARXON: — Yo'q, bunisini aytmayman, xunuk, judayam xunuk.

XURSHIDA: — Aytmaganingizga qo'ymayman ham.

XABARXON: — Siz ishdan bo'shatgan kampirlar gap tarqatishyapti.

XURSHIDA: — Nima deb gap tarqatishyapti?

XABARXON: — Siz chet elda bo'lganiningizda bo'yin-gizda bo'lib qolib, bola oldirgan emishsiz.

Xurshida tutoqib o'midan turib ketadi, anchagacha o'zini bosolmay qaltirab turadi.

XURSHIDA: — Qaysi biri aytdi ekan bu tuhmatni?

XABARXON: — Bilolmadim.

XURSHIDA: — U maydagap kampirlarni ishdan bo'shatgan bo'lsam, birining qizini, birining kelinini fermaga olganman-ku.

Xurshida Xabarxonni Toshkentdan olib kelgan sovg'alari bilan siylaydi. Ana shunaqa holatlardan xabar-dor bo'lib turishini tayinlaydi.

IKKINCHI QISM

Shokalonning shohona qurilgan hovlisi. Ayvonda Shokalon bilan xotini Shahriniso atlas to'shaklarga, par yostiqlarga yastanishib suhbatlashyapti. Nariroqdag'i baland tushgan ravonda o'g'ilari Shoumar uch-to'rt tengquri bilan karta o'ynayapti. Xizmatkor ayol er-xotin oldiga so'yilgan qovun olib kiradi.

AYOL: — Men endi ketaveraymi?

SHAHRINISO: — Yigitlarga ham qovun berdingmi?

AYOL: — Berdim.

SHAHRINISO: — Ertaga barvaqtroq kelib ko'cha tomonning oynasini bir artgin. Hoy dadasi, gapingizni tezroq aytal qoling, hozir kinoim boshlanib qoladi.

SHOKALON: — Qarorim qat'iy. Xurshidani kelin qilamiz.

SHAHRINISO: — Uch yildan buyon yo'q, dedim, yana yo'q deyaveraman, necha marta sovchilikka borib, sharmanda bo'lib kelganim yetar.

SHOKALON: — Bas qil qaysarlikni.

SHAHRINISO: — Ochig'ini aytaymi, avvalo chet eldan qanaqa bo'lib kelganini xudo biladi. Qolaversa, ahvolimni ko'rib turibsiz. O'tirsam turolmayman, tursam o'tirolmayman. Menga yugurib-yelib xizmat qiladigan chaqqongina kelin kerak. Hoy erkak, tus-hunsangiz-chi, sochini kalta kestirib, labini bo'yab yuradiganlardan yaxshi kelin chiqmaydi.

SHOKALON (*o'shqirib, stolni mushtlab*): — Avval gapga qulq solgin deyapman.

SHAHRINISO: — Fermer bo'lib boyib ketgan bo'lsa o'ziga (*Eriga o'xshatib u ham dasturxonga mushtlaydi*). Onasiniyam yoqtirmayman. Kerilmay o'sin, kechagina oyog'imni o'pishga zor bo'lib yurardi. O'lmay o'lgur eri bo'lsa, umrbod poyma-poy kalish kiyib, urg'ochi eshak minib o'tgan bu dunyodan... Endi hech kimni

mensimay qoptilar bu xonim. To'y-u ma'rakalarda to'ppa-to'g'ri to'rga chiqib, mana bunday qilib o'tirib oladi-ya. Ko'rmaganning ko'rgani qursin, deganlari rost ekan. Ja men ham qataloq yerdan qatalab chiqqan emasman. O'ttiz yil bog'chaga mudira bo'lganman. Manaman degan po'rim juvonlar soyamga salom berardi.

SHOKALON (*g'ijinib*): — Seni bu nonko'r Inoyat behurmat qila boshlabdi-da.

SHAHRINISO: — Ko'pchilikning orasida yer yorilmadi-yu, yerga kirmadim.

SHOKALON: — Gaping tugadimi?

SHAHRINISO: — Yaramni tirnab qo'ydingiz.

SHOKALON: — Shoshmay turgin, men o'sha nonko'r Inoyatni yana soyangga salom beradigan qilib qo'yaman. Sen aqli ayolsan, gapning mag'zini yaxshi chaqasan.

SHAHRINISO (*yuzi nurlanib*): — Xayriyat, hech bo'lmasa shunisini tan olarkansiz.

SHOKALON: — Tan olmay-chi, sening maslahating bilan shunchalik bo'lib yuribman-da.

SHAHRINISO: — Hayriyat-ey.

SHOKALON: — Senga hozir muhim bir gapni oshkor qilaman. Men aytaman, sen sanab turasan.

SHAHRINISO: — Qani, qanaqa gaplar ekan?

SHOKALON: — Inoyatning qizi fermer bo'layotganda men shartnomaga dashtdagi unumsiz yerdan yuz gektar qo'shib, keyinchalik birga ishlaymiz, deganman.

SHAHRINISO (*norozi ohangda*): — Nega o'sha dashtingizni bir yo'la o'g'illaringizga bera qolmagansiz?

SHOKALON: — Dushmanlarim o'g'liga shuncha yer berdi, deb g'alayon ko'tarib, uch gektar o'rikzorini ham oldirib qo'yishlari mumkin edi. Zamon nozik edi, jonim.

SHAHRINISO: — Xo'p, buni bir deylik.

SHOKALON: — Endi ikkinchisiga qulog sol. Go'zalim, agar biz Xurshidani kelin qilmasak, unga, albatta, Bek-

sulton uylanadi. Bir-birlariga ko'zini suzib qaraganini necha marta kuzatganman. Agar ikkovlari birlashsa, o'g'lingning fermasi xarob bo'ladi. Agar Xurshidani biz kelin qilsak, unda o'g'lingning fermasi kuchayib, Beksultonni xarob bo'ladi. Tadbirkorlikning bir qonuni — olishuv, olishuv va olishuv. Sen raqibingni yengmasang, raqibing seni, albatta, yengadi.

SHAHRINISO: — Xo'p, buni ikkinchisi deylik, lekin vahimaliroq ekan.

SHOKALON: — Uchinchisi shuki, nazarimda, Xurshidani bir-ikki yilga qolmay tuman hokimligiga ko'tarib yuborishsa kerak.

SHAHRINISO: — Yo'g'-e?

SHOKALON: — Kimsan, hokimning qaynabuvisi bo'lib yoursang, buning nimasi yomon?

SHAHRINISO (*yoqa ushlaydi*): — Yo'g'-e!

SHOKALON: — Viloyat hokimining fikri shunaqa.

SHAHRINISO: — Siz viloyat hokimini umringizda ko'rmagansiz-ku.

SHOKALON: — Men ko'rмаган bo'lsam ham ular meni taniydi...

SHAHRINISO: — Tezroq to'rtinchisini aytинг. Kino-im boshlanib qoladi, deyapman.

SHOKALON: — To'rtinchisi shuki, Beksulton bilan Xurshida birlashib, dashtga anhordan ko'tarma suv olishsa, tepadan surilib kelgan zax o'g'lingning o'rikzorini butunlay quritadi-qo'yadi.

SHAHRINISO: — Voy sho'rim, bunday qilishlariga yo'l bermang.

SHOKALON: — Endi beshinchisini aytaman. O'g'ling sal anqovroq, buning ustiga dumbul ham.

SHAHRINISO (*Sakrab o'midan turib ketmoqchi bo'la-di, g'azabi oshadi, turolmaydi*): — Bolamni kamsitishni bas qiling, topib olgan gaplari shu. E, o'zingizdan ko'ring, o'sha paytlarda nuqul ichib kelardingiz, mast bo'lib kelib quturgan sherdek yopishardingiz.

SHOKALON (*o'zini oqlamoqchi bo'lib*): — O'zing ham beshinchisini tug'mayman, deb oylab qaynoq suvda o'tirgansan... ha, bo'pti, kechir meni. Gap shundaki, sen bilan meni bu dunyoga bog'lab bermagan. Bir kun ketish ham bor. Bizdan keyin o'g'ling aka-ukalarga qaram bo'lib qolmasligi uchun unga Xurshidaga o'xshagan hushyorroq xotin kerak, tushunyapsanmi?

SHAHRINISO: — Yana sovchilikka bor, deysizmi?

SHOKALON: — Ertagayoq.

SHAHRINISO: — Yana yo'q, desa-chi?

SHOKALON: — Yana, yana, yana boraverasan. Agar Xurshidani kelin qilib, dashtdag'i yerini qo'shib olsak, dashtning eng baland joyiga senga shiypon qudirib beraman.

SHAHRINISO: — Odamni ko'ndirishga biram ustasizki, keling qo'lidan torting.

SHOKALON: — Bay, bay, biram og'irsanki.

SHAHRINISO: — Mudirligimda ko'p yeb qo'ygan-man-da, dadajonisi.

SHOKALON: — Ko'p yegan semirsa, men hozir bir tonna bo'lardim.

SHAHRINISO: — Dadajonisi, yegan bilan yega-ningiz yuqsin ekan (*kuladi*).

* * *

Inoyat ayaning hovlisi. Aya uch qizini yoniga olib ovqatlanyapti.

INOYAT: — Umida, tur. Idish-tovoqlarni yig'ishtir. Zarifa, sen dasturxonni gilosning tagiga qoqqin. Savobi dadamga tegsin, degin. Keyin Umida ikkovlaring borib ammangni aytib kelasizlar, maslahatli gap bor ekan, deysizlar.

ZARIFA: — Tezroq yuring, ayajonimning yuragi tars yorilay deyapti, deymizmi?

INOYAT: — Mayli, shunday desang ham bo'ladi. Xurshida, tur narigi uyg'a chiqaylik, sen bilan gapplashib olmoqchiman.

XURSHIDA (*kulib*): — Ishlab chiqarish majlisi qilamizmi?

INOYAT (*jiddiy*): — Ha, majlis qilamiz.

XURSHIDA: — Nima, sut sog'ish rejasini bajarish-mayaptimi?

INOYAT: — Jon qizim, hazilga olma.

XURSHIDA (*yana kulib*): — Ayajon, novvoslaringiz ham semirmay qolayaptimi? Ayajonim, agar yana erga tegishim masalasida bo'lsa, gap ochmang.

INOYAT: — Hoy, ona qizim. Menga qara, yana bir yil-yarim yil o'tsa, seni yo xotini o'lgan yo xotin qo'ygan so'rab keladi.

XURSHIDA: — Ma'qul ko'rsam, unisigayam, bu-nisigayam tegaveraman.

INOYAT: — Bilaman, senga gap topolmayman (*yig'lamsirab*). Menga qara, rahmatli dadang ellikda qazo qiluvdi. Men ham o'sha yoshdaman. Jon bor joyda qazo bor, hech kimga falon yoshga borasan, deb oldindan aytib qo'yilmagan. «Tap» etib o'lib qolsam, bu yoqda sen, bu yoqda singillaring, qiynalib qolasanlar (*yig'lab yuboradi*).

XURSHIDA (*sakrab turib onasining bo'yniga osiladi, o'zi ham to'lib turgan ekan, qo'shilib yig'laydi*): — Onajonim, mehribonim (sochlaridan silaydi, ko'zlaridan o'padi), yig'lamang, bas qiling.

INOYAT (*battar yig'lab*): — Dadang sho'rlik tirik bo'lgandayam mayli edi-ya.

XURSHIDA (*yig'i aralash*): — Ayajonim, hammasini tushunaman. Nima, mening qalbim toshdanmi, meni boshqalarga o'xshash orzu-havaslarim yo'qmi? Tengqurlarim bolasini erkabal bag'riga bosib turganini ko'rsam, havasim kelganidan ko'kragimdan

sut chiqib ketadi. Yosh kelin-kuyovlar ko'chadan yetaklashib o'tishsa, qaltirab oyoq-qo'limdan darmon ketib qoladi. Kelinchakning yasatilgan uyiga kirsam, rashkim kelganidan qochib chiqib ketaman. Mening hissiyotlarim hammasinikidan toza, hammasinikidan yuksak (*yig'lab o'zini to'shakka tashlaydi, to'shakni mushtblab-mushtblab yig'laydi*).

INOYAT (*yig'idan to'xtab, qizini yupatishga tushadi*): — Onaginam, shiringinam, yarangni chakki tirdim, o'zi shunaqa bo'larkan. Omad bilan baxt qo'shaloq kelmas ekan. Xudoga shukr, omading kelib turibdi. Illoyo baxting ham charaqlab ochilsin.

XURSHIDA (*hali yig'idan to'xtagani yo'q*): — Ayajonim, o'zimning ham o'ylaganim nuqul shu. Kechalari uyqum qochib ketadi. Singlimni uzatib, o'zim dunyodan toq o'tsam-chi, deb o'ylab ketaman. Lekin shunday deb o'ylashim bilan ichimdan boshqa bir ovoz keladi. Yo'q, sen ham barno bir yigitni tanlashing, ko'ksiga erkalanib boshingni qo'yishing, ertalab turishiga quymoqmi, shirguruchmi pishirib, birgashib nonushta qilishing kerak, degan sirli ovoz keladi. Ayajon, men negadir homilador ayollarning ko'chadan bosaymi-bosmaymi deya salanglab o'tishini yaxshi ko'raman. Keyin-chi, ishonsangiz, sigirlarim yangi tug'adi-ku, buzoqchasi ko'zini ochar-ochmas onasining yelinini turtib-turtib emadi-ku, ana shu manzarani tomosha qilishni yaxshi ko'raman. Voy, biram maza, biram rohat, ham onasi huzurda, ham bolasi. Keyin... Ayajon, yana o'ylanib ketaman. Bitta tengimni men ham toparman. Xo'sh, unda ferma nima bo'ladi, singillarim yosh, siz yarim jon bo'lib qolgansiz... Nega mening o'rninga o'g'il tug'magansiz, nega? (*Yana ikkovlari yig'lashga tushadi, yana bir-birlarini silab-siypalab yupatmoqchi bo'lishadi*) Yana kimlardan sovchi kelyapti?

INOYAT: — Shokalon raisnikidan kelishganini aytuvdim. Bugun yana kelishdi.

XURSHIDA: — Nima dedingiz?

INOYAT: — Yana o'sha javob, avval yigit qizim bilan gaplashsin, dedim.

XURSHIDA: — Yana kimdan keldi?

INOYAT: — Bugungisi Yaypandan. Yigitning otasi qushxonaning direktori ekan (*kuladi*). Qizingizni kelin qilsak, buqalaringizni bizning qushxonamizda so'yib, bemalol sotaverasizlar, dedi.

Ona-bola ikkovlari kulishadi.

XURSHIDA: — Rosa kim oshdi savdosi avjiga chiqarkan-da, ayajon.

INOYAT: — Shunaqaga o'xshaydi, qizim.

XURSHIDA: — Ayajon, o'zingizning ko'nglingiz qaysi biriga chopayapti?

INOYAT: — E, qizim, ko'nglimga qulqoq solsam, seni asli men Akmaljon Qorining o'g'li Sharifjonga bergim bor. Azonni juda yoqimli ovoz bilan aytadi-da (*ona-bola kulishadi*). Endi qizim, zamon senga boqmasa, sen zamonga boq, deydilar. Shuncha katta ishni boshlab qo'yidik. Endi katta, boobro' qudalar ham kerak. Shokalon raisning o'g'li Shoumar yaxshigina yigit, bir pochchasi hokim muovini, bir pochchasi bankda bosh hisobchi, opasi mактаб direktori, jon qizim, so'nggi paytlarda ko'proq yakkalanib qolyapmiz, kimlargadir suyanmasak bo'lmaydiganga o'xshab qolyapti. Shoumar yoqimtoygina, dilbargina.

XURSHIDA: — Dilbargina bo'lmay o'lsin, mijg'ovligini aytmaysizmi! Jinim suymaydi uni. Onasini emmoqchi bo'lgan buzoqchaday orqamdan ergashgani ergashgan.

INOYAT: — Unaqa dema, kichkina odamlarning farzandi emas-a, agar yo'q desak, bu qishloqda yashashni ham bir o'ylab ko'rgin.

XURSHIDA: — Mayda gap, xotinchalish u, faqat qoshiga o'sma qo'ymaydi, xolos.

INOYAT: — Qizginam!

XURSHIDA: — Bas qiling, bas (*Onasining ko'ksiga boshini qo'yib uzoq yig'laydi*). Nega meni o'g'il qilib tug'madingiz, nega?

INOYAT: — Bo'lmasa, ko'nglingdagini ayt, ammang kelguncha kelishib olaylik.

XURSHIDA: — Ko'ngil qo'yganim bor, albatta. Mana bu yerimga ornashib olgan u. Tushimda ham o'sha, o'ngimda ham o'sha, kitob o'qisam, kino ko'rsam ham o'sha (*o'rnidan turib yer tepinadi*). Maktabni bitirayot-ganimda pul bergen ham o'sha, dadajonim o'tganda bel bog'lab, xuddi o'g'lidek yig'lab turgan ham o'sha, molxonani suv bosganda tepasini yopishga qarashgan ham o'sha, deputatlikka nomzodim qo'yilganida men uchun yonib-kuyib olishgan ham o'sha, o'sha, o'sha. Mana bu yerimda o't yoqqan u, har ko'rganimda bu o't yonib, butun borlig'imni, butun vujudimni lovillatib kuydiradi.

INOYAT: — Xudoga shukr, uni sevarkansan.

XURSHIDA: — Ayajon, u ham meni sevadi.

INOYAT: — Nega sovchi qo'ymaydi, bo'lmasa?

XURSHIDA: — Ikki-uch bor tortinibroq yonimga kelgan. Men ahmoq uning ko'ksidan itarganman. Ayajon, hatto bir marta tarsaki ham urganman.

INOYAT (*hushyor tortib*): — Sho'xlik qilmoqchimidi?

XURSHIDA: — O'pmoqchi edi, shekilli.

INOYAT: — Xudoga shukr, qalbingda katta muhabbat bor ekan. Muhabbat pokiza qalblargagina mehmon bo'ladi. Bunaqa baxt hammaga ham nasib bo'lavermaydi. Yig'lama, kel, bag'rimga bosay... Hamma seni shafqatsiz, diydasi qattiq deb yurardi. Bunaqa yig'laydigan odatlaring ham bor ekan. Lekin qizginam, begonalar oldida hech yig'lamagin.

XURSHIDA: — Ayajon, yuragim to'lib ketgan edi-da.

* * *

Fermaning ma’naviyat xonasi. Xurshida hisob-kitob qilib, o’zicha mammun o’tiribdi. Shoshilib yordamchisi Abdusamat kirib keldi.

XURSHIDA (*kulib*): — Ha, namuncha, it quvgan soqovdek?

ABDUSAMAT: — Xazina topgan xasisdek desangiz-chi? Omongovning qo’ylarini ko’rib kelyapman. Erkag-u qo’chqorlarini qassoblar talab ketibdi. Urg’ochilar bilan qo’zilari qopti.

XURSHIDA: — Olsak bo’ladiganmi?

ABDUSAMAT: — Olish kerak.

XURSHIDA: — Necha bosh ekan?

ABDUSAMAT: — 60 bosh.

XURSHIDA: — Qo’ylarda yuk bormi yoki to’rt oyog‘-u bir kalladan iboratmi?

ABDUSAMAT: — Olsak yukini emas, boshini gaplashamiz.

XURSHIDA: — Savdolashdingizmi, axir?

ABDUSAMAT: — Yelkam uzilib ketay dedi-ku, Xurshidaxon.

XURSHIDA: — Qanchadanga kelishdilaring?

ABDUSAMAT: — Yigirmadanga.

XURSHIDA: — Yo‘q, mingdan qo’shing. O’tgan hafta bozorni ko’rdim. Hisorilar o’ttizdan kamga ketayotgani yo‘q.

ABDUSAMAT: — Hisobchiga aytaymi?

XURSHIDA: — Chekni ola kela qolsin.

Abdusamat chiqishi bilan xonaga tortinibroq Inoyat kirib keladi.

INOYAT: — Xurshida, men Abduxoliq haqida...

XURSHIDA: — Yo‘q, bu odam haqida gap ocha ko’rmang.

INOYAT: — Shaharda, Chorsu bozorida arava itarib, tashkachilik qilib yurganmish.

XURSHIDA: — Bir ta'zirini yesin. Uch marta o'g'irlilik bilan qo'lga tushdi.

INOYAT: — Jon qizim, beshta bolasi bor-a.

XURSHIDA: — O'nta bo'lgandayam uni qayta ishga tiklamayman. Agar tiklasam, boshqalari ham biri beda, biri yem, biri chelaklab sut o'g'irlashga tushadi.

INOYAT: — Qizim, axir fermaning yarmi meniki-ku.

XURSHIDA: — Nega yarmi bo'larkan, ayajon? Hammasi sizniki. Lekin boshqaruv meniki. Men hammaga bir xilda rahmdil bo'lolmayman (*Qo'lidagi uyali telefon jiringlab qoladi*). Ha, ha, menman. Bo'limgan gap, men u muttaham bilan hoziroq gaplashaman. Ketma, yarim soatdan keyin yana telefon qil menga (*Jahl bilan qo'lidagi telefonga raqamlarni tera boshlaydi*). Vahob Ro'ziyevich, bu qanaqa maynavozchilik yana? Ha, men shunaqa salomlashishniyam unutib yuborganman. Meni kelin qilmasangiz, qilmay qo'yaqoling, hali-beri erga tegish niyatim ham yo'q. Gapni chalg'itmang. Nega mening eskpeditorimni qaytardingiz, nega? Kunjara bilan shulxani to'ppato'g'ri sexdan sovimasdan, qaynog'icha berasiz deb kelishgan edik-ku. Gapni qarang, oldin omborga chiqararmishlar, omborchi bazaga jo'natarmish, bazaragi tovlamachilar shofyorlar bilan kelisharmish.... Vahob Ro'ziyevich, joyida o'n olti so'm turadigan kunjara bizga qirq ikki so'mdan kelib tushayapti. Yo'l-yo'lakay bo'ladicidan qaroqchilikdan sizning xabarингиз bor, ko'pini o'zingiz uyuşdırıyotgan bo'lishingiz ham mumkin (*Inoyat qo'rqib ketganidan qiziga angrayib qoldi*). Gap shu, men limitdagi kunjaram bilan shulxamni to'ppa-to'g'ri sexdan olaman. Agar qarshilik ko'rsatsangiz, ustingizdan deputat sifatida viloyat prokuroriga shikoyat kiritaman.

INOYAT (*qizining qo'lini ushlaydi*): — Qizginam, bular bilan muomalani yumshoq qil, hammasi bir tovoqdan osh yeysi-ya.

XURSHIDA (*g'ururlanib*): — Ayajon, men ham kichkina odam emasman.

Inoyat gapini o'tkaza olmaganidan ma'yus tortib chiqib ketadi. Xurshida yana qog'oz varaqlashga tu-shadi. Telefon jiringlaydi.

OVOZ: — Xurshida opa, direktor huzuridan gapir-yapman. Kechirim so'rayaptilar. Mana, choy ham berdilar menga. Uch kun ichida limitdagi hamma narsani o'zim olib ketar ekanman.

* * *

Xonaga qo'lida bir dasta gul ko'tarib Shoumar kirib keladi.

SHOUMAR (*xursand*): — E, xayriyat-e, seniyam topadigan kun bor ekan-a, bir kun bog'da, bir kun tog'da bo'lasan (*gulni uzatadi*).

XURSHIDA: — Voy, buni nima qilaman?

SHOUMAR: — Ayam sevgan qizing zo'r mukofotlar oldi, quruq borma, gul olib borgin, dedi. Qalay, yaxshimi? Ataylab shaharga borib olib keldim... Ayam Xurshidaga ayt, u judayam go'zal qiz, deb tayinladi.

XURSHIDA: — Buni o'zim ham yaxshi bilaman, nima gaping bor, ayt, shoshib turibman.

SHOUMAR: — Maslahatli gapim bor, shunga keluvdim.

XURSHIDA: — Qanaqa maslahat?

SHOUMAR (*butunlay dovdirab*): — Mana men fermer, sen fermer, sen Gollandiyada o'qib, aqli bo'lib kelgansan. Meni dadam, qarindoshlarim qo'llab turibdi, bilasan, pochcham hokim muovini, bitta opam zags mudiri, yana bittasi direktor.

XURSHIDA (*beozor kulib*): — Pesning pochchasi, moxovning tog'asi ko'p bo'larkan.

SHOUMAR: (*pichingni tushunmay*) — To'g'ri aytasan, ikkita pochcham ham bor. Bittasi militsiyadan

ketgan bo'lsayam, vositachilik qilib rosa pul topadi-da... Endi mening o'rikzorlarim ham bor, bиргаликда fermangning bo'linmasini ochsak, devdim... Rosa xashak olsa bo'ladi-da.

XURSHIDA: — Mening xashagim yetarli.

SHOUMAR: — Yo'q, ferma ochaylik, deyapman.

XURSHIDA: — Fermam ham yetarli (*chiqib keta boshlaydi*).

SHOUMAR: — Molxonagami? Menam molxonangni bir ko'ray. Ja maqtashadi, dadam raislikdan ketgandan beri hech kirganim yo'q. Birga o'qigandik, birga katta bo'lgandik, bunday kelib fermamni tomosha qil ham demaysan, nuqlu delegatlarga ko'rsatasan.

Molxonaga ketaverishda birgalashib sog'in sigirlar, novvoslar, buzoqlar boqilayotgan xonalardan o'tishadi. Shoumar to'xtamay o'rinnli-o'rinsiz savollar beryapti.

MOLBOQAR: — Bu maxsus jadvallar.

SHOUMAR: — Juda chiroyli yozilgan ekan.

MOLBOQAR: — Bularda novvoslar kuniga qancha yem, qancha xashak, qancha suv ichishi kerakligi yozilgan.

SHOUMAR: — O'zingiz yozganmisiz?

MOLBOQAR: — Yemchimiz yozadi, Xurshida muhr bosadi.

SHOUMAR: — Bay, bay, bay, mana bu mollarning kattaligini-ya, emchagi naq pechkaning karnagiday keladi-ya, Gollandiyadan kelgan buzoqlar shunaqa bo'p ketibdi-da, 30 litrdan sut beradi, deganlaricha bor ekan. Novvoslari bir tonnadan go'sht berar, deyman?

MOLBOQAR: — Yaxshi boqsa beradi.

SHOUMAR: — Mana bu buqalarning onasi mabodo fildan qochgan emasmi?

MOLBOQAR (*kulib*): — Gollandiyada sigir bilan filni chatishtirib yangi zot olisharkan.

SHOUMAR (*zavqi oshib*): — Xurshida, yanagi gal borganingda so'ragin-chi, o'rik bilan mandarinni chatishtirib, yangi nav yaratса bo'larmikin?

Emchi Bahrom paydo bo'ladi. Xurshidadan nimadir so'ramoqchi, botinolmay bir nafas orqasidan ergashadi.

SHOUMAR: — E, Bahromiy, haliyam kampirlarning diydiyosini-yu qizlarning voy balosini tasvirga tushirib yuribsанmi, she'rlarniyam yozib turibsанmi?

BAHROM (*quvnoq*): — Kechasi-yu kunduzi yoza-man, aka.

SHOUMAR: — Qani, bittasini o'qi-chi.

BAHROM: — Xafa bo'lasiz-da, aka.

SHOUMAR: — Kim she'rga xafa bo'lsa, boshini olaman.

BAHROM: — O'qiganimdan keyin quvlab qolmay-sizmi?

SHOUMAR: — Quvlagan o'g'il bola emas.

BAHROM: — Shoumarning o'rigi xo'p pishgan emish,

O'rigan ko'p yeb qorni ham shishgan emish.

Shish balosidan qutulmoq oson emas,

Ortidan gum-gum zambarak otgan emish.

To'planganlar kulishadi, Shoumar noqulay ahvolda qoladi. Xurshida xonasiga kirib keta boshlaydi, Shoumar ergashadi.

SHOUMAR: — Xurshida, qiynalib ketyapman, nima uchun kelganimni bilib turibsан, bilib turib meni molxonaga boshlaysan, nima men hay-vonmanmi, yetti marta muhabbat izhor qildim, javob yo'q. Bilib qo'y,

seni baribir birovga bermayman. Buning ustiga dadam bilan ayam ham faqat seni kelin qilamiz, deyishyapti. Seni bizdan keyin yetaklab yuradigan hushyorroq qiz kerak, deyishyapti... Mayli, o'ladigan dunyoda, xohlasang, Gollandiyaga ham ko'chib ketaveramiz.

XURSHIDA: — Gollandiyaga?!

SHOUMAR: — Ha, Gollandiyaga. Rozi bo'lmasang, bormaymiz. Dadam dashtdagi yerlaring qo'ldan chiqib ketishidan juda qo'rqtyapti-da.

XURSHIDA (*hushyor tortib*): — Nega qo'ldan chiqarkan?

SHOUMAR: — Boshqaga tegsang qo'limizdan chiqib ketadi-da.

XURSHIDA (*Shouumarning dumbulligidan kulib*): — Shouumarjon, sen esli, hushli, ham juda kelishgan yigitsan. Sinfimizdagi barcha qizlar seni yaxshi ko'rishardi. Har qanday qiz senga turmushga chiqishni o'ziga baxt deb biladi. Lekin sinfdoshim, men seni hech qachon umidvor qilgan emasman.

SHOUMAR: — Ochig'ini ayt, men yomonmanmi?

XURSHIDA: — Yo'q, seni hech kim yomon deyotgani yo'q.

SHOUMAR: — Nega bo'lmasa tegmaysan?

XURSHIDA (*bunga gap uqdira olmasligini tushunib, oxiri oshkor aytishga qaror qiladi*): — Meni sevgan yigitim bor.

SHOUMAR (*o'rnidan turib*): — Nima?!

XURSHIDA: — Ha, yigitim bor.

SHOUMAR: — Tag'in anavi Bekulton shal pangulqoq bo'lmasin?

XURSHIDA: — Ehtimol o'shadir.

SHOUMAR: — Bilib qo'y, o'shang a tegadigan bo'l-sang, ikkovingni ham chavaqlab tashlayman.

Ikkovlarining qattiq-qattiq ovozlarini eshitib Inoyat hovliqib kiradi.

INOYAT: — Voy, nima janjal, hamma qarab turib-di-ya, uyat-e!

SHOUMAR (*hayajonda*): — Mana bu qizingizni qa-rang, yetti yil oldin senga tegaman, degandi. Endi yo'q deyapti. Buyoqda men uchta boladan qolib o'tiribman.

XURSHIDA (*baqirib*): — E, yo'qol-e, senga qachon va'da beribman?

SHOUMAR: — Oltinchi sinfdaligingda o'chirg'ich berib o'pgandim-ku, esingdan chiqdimi?

INOYAT: — Voy, tavba, voy tavbangdan ketay.

SHOUMAR: — Xolajon, men bo'lajak kuyovingiz-man, menga bunday xo'mrayib qaramang, baribir qizingizni olaman. Yaxshisi, uni ko'ndiring. Ko'n-dirsangiz, to'ydan keyin sizni hajga olib boraman.

XURSHIDA (*guldastani betiga otib*): — Yo'qol, yo'qol deyapman.

INOYAT (*o'ychan*): — Qizginam, bu balolardan qu-tulish oson bo'lmasov, Shokalon rais oldingi raisni o'ldirib, vazifasini tortib olgan edi.

Ona-bola bir-birlariga qo'rquv, vahima bilan boq-qancha tek turib qolishdi.

* * *

Molxonaning umumiy ko'rinishi. Sigirlar sog'ib ol-ingan, xashak solingan. Sigir-buzoqlar hafsala bilan yem-xashak yeyishga kirishgan. Sog'uvchilar ketib bo'lishgan. Hech kim ko'rinxaydi. Bahrom aylanib yuribdi. Yemlar toza yeyilganmi, yo'qmi, oxurlarni qo'li bilan silab ko'radi. Ko'z qiri bilan Umidani axtaradi. O'zicha she'r o'qib boryapti.

BAHROM: — Keb qoling-u, keb qoling,

Navbat keldi, yem oling.

Semirtirib mollarni

Ham sut-u, ham go'sht oling.

Buzoqlarini silab-siypalab yurgan Umidani ko'rib qoladi.

BAHROM: — Iya, sen hali ketmadingmi? (*Ishq olovi yonib turgan ko'zlar uchrashadi*) Xurshida opam bugun ko'rinnadi?

UMIDA: — Shaharga ketganlar.

BAHROM: — E, ha, elektr tegirmon masalasida... Lekin zo'r bo'lardi-da.

UMIDA: — O'zingiz ham kecha yo'q edingiz?

BAHROM: — Poytاختga borgandim. Bilasanku, meni «Yoshlik» studiyasi tez-tez chaqirib turadi. Kechagi tayyorlagan tasvirim juda zo'r edi. Bir haftada oltita sigirning tug'ishi... Yana tag'in tasvirga olgan manzaramni aytmaysanmi, keng yaylov bora-bora qorli tog'lar bilan qo'shilib ketadi. Tog'lardagi qor emas, bamisoli sut buloqlari... Tasvirni jon-jon deb qabul qilishdi (*g'ururlanib*). Meni yaxshi ko'rishadi. Ishga olib ketib qolishlari ham mumkin.

UMIDA: — Voy, nega olib ketisharkan?

BAHROM: — Tasvirchi qilib olishmoqchi. Olishsa, xudo xohlasa, seniyam olib ketaman.

UMIDA: — Voy, men nima qilaman u yoqda?

BAHROM (*biroz o'ylanib*): — O'sha yerda ferma ochsak ham bo'ladi.

UMIDA (*xursand*): — Televide niyedami?

BAHROM: — Ha, ha, o'sha yerda. Buning nimasi yomon? Hozir hamma joyda tadbirkorlik rivojlanmoqda. Yaqinda institutga boruvdim, u yerda ham ferma ochishibdi.

UMIDA: — Nahotki?

BAHROM: — Bitta professor buqaga xashak solyapti. Boshqa professor kampir povillatib sut sog'yapti, dotsent xotin buzog'ini ushlab turibdi. Ha, biz ham ochamiz.

UMIDA: — Televidenining hovlisi tor der edingiz-ku.

BAHROM: — To‘g‘ri, tor, lekin shundoqqina qarshisida bir gektarcha bo‘shet yer bor. Ana o‘scha yerga molxona ochsak bo‘ladi. Hey, menga qara, axborot o‘quvchilarga har kuni ertalab bir piyola-bir piyoladan qaynoq-qaynoq sut bersak, buning nimasi yomon? Yoki mana «Assalom O‘zbekiston»dagilar har kuni so‘fi azon aytmasdan kelishadi. Nahorga bir chinnidan shiravor qaymoq chiqarsak, ovozlari biram silliq, biram yoqimli bo‘lardiki (*Bahrom qo‘lini Umidaning yelkasiga tashlamoqchi bo‘ladi*).

UMIDA (seskanib): — Oling qo‘lingizni, hozir opamni chaqiraman.

BAHROM (*chinakam qo‘rqib*): — Sochingga poxol yopishgan ekan, o‘shani olib tashlamoqchi edim.

* * *

Nariroqda sog‘in sigirlar yonida Xabarxon bilan Mo‘minaxon panaga o‘tirib olib, ikki yoshni shavq-zavq bilan kuzatishyapti.

XABARXON: — To‘xtang, yana jinday o‘tiraylik, o‘pishishmoqchiga o‘xshaydi... Negadir mening yuragim hapriqib ketyapti-ya, o‘rtoq.

MO‘MINAXON: — Yoshligingiz esingizga tushgandir-da?

XABARXON: — E, tuzukroq o‘pishganimiz ham yo‘q. Pochchangiz o‘shandayam o‘larday qo‘pol edi. Xo‘rozdek tappa bosgan qo‘yan... Voy ana, o‘pmoqchi bo‘luvdi, Umida o‘lgur itarib tashladi-ya. E, esi yo‘q, men bo‘lganimda bu barno yigitning qaynoq ko‘ksiga boshimni qo‘yib, mumdek erib ketgan bo‘lardim.

MO‘MINAXON: — Qo‘ying bularni. Haligi gapingizni aytинг.

XABARXON (*dona-dona qilib gapiradi*): — Tavba, ulog‘ingiz qayoqda edi, aytdim-ku kecha Xurshida-

gasovchi boradigan bo'pti. Sovchilikka Beksloton ammasi Sabriniso xolani tanlabdi, o'nboshi amaki singlisini yoniga o'tqazib, gaplashganda ona-bolani qo'shib gaplashgin, ko'tara savdo qilib qo'ya qolaylik. U beva, men beva, debdi. Akmalxon domla bu xudoga xush kelmas ekan, ona-bolaga ota-bolaning uylanishi Payg'amarbarlar zamonida ham bo'l magan ekan, debdi.

MO'MINAXON: — Keyin nima bo'pti?

XABARXON: — Keyin chol o'lgur yana aytibdiki, agar Inoyat menga tegsa, yanagi yilga, albatta, hajga olib boraman, debdi.

MO'MINAXON: — Voy, shu yoshdayam erkak ayolni qo'msarmikin?

XABARXON (*kulib dugonasini turtib*): — O'rtoqjon, bu yoshda erkaklar yana ham kuchayib ketarmish.

MO'MINAXON: — Keyin nima bo'pti?

XABARXON: — Chol-u kampirning savdosi pishdimi-yo'qmi, bilmadim-ku, Xurshida Bekslutonga rozilik berganga o'xshaydi.

MO'MINAXON: — Rostdanmi, qayoqdan bildingiz?

XABARXON: — O'rtoqjon-ey, Xurshidani ko'ring, yuzlarida qizil gul ochilganday lov-lov yonyapti, ko'zlar nurga to'la, charaqlagan, butun borlig'i quvonchga aylangandek, jannat qushlaridek uchayapti, ovozini qara, kumush qo'ng'iroqdek jaranglayapti-ya.

MO'MINAXON: — Ha, iloyo baxtli bo'l shsin. Beksloton ham azamat yigit. Har yelkasida bittadan yigit o'tiradigan pahlavon. Xurshidaxon yigit tanlashni bilarkan.

XABARXON (*ma'noli qarab*): — Bo'l masam-chi, bozordan buzoq tanlashni bilgan qiz nega endi o'ziga er tanlashni bilmas ekan? (*Kulishadi*) Anavi ikkovini bir-biridan hurkib turishini qarang. Yigit bo'l may ket, hech bo'l masha, bir marta bag'ringga bosib qo'y, bechora qiz axir shuni kutayapti-ku, he, lalaymay o'lgur.

* * *

BAHROM: — Gollandiyaga bormay qo'ya qol. U yoq juda sovuq emish. Seni o'zim institutga kiritib qo'yaman.

UMIDA: — Menimi, siz-a?

BAHROM: — Ha, seni. U yoqda tanishlarim ko'p. Institutlar darvozasi tasvirchilar uchun hamisha ochiq, bizni yaxshi ko'rishadi.

UMIDA: — O'zlari uch yildan buyon yiqilib keladir-u, meni kiritib qo'yarmishlar.

BAHROM (*izzat-nafsiqa tekkani uchun qizning rashkini qo'zg'atmoqchi bo'ladi*): — Agar bilsang, men u yoqqa o'qishga emas, qizlar bilan o'ynagani boraman, bittasi, ayniqsa, meni juda yaxshi ko'rib qolgan. Oppoqqina, voy-voy, momaqaymoq deysan, sochlari silliq, tovlanib turadi, qora ko'z, qora qosh, qo'llari yumshoq, barmoqlari xuddi yangi o'ralgan pilladek mayin, etdan emas, nурдан bo'lgandek, astagina o'paman desam...

UMIDA (*tutoqib ketib ikki qo'llab Bahromning yuzlariiga, duch kelgan joyiga mushtlab yig'laydi*): — Mana, mana, yo'qoling!

BAHROM: — Umida, hazillashdim, bilmadingmi, senga qarab gapirdim-ku, bu – sensan.

UMIDA: — Yo'qoling o'sha shaharlik kalta sochning oldiga (*yig'lab tashqariga chiqib ketadi*).

Bahrom afsus ichida o'y surib qoladi. O'zi ko'rinxaydi, lekin uning uzoqdan she'r o'qiyotgan ovozi eshitiladi.

OVOZ: — Bir bo'saga bergumdir yemxona-yu molxonani,

Totli bo'sa bezagay ushbu go'zal zamonani.

Oy qizlar bo'sasi-yu, mard yigitlar jur'ati,

Oh, visol oqshomida bas qilar afsonani.

Qasd qilib bir boqsami g'amzali nigoh bilan,

Shoh etib taxtga olar men kabi devonani.

* * *

Bahromning yoniga Xabarxon keladi.

XABARXON: — Yosh qizni nega yo'ldan uryapsan? Hozir Xurshidaga aytib, seni ishdan haydataman. Yo aytganimni qilasanmi?

BAHROM (*chinakam qo'rqb*): — Opajon, nima desangiz hoziroq bajaraman.

XABARXON: — Sigirlarimga har kuni bir kilodan yem qo'shib berasan, bo'lmasa sharmandangni chiqaraman.

BAHROM: — Mayli, opajon, lekin bir kilodan berolmayman, yarim kilodan qo'shaman.

XABARXON: — Agar bu qilmishingni Inoyat ayam bilsalar...

BAHROM: — Mayli, opajon, mayli, aralash yemdan bir kilodan qo'shib turaman.

* * *

Ufqqa tutashib ketgan past-baland yerlar, adirlar bora-bora baland tog'larga qo'shilib ketadi. O'rka-ch-o'rkach tog'lar boshida hali qor erib bitmagan. Ertabahor pallasi. Bedalar ko'kara boshlagan. Ho' nariro-qda qo'ylar, mollar o'tlab yuribdi. Hammasi «Ko'kdala» fermasiga qarashli. Tepada qushlar sayrab, salanglab uchishyapti. Tog'tomondan qiyalab ariq tushib keladi. Qizaloqlar, o'g'il bolalar yalpiz, otquloq, jag'-jag' terishyapti. Bahromning tizzasida videokamera bor.

ONBOSHI: — Shunday qilib bu voqeani suratga tushirib qutichamga joylab qo'yay, debsan-da?

BAHROM: — Ha, bobojon, Xurshida opam har bir narsani hujjat qilib qo'yishni yaxshi ko'radi.

ONBOSHI: — Lekin to'g'ri qilarkan. Yer taqsimoti masalasi hamisha serg'alva, serjanjal bo'lgan. Mana shu yerlarda qirq yildan ortiqroq brigadirlik qildimov.

BAHROM: — Qirq yil? Men tug'ilmasimdan yigirma yil oldinmi?

O'NBOSHI: — Ha, onang Hadicha buvi ham hali tug'ilmagan edi bu yerda ish boshlaganimda. Ketmon-chi, suvchi, brigadir... Eh-e, qancha-qancha lavozim-larda bo'lmadim, ne-ne janjallarni ko'rmadim. Lekin Kurshida opang hujjat qilib qo'yaman, deb to'g'ri qipti.

BAHROM: — Aytdim-ku, opam hujjatni yaxshi ko'radilar.

O'NBOSHI: — Demak, «Ko'kdala» fermasi bir gektar bedazor beradi?

BAHROM: — Xuddi shunday.

O'NBOSHI: — G'isht zavodi to'rt gektar sho'rangan yeridan beradi, shundaymi?

BAHROM: — Shunaqa bo'lsa kerak. Ana, o'zlar ham kelishyapti.

Paykalning etak tomonidan bir necha kishilar qur-shovida asta-sekin suhbatlashib Kurshida chiqib kela boshlaydi.

XURSHIDA: — O'nboshi bobo, xayriyat erinmay kelibsiz, ishning boshida o'zingiz turganingiz yaxshi.

BEKSULTON: — Bu yerlar asli changalzor bo'lgan. Dadamlar ochishgan.

XURSHIDA: — Bahromjon, bizni bir esdalikka tas-virga tushirib qo'ygin. Aytganday, g'isht zavodi ajrat-gan yerni tasvirga tushirib keldingmi?

BAHROM: — E, bo'lmasam-chi, opajon, tarixiy voqealar hech esimizdan chiqmaydi.

XURSHIDA: — Bugun har ikki tomonning xursand-chilik kuni. Bobojoning haqidagi she'rlaringdan ham o'qib ber.

BAHROM (*O'nboshini suratga tushira turib she'r o'qiydi*):

— O'nboshining boshida qiyiqchadan sallasi,

Limmo-lim aql ekan shu kichkina kallasi.
Makka-yu bedani tez yig'ib oling, bobojon,
Tez bo'ling, tezroq bo'ling, ayni o'roq pallası.
ABDUSAMAT: — Yana bitta g'alatiroq she'ri bor,
o'shani o'qisin.

BAHROM: — Bobomdan qo'rqaman.
O'NBOSHI: — O'qiyver, o'g'lim. Yoshligimda menam
she'r bitganman.

BAHROM: — Sal g'alatiroq-da.
O'NBOSHI: — Menga o'sha g'alatisidan o'qigin-a.
BAHROM (*o'qiydi*):
— Chol bobomning tushiga fermer ayam kiribdi,
Jannat gullaridan terib, bobom unga beribdi.
Ayamiz nozlanibdi, uyat-ku, uyat debди,
Uyat-ku, voy uyat, deb ikki qo'llab olibdi.

*Hamma sharaqlab kulib yuboradi va o'sha zahoti
jiddiy tortib, ishlarini kelgan joyidan davom ettirishadi.*

ABDUSAMAT: — Kelishuv aktini shu yerda yozam-
izmi yoki idoraga boramizmi?

BEKSULTON: — Shu yerda yozilgani yaxshi, lekin
men akt-paktlarni yozolmayman. Loyni yaxshi tepa-
man-u, lekin aktni yozolmayman. Yaxshisi, Xurshida
yozsin.

XURSHIDA (*aytib turadi*): — Bizkim, tubanda imzo
chekib, ishonchnomaga qo'l qo'yuvchilar: g'isht zavodi
tomonidan Beksltton — direktor, Otajon Aziz —qo-
liplovchi, Usmon G'ani — loychi, «Ko'kdala» fermasi
tomonidan Xurshida Erkayeva — direktor, O'nboshi
bobo — qora ekin brigadiri, Abdusamat Abdullayev —
direktor o'rribosari, shu haqdakim...

XURSHIDA: — Amaki, mana yerlarni almashdik,
kelishuvga imzo ham chekdik. Endi bir tilovat qilib
yuboring.

O'NBOSHI: — Ha, aytganday, yaxshi, alhamdullohi... qulhioblohu... mustaqim.. minan jannati... Yo'q, keksalikda duo o'rganib bo'lmas ekan. Tarvuzga quygan suvdek boshingdan dumalab ketaverar ekan. Yoshlikda qizil bayroqni ko'tarib, «Olg'a bos!» deb yuravergan ekanmiz. Abdusamat, kel o'zing tilovat qil.

Duo o'qiladi, hammalari bir-birlariga yaxshi niyat bildirib, tarqalishadi.

* * *

O'nboshi ajriq ustida chordona qurib o'tirgandan o'tirib qoladi. Beksulton bilan Xurshida ariq yoqalab dasht tomonga — Xurshidaning yerlariga asta-sekin ko'tarilib borishyapti. Hamma yoqda bahor nafasi, ariq bo'ylarida, bedazorlar orasida chuchmomalar, binafshalar bosh ko'targan. Beksulton engashib sarg'ayib ochilgan chuchmomadan uch-to'rttasini olib, Xurshida ga uzatadi. Qiz sevinib, erkalanib yigitning qo'ltig'idan oladi, boshini bilagiga qo'yadi. Yigit qizning shabboda o'ynab turgan qop-qora sochlardan ohista-ohista silaydi.

Chol kuzatadi. Xira ko'zlarida miltillab yosh ko'rinadi.

Yigit bilan qiz asta-sekin ko'tarilib, bora-bora do'ngroq bir joyni tanlab o'tirishadi. Qiz yigitning yelkasiga boshini beozorgina qo'yib olgan. Ikkovi ham ishq otashida yonib turishibdi. Xotiralarga berilishgan. Katta ishq daftarini goh iztirob bilan, goh quvonch bilan varaqlashadi. Endigina bosh ko'tarib kelayotgan giyohlar ham, past-past uchayotgan qushlar ham, bahorni qutlab inidan chiqqan hasharotlar ham, hamma-hammasi ikkovilarini tabriklayotgandek, bahorning yangilanish, yasharish kuyini chalayotgandek.

BEKSULTON: — Sochingdan hamisha atir hidi ke-lardi. Ana shuni yaxshi ko'rardim.

XURSHIDA: — Hamroqul papkamga qurbaqa solib qo'yganda meni deb mushtlashganingizda oh, shunday akam bo'lsaydi, degandim.

BEKSULTON: — Ro'molcha berganing esingdami? O'shani bir yilcha hidlab yurganman.

XURSHIDA: — Sinfimiz bilan sayohatga chiqqanimizda birinchi marta qo'lingizni ushlaganimda qo'lim bir haftagacha lovillab yonib turgan.

BEKSULTON: — Gollandiyada yurganingda har kuni tushimga kirarding.

XURSHIDA: — Men ham sizni ko'p tushimda ko'rardim, negadir qovog'ingiz solingen bo'lardi. Bir kuni tushimda tubsiz jarlikka tushib ketibman, chiqishga urinaman, hech iloji yo'q. To'satdan siz paydo bo'ldingiz-u, yelkangizga mindirib olib chiqib keta boshladitingiz. Tavba, siz uchar emishsiz, meni uchirib ketayotgan emishsiz... Uyg'onib ketib rosa yig'ladim, keyin dadam olamdan o'tgan kuni tong saharda yetib keldingiz-u...

BEKSULTON: — Yig'lama, jonom.

XURSHIDA: — Men sizni yig'lab-yig'lab sevdim.

BEKSULTON: — Men seni yonib-yonib sevdim (*Yigit qizning yoshti ko'zlaridan qayta-qayta o'padi*). Sening otang yo'q, mening onam yo'q, ikki yorti bir butun bo'ladigan kunimizni men har kuni kutdim...

Yigit qizni ko'tarib ariqdan olib o'tayapti. Qiz yigitning bo'ynidan mahkam quchoqlab olgan.

O'NBOSHI: — Tavba, g'alati ekan-da, bu dunyo. Rahmatli onasiyam shunaqa edi, o'zi bema'lol o'tadigan ariqdan ko'tarib olasiz, deb bo'ynimga osilib olardi. Tavba, ayol zoti shunaqa erka bo'larkanmi?

Mayli, qo'sha qaringlar, qariganda juftlaringdan ayrilmang-lar... Mana men bevaman. Inoyat ham beva. Uning hovlisi erkaksiz, mening hovlim ayolsiz — farishtasiz. Qo'shilishga xudo yo'l bermayapti, shekilli...

UCHINCHI QISM

«Ko'kdala» fermasining molxonasida ko'tarinki kayfiyat. Erkag-u xotin goh Xurshidani, goh Inoyatni, goho hatto Umida bilan Zarifani ham Xurshida Beksltonga turmushga chiqishga rozilik bergani bilan qutlashyapti.

- Xurshida o'lgur ham balo ekan.
- Ha, bekorga bir-birlarini yetti yil kutishmadi-da.
- Voy o'rtoq, yana xushxabar bor. «Ko'kdala» bilan g'isht zavodi qo'shilar mish.
- Voy, qo'shilsa qaysi biri ustunroq bo'larkan?
- Bir kecha unisi, bir kecha bunisi ustunroq bo'lar-da.
- Inoyat aya o'nboshi boboning sovchisini qaytar-gani chakki bo'pti-da.
- Voy, yana qaytaribdimi?
- Inoyat aya erga tegadigan ikkita qizim turib, mening erga tegishim sharmandalik-ku, debdi.
- Chol o'sha kuni qibлага qarab yig'lagan emish.
- E, qo'shaloq to'y bo'lganda rosa ichardik-da.
- Menga qara, qo'shaloq to'y bo'lsa «Yor-yor»ni qaysi biriga qarab aytildi?

Kun bo'yi bunday gaplar to'xtamaydi. Xabarxon hammadan ko'p yuguradi-yeladi, gap oladi, gap sotadi. Inoyat aya nomidan popukli qandlar ham ulashadi.

Bugun Xurshida chindan ham gul-gul yashnab ketgan.

* * *

Shokalonning hovlisi. Oynali ravonda Shokalon, Shahriniso, Shoumar o'tirishibdi. Qovoqlari osilgan, darg'azab.

SHOKALON (*jahl bilan*): — Xo'sh, keyin nima bo'ldi?

SHOUMAR: — E, qulog'ingiz karmi, dada, ayt-dim-ku, gapimga kiravermagach, seni baribir o'zim olaman, oltinchi sinfda o'pganman, agar Beksulton senga ko'z olaytiradigan bo'lsa, ichagini boshiga salsa qilaman, deb mana bu pichoqni stol ustiga qo'ydim.

SHOKALON: — Galvars, ahmoq, muhabbat izhor qilgani borgan odam shunaqa gaplarni aytadimi? Onang borganda ish ancha yengillashib qolgan edi. Ishni rasvo qilgan ekansan-ku.

SHAHRINISO: — Yana tag'in pichoq o'qtalgani-chi?

SHOUMAR: — Unga o'qtalganim yo'q, Beksultonni so'yaman, dedim.

SHOKALON: — Esi yo'q, qani pichoqni buyoqqa ber-chi (*O'g'li cho'ntagidan qinga solingan pichoqni olib beradi*). O'g'lim, zamon nozik, bitta qaltis harakating bilan hammamizni xonavayron qilishing mumkin.

SHOUMAR: — Baribir men uni Beksultonga berib qo'ymayman. O'zingiz ham uch yildan buyon shuni olasan, dashtini qo'shib olasan, deb boshimni qotirasiz. U bo'lsa meni yaqiniga ham yo'latmaydi.

SHOKALON (*o'ychan*): — Bugun-erta fotiha to'y bo'lib qolishi ham mumkin.

SHOUMAR: — Dada, nega endi o'shanda shu dasht yerni mening nomimga yozib qo'ya qolmagansiz?

SHOKALON: — Zamon nozik edi, deb ming marta ayt-dim-ku. Meni ishdan olib tashlashlari mumkin edi.

SHAHRINISO: — Adasi, baribir olib tashlashdi-ku.

SHOKALON: — Lekin onasi, qizlaringga ajratilgan yerlarni saqlab qoldim-ku... Hali hammasini boy

berganimiz yo'q. Oqliq bergan bo'lsa, bu nikoh bo'pti degan so'z emas. Borib o'sha dimog'dor xotin bilan o'zim gaplashaman.

SHAHRINISO: — Qo'ying adasi, o'sha pastkashlar bilan hadeb olishavermaylik. Xo'p yedik, ichdik, elda aziz bo'ldik, yetar. Pastkash baribir pastkashligicha qoladi.

SHOKALON: — O'sha sen aytgan pastkashlar men-dan ustun kelmoqchi bo'lishyapti. Men mana shuning uchun olishaman. Men hali hech kimdan yengilgan emasman. Meni Shokalon deydilar.

SHAHRINISO: — Aslida-ku, o'sha ko'rnamak meniyam oyoqosti qilib yubordi. Men ham xo'rланib, haqoratlanib o'tiribman. Kimsan, Shokalon raisdek odam it g'ajigan mushukdek qizingni kelin qilaman debdi-yu, e, nozlanmay o'l! Mayli, dashtni tortib ol-sangiz ham olasiz, olmasangiz ham olasiz. Tepaga bir shiypon qurdiray...

SHOKALON (*chiqib keta boshlaydi*): — Birozdan keyin menga telefon qilasan.

SHAHRINISO: — Bilaman, o'yin boshlaysiz va al-batta yutasiz.

* * *

Inoyat ayaning hovlisi. Ravonda Shokalon, Inoyat, qizlari o'tirishibdi. Shokalon bilan Inoyat o'rtasidagi suhbat ancha oldin boshlanganga o'xshaydi. Xiyla qizishib ketishgan.

SHOKALON: — Lekin Inoyat, sen qayta-qayta o'ylab ko'r, o'shanda rahmatli ering Erka qassob, mayli qizim sizdan aylansin, deb fotiha bergan. Otasining fotihasini buzish yaxshi emas. Arvochlarning ruhi bezovta bo'ladi va, albatta, yomon oqibatlarga olib keladi.

INOYAT (*jahli chiqib, yoqasini ushlaydi*): — Amaki, hech qachon bunaqa gap bo'lgan emas.

SHOKALON: — Bo'lgan. Eslashga harakat qil.

INOYAT: — Eslashning hojati yo'q, amaki, rahmatli dadasi yaxshi ko'rgan qizini bemaslahat fotiha qiladiganlardan emas edi. Guldek qizini yerga yoki molga almashtiradigan tuban kishilardan ham emas edi.

SHOKALON: — Ering qasam ichib va'da qilgandan keyin men xo'jalikning sigirlarini senlarga arzon-garovga bergenman.

INOYAT: — Voy sho'rim, bu gaplaringiz ham yolg'on. Tirraqi mollaringiz quruq suyak edi. Xashak tuga-gan, ochidan o'lay-o'lay deb turishuvdi. Sotishdan boshqa ilojingiz qolmagandi. Komissiya kelguncha tezroq olaqolinglar degandingiz-ku. Rahmatli dadasi bu mollarni odam qilguncha adoyi tamom bo'lgan. O'sha tirraqilaringizning tagini oyoqlarimni panskha qilib tozalaganman, qo'llarimni o'roq qilib poya, beda o'rganman.

XURSHIDA: — Har yili bittadan buzoqni semirtirib berib turardik-ku.

SHOKALON: — E, deputat qizim, beriroq kel, sen o'shanda yosh bo'lsang ham ziyrakkina eding. O'sha yillari ferma ochuvchilarga har bosh sigirga yigirma sotixdan yer ajratilardi, to'g'rimi, sen bilarding-ku?

XURSHIDA: — Yigirma sotixdan o'ttiz sotixgacha berilardi.

SHOKALON: — Ha, barakalla, bekorga deputat bo'limgansan-da, qizim. Xudo xohlasa, sen katta-katta lavozimlarni egallaysan. Sizlarga esa bir yo'la o'n besh hektar suvli yer bergenman. Dashtdagi egasiz joylardan yana yuz hektar dasht ajratganman. Chunki qizim, kelajakda seni kelin qilish niyatim bor edi.

INOYAT (*Miyig'ida kulib*): — Nabiralaringizni ham o'ylagan ekansiz-da.

SHOKALON: — Xuddi shunday.

INOYAT: — Bu gaplaringiz hammasi yolg'on, yolg'on va yana yolg'on. O'sha kungi katta majlisda dashtdag'i egasiz yarlarni hech kim men olaman, demagan.

SHOKALON: — Men hammasiga alohida-alohida qo'l ko'tarmay turasan, deb tayinlab qo'ygandim.

INOYAT: — Voy tavba, voy tavba!

SHOKALON: — Gap shu, otalaringning fotihasini buzib, Beksltonga rozilik beribsizlar, endi Erka qassob go'rida tikka turadi, hammangni arvoh uradi.

XURSHIDA: — Amaki, mehmon bo'lib kelganingiz uchun qattiq gapirmayman, lekin fermer bo'lganim uchun bor gapni aytaman.

SHOKALON: — Barakalla qizim, xudo xohlasa seni hokimlikka ko'taramiz, deb turibmiz.

XURSHIDA: — Demak, amaki, boshqalarga nisbatan bizga yerni ko'proq bergansiz, molni arzonroqqa sotgansiz, shundaymi?

SHOKALON: — Barakalla, deputat qizim.

XURSHIDA: — Endi buyog'iga men viloyat kengashining deputati, huquq komissiyasining a'zosi sifatida aytaman.

SHOKALON: — Tilingga novvot, asal qizim.

XURSHIDA: — Demak, siz raislik lavozimingizdan foydalanib, tamagirlik qilib, jamoat mulkini arzon-garrovga berib, oxir-oqibat o'zim foydalanaman, deb niyat qilgansiz. Bu niyatingizni amalga oshirish uchun ojiz, himoyasisiz oilamizni tanlagansiz.

SHOKALON: — Yo'q, qizim, sizlar ojiz emassizlar.

XURSHIDA: — Amaki, siz tamagirlik bilan aldov yo'lidan borgansiz.

SHOKALON: — Nima?!

XURSHIDA: — Endi qonun oldida javob berasiz.

SHOKALON: — Qonun-ponuningni qo'y, qizim.

XURSHIDA: — Biz esa dashtning toshini terib, ekinzorga aylantirib, molxonani kuchaytirganimiz, o'ttiz kishini ish bilan ta'minlaganimiz uchun javob beramiz.

SHOKALON (*aqlli, hushyor emasmi, tanlagan yo'li bilan murodiga yetolmasligini tez fahmlab, boshqacha usulga o'tadi, negadir qattiq kulib yuboradi, tizzasiga urib uzoq kuladi*): — Inoyatbonu, deputat qizim, men sizlarni bir sinab ko'rmoqchi bo'luvdim, ataylab ach-chiq-achchiq gaplarni aytyapman, kuyov tanlashda kimdir bularga zo'rlik qilmadimikin, shuni bilmoqchi edim. Barakalla, axir sizlarga otalik qilib turishni rahmatli Erka qassob oldida, qolaversa, viloyat hokimi oldida so'z bergenman-a (*To'satdan cho'ntagidagi uyalı telefon jiringlab qoladi*). Iya-iya, Sattor Shokirovich, assalomu alaykum (*Qo'lini ko'ksiga qo'yib o'midan turib ketadi*). Yaxshi, xudoga shukr, siz borsiz, xudo xohlasa, hammasi yaxshi bo'ladi. Xabar olib turibman, deputat qizim ham, Inoyatbonu ham zo'r. Ertadan keyin kel, deysizmi? Boraman, albatta, boraman. Xayr, rahmat (*Telefon to'xtaydi, cho'ntagiga soladi*). Yurtimizga ajoyib rahbar keldi-da, menga o'xshash eski rahbarlarni yig'ib kengash tuzmoqchi ekan... Xo'p, yana o'zimizning gapimizga qaytaylik. Men sizlarni otalaring o'rnida tabriklagani keldim. Beksulton yaxshi yigit. G'isht zavodini unga o'zim bergenman. Yigirma yil loy tepding, bas, endi rahbar bo'l deganman. Inoyatbonu, to'yni chiroyli o'tkazishimiz kerak.

Oila ahli Shokalon hokim bilan gaplashganini ko'rib, unga yanada hurmat bilan qaray boshlashadi.

INOYAT: — Xudo xohlasa, ertaga fotiha to'y keladi, o'zingiz bosh bo'lasiz.

* * *

Shokalon ko'chada shiddat bilan boryapti. Jahli chiqqan, alami oshgan, goh yerni, goh qarshisidagi daraxtni tepib-tepib qo'yyapti.

SHOKALON: — Qiziq, men qanaqa odamman o'zi? Yaxshimanmi, yomonmanmi? E, xudo, meni qanaqa qilib yaratgansan? Ha, yaxshiga yaxshiman, yomon-ga yomonman, yovuzman. Yo'q, senlarga yuz gektar yerni tep-tekinga berib, 3 hektar yer bilan barmog'ini burniga tiqib qoladigan ahmoqlardan emasman. Yo'q! Bilaman (*kuladi*), tulki o'ttiz ikki pandim bor, eng yaxshisi ko'rinnmaslik, degan ekan. Ha, yashirinchcha, yashirinchasiga, endi dushmanimning qo'li bilan uraman va dushmanimning qo'li bilan tortib ham olaman. Xanjarni ular ursin-u, paxta qo'yib yarangni bog'lash mendan bo'lsin.

* * *

Inoyat ayaning hovlisi. Kecha fotiha to'yi kelgan. Bugun yurtning o'n-o'n besh chog'li keksalari ziyofat yegani, fotiha o'qigani kelishgan. Hovlida erkag-u xotin, xizmatkorlar, bolalar. Bir qozonda sho'rva, bir qozonda palov damlab qo'yilgan. Bir uy to'la erkaklar, bir uy to'la ayollar. Shokalon xuddi oila boshlig'idek tutadi o'zini. Goh unga, goh bunga ish buyuradi, o'rgatadi. Bahrom videokamerasi yelkada, goh ayollar xonasiga kiradi, goh erkaklar huzurida paydo bo'ladi. O'zicha:

To'y boshlansa Tagobda,

Meva qolmas likopda, — deya ashula ham aytib qo'yadi.

Ichkarida to'satdan askiya-payrov boshlanib ketadi. O'nboshi bilan Shokalon eski raqib, odamlar davrasida uchrashdi deguncha bir-birini chalpish payida bo'ladi.

Ho'kiz payrovi ketyapti.

SHOKALON: — O'nboshi, ishtahang yo'qroqmi deyman, oldingga poya solsam, nuqul uchini yalayapsan?

O'NBOSHI: — To'g'ri, o'sha kunlari ishtaham yo'q-roq edi, rais, sen ham qarib tishlaring to'kilganga

o'xshaydi. Oldingga poya solsam, bitta yo'g'onrog'ini og'zingga solib, ertalabgacha so'rib chiqding-a?

SHOKALON: — Sen ham qaribsan, shekilli?

O'NBOSHI: — To'g'ri, ancha munkillab qoldim.

SHOKALON: — Qo'shga olib chiquvdim, yurmay orqamdan itarsang yuraman, deb turib olding-a?

O'NBOSHI: — E, qulog'ing og'ir ekan, o'sha kuni men oldimdan tortsang yuraman, degandim.

SHOKALON: — Yana ishtahang ochilganga o'xshaydi.

O'NBOSHI: — To'g'ri, shu kunlarda tappa-tuzuk bo'lib qoldim.

SHOKALON: — Endi quchoqlab solmasam to'y-maysan, shekilli?

O'NBOSHI: — Agar quchoqlab bermasang, ertalabgacha tog'orangni daranglatib tepib chiqaman.

SHOKALON: — Ja, haddingdan oshib ketyapsan.

O'NBOSHI: — Nima qilibman haddimdan oshib?

SHOKALON: — Badnafs bo'p qopsan. Anavi kuni qopda yem ko'tarib borsam, oxuringni ko'rsatib to'ldirib soling, to'ldirib soling, deysan-a.

O'NBOSHI: — Yemni ko'p yesam, tez semiraman-da, lekin nazarimda sening ishtahang bo'g'ilib qolganga o'xshaydi.

SHOKALON: — Qayoqdan bila qolding?

O'NBOSHI: — Yem ko'tarib borsam, jon aka, bugun tuzlab solasiz, deding-ku.

SHOKALON: — Nazarimda, sen ancha-muncha xashakka to'ymaydiganga o'xshaysan.

O'NBOSHI: — Ha, keyingi paytda badnafs bo'lib qolganman.

SHOKALON: — Ertadan boshlab seni orqaga olib chiqib sekin qoqib kelmoqchiman.

O'NBOSHI: — Hoy, menga qara.

SHOKALON: — Ikki ko'zim senda, o'rtoq.

O'NBOSHI: — Hoy, qoqsang tuzukroq qoq. Bo'lmasa men ham orqangdan qozig'imni sug'urib, sekin jo'nab qolaman.

* * *

Ayollar xonasida xushnudlik, shirin suhbat. Ikkit-adan-uchtadan bo'lib suhbatlashishyapti, birov birovga qulog solmaydi. Inoyatning qarindoshlari, fotiha to'y olib kelgan ayollar... Xabarxon-u Mo'minaxonlar oldilariga fartuk tutib olishgan. Yugurib-yelib xizmat qilishyapti.

OVOZLAR:

- Hoy Inoyat buvi, kelib birpas o'tirsangiz-chi.
- Ayamiz fermaniyam hech kimga ishonmaydi, qozon-tovog'iniyam.
- Xurshida Beksultonga fotiha bo'lganini eshitib, Shoumar yonib ketayotgandir.
- Yonish ham gapmi, alangasi yetti osmonga yetib yuribdi.
- Lekin Xurshida qurmag'ur ham g'oyat go'zal-da.
- Voy, Soybo'yining qizlari hammasi go'zal bo'ladi.
- Sut-qatiqni ko'p ichishadi-da.
- Ozarbayjonda qiz bola bo'yiga yetganda faqat qaymoq berishar ekan.
- Voy, nega?
- Yuzlari oppoqqina, yumshoqqina bo'larkan.
- Yigitlari maza qilarkan-da.
- Eshitdingizmi, Ominaxonning bo'yida bo'pti.
- E, xayriyat-ey, erginasi naq yetti yil kutdi-ya.

Ichkaridan erkaklar chiqib qator turishibdi. Shokalon qo'y yetaklab kelgan bolaga, O'nboshiga to'n kiy-giz-yapti. Akmalxon qori fotiha o'qiyapti:

AKMAL QORI: — Ikkovlari qo'sha qarisinlar, baxtli-saodatli turmush kechirsinlar. Qizimizga ferma, o'g'limizga zavod ochib bergen Prezidentimiz omon bo'lsinlar.

Ikkovlarining yostiqda boshi ko'paysin, qozonda oshi ko'paysin, gulzorida gul bo'lsin, cho'ntak to'la pul bo'lsin, suyuq oshi so'k bo'lsin, olgan puli «ko'k» bo'lsin... Allohu Akbar!

* * *

Fermaning ma'naviyat xonasi. Qo'shilish komissiya-si ishlayapti. Beksulton, Otajon Aziz, Usmon G'ani, Xurshida, Abdusamat, O'nboshi aralash o'tirishibdi.

HISOBCHI AYOL: — Yaroqli imoratlarning umumiy qiymati 19 million.

XURSHIDA: — Bu tafsilotlarning hammasi aktlarda yozilganmi?

HISOBCHI AYOL: — Masalan, yangi xumdonning bahosi.

XURSHIDA: — Yo'q, bularning hammasi aktlarda yozilgan. Hokimiyatga quyidagicha yozsak: g'isht zavodi ishchilar va rahbariyatining xohishiga ko'ra, umumiy qiymati 34 million so'm bo'lgan zavodni «Ko'kdala»ga ixtiyoriy qo'shilish masalasi hokimiyat majlisida ko'rib chiqilishini so'rab... buyog'iga imzolar qo'yamiz...

USMON G'ANI: — Men deputatimiz hurmati qo'l qo'yaman-u, lekin qo'shilishga mutlaqo qarshiman.

Eshik sharaqlab ochilib, qo'rqinchli vajohat bilan qishloqdag'i tikuv sexining rahbari Mahfirat kirib keladi.

MAHFIRAT (*qaltirab*): — O'zim ham mana bu og'machi shu yerda bo'lsa kerak deb o'ylovdim. Majlis baho-na bir-birlaringni yalahшиб o'tiribsanlarmi?

XURSHIDA: — Hoy, o'rtoq, nima gap o'zi?

MAHFIRAT: — O'rtoq emish, o'rtoqmisan, jodugarsan! Sevgan yigitimni tortib olib, fotiha to'yini ham o'tkazib olibsantal-ku, manjalaqi... Yana o'rtoq emish.

XURSHIDA (*o'tirganlarga*): — Sizlar chiqib turinglar (*Hammaga qo'shilib Beksulton ham chiqib keta boshlaydi*).

MAHFIRAT: — Hoy, subutsiz, yolg'onchi, sen qayosqa qochib qolyapsan?! Va'dani menga berib, fotiha to'yini mana bu qayrilma qoshga jo'natibsan-da.

BEKSULTON (*Hayron*): — Men senga qachon, niman va'da qilibman?

MAHFIRAT: — Voy xudo, va'da bermaganmiding?

BEKSULTON: — Esing joyidami, jinnimasmissan?

MAHFIRAT: — Oltita tikuv mashinasi olib berib, bu yog'ini yana gaplashaveramiz, deb ko'zingni mana bunday qilib qisgan senmasmiding?

BEKSULTON: — Senga g'isht zavodi nomidan xayriya yordami bergenman, ishlarini yo'lga qo'yib olsin, deganman.

MAHFIRAT: — Yordam bergen emishlar. Tomlarimni nega oq tunuka bilan yopding, bo'lmasa, kimdan umidvor eding, ablah?!

BEKSULTON (*yer tepinib, qo'lini musht qilib*): — Onang ko'zyoshi to'kib boraverib, jonimga tegib ketgandi-ku.

MAHFIRAT: — Bekor aytibsan, maktabni bitirgandan buyon ikki ko'zing menda. Nega umidvor qilding meni? Nega, nega, nega?!

BEKSULTON: — Men seni hech qachon umidvor qilgan emasman.

MAHFIRAT: — Qilgansan, qani mana shu manjalaqiga uylanib ko'r-chi... Bilib qo'y, g'isht zavodingga o't qo'yaman.

BEKSULTON: — E, xudo urgan shallaqi ekan-san-ku.

XURSHIDA (*ikkovini ko'kragidan itarib*): — G'alvani tashqariga chiqib qilinglar.

MAHFIRAT: — Itarma meni, ol qo'lingni! Boyib ketibdilar-da, a? Oy chiqsa ham endi sizga boqarkan-da, katta majlisga borgan ham sen, mukofot olgan ham sen, deputat bo'lgan ham sen. Hokimning yonida o'tirib olib, kerilgan ham sen... Endi sevgan yigitimni ham tortib olmoqchimisan? Qoshingni qoqib, ko'zingni suzib, hokimning tizzasida o'tirib kelganiningi bilmaymanmi?

Xurshidaning g'azabi oshadi, Mahfiratni xonadan chiqarmoqchi bo'ladi. Derazadan mo'ralab turganlar yopirilib kiradi, Xabarxon Mahfiratni dast ko'tarib olib chiqib ketadi, qaytib yana kiradi.

XABARXON: — Xurshidaxon, o'zingizga olmang, bu o'zi shunaqa bo'p qolgan. Anavi kuni eridan chiqib kelgan opasiniyam uch bolasi bilan ko'chaga haydar chiqardi. Sizning kimligingizni hammamiz bilamiz. Beksulton ham halol yigit, hammaga yaxshilik qiladi. Menga ham 3000 ta g'isht bergen. Voy shallaqi-ey, meniyam ko'kragimni tishlab oldi-ya, rashk balosi yomon-da. Hay-hay, ersiragan xotindan xudoning o'zi asrasin.

Xonada Xurshida bilan Beksulton tik turishibdi. Ikkovlari ham noqulay ahvolda, bir-birlarining ko'zlariga qarasholmaydi.

BEKSULTON: — Bu g'irt tuhmatchi ekan-ku, a?

XURSHIDA: — Siz ham juda saxiy bo'lib ketgan ekansiz (*yuzini teskari o'girib oladi*).

TO'RTINCHI QISM

Shouumarga tegishli o'rikzor o'tasidan o'tgan torgina dala yo'li. Shu yo'ldan «Tiko» minib Beksltton kelyapti. Yo'lning to'silganini ko'rib hayron bo'ladi. Mashinadan tushadi. Nariroqda ikki yigit bilan Shouumar ham turibdi.

BEKSULTON: — Shouumar, yo'lni nega to'sdilaring?

SHOUMAR: — Bu o'rikzor menikimi?

BEKSULTON: — Albatta, seniki.

SHOUMAR: — Demak, yo'l ham meniki. Xohlasam ochaman, xohlasam to'saman.

BEKSULTON: — Qo'ysang-chi, bu yo'l yuz yildan buyon hammaniki bo'lib kelgan.

SHOUMAR: — Endi senga yo'l yo'q. G'isht, tuproq tashigan mashinalaring changitib, hammayoqni rasvo qilyapti.

BEKSULTON: — Menden boshqa rafqonliklar ham qatnaydi bu yo'ldan.

SHOUMAR: — Endi hech kimga yo'l yo'q, tamom!

BEKSULTON: — «Ko'kdala» ishchilari-chi?

SHOUMAR: — Tupurdim hammasiga.

Beksltton ko'ndalang qo'yilgan sement blokni surmoqchi bo'ladi. Shouumar borib yelkasidan tortadi.

SHOUMAR: — Mening mulkimga harom qo'lingni tekkizma. Yurmaysan! Dadam pichog'imni olib qo'ygan, bo'lmasa hozir ichagingni chavoqlardim.

BEKSULTON: — Nima deding, yana bir qaytar?

SHOUMAR: — Bilib qo'y, Xurshidaga uylanib bo'psan. Uni men olaman. Rejamiz shunaqa. Uni oltinchi sinfdaligidayoq o'pganman, o'chirg'ich berib o'pganman. Senga bu qora ko'z, qora qosh suluvni berib qo'ymayman. Bilib qo'y, endi molxona ham,

dasht ham meniki bo'ladi... O'chirg'ich berib o'pgan-man.

Mushtlashib ketishadi, haligi ikki yigit ham qo'shildi. Hammalari qonga bo'yalishadi. Beksulton mashinasiga arang o'tirib, orqaga qaytadi. Keta turib Shoumarga mushtini ko'rsatadi.

SHOUMAR: — Qo'rqoq!

BIRINCHI YIGIT (*shericiga*): — Pul yaxshi, lekin vijdon azobi yomon-da, ketdik!

SHOUMAR: — Nega ketyapsanlar, meni kaltaklag'anligi haqida akt tuzmoqchi edik-ku.

BIRINCHI YIGIT:— O'sha aktingni o'zing yozaver.

IKKINCHI YIGIT:— Yo'q, qisqa bo'lsayam yozaylik.

BIRINCHI YIGIT:— Beksulton oldin musht tushirdi, deb yozamiz. Bo'lmasa uning qallig'i deputat, rasvoimizni chiqaradi.

IKKINCHI YIGIT:— Bilganiningni yozaver, kayfim tarqamasdan turib nima yozsang, qo'l qo'yaveraman.

* * *

Oradan bir kun o'tdi. Noma'lum kishi molxonaga kirib bor ovozi bilan baqiryapti.

OVOZ: — G'ishtchilar o'rikzordagilar bilan musht-lashayotganga o'xshaydi. Qo'llarida ketmon, kurak, yana bir narsalarni ko'ryapman.

Molxona ichkarisidan Ismoil, Ikrom, Abdusamat, Bahrom va yana bir necha ayollar ham yugurib chiqishadi.

OVOZLAR:

— Yuring o'rtoqjon, mushtlashuv bo'lsa tomosha qilamiz.

- Tagoblilar mushtlashmasa turolmaydi.
- Faqat pichoqlashishmasa bo'ldi.
- To'g'ri, guvohlikka chaqiraverib qiy nab yuborishadi.

Kecha mushtlashuv bo'lgan, sement blok qo'yilgan joyga endi ikki-uch mashina shag'al ham tashlangan. G'ishtchilar bir taraf, Shouumarning bog'ida ishlab turgan yigitlar bir taraf. Bir-birlariga xezlanib turishibdi. Shoumar qo'lini, bo'ynini oq doka bilan bog'lab olgan.

USMON G'ANI (*Shouumarga qarab*): — O', novcha, nega yo'lni to'sding?

SHOUMAR: — Yo'l meniki.

USMON G'ANI: — Katta buvingdan qolganmi?

SHOUMAR: — Ha, katta buvimdan qolgan.

USMON G'ANI: — Bu yo'lidan xonlar o'tgan, Xudoyorxon o'tgan, Amir Temurning askarlari o'tgan. Endi seniki bo'p qoldimi?

SHOUMAR: — Ha, meniki bo'p qoldi.

USMON G'ANI: — Ey, haji qiz!

SHOUMAR: — Haqorat qilma meni.

USMON G'ANI: — Nega bizning direktorni uch kishilashib urdilaring? Qani o'sha zo'ravonlar? Yo'qmi, bo'limasa o'zing chiq, mana men mushtlashaman! G'ishtga loy tegandek tepkilab, go'shtingni obrabotka qilaman.

Ferma tomondan yopirilib kelgan erkag-u ayollar ham janjalga qo'shiladi.

ISMOIL (*qo'lidagi panshaxani o'qtalib*): — Yo'lni to'sgan kim o'zi, ko'rsat menga, kuyovimizni kaltak-laganniyam ko'rsat, hozir o'sha bilan bo'lganimcha bo'laman.

Qishloq tomondan qora «Volga» kelib to'xtaydi. Mashinadan Shokalon tushadi.

SHOKALON: — Tinchlikmi, nima gap bo'lyapti?

USMON G'ANI: — Amaki, o'zingizni soddalikka olmang, siz tulkidek ayyor odamsiz, hammasini bilasiz. O'g'lingiz ulfatlarini ichirib, bizning direktorni kaltaklagan. O' novcha, chiq buyoqqa, mana men mushtlashaman sen bilan. O'sha ikki hezala-gingniyam chaqir.

Qishloq tomondan «Tiko» kelib to'xtaydi. Rulda Bekulton, o'ng qo'li, boshi doka bilan bog'langan. Mashinadan O'nboshi bilan Xurshida ham tushishadi. O'nboshi xo'mrayib Shokalonga yaqinlashadi.

SHOKALON: — E, ana, deputat qizim ham kep qoldi. O'nboshi o'rtoq, kelganing yaxshi bo'ldi. Bu jo'jaxo'rolar kecha tepkilashgan ekan. Lekin yigit kishining uncha-muncha mushtlashib turgani ham yaxshi, pishiydi. O'nboshi, esingdami, ilgari to'ylarga o'rtaga sovrin qo'yib, azamat yigitlarni mushtlashtirardik.

XURSHIDA (*jiddiy*): — Amaki, gapni ko'paytirmay, odamlaringizga aytинг, yo'lни ochishsin.

O'NBOSHI (*g'azabdan arang gapiradi*): — Hozir do'xtirdan kelyapman, xudoga shukr, o'g'limning singan joyi yo'q ekan, menga ayt, o'g'ling Shoumar erkakmi yo urg'ochimi?

SHOKALON: — Odamni haqorat qilma-da, o'rtoq.

O'NBOSHI: — Erkakmi yo urg'ochimi, deyapman.

SHOKALON: — Erkak, albatta.

O'NBOSHI: — Agar erkak bo'lsa, o'rtaga chiqsin. Anavi ikki sheriginiyam olib chiqsin. Bekulton bilan qaytadan mushtlashtiraman. Agar o'g'lim yengilsa, bu-naqa bolaga beradigan nonim yo'q! Chaqir, o'g'lingni!

O‘nboshi jahl bilan o‘g‘lini yetaklab o‘rtaga olib chiqadi. Shokalon hushyor odam, ahvol yana ham jiddiyashishini sezib turibdi.

SHOKALON: — O‘nboshi, kichkina odammassan, bekorga qirq yil brigadir bo‘lmading. Janjalni janjal bilan yengib bo‘lmaydi. Ayb mening o‘g‘limdan o‘tgan. Kel, yaxshisi bularni yarashtiraylik, Shoumar kechirim so‘rasin. Xurshida, sen nima deysan, qizim?

XURSHIDA: — Ha, butun tumanga sharmanda bo‘lgandan ko‘ra yarasha qolishsin.

OVOZLAR:

— Ataylab kelib mushtlashishni ko‘rmay ketaverar ekanmiz-da.

— Lekin tagoblilarga qoyil qolaman, qoidasi bilan mushtlashishadi.

— Qo‘llaridagi panshaxa bilan ketmonni olib qo‘yish kerak.

— Qani, qo‘lingdan kelsa olib ko‘r-chi.

Tomonlar bir-birlariga yaqinlashib kelyapti.

SHOKALON (*baqirib*): — Beksulton, Shoumar kechirim so‘rasa kechirasanmi?

BEKSULTON: — Oldin mushtlashaman, keyin kechiraman.

Shokalon Shoumarni o‘rtada turgan Beksultonning yoniga zo‘rlab, sudrab olib chiqadi. Kechirim so‘ra, deb qistaydi, o‘g‘li ko‘nmaydi.

SHOKALON: — Bo‘lmasa mushtlash, axir!

SHOUMAR: — Bugun emas, hozir tomog‘imda anginam bor. Mana bog‘lab olganman.

To‘planganlar yengil-yengil kulib olishadi.

SHOKALON: — Hamqishloqlarim, o'g'lim o'rniغا Beksltondan o'zim kechirim so'rayman.

Taraflar bir-birlariga yaqinlashib qolgan, agar mushtlashish boshlansa, bir kecha-kunduz davom etishi hech gapmas.

XURSHIDA: — Hammalaring tarqalinglar, deputat huquqim bilan hukumat nomidan buyuraman, tarqalinglar! Ismoil aka, Xabarxon opa, qani sizlar boshlan-glar-chi, agar militsiya kelsa, kamida besh-oltitangiz qamalasiz. Beksltton aka, iltimos, siz kechirdim, deng.

BEKSULTON: — Gapim bitta! Avval yakkama-yakka mushtlashsin, keyin kechiraman.

XURSHIDA: — Men uchun kechiring, deyapman.

BEKSULTON: — Mayli, kechirdim. Shirin joning o'zingga sadaqa.

TO'RTINCHI QISM

Yarim tun. Inoyat aya kuyoviga, qiziga, quda-andalariga berishi, tarqatishi lozim bo'lgan sarpolarni birma-bir ko'zdan o'tkazyapti. Xonaning yuzasi har xil matolarga limmo-lim bo'lib ketgan. Aya ularni o'mi bilan taxlab, katta sandiqqa joylayapti. «Dadajonisi bo'lganda edi», deydi-da ko'zidagi quvonch yoshlari ni artib oladi. «Ishqilib, el-yurt oldida uyalib qolmasam bo'ldi. Bitta-bitta yurib narigi xonaga o'tadi. Shiringina uxlab yotgan qizlariga tikiladi.

INOYAT: — Qizlarim, asallarim, tug'ilibsizlarki, boshlaring mehnatdan chiqmaydi. Zero, topganlaring yaxshi yigitlar bo'lib, baxtli yashasanglar, men ham armonsiz ketardim bu dunyodan.

Qizlarining sochini ohista-ohista silaydi, be-ozorgi-na o'padi. Uyg'ota boshlaydi, qizlar uyqusiraydi. Noga-hon Xurshidaning qo'lida uzuk ko'rib hayron bo'ladi.

XURSHIDA (*Uyqusirab*): — Ayajon, hozirgina yot-dik-ku.

INOYAT: — Tura qolinglar, molxonaga tezroq bora qolaylik. Yuragimni vahima bosyapti.

UMIDA: — Sizni vahima bosmagan kun yo'q, irim-chisiz.

INOYAT: — To'xta, qo'lingda uzuk paydo bo'lib qop-timi? Voy sho'rim.

XURSHIDA: — Ayajon.

INOYAT: — Chaynalma, ochig'ini ayt, yuragimdag'i qoralik shundandir.

XURSHIDA: — Beksulton akam bilan rayonda uchrashib qoluvdik.

INOYAT (*qo'rqib*): — Voy sho'rim, nikoh kechasi beriladi-ku, bunaqa uzuklar. Tag'in sharmanda qilmagin meni.

UMIDA: — Aya, hozir yangi odat paydo bo'lgan. Qiz yigitga turmushga chiqishga rozilik bergan kuni yigit tomon mana shunaqa uzuk sovg'a qiladi.

INOYAT: — Tavba... Tez bo'llaring, negadir haligi vahimam yanada kuchaydi. Kecha tushimda molxo-naga o't ketganini ko'ruvdim.

«Tiko»da fermaga ketishyapti. Rulda Xurshida. Inoyat tinmay Xurshidaning boshi-yu yelkalarini o'pib, silab boryapti. Umidaning bunga rashki keladi.

UMIDA: — Ja opamni ko'p silaydigan bo'p qoldingiz?

INOYAT: — Qaydam, fotiha to'y kelgandan buyon xuddi qizginamdan ajralib qolayotgandekman.

UMIDA: — Pochchamlarning uyi yaqin-ku.

INOYAT: — Qaydam, Xurshida, menga qara, nega to'y kunini belgilashni orqaga suryapsizlar?

XURSHIDA: — Ayajon, ko'rib turibsiz, bir yo'la o'n oltita buqa semirish pallasiga kirgan. Kuniga kamida bir yarim kilodan ko'paygan. Yana qirq kun boqsak, har biriga qanchadan yuk qo'shilishini bilasizmi? To'y kunlari esa ularga hech kim qaramay qo'yadi.

INOYAT: — Asalim-ey, biram hisob-kitobga ustasanki.

XURSHIDA: — Siz o'rgatgansiz-da, ayajon.

* * *

Molxonani aylanishadi. Hammayoq jumjut. Sigirlar, buqlar, buzoqlarning biri yotibdi, boshqasi uxlayapti, kavshanayotgani ham bor. Molxona eshigi yonida yotgan yigitni aya uyg'otib, bor bu kecha xotiningni yoniga borib yot, deb uyiga jo'natadi. O'rningda men yotarman, deb uni tinchitadi.

Qaytib ma'naviyat xonasiga o'tishadi.

AKMALXON QORI: — Kirsam maylimi? Mana buni oqshom darvoza yonida oyoqning tagidan topib oldim-u, hayron bo'ldim. Bunaqa yaltiroq qog'oz oyoq ostida yotsa uvol-ku, deb bunday olsam, qizim, sizning suratingiz ekan. Esdalikka tushgan ekansizlar-da.

Yaltiroq vatman qog'ozida katta fotosurat. Shoumar bilan Xurshida. Xurshida Shoumarning pinjiga kirib ketay-kirib ketay deb turibdi, ikki yelka bir-biriga qo'shib ketgan.

XURSHIDA (*qichqirib*): — Ayajon!

INOYAT: — Bu yoqqa ber-chi, voy sho'rim, to'y oldidan-a?!

XURSHIDA (*yig'lab, baqirib*): — Men u ablah bilan umrimda suratga tushmaganman-ku, surat ham ber-maganman-ku (*Polni tepadi, stolni mushtlaydi, rasjni yirtmoqchi bo'ladi*).

INOYAT: — To'xta, to'xta, yirtma. Bu yerda bir gap borga o'xshaydi... Aytdim-ku, ko'ksimni bir qora narsa bosib turibdi, deb. Voy sho'rim, qori pochcha, suratni hech kimga ko'rsatmadingizmi?

AKMALXON QORI: — Yo'q, juda chiroyli tushishgan-ku.

INOYAT: — Jon pochcha, bu surat haqida hech kimga ayta ko'rmang.

Akmalxon qori chiqib ketadi.

Ona-bolalar suratning orqasidagi katta-katta harflar bilan bitilgan «SEVISHGANLAR MURODIGA YETA-JAKLAR» degan yozuvni o'qib, yana ham dahshatga, vahimaga tushadilar.

* * *

Quyosh Qatron tog'i tepalariga kelib qolgan, uning qizg'ish nurlari yana ham quyuqlashgan. Fermada ish avjida. Sog'uvchilar ertalabki sutni sog'ib, yemchilar, xashakchilar shoshib-pishib ishlashyapti. Goho ikkitadan, uchtadan bo'lib allanarsalar haqida pichirlashib olishadi, yelka qisishadi. Ko'pchilikning mashqi past, xafa. Ma'naviyat xonasida qaltirab, rangi-quti o'chib Inoyat bilan Xurshida o'tiribdi. Stol ustida Xurshida bilan Shoumarning o'sha suratidan yana oltitasini yozib qo'yishgan.

INOYAT: — Sabrinisoni chaqiraymi?

XURSHIDA (*ovozi arang chiqadi*): — Nima qilasiz uni ham chaqirib?

INOYAT: — Axir u Bekslutronning ammasi, ona o'rnidai turibdi hozir.

XURSHIDA: — Nima qilasiz, hammaga oshkor qilib?

INOYAT: — Butun qishloq bilib bo'ldi-ku, qizim?

XURSHIDA: — Ayajon, o'zimni osib qo'yaman, chidamayman.

INOYAT: — Chidaymiz, qizim, chidaymiz. Bu ham Allohning bir sinovi.

XURSHIDA: — Boshimiz sinovdan chiqmay qoldi-ku (*stolni mushtlaydi*).

INOYAT: — Qizim, bu tuhmat ekanligini hamma bilib turibdi. Sen bilan men o‘zimizni yo‘qotib yig‘lashga tushsak, bu ishni qilganlar xursand bo‘ladi. Boshingni baland ko‘tar, qaddingni rostla. Bor molxonangga chiq, bir gapirib o‘n kulib yuraver. Avvalgidek yuzing-dan tabassuming arimasin. (*Baqirib*) Bor, deyapman!

Eshik sharaqlab ochilib, xonaga shoshgancha qo‘lida chelak bilan Xabarxon kirib keladi.

XABARXON: — Xurshida, ruxsatsiz kirganim uchun uzr.

XURSHIDA: — Opajon, siz o‘zi qachon ruxsat so‘rab kirgansiz?

XABARXON: — Meni bu yerga sut sog‘uvchi ayollar kiritishdi. Hammasi ham bu surat tuhmat, shu gapni kirib ayt, deyishdi. Mahalladagilar ham shu fikrda.

INOYAT: — Voy o‘lmasam, bu gap allaqachon mahallagayam borib yetibdimi?

XABARXON: — Ayajon, stoldagi suratning yarmini men mahalladan yig‘ib keldim-ku.

INOYAT: — Voy, tavba.

XABARXON: — Singlim, kuyunma, bu tuhmat, tuhmatning onasi. Tuhmatchini mana biz topamiz. Biz ayollar ayyor bo‘lamiz. Darrov topamiz. Xo‘p, du-gonalarimga chiqib nima dey?

XURSHIDA: — Ayting, aralashishmasin. Butun dunyoga bong urishning nima keragi bor?

XABARXON: — Esizgina, ruxsat berganiningizda o‘sha tuhmatchini topib, oldini orqasiga yopishtirib qo‘yardik (*norozi ohangda chiqib ketadi*).

* * *

Ferma yaqinidagi poyonsiz bedazor. Beda ko'karib tizzaga kelib qolgan. Kenglik bora-bora o'rkach-o'rkach adirlarga, qorli tog'larga qo'shilib ketadi. Xurshida bir o'zi yolg'iz kezadi, bir kuladi, bir yelkasini qisadi. Goho jahl bilan yer tepadi. Odamlarga ko'ringisi yo'q, ulardan qochib chiqqan. Yoshgina yigit ho' naridan turib ancha mahal Xurshidaga tikilib turadi.

YIGIT: — Opa, oldingizga borsam maylimi?

XURSHIDA (*hamon o'ychan*): — Nima ishing bor?

YIGIT: — Abdurauf akam jo'natdilar meni.

XURSHIDA: — E, Hoshimjonmisan, kelaver. Nima yaqinimga kelsang tishlab olamanmi?

YIGIT: — Endi deputat opa, odam botinolmaydi-da.

XURSHIDA: — Xo'sh, nimaga kelding yana?

YIGIT: — Abdurauf akam yana bor, oyoqlariga yiqil, tavba qil, keyin opa menga telefon qilsin, dedilar.

XURSHIDA: — Xuddi shunday dedimi?

YIGIT: — Ha, shunday dedi.

Kurshidaning yuzi-ko'zidagi qat'iyat kuchayadi. Qoshlari chimiriladi. Yonidagi uyali telefondan raqam teradi.

XURSHIDA: — Abdurauf aka, ha, menman, yaxshi, hammasi yaxshi. Bu yigitni ovora qilib yana nega jo'natdingiz? Yo'q, siz qulq soling menga. O'g'irlik bilan qo'lga tushdimi, akt yozildimi, tamom, guvohnomani endi DANning boshlig'i kelib oladi mendan. Yo'q, yo'q. Yanvardan buyon sutning yog'liqligini to'rt foizga tushirib keldingiz. Shofyorlarining yo'lda suv qo'shishyapti, molokovozni chayqaltirib, hosil bo'lgan qaymoqni yig'ib olishyapti deb bir necha bor aytdim. E'tibor bermadingiz, chunki bu qalloblikdan sizning xabaringiz bo'lgan. Haqqingiz yo'q, deysizmi, juda ham haqqim bor-da. Men deputatman. Endi sizga bir tomchiyam sut bermayman. Ana, Beshariq olyapti,

yog'liligi sakkiz foizga ko'tarildi. Gap tamom! Hoy Hoshim, sen ham jo'na!

YIGIT: — Jon opajon, endi hecham qilmayman bu ishni.

XURSHIDA: — Jo'na, deyapman, jo'na!

YIGIT: — Opajon, biz ko'chaga guvohnomasiz chiqolmaymiz, opajon, men uylanmoqchiydim.

XURSHIDA (*hushyor tortib*): — Uylanmoqchiydim?

YIGIT (*boshini egib*): — Ha, opam ikkovimizning top-ganimiz to'yga yetmaydi. Ballonniyam o'zimiz olamiz, benzinniyam yarmini arang berishadi.

XURSHIDA (*qiziqib*): — Dadang-chi, dadang to'yga yordamlashmaydimi?

YIGIT: — Dadam boshqa xotin olib ketgan.

XURSHIDA: — Uylanmoqchiman, degin. Necha yoshta kirding?

YIGIT: — Yigirma ikkiga.

XURSHIDA: — Sevgan qizing bormi?

YIGIT: — Ha.

XURSHIDA: — Uning yoshi nechada?

YIGIT: — O'n sakkizda bo'lsa kerak.

XURSHIDA: — Uyam seni sevadimi?

YIGIT: — Sevska kerak.

XURSHIDA: — Qizni qanday qilib sevib qolgansan?

YIGIT: — Chirolyi ro'molcha bergandi.

XURSHIDA: — O'zi to'qiganmikin?

YIGIT: — Ha, o'zi to'qigan.

XURSHIDA: — Hoshiyasida xati ham bormidi?

YIGIT: — Ha.

XURSHIDA: — O'qiganmisan? Esingda bo'lsa ayt-chi.

YIGIT: — Gulzorimda gulimsiz, bog'dagi bulbulimsiz.

XURSHIDA: — Faqat shumi?

YIGIT: — To'rt qirg'og'ining hammasida bor edi.

XURSHIDA: — Yana o'qi-chi.

YIGIT: — Sizga qora qosh bo'lay, tunlari yo'ldosh bo'lay.

XURSHIDA: — Menga qara, uka. O'sha qizni chin dildan sevasanmi?

YIGIT: — Chin dildan sevaman.

XURSHIDA: — Bordi-yu to'ylaringga xalaqit berishsa-chi?

YIGIT: — Nega hammasini so'rayapsiz, opa?

XURSHIDA: — Bilgim kelyapti-da.

YIGIT: — Magazinchi dadasi ko'nmay turibdi. Agar ko'nmay turaversa, kelishib qo'yanmiz, ikkovimiz qo'l ushlashib Sirdaryoga tashlaymiz-da, narigi dunyoda yana birga bo'lamiz. Marg'uba faqat sakrayotganda mening qo'lidan ushlab turasiz, degan.

Xurshida to'lqinlanib ketadi. Gapirolmay bir nafas jüm qoladi.

XURSHIDA: — To'yingga meni aytasanmi?

YIGIT: — Ayam deputat opangni ham taklif qilsang, to'ylaringning obro'si oshadi degan.

Xurshida qo'l telefondan Abdusamatni topadi.

XURSHIDA: — Xayriyat, xonangizda ekansiz, yig-itcha oldingizga boradi, guvohnomasini bering, aktni yirtib tashlang. Sutnimi, mayli, Abdurauf aka ming bor tavba qilyapti, zavodim yopilib qoladi, deb yig'lam-oqdan beri bo'lyapti. Sutniyam ertadan o'shalarga jo'nata qoling.

* * *

Ma'naviyat xonasi. Inoyat, Dilbar amma, Manzura, Abdusamatlar o'tirishibdi. Stol ustida Xurshida bilan Shoumarning baqamti tushgan suratidan oltiasi turibdi. Bu xunuk ishni kim qilganligi haqida tortishuv, bahs ketyapti. Hammalari asabiy, darg'azab. Eshik qattiq

ochilib, xonaga Bekulton kirib keladi. O'tirganlardan ko'ra ham darg'azabroq, asabiyroq. Jimgina stolga qarab, stol ustidagi suratlarni ko'rib qoladi. Qo'lidagi xuddi shunday fotosuratlarni ham stol ustiga irg'itadi.

BEKSULTON: — Xurshida qani?

Asabini bosolmay chiqib ketmoqchi bo'ladi. Inoyat aya yo'lini to'sadi.

INOYAT: — Shashtingizdan tushing, ilgari ukam edingiz, endi o'g'limsiz. Jon o'g'lim, sabr qiling.

O'tirganlar ham o'rnilaridan turib, yigitning yo'lini to'sishadi, yolvorishadi. Yigit asabiy holatda qaytib o'tiradi. Yana muhokama boshlanadi.

MANZURA: — Bekulton aka, bu isnod hamma-mizga tegishli. Butun ferma oyoqqa turgan. Bu shallaqi Mahfiratning ishi emasmikin?

DILBAR: — Yo'q, bu Shouumarning qilig'i.

ABDUSAMAT: — Shoumar o'lardek qo'rqoq, bunaqa ish qilmaydi.

MANZURA: — Mahfirat shallaqi-yu, lekin bunaqa iflos ishga qo'li bormaydi.

ABDUSAMAT: — G'ishtxonadagilar qilgan buni, Bekultonning obro'yini to'kmoqchi bo'lganlar bor, u bilan amal talashib yurganlarni ham bilamiz.

DILBAR: — Asossiz birovlarini ayplash yaramaydi, yaxshisi, yordam so'rab hokimiyatga murojaat qilaylik.

INOYAT: — Jon ammasi, Xurshidangiz gap qishlo-qdan chiqmasin, bo'lmasa o'zimni osaman, deyapti.

DILBAR: — Menga qarang, tuxumning yirigini so'rashti, buqaning semizini so'rashadi, sutning yog'lig'ini so'rashadi. Jiyanimning boshiga tashvish tushganda nega yordamga kelishmas ekan, kelishsin!

INOYAT: — Ammajonisi, bilaman, hammalaring yonib-kuyib ketyapsizlar, lekin Xurshidangiz ikki dunyodayam ko'nmaydi. U ham rahmatli dadasiga o'xshab qaysar.

BEKSULTON: — Gapirib bo'ldilaringmi, endi meni navbatimmi? Bu nomard kimligini o'zim aniqlayman. Aniqlangan joyida uni o'zim bo'g'izlayman. Agar bu surat Xurshidaning ishtirokida va uning ixtiyoril bilan olingan bo'lsa, mayli, qizingiz bilganini qilsin... Agar sizlar aytgandek qallobning ishi bo'lsa...

DILBAR: — Hoy kuyov, hoy o'g'lim, zinhor pichoq ishlata ko'rmanq.

Eshik ochilib, shoshgancha qo'lida gazetaga o'ralgan narsa ko'tarib Shokalon kirib keladi. Hamma hayron. Shokalon stol ustidagi suratlarga qaradi.

SHOKALON: — Iya, bu suratdan yana bormi? Iya, iya, ko'p-ku, tavba!.. Ertalab ko'cha eshikni ochgani chiqsam, ostona tagida turibdi. Avvaliga ko'zimga ishonmadim. Shoumarni tomog'idan bo'g'ib, esi yo'q, sen qildingmi, desam yig'lamoqdan beri bo'lib qasam ichib, e, dada, men qilsam bu zormandani o'zimizning ko'cha eshigimiz ostiga tashlaymanmi, dedi. O'ylab qarasam, uning gapi to'g'ri, negaki Shoumar mendan bemaslahat hech ish qilmaydi... Xo'sh, bu suratlarni sizlar qayerdan oldilaring?

DILBAR: — Har yerdan yig'ib kelishibdi.

SHOKALON: — Qanday chidab o'tiribsizlar?

INOYAT (*yig'lab*): — Nima qilaylik, chidamay?

SHOKALON: — Militsiyaga qo'ng'iroq qildilaringmi? Xo'p desalaring, mana o'zim gaplashaman. Bilasizlar, qaynim o'sha yerda ishlaydi.

INOYAT: — Xurshida qizingiz ko'nmaydi, militsiyani tilga ola ko'rmanq.

Beksulton Shokalonning qo‘lidagi suratni olmoqchi bo‘ladi.

SHOKALON: — Yo‘q, yo‘q, qo‘l tekkiza ko‘rmang, o‘g‘lim. Bu yerda barmoq izlari bo‘lishi mumkin. Ataylab gazeta bilan ushladim. Barmoq izi har qanday jinoyatning kaliti hisoblanadi. Bu suratlar orqali (*qattiq ovozda*) mening oilamning ham obro‘yi to‘kilyapti, bamisol to‘yni biz buzayotgandek bo‘lib chiqamiz... Bu ichki dushmanning ishi! Provakatsiya bo‘layapti bu yerda. Beksulton, suratlarni yig‘ib ber, bu ish bilan shaxsan o‘zim shug‘ullanaman. Men oilamning sha’nini yerga urib qo‘yadiganlardan emasman.

DILBAR: — Bu xunuk ishga keksalarning aralash-gani yaxshi bo‘lmas. Beksulton o‘zi shug‘ullansin.

SHOKALON: — Ajoyib yigitsan-da, kuyov bola. Bu qabih ishni ikkalamiz oxirigacha olib boramiz. Sening g‘ayrating-u, mening tajribam... Bir yo‘la uch oilaning obro‘yi to‘kilyapti-ya.

BEKSULTON: — Aya, Xurshidaning o‘zi qayerda hozir?

INOYAT: — Bilmayman, o‘g‘lim, bilmayman. Tezroq axtarib toping, o‘zini bir narsa qilib qo‘ymasin. Voy sho‘rim, tezroq topinglar.

To‘planganlar Inoyatni o‘rtaga olishadi, suv ichirish-adi, sekin divanga yotqizishadi.

* * *

Keng bedapoyada Beksulton tovuqxonaga qarab yugurib boryapti.

Xurshida tovuqxonadan o‘ychan chiqib kelyapti.

XURSHIDA: — Tavba, tovuqlarda ham bir-biriga mehr bo‘larkan-da, xo‘rozi makiyonni himoya qilar-

kan-da. Qiziq, ona tovuq tuxum bosib yotganda xo'roz atrofida girdikapalak bo'lib turarkan-a... Tavba, qiziq, ona tovuq tuxum qo'yib chiqqanda xo'roz o'zi qarshilab olarkan. G'alati-g'alati odatlari bor ekan bularning. Qiziq, odamlar bulardan o'rganganmi yoki odam bularga o'rgatganmi?

Ikkovlari bir-birlarini ko'rib to'xtashdi. Tikilib tek turib qolishadi. Beksulton sekin-asta yaqinlashadi.

BEKSULTON: — Xurshida!

XURSHIDA: — Beksulton aka! (*Yig'lab yuboradi*)

BEKSULTON (*Yana ham yaqin borib, qizning boshini bag'riga bosadi, sochlaridan silaydi*): — Yig'lama, u nomardni, albatta, topaman, topaman-u joyida bo'g'izlayman.

* * *

G'ishtxonaning umumiyo ko'rinishi. Xom, pishgan, siniq g'ishtlar, tuproqlar uyumi, keng loyxona, yuk mashinalari kirib-chiqib turibdi. Xurshida, Beksulton va boshqa bir-ikki mutaxassis g'ishtxonani aylanib yurishibdi.

XURSHIDA: — «Ko'kdala»ga qo'shilishga rozimisizlar?

OVOZ: — Qarzimizni to'lamoqchi emishsiz-ku.

XURSHIDA: — Yarmini to'lab bo'ldim.

OVOZ: — Boshqalarda ancha-muncha o'tishga-nimiz bor. O'shalarniyam undirib berasizmi, axir siz deputatimizsiz-ku.

XURSHIDA: — Bu ishga allaqachon kirishganman.

* * *

XURSHIDA: — Jon uka, siz mening mashinamni minib ketavering.

Mutaxassislarining biri Xurshidaning mashinasini minib, «Ko'kdala» tomonga ketadi.

* * *

Xurshidaning dashtdagi yerlariga olib boradigan dala yo'li. Beksulton bilan Xurshida suhbatlashib boryapti.

XURSHIDA: — Keyin-chi?

BEKSULTON: — Keyin tomog'idan oldim.

Tasvirda Shoumarning o'rikzori, Shoumar bilan Beksulton dovlashib turibdi. Beksultonning qo'li Shoumarning yoqasidan siqib olgan.

BEKSULTON: — Yo'q, bu iflos ishni sen qilgansan.

SHOUMAR: — Men qilgan bo'lsam xudo ursin, deyapman-ku.

BEKSULTON: — Yo'q, bu pastkashlikni sendan boshqasi qilmaydi.

SHOUMAR: — Non ursin.

BEKSULTON: — Bo'yningga ol.

SHOUMAR: — Nafasim chiqmayapti, sal bo'shat. Axir men qilgan bo'lsam, birim ikki bo'lmasin. To'g'ri, seni yomon ko'raman, rashk o'tida yonib ketyapman, aslida bundan battarini qilishga ham tayyorman, lekin bu ishni men qilganim yo'q. Ishonmasang, mana, qo'lingda pichoq, ur, ur ko'kragimga, bir yo'la qutulib qo'ya qolay.

...Tasvirda Beksulton bilan Mahfirat. Ikkovi ham hayajonda.

MAHFIRAT (*yig'lab*): — O'lay agar, men qilgan bo'lsam.

BEKSULTON: — Sen Xurshidadan o'ch olmoqchi bo'lqansan.

MAHFIRAT: — To'g'ri, ikkovingniyam ko'rgani ko'zim yo'q, otgani o'qim yo'q, lekin bu pastkashli-

kni men qilmadim. Endi bo'lari bo'ldi, kech qoldim... Beksulton aka (*yig'lab*), men sizni yaxshi ko'rardim, ajralib qolishdan qo'rqardim, ajralib bo'ldim endi! Hech bo'lmasa, akam bo'lib qoling, mana bu yerimga hech bo'lmasa malham bo'ling. Akam sifatida hech bo'lmasa, boshimni bir silab qo'ying.

BEKSULTON: — Yig'lama, kim qilganini ham bilmaysanmi?

MAHFIRAT (*battar yig'lab*): — Boshimni silab qo'y, deyapman!

BEKSULTON: — Kim qilganini ham bilmaysanmi?

MAHFIRAT: — Yo'q, yo'q, bilmayman... El oldida Xurshidaning sochini yulganim ham yetar. O'shangan ham xijolatdaman... Bo'lari bo'ldi, biz endi aka-singilmiz... To'ylaringda «Yor-yor» aytmasam, odam emasman.

Yig'laydi, ko'ksini mushtlaydi.

Yana o'sha dasht yo'li. Yo'lning ikki tomonidan Xurshidaning yovvoyi beda ekilgan maydonlari. Shu yo'lakchadan yana ikkovlari yurib borishyapti.

XURSHIDA: — Keyin-chi? Tezroq aytинг, keyin nima bo'ldi deyapman.

BEKSULTON: — Xurshida, juda betoqatsan. Keyin Yaypanga borib, bir necha suratchilar bor ekan, qo'shaloq suratni qaysisiga ko'rsatsam, bu Aliyevning ishi, deyishdi. Aliyev deganlari yosh yigit, xususiy suratchi ekan. Voy bechoraning qo'rqqani, dag'-dag' qaltilaydi. Oxiri mana bu tilxatni yozib berdi. O'qiysanmi?

XURSHIDA: — Yo'q, o'zingiz o'qiy qoling.

BEKSULTON (*o'qiydi*): — «Menkim, xususiy suratchi A.Aliyev shuni ma'lum qilamanki, bundan bir necha kun oldin yetmish yoshlardan oshgan bir kampir kelib, mana bu suratdagi ikki nabiramni birlashtir, bir surat qilib ber, to'ylariga sovg'a qilmoqchiman, dedi. Biridan o'ng, boshqasidan chap elkasini qirqib, bir-

lashtirdim. Kampir ertasiga haqini to'lab, suratni olib ketdi. Kampirning ismini ham, qaysi qishloqdanligini ham bilmayman, ko'rsam taniyman».

XURSHIDA: — Tavba, bu qanaqa kampir bo'ldiykin?

BEKSULTON: — Katta Tagob qishlog'ida ellikdan ortiq yetmishdan oshgan kampir bor ekan, surishtirishni qaysi biridan boshlashni bilmay turibman.

XURSHIDA: — Bas qiling (*Ikki qo'li bilan yuzini berkitadi, tepinadi*). Bas, bas, bas!

* * *

Bahavo shiypon. O'rtada katta hovuz, atrofida baland o'sgan tollar. «Ko'kdala» fermasi bilan g'isht zavodining qo'shilishiga bag'ishlangan ziyofat bo'lyapti. Erkag-u ayollar, bolalar xuddi bayramdagidek bashang kiyinishgan, yerga gilamlar to'shalgan, atlasi ko'rpa chalar yozilgan, dasturxonda har xil noz-u ne'matlar... Qovun, handalak pishgan palla. O'tirganlar ikkitadan-uchtadan bo'lib, tik turganlar ham xuddi shu holatda suhbatlashishyapti, bahslashishyapti.

Beksulton o'z davrasida.

Shokalon, O'noshilar o'z davrasida.

Inoyat, Sabriniso, Xabarxonlar o'z davrasida.

Bahrom yelkasida kamera bilan goh u guruhi oldida, goh bu guruhi oldida to'xtab tasvirga tushiryapti.

BAHROM: — Buni, albatta, «Yoshlik»ka jo'nataman. Ikki fermaning qo'shilishini jon-jon deb berishadi.

Bahrom tasvirni hovuz bo'yida sut sog'uvchi qizlar davrasida o'tirgan Umidaga yo'naltiradi.

BAHROM: — Suv yoqasida bir parikim oltirur, G'oyati nozikligidin suv bilan yutsa bo'lur.

Bahrom o'ziga yordamchilik qilib yurgan yigitchadan so'raydi.

BAHROM: — Buni kim yozgan?

YIGITCHA — Buni siz yozgansiz, ustoz.

BAHROM: — Agar ko'nglimni olsa,

Ushbu turkiy jononi,

Qaro xoliga baxsh etgum,

Samarqand-u Buxoroni.

BAHROM: — Xo'sh, ukam, bunisini kim yozgan?

YIGITCHA — Bunisiniyam, ustoz, o'zingiz yozgansiz.

BAHROM: — Barakalla, ukam, agar yozsam bundan-da zo'rroq yozardim-ku, lekin bularni men yozmaganman.

Tasvir obyekti o'zgaradi, kamera endi davra qurib, askiya aytishib o'tirgan g'isht zavodining ishchilariga qaratiladi.

BAHROM: — Zo'r, zo'r, ana shunday tushira olsam, zo'r.

G'isht quygan azamat, quygan g'ishtingga rahmat, Yarmi siniq, yarmi xom, tezroq xatongni tuzat...

Qani, ayt-chi, buni kim yozgan?

YIGITCHA — Muqimiy hazratlari yozgan.

BAHROM: — Yo'q, uka, bunaqa xom she'rlarni men yozaman.

Tasvir obyekti o'zgaradi, endi tasvirda sut sog'uvchi ayollar, qizlar ko'rindi.

BAHROM:

— Sutingizning yog'i kam, o'lchab ko'rsam chog'i kam, Xashakni kam beribsiz, bedangizning cho'g'i kam... Xo'sh, ukam, buni kim yozgan?

YIGITCHA — E, boring-e, o'sha she'rlaringizniyam...

Abdusamat to'yoshilardan biri. O'tirganlarni jim bo'lishga, diqqat bilan tinglashga chaqiradi. Xurshida-ga ikki og'izgina so'z ayting, deya iltimos qiladi.

XURSHIDA: — Hurmatli opalarim, akalarim! Uch yildan buyon kichkinagina g'isht zavodi bilan «Ko'kda-la» fermasini qo'shish haqida gap boradi. Bugun xudo-ga shukr, niyatimizga yetdik. Mana, hokimiyatning rozilik bergenligi haqidagi qaror... Bu nima degani? Bu – mablag'lар birlashdi degani. Bu nima degani, bu – dashtda sement qoradigan zavod quramiz, degani. Bu nima degani, bu – qishlog'imizga qator-qator g'ishtli imoratlar quramiz, degani... Qani, bir-birlaringni bir tabriklab qo'yinglar-chi.

Hamma bir-birini tabriklaydi, qarsak chalinadi, xur-sandchilik boshlanadi.

Keksalar davrasida o'zini behad xursand ko'rsatib, hech kimga gap bermay o'tirgan Shokalon o'rnidan turadi.

SHOKALON: — Tagoblilarni katta g'alaba bilan tabriklayman, yoshlар ichsin, keksalar duo qilsin!

G'ishtchilar davrasida kayfi baland holda o'tirgan Akrom o'rnidan turadi.

AKROM: — Xurshidaxon singlimga bitta savol bersam maylimi? Singlim, siz Gollandiyada ham bo'lgansiz-a?

XURSHIDA: — Bo'lganman.

AKROM: — Meni ham bir xizmat safariga jo'nats-maysizmi?

XURSHIDA: — Borsangiz, albatta, jo'nataman.

AKROM: — Jo'natsangiz, men borib gollandlarga g'isht quyish qanaqaligini ko'rsatib qo'yaman. O'sha yoqdan bitta «Mersedes» olib kelmasam, Akrom otimni boshqa qo'yaman.

G'ishtchilar davrasida o'tirgan Usmon G'ani Akromni yelkasidan «o'tir» degandek bosib, o'zi o'rnidan turadi.

USMON G'ANI: — Abdusamat.

ABDUSAMAT: — Labbay, o'rtoq.

USMON G'ANI: — Yangi fermada endi sen muovin, men muovin, to'g'rimi?

ABDUSAMAT: — To'g'ri, o'rtoq.

USMON G'ANI: — Sal kundan keyin ikkovimizni qisqartirib yuborishsa nima qilamiz?

ABDUSAMAT: — Qayg'urma, o'rtoq. Mana O'nboshi bobomning bedazorlari keng, o'sha yoqqa uchib borib, «pitpildiq» deb yuraveramiz.

USMON G'ANI: — Bedana bo'lamizmi?

ABDUSAMAT: — Ha, bedana bo'lamiz. Mana mening bitta ko'zim qisiq, sening boshingda soching yo'q, lekin bir-birimizning aybimizni yuzimizga solmaymiz-da.

USMON G'ANI: — Yo'q, solmaymiz. Lekin o'tgan yili yaxshi boqmaganim uchun yomon sayragansan.

ABDUSAMAT: — Nima deb sayraganman?

USMON G'ANI: — Boshimga qarab turib «sip-silliq, sip-silliq», deb sayragansan-a?

ABDUSAMAT: — Lekin o'shanda menam bo'sh kel-ganim yo'q, aftingga qarab turib «shilliq, shilliq», deb sayrab yuborganman.

USMON G'ANI: — Bir kuni bunday qarasam, boshingni pashsha talayotgan ekan, «talang, talang» deb sayraganman.

ABDUSAMAT: — O'sha kuni men ham bir narsani sezib qoldim. Bunday qarasam, qorning katta bo'p opti, «xom qovoq, xom qovoq» deb sayradim.

USMON G'ANI: — Lekin menam bo'sh kelganim yo'q, uzoqdan qaraganimgami, boshing cho'zin-cho-qroq ko'rindi. Shuning uchun menam «xamak, xamak» deb sayrayverganman.

ABDUSAMAT: — Lekin o'sha kuni sendan xafa bo'dim. Keta turib oldimdag'i chigirtkamni cho'qib ketibsan.

USMON G'ANI: — To'g'ri, qornim och edi, cho'qib ketganman. Lekin tekinga emas, keta turib, qovog'in-gning orqasini teshib, ichiga to'ldirib don solib ketganman.

Kulgi avjiga chiqadi, yutqazding-yutqazding, degan ovozlar eshitiladi. Shiyponnaq orqa tomonidagi keng o'rikzor tarafdan ayollarning qiyqirig'i, ashulasi eshitiladi. Bahrom o'sha yoqqa oshiqadi. Umida ashula aytayotgan ekan.

Osmondagi to'rg'aylar,
Bu g'arib kimni poylar?

Bahrom mahliyo bo'lib qoladi.

Beksulton bilan Xurshida hokimiyatdan kelgan vakil bilan shoshilib jo'nab ketishadi.

ABDUSAMAT: — Endi mayli, miriqib o'ynab-kulingerlar. Lekin bir xushxabarni aytmoqchiman. Xurshidxon bilan Beksulton ukamizning nikoh to'ylari 12 iyulga belgilandi. Taklif qog'ozlar alohida tarqatiladi.

Keksalar O'nboshi boboni, ayollar Inoyat ayani tabriklashadi. Mast bo'lib qolgan Akrom o'rnidan turadi.

AKROM: — Lekin tagoblilar, o'sha kuni to'yga ko'p deputatlar keladi. Ko'p ichib, meni uyaltirib qo'y-

manglar... Men ungacha Gollandiyaga ketib qolgan bo'laman.

* * *

Tun. Inoyat ayaning hovlisi. Hamma chiroqlar yoqilgan. Aftidan ikki-uch kun oldin barcha uylar, hovlilar ta'mirdan chiqarilgan. Hammayoq charaqlab ketgan. Ayvonda Dilbar amma, Inoyat aya, Xurshida, Umida, Zarifa o'tirishibdi. Oqshom to'yning sarpolari kelgan. Uy bilan bitta qilib tashlashgan, sanashyapti, taxlashyapti.

DILBAR: — Sabriniso har qalay ona o'rnilida-da, sарони чакки жо'натмабди.

INOYAT: — Hammalari tagli-tugli odamlar-da.

XURSHIDA (*shoshilib o'rnidan turib kuladi*): — Am-majon, O'nboshi bobom tinmay ayajonimgasovchi jo'natayotgan edi, tag'in bu kiyimliklarni ayajonimiz ikkovimizга жо'натган болмасин.

Hammalari kulishadi.

INOYAT (*kula-kula*): — Qizginam, hech bo'lmasa sen hazilingni to'xtatib turgin.

DILBAR: — Xurshida, O'nboshi bobomning himmati baland ekan, Xurshida kelinimga to'y kuni hadya qilaman, deb bedasini sotib, yangigina mashina olibdi.

UMIDA: — Opajon, agar pochcham sizga mashina sovg'a qilsa, o'zingiznikini menga berasiz, Bahrom akam minishni o'rgatyapti.

INOYAT (*Bahromning nomini eshitib, hushyor tortadi*): — Nima, o'rgatyapti, yoniga o'tqizib-a?

DILBAR: — Inoyatbonu, kiyimlar shunaqa rang-ba-rang, shunaqa ko'pki, nazarimda uchchovlaringning to'ylaringga yetadiganga o'xshaydi.

Kulishadi. Xurshida narigi xonaga kirib kuyov tomondan kelgan ko'ylak bilan zar jiyakli atlas lozimini kiyib chiqadi.

XURSHIDA: — Yarashibdimi?

DILBAR: — Voy, voy, ammaginang o'rgilsin, yarashish ham gapmi, hamisha shim kiyib yurganingga g'alati ko'rinarkan.

XURSHIDA: — Ammajon, mening tagobli qizlardan qayerim kam? Kiyaman, xudo xohlasa, to'yimdan keyin bir oygacha ana shunday kiyinib yuraman.

Barmoqlarini qarsillatib o'yinga tushadi.

* * *

Ammalari ketgan. Inoyat uch qizning o'rtasida taxlab qo'yilgan kiyim-boshlar, to'y sarpolari orasida o'tiridi. Qizlarining yelkasiga qo'llarini tashlab olgan. Ona mamnun, ko'tarinki kayfiyatda.

INOYAT: — Ona qizlarim, asallarim, baxtliman, quvonchim olamga sig'mayapti... Rahmatli dadalaring bu kunlarimizni qanday orzu qilgan edi-ya, qani edi yonginamda bo'lsa (*yig'lashga tushadi*).

QIZLARI: — Bas, ayajon. Bo'lmasa biz ham qo'shilib yig'laymiz.

INOYAT: — Xursandligimni ichimga sig'dirolmay-apman!

Ko'cha eshikni birov qattiq taqillatadi. Zarifa chiqib ochadi.

ABDUSAMAT: — Xurshida, nega telefoningni o'chirib qo'yding?

XURSHIDA: — Tinchlikmi, sal o'zingizni bosing.

ABDUSAMAT: — Bekultonni mashina bosib ketibdi.

INOYAT: — Mashina urib ketibdimi?

ABDUSAMAT: — Bosib ketibdi!

BESHINCHI QISM

Ertalab. Tuman kasalxonasining oddiygina bir xonasid. Yog'och karovatda yaralangan Bekulton yotibdi. Oq doka shunday ko'p o'ralganki, bamisli ulkan qo'g'irchoqqa o'xshab qolibdi. Qon quyish moslamasi ulangan. Bir tomonida hamshira, ikkinchi tomonida Xurshida o'tiribdi. Nariroqda devorga yaqin joyda Sabriniso, Inoyat ayalar o'tirishibdi. O'nboshi har zamonda boshini chayqab «Yo, Alloh» deb qo'yadi. Inoyat pichirlab allaqanday duolar o'qiydi, yuziga fotiha tortadi.

SABRINISO: — Jiyanginam, yolg'izginam (*xo'rsinadi*).

Xurshida betoqat, turadi, o'tiradi, o'y surib ketadi.

HAMSHIRA: — Uxlamang.

BEKSULTON: — Uxlaganim yo'q.

Shoshilib doktor kirib keladi.

DOKTOR: — Qalay?

HAMSHIRA *Moslamadan oqayotgan sun'iy qonni ko'rsatib*: — Yaxshi ketyapti.

DOKTOR: — Siz xotini bo'lasizmi?

XURSHIDA: — Unashib qo'yilganmiz.

DOKTOR: — Demak, to'y bo'lар ekan-da. Meniyam, albatta, aytasiz-da.

Chekkada o'tirgan Sabriniso shoshilib o'midan turadi.

SABRINISO: — Xudo xohlasa, inim, to'yga sizni o'zim aytaman. Sizga boshdan-oyoq sarpo qilaman.

DOKTOR: — Onasimisiz?

SABRINISO: — Ammasi bo'laman, aylanay.

Doktor Beksultonning yurak urishini eshitadi, tomir urishini o'lchaydi.

DOKTOR: — Og'riq kamaydimi?

Beksulton bosh chayqaydi.

DOKTOR: — Hozir bir ilojini qilamiz.

* * *

Tashqarida ko'ngil so'rab kelgan molboqarlar, sog'uvchi ayollar, g'ishtchilar bir-biriga so'z bermay bahslashishyapti.

OVOZ: — Yo'q, Usmon G'ani, bir nafas jim turgin.

OVOZ: — Bo'lmasa, bo'ladigan gapni tezroq ayt.

OVOZ: — Velosiped minib kelayotuvdim.

OVOZ: — Buni hozir aytding-ku, ezma.

OVOZ: — Oldin Beksulton «Moskvich»ini shunday haydab o'tdiki, bay-bay-bay, yoqamni ushladim, keyin ko'z yumib-ochguncha orqasidan yuk mashinasi o'tdi. Uchib o'tdi, desam, ishonaver. Keyin gumburlagan ovoz eshitildi. Uh, avariya bo'ldi-ku, deb o'yladim... Borsam... Sigaretingdan ol.

OVOZ: — Avval tugat, keyin beraman.

OVOZ: — Beksultonning mashinasi ariq ichida g'ildiragi osmondan bo'lib yotibdi. G'ildiragi aylanib turibdi. Bay-bay-bay, Beksultonni olay desam, chap eshigini o'rindiqqa yopishtirib tashlabdi. Atrofda zog' yo'q. Beksulton arang nafas olyapti, qon sharillab ketib

turibdi. Beksulton bir o'ziga kelib, bir o'zidan ketadi. Odam top, odam top, deb xirillaydi. Dashtda odam nima qilsin? Molxonaga qarab yugurdim, to'g'rimi, Abdusamat?

ABDUSAMAT: — To'g'ri.

OVOZ: — Keyin g'ishtonaga qarab yugurdim. Seni topdim, to'g'rimi?

USMON G'ANI: — To'g'ri.

OVOZ: — Akrom bilan yarimtani o'rtaga qo'yib karta o'ynab o'tiruvdilaring, to'g'rimi?

USMON G'ANI: — Lekin shisha bo'sh edi.

OVOZ: — Bu yaramaslar yana yashirib g'isht soitishganga o'xshaydi, deb o'yladim. To'g'rimi?

USMON G'ANI: — Noto'g'ri. Bunday deb o'ylaganing yo'q. Tezroq ayt, mashinaning raqamini eslab qolganmisan, deyapman.

OVOZ: — Ming marta aytdim-ku, Konibodomning mashinasi, deb.

Suhbat, har xil taxminlar to'xtamaydi. Doktor bemooring qon bosimini yana o'lchaydi, o'zicha mamnun.

XURSHIDA (*sekkingina*): — Qalay?

DOKTOR: — Xudo xohlasa, krizis o'tyapti.

XURSHIDA: — Bosim-chi?

DOKTOR: — Oltmishta chiqibdi. Endi amaki, opajonlar, ko'rib turibsizlar, kun issiq, xona tor, bemorga havo yetishmayapti. Tashqariga chiqishlaringni so'rayman.

Birgalashib hovliga chiqishadi. Doktor negadir to'planganlarga uzoq tikiladi.

OVOZ: — Buncha qovog'i soliq, bu doktorining?

OVOZ: — Kechasi operatsiya qilgan, uxlamagan-da.

OVOZ: — Qovog'imni solib tursam, ko'proq berish-adi, deb o'ylayotgandir?

OVOZ: — O'chir ovozingni, hamma senga o'xshagan emas.

DOKTOR: — Qaysi birlaring qon topshirgani kel-gansizlar?

BIR NECHA OVOZ: — Hammamiz qon topshirgani kelganmiz.

AKROM (*shirakayf*): — Doktor, mening qonimdan olaqoling, meniki eng toza qon, kechadan buyon bir tomchiyam ichganim yo'q.

DOKTOR: — Gruppangizni bilasizmi?

AKROM: — Bilmayman.

DOKTOR: — Sizning gruppangiz?

ABDUSAMAT: — Hech tekshirtirgan emasman.

Doktor yana uch-to'rt kishidan so'raydi. Hech biri gruppasini bilmas ekan. Nihoyat, Mahfiratning oldida to'xtaydi.

DOKTOR: — Siz-chi?

MAHFIRAT: — Men tikuvchilik sexi ochganman, har olti oyda qonimni tekshirtirib turaman.

DOKTOR: — Gruppangiz?

MAHFIRAT: — 3-musbat.

DOKTOR: — Pasportingiz yoningizdam?

MAHFIRAT: — Yonimda.

DOKTOR: — Orqamdan yuring, tez-tez bo'ling.

Mahfirat Xurshidaning yonida to'xtaydi.

MAHFIRAT: — Dugonajon, bilaman, ko'nglingdan nimalar o'tayotganini. Rashkda kuydim-yondim, endi hammasi o'tib ketdi. Beksultonning singlisi yo'q edi, mening esa akam. Mana, xudo oldida, hamqishloqlar-im oldida baland ovoz bilan aytyapman, Beksulton

bilan aka-singil tutindik, men bu yerga uning singlisi sifatida keldim.

Mahfirat yig'lab yuboradi, Xurshida uning sochlarini silaydi, yupatadi, o'zi ham yig'ladi.

AKROM: — Doktor aka, ayol kishining qonini erkakka quysa, erkakning fe'li aynib, sal g'alatiroq bo'p qolmasmikin?

DOKTOR (*Xo'mrayib*): — Qonning erkak-urg'ochisi bo'lmaydi (*Mahfiratni ergashtirib chiqib ketadi*).

* * *

XURSHIDA: — Abdusamat aka, Ismoil aka, Xabarxon opa (*to'xtab ko'z yoshini artib oladi*), hammalaringga rahmat, bu kecha uxlama dilaring. Deputatlikka saylangan kunim ham xuddi shunaqa tuni bilan uxlama gandilaring, demak, men ham, Beksulton akam ham tagoblilarga kerak ekanmiz. Rahmat, endi qaytinglar (*yana ko'zida yosh ko'rindi*).

ISMOIL: — Hoy qizim, Beksulton kuyovimiz bilan Xurshida kelinimizni o'ksitib qo'yamaymiz, deb o'tirib-miz bu yerda. To'ylaringniyam xudo xohlasa, belgilangan kunda o'tkazamiz. Kerak bo'lsa, to'y kechasi kuyov bolani yelkamda ko'tarib o'tiraman...

XURSHIDA: — Abdusamat aka, bedani o'rishga kombayn gaplashgan edim.

ABDUSAMAT: — «O'zbekiston» bilanmi?

XURSHIDA: — Ha, gektariga yigirma ming so'mdan-ga ko'nishmayapti.

ABDUSAMAT: — Yana ikki mingdan qo'shaylik. Ertaga baribir yana o'shalarga ishimiz tushadi.

XURSHIDA: — Mayli, bir yarim mingdan qo'sha qoling. O'nboshi bobo, o'zingiz boshida turarsiz?

O'NBOSHI: — Yo'q, yo'q, qizim, yakka-yu yolg'iz o'g'lim bu ahvolda-ku...

XURSHIDA: — Bobojon, beda sizniki, shartnomani siz bilan tuzishadi, siz qo'l qo'yasiz, kombayndan bugun foydalanim qolmasak, yana bir oy kutishga to'g'ri keladi. Ho'l bedangizning xaridori oyog'ini tirab turibdi. Kilosiga yigirma besh tiyindan so'rang. Ayajon, siz ham bora qoling. Hammasiga baribir o'zingiz bosh bo'lasiz. Bobojonim oqko'ngil, shartnomani arzonroqqa tuzib qo'yishlari mumkin.

HAMSHIRA: — Xurshidaxon, sizni bemor so'rayapti.

* * *

«Ko'kdala» fermasining darvozasi oldida mo'jazgina qorovulkxona bor. Xonada qorovul Akmalxon qori bilan Inoyat aya suhbatlashib o'tiribdi.

AKMAL QORI: — Faqat oyoqlari sinibdimi?

INOYAT: — Chap oyoqdan tashqari chap qovurg'a bilan chap qo'liyam deyishyapti.

AKMAL QORI: — Jonlari omon qolibdi, xudoga shukr qiling.

INOYAT: — Qori pochcha, tavba qildim, keyingi paytlarda nuqul ishimiz orqaga ketayotganga o'xshaydi.

AKMAL QORI: — Inoyatbonu, o'zingiz ham gunoh ishlarni ko'p qilyapsiz-da.

INOYAT: — Erta-yu kech tinimsiz mehnat qilishdan boshqa gunohim yo'q mening.

AKMAL QORI: — Barakalla, tinimsiz ishlaysiz, boshqalarga ham tinim bermaysiz, demakki, aziz jonlariga ozor berasiz. Bu gunohi azim emasmi? Boshqacha gunohlaringiz ham yo'q emas. Mana shuning uchun ham boshingiz balolardan chiqmayapti.

INOYAT: — Tavba, nima qilibman axir?

AKMAL QORI: — Qizlaringizning qulog'iga azon aytgan, marhum eringizni lahadga qo'yayotganda

Taborak surasini o'qib turgan qori sifatida shuni aytamanki, Gollandiyadan kofir novvoslarni keltirib, musulmon g'unajinchalarni qochirgansiz. Bu ishingiz gunohi azim emasmi?

INOYAT: — Qori pochcha!

AKMAL QORI: — Yana tag'in deputat qizingiz «Sigirlar onamiz, buzoqlar farzandimiz» deb molxonaga necha bor kufr yozuвлar osib qo'ydi.

INOYAT: — Gollandiyada shunaqa ekan-da.

AKMAL QORI: — Ular g'ayridinlar, biz Allohga shukr, musulmonlarmiz. Musulmon hech qachon hayvonni onam yoki bolam demaydi. Sekin qulog'ingizga aytib qo'yay, hayvonlar hamisha nikohsiz tug'iladi... Yana tag'in...

INOYAT: — Nima yana tag'in? (*Inoyat qizisha boshlaydi*).

AKMAL QORI: — Deputat qizingiz qarib qolding deb, Omina buvi, Buvinisa buvi, Ruqiya kampirlarni ishdan bo'shatdi. Bular ham gunohi azim emasmi?

INOYAT: — Kampirlaringizni bag'rimizga bosib o'tiraversak, yosh qizlar, kelinlar qayoqqa borsin?

AKMAL QORI: — Bilib qo'ying, qizingiz rahmsiz, dilozor, yana tag'in necha bor shim kiyib yurganini ko'rganman.

INOYAT: — Qori pochcha, ja ichingiz to'lib ketgan ekan-ku...

AKMAL QORI: — Mana shu gunohlaringizni yuvish uchun ham tez-tez xudoyimi, xayriya oshimi tarqatib turishingiz kerak edi.

INOYAT: — O'zimam shu maslahat bilan oldingizga kiruvdim.

AKMAL QORI: — Ochiq aytинг, xudoyimi yo xatmi Qur'on o'qitmoqchimisiz?

INOYAT: — Xudoyi qilsak ko'proq odam bahra olarmikin, degandim-da.

AKMAL QORI: — Xo‘p, qaysi kuni o‘tkazmoqchisiz?

INOYAT: — Rozi bo‘lsangiz, chorshanbada deb turibmiz.

AKMAL QORI: — Yaxshi, qizingiz ham, o‘zingiz ham ko‘p aqllisizlar-da. Menga qarang bonu, shu xudoyiga masjiddan Rashidxon qorini aytmay qo‘ya qoling.

INOYAT: — Nega?

AKMAL QORI: — Yoqtirmayman.

INOYAT: — Juda sipo kiyinadilar-ku.

AKMAL QORI: — Sipo kiyinmay o‘lsinlar, yaqindagina fizikadan dars berardilar, endi to‘rtta surani yod olib, kimsan, Rashidxon qori bo‘p qoptilar. Yoshi ellikka borgani yo‘g‘u, yo Alloh, bu soqol qayoqdan paydo bo‘ldiykin? Yana tag‘in masjidning orqasiga o‘tib, yoshlар bilan domino o‘ynaganiga kuyaymi?

INOYAT: — Ma’qul, qori pochcha, siz nima desangiz shu.

AKMAL QORI: — Xudo xohlasa, kuyovimiz tuzalib chiqadi, deputat qizim bilan ikkovilarining nikohini ham o‘zim o‘qiymen.

INOYAT: — Xo‘p, qori pochcha, endi men boray.

AKMAL QORI: — Yo‘q, bonu to‘xtang, xudoyiga qo‘y so‘yilsa, kalla-pochasini begona qilmang, ammangiz o‘pkaga sut quyib pishirishni yaxshi ko‘radi. Ey, bonu, qorovulxonada o‘tirib kun bo‘yi tasbeh o‘girish bilan tirikchilik o‘tadimi? To‘xtang, bir chiroyli tilovat qilaylik.

* * *

Beksulton yotgan xonadan hamshira kuzatuvida militsiya kichik leytenantchi chiqadi. Yo‘lakda Xurshidani doktor bilan tik turib gaplashayotganini ko‘rib xijolat bo‘ladi.

LEYTENANT: — Iya, deputat opani kuttirib qo‘yib-miz-ku.

XURSHIDA: — Zarari yo‘q, biron yangi gap topib kelganmidingiz?

LEYTENANT: — O‘sha kechagi gap.

XURSHIDA: — Qaysi kechagi gap?

LEYTENANT: — Orqamdan quvganlari aniq, deyapti.

XURSHIDA: — Boshqa hech narsa aytmayaptilarmi?

LEYTENANT: — Yo‘q, uzr, men ketdim.

* * *

Beksultonning yonida Xurshida o‘tiribdi. Qo‘lida doka, Beksultonni yelpiydi, Beksultonning sog‘ qo‘lini boshqa bir qo‘li bilan ushlab olgan.

XURSHIDA: — Sovitgich qo‘ydirib beraymi?

BEKSULTON: — Yo‘q, shamollab qolishim mumkin.

XURSHIDA: — Yelpig‘ich-chi?

BEKSULTON: — Uyam baribir xavfli.

XURSHIDA: — Amakim yoningizda yotib qoldilarmi?

BEKSULTON: — Nima qilay, ketishga hech ko‘nmadilar.

XURSHIDA: — O‘zim yotardim-u, ayam hali nikohing yo‘q, uyat bo‘ladi, deyaptilar.

BEKSULTON: — Mayli, el-yurt nazaridamiz, axir.

XURSHIDA: — Rostdanam, o‘sha kuni mashina sizni quvganiga qattiq ishonyapsizmi?

BEKSULTON: — Quvgani aniq. Karyerdan chiqayotganimda qorong‘i edi. Mashina daraxtlar panasida turganini ko‘ruvdim. Bu mashina nega o‘zini panaga oldi ekan, deb o‘ylagandim ham.

XURSHIDA: — Darrov orqangizga qaytmabsiz-da.

BEKSULTON: — Karyerda ham hech kim yo‘q edi.

XURSHIDA: — Keyin quvdimi?

BEKSULTON: — Quvganda qandoql! 100ga olsam, 110ga bosadi, o‘ngga bursam, o‘ngga, chapga bursam,

chapga bosadi. Oxiri, chap biqinimdan kelib urdi-da. Xayriyatki, Qo'ziboy aka velosiped minib kelib qolgani. Bo'lmasa, xudo biladi...

XURSHIDA: — Buyam bo'lsa mening baxtim.

BEKSULTON: — O'shanda ishonsang, dadam ikkovlaringni o'yladim. O'zimdan ketib boryapman-u, ko'zimda suratlaring tek turib qolgandek. Bir o'zimga kelaman, bir o'zimdan ketaman. Xurshida, agar menga bir gap bo'lsa, dadamdan xabar olib turasan...

XURSHIDA: — Qonni ko'p yo'qotgan odam shunaqa bo'larkan.

BEKSULTON: — Tavba, o'zim qay ahvoldaman-u, yana seni rashk qilayotgandekman. Senga atab solgan g'ishtli uyimdan oq liboslarga o'rani, boshqa yigit bilan chiqib kelayotgan emishsan.

XURSHIDA: — Unday demang, e, men ham yig'lab yuboraman.

BEKSULTON: — Xurshida, hech kim yo'q-ku, meni bir o'pgin, yana, yana! Rahmat, jonim, sening ana shu qaynoq nafaslaring qutqardi shekilli, meni. Sen uchun, yolg'izgina qolgan dadam uchun o'lmasligim kerak. Bir gal o'zimdan ketayotganimda nazarimda, sen bilan dadam qo'llimni ushlab turgandek bo'ldilaring.

XURSHIDA: — Beksulton aka, juda qiziq gap ayt-dingiz-ku.

BEKSULTON: — Yig'lama, jonim yig'lama.

XURSHIDA: — O'zingiz ham yig'layapsiz-ku.

BEKSULTON (*kulib*): — Ikkovimizning ham ko'nglimiz yarim-da, Xurshida.

Hamshira kiradi.

HAMSHIRA: — Iya, hali to'y bo'lib o'tmasdanoq allaqachon yig'lashni boshlab yuboribsizlar-ku.

BEKSULTON (*kulib*): — To'ydan keyin menga qiz tug'ib berasan, desam, yo'q, o'g'il tug'aman, deydi. Shunga urishib qoldik.

HAMSHIRA: — Ey, o'g'lim, buning ishi oson, to'ydan keyin mening oldimga kelsalaring qachon o'g'il bo'la-di-yu, qachon qiz bo'ladi? Ana shuni o'rgatib qo'yaman.

Hammalari kulishadi.

* * *

Shokalonning hovlisi. Choshgoh. Havo dim. Bahavo ayvonda Shokalon, Shahriniso, Shoumar o'tirishibdi. Dasturxonda yoz ne'matlari.

SHOUMAR: — Dada, yana bir marta aytaman, u qo'shaloq suratga mening hech aloqam yo'q, qasam ichaymi?

SHOKALON: — Yo'q, ko'p qasam ichaverma, keyin qasamingga birovlar ishonmaydigan bo'p qoladi.

SHOUMAR: — Bo'pti, endi ichmayman.

SHOKALON: — O'g'lim, odamlar bu noma'qulchili-kni sendan ko'rishgan.

SHOUMAR: — To'g'ri, oldin mendan ko'rishuvdi. Endi hamma kampirlardan ko'rishiapti.

SHOKALON: — Tavba, kampirlarning Xurshidada nima alami bor ekan?

SHAHRINISO: — Voy, dadasi eshitmaganmisiz?

SHOKALON: — Nimani eshitaman?

SHAHRINISO: — Bu o'zboshimcha qiz, men deputatman, hech kim menga tegolmaydi, deb bahorda uchta kampirni birdan ishdan bo'shatgan-da. Kampirlar govmishlarning ostiga kirolmay qolgan emish.

SHOKALON: — Demak, bu qo'shaloq suratni kampirlar tayyorlagan, degan gaplar ham bor ekan-da.

SHAHRINISO: — Ha, o'sha shum kampirlarning ishi bu.

SHOKALON (*mamnun, ich-ichidan sevinib turibdi*): — Mana bu avariya masalasida qo'ni-qo'shnilar nima deyishyapti?

SHOUMAR: — Militsiya kelib, rosa so'roq qilyapti. Bu, albatta, uyushtirilgan, debdi.

SHOKALON: — O'sha militsioner sendan ham biron nima so'radimi?

SHOUMAR: — So'radi, o'sha kuni o'n bitta ulfat Orif o'risnikida gapda edik. Melisa gumon qilmadi.

SHOKALON: — Har qalay, odamlar sening haqingda biron narsa deyishayotgandir?

SHOUMAR: — Ulfatlarim buni g'isht zavodidagilar uyushtirgan, ferma bilan qo'shilishga qarshi edi. O'shalarning ishi bu, deyishyapti.

SHOKALON: — Ha, shunday bo'lihiyam mumkin, sobiq muovini Abulqosim Beksultonga qarshi tishini qayrab yurgan edi... Senam el qatori borib Beksulton-dan bir ko'ngil so'rab kelsang bo'lardi.

SHOUMAR: — Dada, u ablahni hech ko'rgim yo'q.

SHOKALON: — Odamlarda yomon fikr tug'ilishiga yo'l qo'ymay yashashni bilish kerak.

SHOUMAR: — Men odamlardan qo'rqlarman.

SHOKALON: — Men qo'rqlaman, onang qo'rqladi.

SHOUMAR: — O'rtoqlarim borib kelishdi. Odam bo'lmaydi, deyishyapti. Mabodo, o'ladigan bo'lsa, Xurshidaga uylanaveramanmi yoki anavi kuni ayam aytgandek singlisi Umidaga sovchi bo'lib borasizlarmi?

SHOKALON: — Nafasingni issiq qil. Hech qachon fikringni birovga oshkor qilma. Gap shu, ertaga borib ko'ngil so'rab kelasan, qo'lini siqasan, o'pasan.

SHOUMAR: — E, unga ayollarning qonini quyisha-yotgan emish.

SHOKALON: — Bas qil, ertagayoq borasan, tamom! Bor endi.

SHOUMAR: — Dada, endi qayoqqa boray?

SHOKALON: — Aytdim-ku, o'riklarining qolganini terdir, bir qismini quritishga, bir qismini dorilashga qo'y.

SHOUMAR: — Dada, bitta ishning chatog'i chiqib turibdi.

SHOKALON: — Qanaqa ishning?

SHOUMAR: — O'rikni sotish uchun ikki narxda kelishib, ikkita shartnomaga tuzilgan edi.

SHOKALON: — Bilaman.

SHOUMAR: — Odamlar sezib qopti.

SHOKALON: — Qimmat narxda tuzilganini yo'qot. Hech kim Omsk shahriga borib surishtirib kelmaydi.

*Shoumar onasi bilan xayrlashib chiqib ketadi.
Shokalon xotini bilan uzoq jum o'tirishadi.*

SHAHRINISO: — Dunyoning ishlarini qarang, kechagina Xurshidani kelin qilish ham, bizga tegadigan 100 hektar dasht ham naqdgina bo'lib turuvdi-ya, nahotki hammasidan quruq qolsak?

SHOKALON: — Noumid bo'lma. Men hali umidimni uzganim yo'q. Beksulton odam bo'lmasligi mumkin. Bordi-yu odam bo'lsa... Bu yoqda yana bir qizi Umid-a naqsh olmadek pishib turibdi. Shundoqqina qo'l uzatsang, uzib oladigandek.

SHAHRINISO: — Dadasi, bitta gapni ochiq ayting, rostdanam shu qo'shaloq suratga zig'irdek bo'lsa ham sizning aloqangiz bormi-yo'qmi?

SHOKALON: — Esing joyidami, onasi? Nimaiki qilgan bo'lsam hamisha sen bilan bamaslahat qilgaman... Nahotki, shunaqa mayda ishlarga qo'l ursam.

SHAHRINISO: — Ey, dadasi, dadajonisi, xafa bo'lman-g'ku, siz uch qavatli odamsiz, qirq yil birga yashab, bir qavatingizni yo bildim yo bilmadim.

SHOKALON (*kulib*): — Xudo xohlasa, yana sakson yil birga yashaymiz, qolgan ikki qavatimni ana o'shanda bilib olarsan. Tur, tovuq sho'rvang pishgan bo'lsa,

kastryulgaga quy, Beksltondan ko'ngil so'ragani boraylik... Eldan tashqari bo'lish yaramaydi.

* * *

Beksltton yotgan xona. Beksltton bint bilan o'ralgan oyog'ini uzatib o'tirib olgan. Xonada yana uch kishi bor. Bir qo'lida kastryul, bir qo'lida tuguncha Shokalon bilan O'nboshi kirib boradilar.

SHOKALON: — Ey, o'tiringlar, o'tiringlar, bu qizimiz yanglishmasam, tadbirkorlar palatasining boshlig'i, mana bu o'g'lim hokimiyatdan, kuyovimning qo'lida ishlaydi. Mana bu o'g'limni tanimayroq turibman.

BEGONA YIGIT: — Amaki, Remstroydanman. Raisligingizda oldingizga borib turardim-ku.

SHOKALON: — E, bo'ldi. Abulvodxozning o'g'lisan.

BEGONA YIGIT: — Ha, o'shaman.

SHOKALON: — Bilaman, ko'ngil so'rab kelgansizlar. Kimning kimligi odamning boshiga mana shunaqa tashvish tushganda bilinadi. Muhabbatli bo'linglar, O'nboshi bilan biz qanday yashagan bo'lsak, ana shunday ahil yashanglar.

AYOL: — Rais buva, endi bizga javob beringlar.

SHOKALON: — Tadbirkorlarning boshini silayapsanmi axir?

AYOL: — Qo'llimizdan kelgancha... O'nboshi bobo!

O'NBOSHI: — Labbay, qizim?

AYOL: — Bo'lajak keliningiz ajoyib-da.

O'NBOSHI: — Ajoyibini tanlaganmiz-da, qizim.

AYOL: — G'isht zavodi «Ko'kdala»ga qo'shilganda Remstroydan uch million qolgan ekan, o'shani undirishga yordam bermasangiz, bir to'yimga aytmayman, deb qo'rqtadi, bir deputat sifatida prokurorga qo'ng'iroq qilaman, deb qo'rqtadi... Endi nima bo'lgandayam deputat-da.

BEGONA YIGIT: — O'nboshi bobo, Beksulton o'g'lin-gizning ko'nglini tinchitgani keldik. Pulni o'tkazdik, mana kvitansiyasi.

O'NBOSHI: — Abulvodxozga salom aytgin. Dadang bilan qirq yillik umrimiz suv boshida o'tgan-a. Dadang bedana ovini yaxshi ko'rardi.

AYOL: — O'nboshi bobo, borib keliningizga ayting, to'yiga endi bizni taklif qilsin.

O'NBOSHI: — Albatta aytaman, qizim.

AYOL: — Agar aytsa «Jonon» raqsiga shunaqa o'ynab berayki, tagobli qizlar qochgani joy topolmay qolsin.

Kulisha-kulisha chiqib ketishadi. Xonada Shokalon, O'nboshi, Beksulton qolishadi.

O'NBOSHI: — Mana bu qaymoqqa yo'g'rilgan qatlama, Sabriniso ammang berib yubordi. Mana bu tuxum quymoq, o'zim pishirdim, yemasang, ham-shiralarga berarsan.

SHOKALON: — Men senga tovuq sho'rva tayyorlab keldim. Tovuq sho'rvani darmon sho'rva ham deyishadi.

BEKSULTON: — Amaki, chakki ovora bo'psizlar.

SHOKALON: — Unday dema o'g'lim, nimasi ovora ekan buning? Tagimizda mashina, ikkita chol gangur-gungur kelib kelyapmiz... Mana buni mo'miyo asl, deydilar. Senga deb ataylab Toshkentdan oldirib keldim.

BEKSULTON (*angishvonadek tugunchani qo'liga olib*): — Mo'miyo?!

SHOKALON: — Ha, mo'miyo. Eng tozasi, singan-chiqqanga bundan zo'ri yo'q. Ibn Sino hazratlari shunday deb yozganlar. Lekin avval do'xtirlaringga bir

ko'rsatib ol. Xo'sh, o'g'lim, mana bu O'nboshi o'rtog'im hurmati, senga bir yaxshilik qilay, viloyat hokimiga tayinlab qo'ymoqchiman, sendan xabar olib tursin.

BEKSULTON: — Yo'q, yo'q, qo'ying amaki, odam uyaladi.

O'NBOSHI: — Amaking Sattor Shokirovich bilan juda yaxshi. Yo'q, dema, bir mo'ylov qilib qo'ysa, bas.

Shokalon uyali telefonda hokim bilan gaplashgan bo'ladi, Beksultondan xabar olib turishini tayinlaydi.

SHOKALON: — Ana o'g'lim, endi hammasi joyida bo'ladi.

BEKSULTON: — Amaki, biram mehribonsizki, rahmat.

SHOKALON: — Sen o'g'limdek azizsan, tezroq tu-zalib chiq. O'nboshi ikkovimiz to'yingni o'tkazaylik, otang bilan o'sha kuni bir askiya aytishayki, chiroyli so'zlarim bilan bu cholning belini bukib, to'shakka yotqizib ketay...

* * *

Fermaning ma'naviyat xonasi. Xurshida bilan kichik leytenant bir-biriga qarama-qarshi o'tirishibdi. Xiyla qizishib ketishganidan asablar tarang.

LEYTENANT: — Mening boshlig'imga nima deb telefon qildingiz?

XURSHIDA: — Sust ishlayapti, qo'lidan kelmaydi, shekilli, dedim.

LEYTENANT (*battar qizishib*): — Ey, opajon!

XURSHIDA: — Men opangiz emasman.

LEYTENANT: — Xurshida Erkayevna! Men bekor o'tirganim yo'q.

XURSHIDA: — Qirq kun bo'lyapti, qani natija, qani jinoyatni ochganingiz?

LEYTENANT: — Guvoh Qo'ziboy Qurbonovdan boshqa hech kim quvgan mashinani ko'rman.

XURSHIDA: — Qo'lingizda o'sha mashinaning raqami turibdi-ku.

LEYTENANT: — Shu raqamni axtarib Konibodomdan to Xo'jandgacha borib keldim. Bunday rusumli mashina ularda hech qachon bo'lmanan ekan. Buning ustiga yarador Bekulton, o'zingiz eshitdingiz, chegaranining naryog'ida menga xusumati bor odam yo'q, deyapti. Agar, dushmanlikdan bo'lsa, dushmanni Tagobdan axtarish kerak, deyapti.

XURSHIDA: — Nega axtarmayapsiz bo'lmasa?

LEYTENANT: — Axtarish shunchalik bo'ladi-da, opajon.

XURSHIDA: — Men opangiz emasman!

LEYTENANT: — Mashinaning raqami qalbaki bo'lsachi?!

XURSHIDA: — Tajribangizda shundaylari ham uchraganmi?

LEYTENANT: — Ha, uchragan. Mashinaning balloni yap-yangi bo'lgan. Mana, o'n yettita surat olganman, mashinaning burilish joyi, qo'zg'alish joyi, o'ngga, chapga burilishi, tormoz yo'li, hammasida yangi ballonning izi turibdi. Tumanda bor-yo'g'i uchta Gaz-52, Gaz-53 rusumli mashina bor. Tekshirdim, qayta-qayta tekshirdim. Hech birida yangi ballon yo'q. Demak... Agar shu mashinalar ishtirok etgan bo'lsa, unda ballonlar almashtirilgan bo'ladi. Lekin bu uch mashinaning biri butunlay yaroqsiz, kuzovning o'zi turibdi, ikkinchisi o'sha kechasi Toshkentga piyoz olib ketgan, uchinchisining egasi o'sha kuni to'y qilgan. To'yga kelganlarning hammasi ushbu mashinani uyda ko'rishgan.

XURSHIDA: — Endi topolmayman, deng.

LEYTENANT: — Tinmay axtaryapman, deyapman-ku, surishtirish shunchalik bo'ladi-da.

XURSHIDA: — Tajribangiz yo'q ekan, bu ishni qo'lga olmasligingiz kerak edi. Yoki...

LEYTENANT: — Yoki-poki deb meni kamsitavermang. Agar ko'nglimda yomon gap bo'lganda, o'sha qonga belanib yotgan jarohat egasini hammayog'imni qonga bo'yab, ko'tarib mashinaga olmagan bo'lardim. Kasalxonaga yetguncha bag'rimga bosib, o'zidan ketayotganda og'zimdan nafas bermagan bo'lardim. Axir birinchi bo'lib qonni men o'zim berdim-ku. Bo'lmasa, xudo biladi...

XURSHIDA: — Qizishmay gapiring.

LEYTENANT: — Nega qizishmas ekanman. Sizning bir og'iz so'zingiz bilan meni ishdan olib tashlashlari mumkin. Men endigina ish boshlaganman.

XURSHIDA: — Unda joningizni koyitibroq ishlang.

LEYTENANT: — Hey opajon, hey Xurshida Erkayevna, viloyatda shu rusumli mashinadan ellik to'rtta bor ekan.

XURSHIDA: — Hammasini tekshirib chiqaman, deng.

LEYTENANT: — Albatta, nazoratimga olaman.

XURSHIDA: — Unda jinoyatni ochishingiz uchun yana besh-o'n yil kerak bo'larkan-da.

LEYTENANT: — Xurshida Erkayevna, iltimos qilaman, boshlig'imga telefon qiling, mendan bu ishni olmasin. Olsa, meni ishdan ketdi, deyavering. Lekin va'da beraman, bu jinoyatni, albatta, ochaman... Telefon qilasizmi?

* * *

Darvozaxona oldida 5-6 ta sut sog'uvchi ayollar, g'ishtxonadan kelgan yigitlar leytenantni qurshab olishdi.

MANZURA: — Hoy inim to'xtang, men fermaning jensoveti bo'laman.

LEYTENANT: — Jensovet bo'lsangiz nima qilay, ashula aytib beraymi?!

MANZURA: — Kerak bo'lsa, ashula ham aytasiz, Beksulton mudiramizning muovini bo'ladi-ya!

LEYTENANT: — Bilaman.

OVOZ: — U kishi pochchamiz ham bo'ladi.

LEYTENANT: — Bilaman.

OVOZ: — Uni ataylab avariya qilishgan degan ekansiz.

LEYTENANT: — Ha, shundan boshqa taxmin yo'q.

USMON G'ANI: — Nega bo'lmasa jinoyatchini ush-lamayapsiz?

LEYTENANT: — Hali jinoyatchining shaxsini aniqlaganim yo'q.

Leytenant davrani yorib ketmoqchi bo'ladi. Sog'uvchilar, g'ishtchilar davrani battarrog qisib keladi. G'ala-g'ovur, past-baland so'zlar boshlanadi.

OVOZ: — Ataylab ushlamayotgan bo'lsa kerak.

OVOZ: — Ul-bul narsa so'rayotgan bo'lsang, ho'yigit, mana, biz beramiz!

OVOZ: — Shunday azamat yigit mayib bo'lib qolaveradimi, jinoyatchini topasan!

OVOZ: — Hoy ukam, men ammasi bo'laman, agar o'sha avariya qilgan nomardni topib bersang, men senga bitta buzoqcha beraman.

OVOZ: — Beksulton bizning obro'yimiz, obro'yimizni oyoqosti qilib qarab turmaymiz.

LEYTENANT (*baqirib*): — Qo'lingni ol! Yo'limni to'sma, deyapman!

OVOZ: — Yo'q, oldin jinoyatchini topasan, keyin javob beramiz.

To'planganlar leytenantning biri qo'lidan, biri kiyimidan tortib, sudrashadi. Leytenant ulardan qochib qu-tulmoqchi bo'ladi. Yana yo'lini to'sib olishadi. Xurshida chiqadi. Leytenantni qutqarib oladi.

USMON G'ANI: — Ho'v uka, agar jinoyatchini ushlay olmasang, menga qo'yib ber! Bir haftada ushlab bermasam, Usmon G'ani otimni boshqa qo'yaman!

* * *

Adir ortidagi poyonsiz bedazorlar. Bedaning bir qismi yangigina o'rib olingan. Yangi o'rilgan joylarga o'tini toza yedirib olish uchun qo'y-mollar qo'yib yuborilgan. Qishloq bolalari, qizaloqlar, mol haydab chiqqan yoshlari to'p-to'p bo'lib o'ynashadi. Umida ham buzoqlarini haydab chiqqan. Bahrom uni axtarib chiqqan. Barmoqlarini qirsillatib, o'zicha she'r ham o'qib borayapti.

BAHROM: — Molboqar vaqtning bo'ldi,
Dalangga chopgin bolam.
Ko'ylakni ol, ishtonni kiy,
Oldingni yopgin bolam... O'-o', Umidaxonim ham
shu yerda ekanlar-ku!

Mol boqqani chiqqan qiz va o'g'il bolalar bilan gurunglashib o'tirgan Umida Bahromni ko'rib, hayajonlanadi. Sekin o'rnidan turadi.

UMIDA: — Voy, qayoqdan kelib qoldingiz?

BAHROM: — Osmondan tushdim! Ho'v anavi oppoq bulutlardan bittasini minib, uchib borayotgan edim, to'satdan seni ko'rib qoldim.

UMIDA: — Bilaman, hamisha osmonda, bulutlar orasida uchib yurasiz.

(Umida bilan o'ynab o'tirgan bolalar turib ketishadi.)
Nega keldingiz?

BAHROM: — Rostini aytaymi?

UMIDA: — Yo'q, aytmay qo'ya qoling. Ayam yana ikkovimizni birga bo'lganimizni eshitsa... yig'laydi. O'zi pochcham tufayli kechalari yig'lab-yig'lab olayapti.

BAHROM: — Jinoyatchi topilmayotgani uchunmi?

UMIDA: — Bilmadim. Jon Bahrom aka, keta qoling.

BAHROM: — Jinday o'tiray.

UMIDA: — Anavi bolalar darrov chaqimchilik qilishadi.

BAHROM: — Ularga ataylab konfet olib keldim. Bir hovuchdan beraman, aytishmaydi... O'tirsam maylimi?

O'tiradi, gap topolmay nuqul bema'ni iljayadi.

Oh, bu manzaraning go'zalligini qara! Bepoyon bedazorlar, oppoq-oppoq bulutlar, ho'v naridagi quyuq o'rikzorlar, mol-u qo'ylarning erkalanib o'tlashlarini qara... Voy, buzoqlaring zo'r-ku, o'ynoqlab yurishlari-chi, ana shu sakrashlarini tasvirga tushirib, «Yoshlik»ka berib yuborsam...

UMIDA: — Bahrom aka, anavi televide niye qoshida ferma ochamiz, degan gapingiz bema'ni gap ekan.

BAHROM: — Kim aytди?

UMIDA: — Xurshida opam shaharda molxona ohib bo'lmaydi, hidi yomon bo'ladi, deb rosa kuldi.

BAHROM: — Nega kuladi?

UMIDA: — Sizning xayolparastligingizga kuldi. Men baribir Toshkentga bormayman.

BAHROM: — Nega bormaysan?

UMIDA: — Xurshida opamning nomiga Gollandiyadan xat keldi. Keyin opam elchixonan bilan ham gaplashdi... Ketaman!

BAHROM: — Men-chi?

UMIDA: — Bilmadim, Bahrom aka, endi keta qoling.

BAHROM: — Juda-juda sog'inib keluvdim.

UMIDA: — Voy, kecha ko'rishdik-ku.

BAHROM: — Uzoqdan ko'rishganda odam to'ymas ekan. Mayli, bitta ashula aytib bergen, keyin qulog'imni qimirlatmasdan ketaman.

UMIDA: — Ha, o'zingiz she'r o'qimadingiz-ku.

BAHROM: — Ashulangni eshitay, keyin o'qiyan.

UMIDA: — Aldamayapsizmi?

BAHROM: — Yo'q, bugun aldamayman!

Umida past ovozda negadir xavotirlanib ashula aytdi.

UMIDA: — Ro'molim qolib ketdi,
Chaman ichra, bog' ichra...

Ashula tugashi bilan Bahrom qishloq tomonga keta boshlaydi. Uning she'r o'qishi jaranglab eshitiladi.

BAHROM:

— Husn-u latofatingga mahliyo bo'ldim, netay,
Ket desang ham ketmayin, behayo bo'ldim, netay.
Bir ko'rarga zor edim, tunlari bedor edim,
Ishq o'tida o'rtanib, bedavo bo'ldim, netay.
Huzur-u jannatingdan bir nafas qololmasman,
Na tirikman, na o'likman, bir balo bo'ldim, netay.
Umidim bor edi jonim, jon olar nigohingdan,
Nigohingni olib qochding, noravo bo'ldim, netay...
Kuy ila oshkor etarga ishqil avjim holatin,
Tagobiy kuy topolmay, benavo bo'ldim, netay.

* * *

Kasalxona hovlisi... Avgustning jazirama issig'i, salqindagi skameykada Xurshida bilan Beksulton o'tiribdi. Beksulton yura boshlaganidan Xurshida xursand, Xurshida yonida bo'lgani uchun Beksulton

xursand. Bir-biriga talpingan muhabbatli qalblarning jannatiy huzuri, rohati.

BEKSULTON: — Yo‘q, Shoumarga ham, Mahfiratga ham, g‘isht zavodidagi Azamatga ham jinoyatchi deb ayb qo‘yish asosli emas.

XURSHIDA: — Shubha bor-u dalil yo‘q, demoq-chisiz-da.

BEKSULTON: — Bechora leytanantni noto‘g‘ri ayb-labsan.

XURSHIDA: — Ishni tezlatishni so‘radim, xolos, ayblaganim yo‘q.

BEKSULTON: — Xurshida, jonim, kel bugun xur-sandchilikdan gaplashaylik. Mana, oyoqqa turdim, atrofga qara-chi, hech kim yo‘qmikin?

XURSHIDA: — Hech kim yo‘q (*O‘padi*).

BEKSULTON: — Yo‘q-yo‘q, yaxshisi o‘zim o‘paman. Bugun mening bayramim, mening baxtim oyoqqa turgan kun...

Yo‘lakda Abdusamat ko‘rinadi. Qisqa salomlashishi-shadi, hol-ahvol so‘rashishadi.

ABDUSAMAT: — Xurshidaxon, nega qo‘lingizdagi telefonni o‘chirib qo‘ydingiz?

XURSHIDA: — Abdusamat aka, bir kungina meni tinch qo‘yinglar.

ABDUSAMAT: — Ertalabdan buyon axtaramiz sizni.

XURSHIDA: — Tinchlikmi?

ABDUSAMAT: — Komissiya kelgan.

XURSHIDA: — Komissiya, qayerdan?!

ABDUSAMAT: — Hokimiyatdan. Ustingizdan shikoyat bor ekan.

XURSHIDA (*sekin o‘rnidan turib*): — Tavba!..

ABDUSAMAT: — Tezroq yuraqoling. Hisobxonani muhrlab qo'yishgan. Buzoqlarniyam sanashayotgan edi.

* * *

Fermaning ma'naviyat xonasi. Xurshida o'z o'mnida, yonida Abdusamat, qarshilarida hokimiyatdan kelgan 50 yoshlardagi Ali G'ozi, 40 yoshlardagi Saodat Roziq qizi o'tirishibdi.

XURSHIDA: — Xush kelibsizlar. Qani o'zlaringni tanishtiringlar-chi?

ALI G'OZI: — Men Ali G'ozi bo'laman, hokimiyat vakiliman.

SAODAT: — Men Saodat Roziq qiziman, soliq idorasi vakiliman.

XURSHIDA: — Juda yaxshi, xo'sh xizmat?

ALI G'OZI: — Fermangizni tekshirgani keldik.

XURSHIDA: — Men sababini bilishim kerak.

ALI G'OZI: — Ustingizdan ketma-ket shikoyatlar tushgan.

XURSHIDA: — Qayoqqa ketma-ket shikoyatlar tushibdi? Bilsam bo'ladimi?

ALI G'OZI: — Viloyat prokuraturasiga uch marta shikoyat tushgan. Tekshirish, chora ko'rish uchun hokimiyatga jo'natishgan. Hokimiyat esa bizni vakil qildi.

XURSHIDA: — Juda soz. Qani menga hokimiyatning qarorini bering, bir o'qib ko'ray-chi?

ALI G'OZI: — Qanaqa qaror?!

XURSHIDA: — Ya'ni, men va men rahbar bo'lgan fermaning ustidan tushgan shikoyatni tekshirish haqidada sizga yozma ravishda vakolat berilganligi haqidagi qarorni so'rayapman.

ALI G'OZI (*hayron*): — Biz og'zaki topshiriq olganmiz.

XURSHIDA: — Bor, tekshirib ko'r desa, o'pkani qo'ltilqlab, chopqillab kelaveribsizlar-da. Siz-chi, Saodat Roziq qizi, siz nega keldingiz?

SAODAT: — Aytdim-ku, soliq idorasini vakolat ber-gan.

XURSHIDA: — Qani menga, mening fermamni moliyaviy holatini tekshirish haqida soliq idorasidan sizning nomingizga berilgan vakolatnomani bering-chi. Bir o'qib ko'ray.

ALI G'OZI, SAODAT: — Hokimiyat topshirig'i bilan kelganmiz, deyapmiz-ku!

XURSHIDA: — Men ferma mudiriman, demak, yuridik shaxsman. Dush kelgan odam mening faoliyatimni va fermamni tekshirib ketaverishga haqqi yo'q, deb hisoblayman.

ALI G'OZI, SAODAT: — Nima?!

XURSHIDA: — Vakolatsiz kelibsizlar, vakolatsiz kelmanglar, deyapman.

ALI G'OZI: — Ho'-o' singlim, haddingizdan oshayot-ganga o'xshaysiz.

XURSHIDA: — Mening hisobxonamni, ehtimol u yerda million-million so'm pullar bordir, kimning rux-sati bilan muhrladingiz?

ALI G'OZI: — Tekshirmoqchimiz, deyapmiz-ku!

XURSHIDA: — Nega mening ishtirokimsiz muhr-ladingiz, kim huquq berdi sizga?!

ALI G'OZI: — Qo'limizdagagi shikoyatlar huquq beradi bizga!

XURSHIDA: — Ali G'ozi amaki, bilib qo'ying, hisobxona faqat prokuror sanksiyasi bilan, o'sha korxonaning mas'ul kishisi ishtirokida yopiladi. O'shandayam, shikoyat tartibida jinoyat bor, deb topilsa.

ALI G'OZI: — Deputatman deb, ja-a haddingizdan oshib ketibsiz.

SAODAT: — Prezidentimiz erkalatib yuborgan bu fermerlarni. Hech birining yaqiniga yo'lab bo'lmaydi-ya!

XURSHIDA: — Aksincha! Sizlar haddingizdan oshib ketibsiz. Maxsus boqilayotgan buzoqxonamizga kirishingiz uchun sanepidstansiyadan salomatligingiz to'g'risidagi dalolatnomaga keltirishingiz kerak edi. Qani, o'sha bormi sizlarda?!

ALI G'OZI: — Ja, rasmiyat chilikka berilib ketibsiz-ku!

XURSHIDA: — Abdusamat aka, protokol yozing: hokimiyat vakiliman deb kelgan ikki shaxs vakilligi haqida hokimiyatdan maxsus yozma vakolati bo'lmasligi, prokuror sanksiyasisiz hisobxonani yopganligi, sog'lig'i haqida dalolatnomasi bo'lmasdan turib, maxsus boqilayotgan buzoqxonaga ruxsatsiz kirganligini tartib va qonunga zid hisoblab, har ikki vakil fermadan chiqarib yuborildi.

ALI G'OZI: — Ho', menga qara qizim, hali bu qilmishing uchun tegishli joyda javob berasan!

SAODAT: — O'zbekka amal tegsa, mana shunaqa, darrov bosar-tusarini bilmay qoladi.

ABDUSAMAT: — Ketishlariga mashina beraymi?

XURSHIDA: — Ortiqcha benzinim yo'q!

* * *

Inoyat ayaning uyi. Inoyat qizlari Xurshida, Umida, Zarifalarni yoniga olib, kechki ovqatga o'tirishgan. Ovqat tugab, suhbatga berilishgan.

INOYAT: — Bolaginam, sen qachon odam bo'lasan?!

XURSHIDA: — Nima qilibman, odam bo'lmay?

INOYAT: — Yuqorida kelganlarga yaxshi muomala bo'l, deb aytaverib charchadim.

XURSHIDA: — Yaxshi muomala qilganga men ham yaxshiman.

INOYAT: — Obro'li tekshiruvchilarni quvib yuborib-san-ku.

XURSHIDA: — O'sha obro'li komissiyangiz ishchilarim oldida mening obro'yimni to'ksa yaxshimi?

INOYAT: — Hoy bolam, ikkovlariyam chakana odamlar emas ekan.

XURSHIDA: — Mening yo'g'imda hisobxonamizni muhrlab, buzoqlarimni sanashibdi, yaxshi qilibsizlar, deb jim o'tiraveraymi?!

INOYAT: — O'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan. Bu hikmatni hech unutmagan, qizginam.

XURSHIDA: — Qonunni, tartibni eng oldin o'sha «arbob»laringiz buzdi.

INOYAT: — Ozgina go'shtmi, tuxummi ta'ma qilishgandir. Ular hamisha olgan, boshqa ilojimiz yo'q.

XURSHIDA: — Endi bermayman!

INOYAT: — Bermasang, ishlashing qiyin bo'ladi, qizginam...

* * *

Inoyat ayaning hovlisi. Hovliqib, bir-birini itarib Dilbar amma, Usmon G'ani, Akromlar kirib kelishadi.

DILBAR: — Voy ammajoning o'rgilsin, tag'in nima gap chiqib qoldi?

XURSHIDA: — Qanaqa gap chiqibdi?

DILBAR: — Fermangni komissiya bosibdi. Butun mahallada duv-duv gap.

INOYAT, XURSHIDA: — Voy, tavba!

DILBAR: — Komissiya ketaturib, bir haftaga qo'ymay bu mahmadona qizni ishdan haydataman, debdi-ku.

XURSHIDA: — E, ammajon, ularni ishxonamdan men haydab chiqardim.

USMON G'ANI: — Xurshidaxon, bu xunuk gap g'ishtxonaga ham yetib bordi. Meni vakil qilishib, mudiramizni ishdan oladiganning joni mingta, mana shu gapni borib aytgin, deyishdi.

AKROM: — Deputat singlimiz pulimizni undirib berdi. Bu kammikin?

DILBAR: — Voy Akromjon, yana ichib kelganga o'xshaysiz.

AKROM: — Ayajon, koreys sholi ekadi, tizzasiga-cha suvda turadi. Men tizzamgacha suvda turib, loy qoraman. To'g'rimi?

DILBAR: — To'g'ri, ishingiz og'ir.

AKROM: — Koreys qonni qizdirish uchun qalampir chaynaydi, men aroq ichaman. Ha-ha-ha!.. (*Kuladi*)

DILBAR: — Endi bolalaringiz bor, yaxshi emas-da aylanay.

AKROM: — Kinodagi Husayn Boyqaro nima degan, bilmaysizmi? Alamimdan ichaman, degan. Men ham bugun alamimdan ichganman.

DILBAR: — Tag'in nimani alami o'tib qoldi?

AKROM: — Ayajonim, keliningiz yana ketib qolgan. Agar yana bir marta yarashtirib qo'ysangiz, komissiya kelsa mana men gaplashaman. O'rtaga chiq, zo'r bo'sang, deyman.

Hovliqib Xabarxon kirib keladi.

DILBAR: — Ha, namuncha, it quvgan soqovday harsillamasangiz?

XABARXON: — Sog'uvchimi, boquvchimi, xashak-chimi hamma-hamasiga xabar qildim. Xurshidani ishdan oldirmaymiz, yakkalatib qo'ymaymiz, deganlar ertalab fermaga boraversin, dedim.

INOYAT, XURSHIDA: — Voy tavba, voy xudoyim, nimalar qilib yuribsiz o'zi?!

XABARXON: — Go'shtni biz beramiz, sutni biz beramiz, tuxumni biz beramiz! O'sha komissiya degani mana biz bilan gaplashsin! Sen Xurshida, qoshingga o'sma, ko'zingga surma qo'yib, to'yingga tayyorgarlik ko'raver.

XURSHIDA (*yer tepinib*): — Tushuntirib ayting, nima gap o'zi?!

XABARXON: — Voy opaginang o'rgilsin, o'zingga aytishmadimi?

XURSHIDA: — Nimani aytishadi?

XABARXON: — Komissiya chiqib ketaturib, qorovul pochchaning qulog'iga birovga aytmang-ku, Xurshidani bir haftaga qolmay ishdan olib tashlaymiz, debdi.

INOYAT: — Endi bunisi yetmay turuvdi!

DILBAR: — Jiyanim, kechikmay viloyat hokimiga qo'ng'iroq qil.

XURSHIDA (*kulib*): — E, ammajonlar, e, opajonlar, o'sha komissiyani aslida men haydab chiqarganman, alamidan shunday deyishgandir. Lekin kelganlaring yaxshi bo'pti, xushxabar bor. Beksulton akam bugun oyoqqa turib hovliga chiqdi.

AKROM: — Mana endi to'yib-to'yib ichadigan bo'libmiz.

* * *

Inoyat ayaning hovlisi. Xurshida, Inoyat, Dilbar, Sa-brinisolar o'tirishibdi. Barchasining dilida allaqanday qo'rquv, vahima bor.

INOYAT: — Tavba qildim, ammasi-ey, bu balolarning yopirilib kelishini qarang.

DILBAR: — Hayronman, jiyanimning qaysi qilmishi Allohga ma'qul bo'lmayapti ekan?

SABRINISO: — Tovuqxonaning o'rni ilgari mozoris-ton bo'lgan, falokatlar shundanmasmikin?

DILBAR: — Haliyam kech emas, viloyat hokimi bilan yaxshisan-ku, qaysarlik qilma, tezroq qo'ng'iroq qil.

XURSHIDA: — Ammajon, hali shikoyatni o'qigan-im yo'q, eshitganim ham yo'g'-u, nima deb qo'ng'iroq qilaman? Bordi-yu, o'qiganimdayam, yordam so'rab hech kimga murojaat qilmayman. Ojiz odamlargina yordam so'raydi. Men o'zimni ojiz sezayotganim yo'q. Kuchim yetganicha olishaman.

INOYAT: — Qizim, sen ham odam bo'lib bir katalarning gapiga kirgin. Buncha rahmatli dadangga o'xshab qaysar bo'lmasang.

XURSHIDA: — Ayajon, men viloyat kengashining deputati bo'la turib, o'zimni o'zim himoya qilolmasam, unda boshqalardan nimani kutish mumkin?!

INOYAT: — Bo'lmasa, hadeb olishaver.

XURSHIDA: — Qizingiz aslida olishish uchun tug'il-gan ekan.

INOYAT (*alam bilan*): — Olisha-olisha nobud bo'lib ketasan.

XURSHIDA (*kulib*): — Qabrimning ustiga, oli-sha-olisha nobud bo'ldi, lekin yengilmadi, deb yozib qo'yasizlar.

* * *

Xurshidaning dashtdagи yeridan qishloq tomonga Shokalon bilan O'nboshi tushib kelyapti. Goh tizzaga kelib qolgan suvsiz sarg'ayib pishadigan beda, goh yer bag'irlab o'sadigan masxar oralab kelishayapti. Hosilni ko'rib, shuncha yerni Xurshidaga berib qo'yganini o'ylab Shokalonning ichi yonib borayapti, lekin sezdirmaydi.

SHOKALON: — Bu masxar deganlari shunaqa foy-dali ekin ekan-da?

O'NBOSHI: — E-e o'rtoq, bu tadbirkor bolalar ni-malarni o'ylab topishmayapti, deysan.

SHOKALON: — Gektaridan qancha hosil berarkan?

O'NBOSHI: — O'tgan yili 40 sentnerdan olishuvdi, shekilli.

SHOKALON: — Yog'i-chi, yog'iyam chakana bo'lma-sa kerak?

O'NBOSHI: — Gektaridan bir tonnadan berarov.

SHOKALON: — Bu deyman, deputat kelining foy-dani tagida qolarkan-da... To'yni qachon qilmoqchi-sizlar?

O'NBOSHI: — Beksulton hozir ikkita tayoqda yu-ribdi, dadajon, hech bo'lmasa bir tayoqli bo'lay, to'yni o'shanda qilarmiz, deyapti.

SHOKALON: — Menga qara o'rtoq, shu Inoyatbo-nuga uylanib qo'ya qolmading-da.

O'NBOSHI: — E o'rtoq, uch-to'rt bor sovchi qo'ydim. Yaqiniga yo'latmayapti.

SHOKALON: — Bordi-yu, ishingni men bitirib bersam-chi?

O'NBOSHI: — Qaniydi, bir yo'la ikki bevaning olq-ishini olarding.

SHOKALON: — Lekin mening ham bitta shartim bor-da. Agar o'sha xonadonga ota bo'lib borsang, Xur-shidaning Umida ismli singlisi bor. O'shani mening o'g'lim Shoumarga olib berasan.

O'NBOSHI: — E o'rtoq, unda chinakam qarindosh bo'lamiz-ku. Men mingdan-ming roziman.

* * *

Fermaning ma'nnaviyat xonasi. Qori pochcha, Dilbar, Shokalon Xurshidani o'rtaga olishgan. Biri olib, biri gapirayapti.

QORI: — Ayoli yo'q uyning sarishtasi, erkagi yo'q uyning farishtasi bo'lmas, deydilar. Bunday xonadon-

ga to'xtamay falokat yog'ilib turarkan. Sen otaga, Beksulton onaga muhtoj.

XURSHIDA: — Bo'lmasa, xudodan menga ota so'rab bering.

QORI: — Ota tayyor. Sen rozi bo'lsang, bas. Onang bilan O'nboshini nikohlab qo'ya qolamiz. Bo'lmasa falokatdan arimaysizlar.

XURSHIDA (*kulib o'rnidan turib ketadi*): — Voy, nimalar deyapsiz, qori pochcha?

SHOKALON: — Yosh bo'lsang ham oila boshlig'i o'zing hisoblanasan, qizim.

DILBAR: — Jiyanginam, Beksulton bilan to'ylaringni risoladagidek o'tkazish uchun senlarga ham ota, ham ona kerak bo'ladi.

XURSHIDA: — Busiz ham O'nboshi amaki har kuni biznikida-ku.

QORI: — Menga qara, qulog'ingga azon aytgan qori pochchang bo'laman-a. Gapimga qulq sol, boshi ochiq ayolning uyiga erkakning kiraverishi makruh bo'ladi.

XURSHIDA (*kuladi*): — Xullas, ayajonimni erga berishim kerakmi?

SHOKALON: — Sen rozi bo'lsang, bas, uyog'ini te-zlashtirib yuboramiz.

XURSHIDA: — Nega ayamning o'zidan so'ramayapsizlar... Menga baribir, tavba!.. (*kulib chiqib ketadi*)

QORI: — Albatta, sukul alomati rizo, deydilar.

SHOKALON: — Albatta-da, qaysi qiz bir yo'la ham erga, ham otaga ega bo'lishni orzu qilmaydi, deysiz....

Umidani kelin qilsam yerning yarmini olaman deb o'ylaydi u o'zicha.

* * *

Inoyat ayaning hovlisi. Ayvonda Inoyat, qori pochcha, Sabriniso, Shokalonlar o'tirishibdi. Gap bilan Inoyatni o'rtaga olishgan.

QORI: — Boshingni ko'taribroq o'tir, seni otga mindirib, opqochib ketgani kirganimiz yo'q, obbo, shuncha obro'li odamlar sovchi bo'lib kelibdi-yu, tamanollarini qarang.

INOYAT: — Qori pochcha!

QORI: — Payg'ambarimiz salollohu alayhi vasallam ham boshi ochiq ayol bilan beva erkakning boshini darrov qo'shib qo'yanlar. Bo'lmasa, yurtga vazmin-chilik keladi, deganlar.

INOYAT: — Jon amaki, mengayam quloq soling.

QORI: — Badr jangini eshitganmisan?

INOYAT: — Eshitganim yo'q.

QORI: — Uxud jangini-chi?

INOYAT: — Bilmayman, deyapman-ku.

QORI: — Bular Qur'oni karimda yozilgan. Payg'ambarimiz (s.a.v.) ana shu janglarda nobud bo'lgan erkag-u ayollarning boshini darrov bir-biriga qovushtirganlar. Mana shuning uchun ham Alloh musulmon-chilikka rivoj bergen.

INOYAT: — Tagob qishlog'ida bo'ladigan musulmon-chilik mening erga tegishimga bog'liq bo'lib qoldimi?

SHOKALON: — Boshi ochiq holda yurishing, O'nboshining vaqtি bemahal senikiga kirib-chiqib turishi... Har xil bema'ni gaplarga sabab bo'layapti.

INOYAT: — Voy xudoym-ey, gapirishga navbat berasizlarmi, yo'qmi?

QORI: — Bugun biz gapiramiz. Odamlar, e, qori pochcha, bir kosa suv bilan xuddi payg'ambarimiz (s.a.v.) qilgandek, ikkovolarini so'ratib qo'ysangiz bo'lmaydimi, deyishayapti.

INOYAT: — Uh-h (*Jahl bilan turib ketadi*).

SABRINISO: — Inoyatxon, bilaman, sizga er kerak emas, lekin popukdek uch qizingiz bor, ularga mehribon ota kerak. Keyin Xurshidaxon bilan Beksultonning to'ylarini tartibli o'tkazish uchun akam bilan ikkovolar-ning bir yoqadan bosh chiqarib turishlaring kerak.

QORI: — Xudo xohlasa, O'nboshi ikkovlaringning nikohingni ham o'zim o'qiyman (*Hovuchini ochib*). Iloyo omin...

INOYAT: — Voy to'xtang, O'nboshi amaki bilan o'zim bir gaplashib ko'ray, tavba qildim-ey...

* * *

Sovchilar chiqib ketishayapti, qori pochcha to'xtab, Sabrinisoning yengidan tortadi.

QORI: — Singlim, kirib ayting, nomiga bo'lsa ham kichkinagina bir tuguncha qilib berishsin. Biz qutlug' uydan quruq chiqqan emasmiz...

* * *

Qori pochcha qorovulkxona oldida betoqat kutib o'tirgan O'nboshiga deydi:

QORI: — Kuyov bola, buyog'ini ancha yumshatib qo'ydim. Endi bitta zarbof to'n kiygizasiz-da.

O'NBOSHI: — Qori pochcha, xudo xohlasa sizga boshdan-oyoq sarpo qilaman.

QORI: — O'nboshi, bedangizni o'rgan bo'lsangiz, yuz bog'ini berib yuborsangiz-chi.

O'NBOSHI: — Xo'p bo'ladi, bugunoq ikki yuz bog' jo'nataman.

* * *

Fermaning ma'naviyat xonasi. O'nboshi bilan Inoyat bir-biridan tortinibroq suhbatlashib o'tirishibdi.

INOYAT: — Menda ko'nglingiz borligini bilaman, shunga qaramay, sovchilarni ikki-uch bor qaytardim. O'zingiz o'ylab ko'ring, uchta qizim buyoqda turib, erga tegib olsam, odamlar nima deydi?

O'NBOSHI: — O'sha odamlar aytishayapti-da bu gaplarni.

INOYAT: — Qaysi gaplarni?

O'NBOSHI: — Shu qizlariga otalik qiling, deyisha-yapti-da.

INOYAT: — Odamlarning gapiga kirib, Xurshida bilan Bekslutronning to'yini qoldirib, ikkovimiz karnay-surnay chaldirib to'y qilishimiz kerak ekan-da?

O'NBOSHI: — Nikoh o'qitib qo'ysak, to'yni keyinroq ham qilaverardik.

INOYAT: — Ho, nikohni o'qitgandan keyin siz qarab turarkansizmi?! Mast buqaday har qarashlaringiz borki...

O'NBOSHI: — Sallani qoziqqa ilmay turamiz, deyapman-ku.

INOYAT: — Meniyam sizga hurmatim baland. Qizlarim ham sizni o'z otasidek yaxshi ko'rishadi. Siz bo'imasangiz, Xurshida qizingiz suvsiz dashtda masxar ham, yovvoyi beda ham ekolmasdi. Siz tufayli mollarimiz ko'paydi, yashirmayman, boyib ham ketdik. Hammasiga o'zingiz bosh-qosh bo'lib yuribsiz. Lekin jon quda, avval ikki yoshning to'yini o'tkazib olaylik, uyog'i bir gap bo'lar.

O'NBOSHI: — Hakimxon eshon sovchi qo'yyapti, deb eshitib ancha xit bo'ldim.

INOYAT: — E, och echkiday ma'ramay o'lsin o'sha eshoningiz, ko'rgani ko'zim yo'q.

O'NBOSHI: — Nuqlu tushimga rahmatli ering Erka qassob kiradi. Qizlarimdan xabar olyapsanmi, qishligiga o'tin tayyorlab berdingmi, deb so'raydi.

INOYAT: — E tavba, menam rahmatli xotiningiz Gulsanam popopchini har kuni tushimda ko'raman. O'g'lim bilan cholginamdan xabar olib turibsizmi, kir yoqa ko'ylak kiyishmayaptimi... Nuqlu shunaqa gaplarni so'raydi. Uyg'onib ketib, yig'lab-yig'lab ol-

aman... Aytganday, Bekulton kuyovimni ko'rgani ketayapman. Birga borsak yaxshi bo'lardi.

O'NBOSHI: — Esizgina, tulkixonadagi makkaga suv olganman. Keyin borarman.

* * *

Fermaning ma'naviyat xonasi. Ali G'ozi, Saodat, Abdusamat, Xurshida o'tirishibdi.

ALI G'OZI: — Demak, hokimiyatning xatini o'qidin-giz?

XURSHIDA: — O'qidim.

ALI G'OZI: — Komissiya tarkibi bilan tanishing. Men — Ali G'ozi, komissiya raisi. A'zolar: Shokalon Shoqayumov — jamoatchilik vakili, Manzura Karimova — ferma sog'uvchisi. Saodat Roziq qizi — moliya idorasi vakili... Demak, siz tomondan ham ikkita, biz tomondan ham ikkita. Rozimisiz?

XURSHIDA: — Roziman.

ALI G'OZI: — Xo'sh, shikoyat bo'yicha sizga qo'yilayotgan ayblar: Gollandiyadan o'n ikkita buzoq keltirilganda, ikkitasi o'ldi deb, qalbaki akt tuzgansiz. Aslida yashirib sotgansiz. Qo'qon temir yo'l stansiyasidan Gollandiyaga sizning nomingizdan bir tonna mayiz jo'natilgan. Lekin buxgalteriyangizning daftarida ushbu chiqim qayd qilinmagan, demak, qalloblik yuz berган. Fermaning chiqimlar daftarida markazdag'i bolalar bog'chasiga har kuni 40 litrdan sut berilganligi qayd qilingan. Lekin bog'chaning biron hujjatida sut olinganligi haqida qayd yo'q. Demak, sut tashqariga sotilgan. Mukofotga berilgan «Tiko» rusumli mashina ferma ishchisi Ismoil Uzoqovga yashirinchcha sotilgan...

XURSHIDA: — Endi ruxsatingiz bilan bu tuhmatlar yozilgan xatni menga bersangiz. O'qib chiqsam.

ALI G'OZI: — Biz shikoyatchini oshkor qilolmaymiz.

XURSHIDA: — Demak, xufyona ekan-da.

ALI G'OZI: — Ha, shunday desa ham bo'ladi. Yozayotganlar, agar familiyamizni oshkor qilsak, deputat va uning yeb to'ymas tarafdarlari bizni yer bilan yakson qilishadi, deb zorlanishgan.

XURSHIDA: — Zorlanishgan?!

ALI G'OZI: — Ha, sho'ring qurg'urlar yig'lamoqdan beri bo'lib yozishgan.

XURSHIDA: — O'sha yig'lamoqdan beri bo'lgan sho'ring qurg'urlar bilan yuzlashmoqchiman. Yu-zlashganidandan keyin sizning savollaringizga javob beraman.

ALI G'OZI: — Xonim, yana haddingizdan oshayapsiz.

XURSHIDA: — Siz esa ham qonunni, ham shikoyat tekshirish tartibini buzyapsiz.

ALI G'OZI: — Nima deb men tartibni buzdim?

XURSHIDA: — Hukumatning xufyona yozuvchilar, ya'ni panada turib tosh otuvchilarning xati tekshiril-maydi, degan ko'rsatmasini o'qimagan ekansiz-da.

ALI G'OZI: — O'qiganman.

XURSHIDA: — O'qigan bo'lsangiz, nega tirigi ham, o'ligi ham ma'lum bo'lmagan noma'lum shaxslarning xatini ko'tarib keldingiz? Hozir o'sha kishilar shu dunyoda bo'lsa, topasizlar! Yuzma-yuz gaplashamiz. Mana, mening hamma hujjatlarim tayyor. Xudoga qa-ncha ishonsam, qilgan ishlarimning pok va halolligiga shunchalik aminman.

SHOKALON: — Deputat qizim, komissiyaning ham niyati xolis, seni oqlab ketishmoqchi. Nomigagina bo'lsa ham, bitta-ikkitasiga javob bergen.

XURSHIDA: — Nega endi bitta-ikkitasiga javob berarkanman, hammasiga javob beraman. Avval o'sha panada turib tosh otayotgan pismiqlarni menga ro'ba-ro' qilasizlar.

SHOKALON: — Qizim, yoshlik qilma, hokimiyat va-killari bilan bo'lar-bo'lmashga olishaverish yaxshi emas.

XURSHIDA: — Amaki, qo'shaloq surat chiqarib, mening obro'yimni to'kkalarini bilasiz-a?

SHOKALON: — Ha, o'shanda yaxshi ish bo'lмаган.

XURSHIDA: — O'g'lingiz Shoumar bilan Bekulton akamni ataylab mushtlashtirganlaridan ham xabar-ingiz bor bo'lsa kerak?

SHOKALON: — Ataylab uyushtirilmagan bo'lsa kerak.

XURSHIDA: — Yo'q. Uyushtirilgan. Maqsad — Bek-sulton akamni bir-ikki kun qamash edi.

SHOKALON: — Men ularni yarashtirib qo'yanman.

XURSHIDA: — Avariya tashkil qilib, Bekulton akamni o'dirmoqchi bo'lganlarini ham bilasiz.

SHOKALON: — Bu avariya tasodifan bo'lgan de-yishayapti.

XURSHIDA: — Yolg'on! DAN inspeksiyasi maxsus uyuşhtirilganligini tasdiqlab berdi. Bu qabihliklarni kim tashkil qilyapti? Bularning orqasida qanday razil odamlar turibdi, bilolmayapmiz-ku. Amaki, nahotki shunday hushyor kishi bo'la turib, siz ham sezmagan bo'lsangiz?!

SHOKALON: — Men militsiya xodimi emasman.

XURSHIDA: — Amaki, kimki men bilan Bekulton akamni turmush qurishini istamayotgan bo'lsa, o'sha maraz qilyapti bu qabihlikni. Juda puxta, tulkidek ayyor ekan u. Faqat meni emas, fermamni ham ostin-ustun qilib yubordi o'sha tuhmatchilar. Endi xufyona xat yozishga o'tishibdi, go'ringda chirigurlar. Ko'r kalamushga o'xshab yashirinchcha ishlasharkan. Chayonga o'xshab bildirmasdan zahar sochisharkan. Amaki, axir siz hammasini ko'rib turibsiz-ku. O'sha ablahlarni topishga, kimligini aniqlashga hech bo'lmasa siz yordam bering.

SHOKALON: — Mana bu shikoyatni tekshirib bo'laylik, albatta, yordam beraman.

XURSHIDA: — Yo‘q. Xufyona xat yozgan nomardlar o‘zini ko‘rsatmaguncha men sizlarning birorta savolningizga javob bermayman. Buxgalteriya hujjatlarini ko‘rsatmayman. Qonun men tomonda. Men haqman... Ketmoqchi bo‘lsalaring, Abdusamat akaga aytaman, mashina beradi.

Kurshida bir dunyo hujjatlar solingan papkalarni qo‘ltiqlab chiqib ketadi.

* * *

Kechki payt. Quyosh qizarib botmoqda. Umida yaylovdan buzoqlarini qaytarib olib kelyapti. Yonida Bahrom.

BAHROM: — Umida, ketishing aniqmi?

UMIDA: — Ayajonim opangning to‘yidan keyin jo‘narsan degandilar, bo‘lmadi.

BAHROM: — Nega bo‘lmadi?

UMIDA: — Gollandiya elchixonasidan opamga xat keldi.

BAHROM: — Bitta o‘zing jo‘naysanmi?

UMIDA: — Viloyatimizdan uchta qiz birga ketar ekanmiz.

BAHROM: — O‘g‘il bolaga o‘rin yo‘qmikin?

UMIDA: — Bilmadim.

BAHROM: — Rostini aytaymi... Men sensiz kasal bo‘lib qolaman.

UMIDA: — Kasal bo‘lib qolsangiz, ho‘ shahardagi qo‘li yumshoq qizlaringizga borarsiz.

BAHROM: — O‘sanda hazillashuvdim deb ming marta aytdim-ku.

UMIDA: — Qasam ichmadingiz-ku.

BAHROM: — Allohim nomini o‘rtaga qo‘yib aytamanki...

UMIDA: — Bo‘ldi, bo‘ldi. Men qaytgunicha hech shaharga bormayman, deb so‘z bering.

BAHROM: — Qachon qaytasan o‘zi?

UMIDA: — Bir yilga ketyapman, dedim-ku. Xurshida opam ishlagan fermaga boryapman.

BAHROM: — Umida, bitta o'pay.

UMIDA: — Nari turing, hamma qarab turibdi.

BAHROM: — Atrofda hech kim yo'q-ku.

UMIDA: — Buzoqlarim qarab turibdi, nari turing, yig'layman.

BAHROM: — Bo'pti, bo'pti, yig'lama, tegmayman. Bitta she'r o'qib beraymi?

UMIDA (*chinakam yig'lamsirab*): — O'qisangiz o'qi-yvering.

Bahrom o'qiydi, qiz ko'zi namlanib g'amgin tinglaydi.

BAHROM: — Olislarga ketar bo'lsang,
Maqsadingga yetar bo'lsang,
Maktablar ham bitar bo'lsang,
Jonim, meni unutmakin.

Yo'llaringga ko'zim tikay,
Senga atab gullar ekay,
Lovullagan she'rlar bitay,
Jonim, meni unutmakin.

Sevib qolgan devonaman,
Erta-yu kech parvonaman,
Elga bo'lgan afsonaman,
Jonim, meni unutmakin.

Tashlab ketma Bahromingni,
Sensiz holi harobingni,
Alloh bersin savobingni,
Jonim, meni unutmakin.

Umida buzoqlari ortidan yig'lab borayapti.

* * *

Xurshidaning dashtdagi poyonsiz yeri. Ikki-uch mu-taxassis, Xurshida, Abdusamat, Beksulton, O'nboshi, Usmon G'ani beton qoradigan kichik sex qurish uchun joy tanlashyapti.

O'NBOSHI: — Sutkasiga qancha beradi bu quril-mang?

MUTAXASSIS: — Beton aralashmasini so'rayapsizmi?

O'NBOSHI: — Ha, o'shandan.

MUTAXASSIS: — Yaxshi yigitlar bo'lsa, qirq tonnagacha olsa bo'ladi.

O'NBOSHI: — Shlakli blokdan-chi?

MUTAXASSIS: — To'rt ming tonnagacha chiqaradi.

XURSHIDA: — Amaki, mana shu yovvoyi bedalar ekiladigan dashtingizdan ozgina olamiz-da, Beksulton akam bilan shu yerni tanladik. Birinchidan, ho'v ana — shag'al yaqin, ikkinchidan, ariq ochib suv keltirsa bo'ladi, bo'masa bu yerga mashinada suv tashib ul-gurib bo'lmaydi.

BEKSULTON: — Dada, hisob-kitobi ham uncha yomon emas, arzon.

XURSHIDA: — Bir yilga qolmay o'zini oqlaydi.

O'NBOSHI: — Ishqilib, qarzni ko'p olmadilaringmi?

XURSHIDA: — Yo'q, asosan, o'zimizdan chiqdi, nov-voslarni tirik vaznida yaxshigina pulladik.

Yaqinginalarida yengil mashina to'xtaydi. Rulda Shoumar, yonida otasi Shokalon.

SHOKALON: — E-e, qo'shnilar, yaxshi ish bosh-labsizlar-u, bir og'iz aytmabsizlar-da. Haliyam kech emas, Shoumarni sherik qilasizlar.

BEKSULTON: — Kech qoldilaring, bank bilan shart-noma tuzib, pulini ham o'tkazib bo'ldik.

SHOKALON: — Nahotki qishloq fermerlar uyushmasining bosh maslahatchisi bo'la turib, bu ishlardan bexabar qolgan bo'lsam.

XURSHIDA: — Sizlar ham meva quritadigan moslama qurbanlaringda biz bexabar qolgandik.

SHOUMAR: — Beksulton o'rtoq, araz-turazni yig'ishtiraylik, proyektga meniyam sherik qilasan.

BEKSULTON: — Aytayapman-ku, biz allaqachon ish boshlab yuborganmiz.

SHOUMAR (*ovozini balandlatib*): — Qo'shasan, deyapman!

SHOKALON: — Ha o'g'lim, ikki o'rtoq ahillik bilan ishlanglar. Bu qurilmadan viloyat hokimining ham xabari bor. Mana hozir gaplashaman (*Cho'ntagidan uyali telefon olib, raqam teradi*). Assalomu alaykum, Sattor Shokirovich, bormisiz, omomisiz? Ie-e, dalaadamisiz? E-e, barakalla. Paxta ochila boshladi, deysizmi? Muborak bo'lsin! Xudo xohlasa, albatta kelinoyingiz bilan borib tabriklab kelaman... Men kechagi beton qoradigan qurilma haqida yana eslatyapman. O'zim eslatib qo'yaman, deysizmi? E-e, ajoyib inson-siz-da. Rahmat. Xayr (*Telefonni o'chirib, cho'ntagiga soladi, bunga qarab turganlar ishonadi, biroz cho'chi-broq ham turishadi*).

SHOKALON: — O'nbossi o'rtoq, viloyatimiz hokimi ko'p ajoyib inson-da. Bedanadan ko'proq tutgin, bir borib yo'qlab kelamiz.

XURSHIDA (*darg'azab*): — Amaki, hech kim bilan gaplashganingiz yo'q. Ovozingiz ham qalbaki, o'zingiz ham qalbaki!

SHOKALON: — Nima deyapsan, qizim?!

XURSHIDA: — Kuni kecha Sattor Shokirovichning huzurida bo'ldim. Sizni umuman tanimas ekanlar, hatto ko'rmagan ekanlar. Hamma gaplaringiz odamlarni aldash, chalg'itish, qo'rqtish uchun ekan.

SHOKALON (*Xurshidani qoʻltigʼidan olib, chekka-roqqa olib chiqadi*): — Xurshidaxon, sen boʼladigan qizsan. Ehtimol, yanagi yilga hokim ham boʼlib ketarsan. Shuni unutmaginki, har qanday rahbarning katta-kichik joylarda yashirin agenti boʼladi. Men ham oʼshalardan biriman. Sattor Shokirovich puxta odam. Oʼz agentlarini sotmaydi... Undan koʼra gapni qisqa qilib, bizni proyektga sherik qil.

BEKSULTON: — Amaki, sherikli oshni it ichmas, degan gap bor.

Rashk olovida yonib turgan Shoumar janjal chiqarish uchun bahona axtarayotgan edi.

SHOUMAR: — Oʼ, choʼloq, nega mening dadamni «it» deyapsan?

BEKSULTON: — Men bir maqolni esladim, choʼloq dema meni.

SHOUMAR: — Proyektga sherik boʼlaman, shuni bilib qoʼy!

Beksltonga yaqinlashib kela boshlaydi.

BEKSULTON: — Nari tur, hozir boshingga tayogʼim bilan tushiraman!

Hezlashib kelayotgan Shoumarni qoʼltiqtayogʼi bilan koʼksidan yengil itaradi. Janjal chiqadi. Shokalon bilan Oʼnboshi har biri oʼz oʼgʼlini ikki tomonga tortqilab, arang ajratishadi.

* * *

Fermaning hovlisi. Erkag-u ayollar yigʼilgan. Umidani Gollandiyaga kuzatish uchun toʼplanishgan. Umida ham, Xurshida ham kostyum-shim kiyib olishgan.

Kechagi qishloq qizlariga hech o'xshashmaydi. Inoyat yig'lab Umidani bag'riga bosib, boshini silab turibdi.

O'NBOSHI: — Ha mayli, eson-omon borib kelgin. Opang Xurshidaga o'xshab, bir narsali bo'lib qaytgin. To'xta, qori pochchani chaqiringlar, oq yo'l tilab, bir duo qilsin.

Qori qorovulxonadan uyqusirab, ko'zlarini uqalab chiqadi.

QORI: — Iloyo omin, qo'shganing bilan qo'sha qarigin, uvali-juvali bo'lgin, yostiqda boshing, qozonda oshing ko'paysin. Hovlingda guling bo'lsin, cho'ntakda puling bo'lsin, suygan oshing so'kidan-u, olgan puling «ko'k»idan bo'lsin. Allohu akbar.

O'NBOSHI: — Qori to'xtang, to'xtang.

QORI: — Tag'in nima bo'ldi?

O'NBOSHI: — Qizimiz erga tegayotgani yo'q, Gollandiyaga ketayapti.

QORI: — E ha, qarang, ko'zim jinday ilinib qolgan ekan, duoni qaytadan boshlaymiz... Lekin haqqiyam ikki hissa bo'ladi-da. Iloyo omin, borayotgan mam-lakatingda hamisha musulmon bo'lib yashagin. Xurshida qizim, senam ketayapsanmi, yana tag'in shrim kiyib olibsan-ku.

XURSHIDA: — Umidani Gollandiya elchixonasiga kuzatib kelaman.

Umida bilan xayrlashish, yig'i-sig'i boshlanadi.

* * *

Umida opasi Xurshida bilan tekis, ravon yo'lda Toshkentga ketib borayapti. Rulda Abdusamat. Xurshida nimalarnidir gapirib boryapti. Umida o'ychan. Qulog'i ostida Bahromning xayrlashuv she'ri eshitilyapti.

*Olislarga ketar bo'lsang,
Maqsadingga yetar bo'lsang,
Goho maktub bitar bo'lsang,
Jonim, meni unutmagan.*

* * *

Inoyat ayaning hovlisi. To'ybop qilib ta'mirlangan, jihozlangan. Ichkarida Manzura, Mahfirat, yana bir qancha qiz-u juvonlar turli ishlar bilan mashg'ul. Hovlida ayollar qo'yning kalla-pochasini tozalashyapti. Zarifa yugurib-yelib goh u guruhga, goh bu guruhga xizmat ko'rsatadi. Inoyat o'ychan, xomush o'tiribdi. Ko'z o'ngida qizi Umida, qulog'ida uning ashulasi.

*Osmonda to'rg'aylar,
Bu g'arib kimni poylar?
Ko'chadan hovliqib Kurshida kirib keladi.*

XURSHIDA: — Voy ayajon-ey, yana yig'im?*

INOYAT: — Umidamni unutolmayapman. Hech bo'lmasa to'ying o'tguncha sabr qilmading-a.

XURSHIDA: — O'rtoqlaridan ajralib qolsa maylimi...
Hozir gaplashtiraman. Mana oyijon, gaplashing.

INOYAT: — Umidam, asalim (*Yig'lab yuboradi*).
Opangning to'yiga albatta kelgin.

Ichkaridan ayollar yugurib chiqishadi. Mana, Manzura xolang bilan ham gaplashib ol, men ungacha yig'lab olay. Voy bolam-ey...

Ichkaridan yugurib chiqqan ayollar galma-galdan telefonda so'zlashib olishadi.

MANZURA: — Voy, xuddi qo'shnining uyidan gapirayotgandek-a.

BOSHQA AYOL: — Ularda telefon juda zo'r emish.

YANA BIR AYOL: — Er-xotin anavinaqa ishlarni ham telefonda qilisharmish.

YANA BIR AYOL: — Voy, o'lay.

AYOL: — Xayriyat, o'sha yoqlarda yashamaymiz.

Kulishadi. Yana to'y tayyorgarligiga kirishishadi.

* * *

O'nboshining dang'illama hovlisi. Imoratlar sariq g'ishtdan qurilgan. Ko'r kam hovli to'la to'yga kelganganlar. O'z mavqeい darajasiga moslab guruh-guruh bo'lib o'tirishibdi. Shokalon keksalar davrasida.

Shoumar tengqurlari bilan askiya aytishayapti. Abdusamat, Usmon G'ani, Akrom, Bahromlar xizmatda. Viloyatning mashhur sozandalari kelgan. O'rtani Usmon G'ani boshqaryapti. Bahrom yelkasida apparat, tasvirga olayapti. Tashqaridan mashinalarning signali, bolalarning shodon qiyqirig'i, «kelin keldi, kelin keldi» degan shovqinlari eshitiladi.

Hamma o'rnidan turadi, sozandalarning «to'ylar muboragi» aytildi.

Oqqushday yasangan Xurshidaning yonida shohona kiyining Beksulton cho'lqlanib kelyapti, Beksultonning chap tomonida qo'litiqtayoq bor.

Shoumar kelin-kuyovga ko'zi tushishi bilan rashkdan yonib ketadi. «Yo'q, yo'q, shoshma, bu oyog'ingni ham sindiraman», deya g'ijinib qo'yadi. Kelin-kuyovlar o'tirgach, kutilmaganda Shokalon o'rnidan turib o'rtaga chiqib, mikrofonni Usmon G'anining qo'lidan tortib oladi.

SHOKALON: — Yurting keksa bir otaxoni sifatida kelin bilan kuyovni tabriklash uchun so'zni menga bergenlaringga rahmat. Go'zal-u oqila, tadbirkor-u tashabbuskor qizni, Alpomishday pahlavon yigitni voyaga yetkazgan, tarbiyalagan Inoyatbonuga, O'nboshi o'rtog'imga, qolaversa, butun Tagob xalqiga ofarin, ming ofarin bo'lsin. Baxtli bo'lsinlar. Saodatli bo'lsinlar. Qiz ko'rsalar Xurshidaxondek, o'g'il ko'rsalar Beksultonondek bo'lsin.

Qarsaklar.

Ashulalar, raqslar.

USMON G'ANI: — Navbat yana tabrikka. Gollandiyada tajriba o'tkazayotgan qizimiz Umidaxonim Xurshida opalarini tabriklab, she'riy maktub jo'natgan. O'qib berishni Bahromdan so'rasak.

BAHROM: — Boshida ikki og'izgina nemischa so'zi ham bor ekan, buni o'qimay qo'ya qolay. Rozimisizlar? Unda she'rni o'qiyman.

Yo'l boshida yig'lab qolgan,
Boshim silab-silab qolgan,
Tezroq qayt deb, imlab qolgan,
Ayajonimga assalom.

To'ylarida bo'lolmadim,
Tabrik so'zi aytolmadim,
Xizmatini qilolmadim,
Opajonimga assalom.

Yasanishib kelganlarga,
Sovg'a-salom bergenlarga,
So'zdan gullar terganlarga,
Qayta-qayta assalom.

Sigir boqqan opajonlar,
Sutlar soqqan opajonlar,
Qo'li chaqqon opajonlar,
Barchangizga assalom.

Buzoqlarim unib-o'ssin,
Savri xolam qarab tursin,
Yem-xashakni ko'p-ko'p yesin,
Xolajonim assalom.

Shivir-shivir gaplashardik,
Dilni-dilga ulashardik,
Goho kulib yig'lashardik,
Dugonalar assalom.

Kiygin doim atlas nimcha,
Degandingiz qori pochcha,
Shim kiymadim shu kungacha,
Qori pochcha assalom.

Sigir ko'p Gollandiya,
Har sigirki misli tuya,
Yana tag'in ot-u biya,
Shulardan ham assalom.

Tagobimiz bahor ekan,
Ko'p yashnagan gulzor ekan,
Kishilari dildor ekan,
Qishlog'imga assalom.

She'r o'qilayotgan paytda ichkarida qiz uzatib kelgan boshqa ayollar davrasida o'tirgan Inoyat aya yig'lab-yig'lab olayapti.

USMON G'ANI: — Endigi so'z muhabbatning otash kuychilari bo'lgan Tagobli xonanda qizimizga. Shirin nafaslari bilan barchani maftun etgan ukalarimizga.

AKROM: — Yo'q, yo'q, endigi so'z menga, g'isht zavodining ilg'or ishchisi Akromjonga.

Qornini o'ynatib, she'r o'qiy boshlaydi.

Yantog'ining yog'i yo'q,
Laqqashiqildoq.
Odamingning sog'i yo'q,
Laqqashiqildoq.

Omborchiga qiz berma,
Laqqashiqildoq.
Omborlari bo'sh bo'lar,
Laqqashiqildoq.

Kambag'alga qiz berma,
Laqqashiqildoq.
Haydagani qo'sh bo'lar,
Laqqashiqildoq.

Yolg'on so'zni so'zlama,
Laqqashiqildoq.
Ayyorlikni o'ylama,
Laqqashiqildoq.

Yolg'onchining sho'ri bor,
Laqqashiqildoq.
Ayyorlikning go'ri bor,
Laqqashiqildoq.

Kuyovimiz zo'r ekan,
Laqqashiqildoq.
Kelinimiz hur ekan,
Laqqashiqildoq.

O'g'il ko'rsin, qiz ko'rsin,
Laqqashiqildoq.
Yoshlari ham yuz bo'lsin,
Laqqashiqildoq.

G'ishtchilar nomidan ushbu oltin soatni kelinimiz
Xurshidaxonga, ushbu qo'lbola chust nusxa do'ppi
beklar begi Beksltonga!

Qarsaklar.

USMON G'ANI: — Aziz hamqishloqlar, to'yimizga viloyat hokimi Sattor Shokirovich, Tadbirkorlar pal-atasining jonkuyar, mehribon rahbari Salimaxonim va yana ancha aziz mehmonlar tashrif buyurishdi. O'rnimizdan turib, qarsaklar bilan kutib olaylik.

*Shokalon betoqlana boshlaydi, negadir o'zini
qo'ygani joy topolmay qoladi, nihoyat o'rnidan turib,
orqa tomon bilan chiqib keta boshlaydi.*

USMON G'ANI: — E, ha, amaki, to'y endi boshlanayapti-ku.

SHOKALON: — Yomon narsa yegan bo'lsam kerak, qornim og'ribroq turibdi.

USMON G'ANI: — Ehtimol, ichburug' bo'lgandirsiz.

SHOKALON: — Shunaqaga o'xshaydi.

*(Shokalon to'yxonadan uzoqlashgan sari g'azabi
oshib, yer tepinib boradi.)* Yo'q, yo'q, senlarga yuz
gektar yerni berib qo'yib, tomosha qilib o'tiradigan
ahmoqlardan emasman. Shafqatsiz o'yinni men emas,
senlar boshladilaring. Endi mendan ko'rasanlar. Shu
kungacha to'pponchadan pisillatib otib kelayotgan
edim.... O'qlab qo'ygan zambaraklarim tek turibdi...
Mana endi otaman.

*To'yxonada esa o'yin-kulgi, ashula yanada avjiga
chiqadi.*

«Qiz bolaga tosh otmang» — «Xurshida» telefilmi
haqida

*To'rt qismli «Xurshida» telefilming bosh qahramoni
balog'at yoshidagi did-farosatli, shaharning manaman
degan qizlaridan sira qolishmaydigan, hayotda o'z
yo'lini topib olgan qishloq qizi. U ot minadi, traktor hay-
daydi, dala-tuzga dehqon nigohi-la boqadi. Xurshida —
ishning ko'zini biladigan tadbirkor, hisob-kitobni to'g'ri*

oladigan fermer. Taniqli yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev va bosh rejissyor Shavkat Junaydullayev qizning g'aroyib sepi — fermerligi, tadbirkorligi, izlanuvchi aqli orqali uning ruhiy-ma'naviy olamini yoritib berishni maqsad qilib qo'yganlar. G'isht zavodi boshlig'i Bekulton (aktyor Alisher Hamroyev) Xurshidani sevadi. Fermer qiz (aktrisa Tamara Hazratqulova) ham unga befarq emas: yigitning qo'llab-quvvatlashlarini, o'ziga beg'araz yordam berayotganligini yurakdan his qiladi. Yigit ham, qiz ham mulkdorlik jabhasiga endi-endi kirib kelyapti: bu sohada ularga na ota-onalari va na qishloqdoshlari yordam bera oladi. Izlanish, o'rganish, tadbirkorlik mashaqqatlari ularni o'zaro yaqinlashtiradi. Xurshida va Bekulton uzukka ko'z qo'yganday bir-biriga mos. Lekin olam olam bo'libdiki, sevishganlar, maslakdoshlar osonlikcha murod-maqsadlariga yetmaganlar...

Sho'ro zamonida rahbar bo'lib shakllangan, amalning huzur-halovatiga ko'nikkan sobiq rais Shokalon ham Xurshidaga, to'g'rirog'i, uning bebahos sepi — fermasiga, tadbirkorlik uquviga befarq emas. U bir narsani aniq biladi: ertangi kun Xurshida singari uquvli, tadbirli, epli yoshlar inon-ixtiyorida. Shokalon sirtdan tuppa-tuzuk yigit bo'lsa-da, aqlan-ruhan notavon, bolaslik pallasida qotib qolgan, Abdulla Qahhor iborasi bilan aytganda, «boshsiz odam» — o'g'li Shoumarni Xurshidaning oshiq-u beqarori qiyofasida maydonga kiritadi. Shoumar (aktyor Bahodir Mirmaqsudov) filmga tragik — komik holatlarni olib kirgan. Raisning erkatoy o'g'li o'zi singari bekorchi, bo'z bolalarni gijgijlab Bekultonni do'pposlatadi. Zo'raki oshiq rolini otasi rejissyorligida pala-partish va bachkana holda «o'ynay boshlaydi».

Aktyor B.Mirmaqsudov o'z personajida tadbirkorlik farosati, mulkdorlikka olib boriladigan aql, uquvdan boshqa xususiyatlar — o'jarlik, jangarilik, bachkanalik borligini ko'rsata organ. Shokalon makkor, odamni bir

ko‘rishda bilib oladigan xislatga ega emasmi, o‘g‘lidan hech narsa chiqmasligini yaxshi biladi. Lekin u sho‘ro davri rahbari sifatida taslim bo‘lishni xayoliga ham keltirmaydi. Avtoulovlar to‘qnashuvini uyushtirib, Bek-sultonning hayotiga suiqasd qiladi. Ssenariy puxtaligi, rejissyor mahorati shundaki, maydonda Beksulton va Shoumar kurashyapti-yu, aslida bu yovuzliklar ortida Shokalon turganligi, Xurshida ro‘y berayotgan hodisalarни yurak-yurakdan his etayotganligi aniq-ravshan seziladi. Boshqacha aytganda, kurashning g‘irrom usuli — olovni o‘zganing qo‘li bilan tutish namoyon bo‘ladi. Afsuski, ommaviy sahna ishtirokchilari, xususan, O‘nboshi (M.Miraliyev), Inoyat aya (A.Kimsanova), Bahrom (I.Muhammadibrohimov), Umida (M.Ashurboyeva), Amma, Shofyor, Guvoh singarilar ro‘y berayotgan murakkab hodisalarни personajlari ruhiyatida yetarli darajada aks ettira olmaydilar. O‘ylab ko‘rilsa, avvallari bizning hayotimizda mulkdorlik yo‘lidagi xatti-harakatlar bo‘lmagan, tadbirkorlik qo‘llab-quvvatlanmagan. Sho‘ro tuzumi odamlardan faqat ishlashni, qora kuch sifatida faoliyat yuritishni talab qilgan. Katta-katta kashfiyotlar qilgan olimlar iste’dodi, ilmi yetarli baholanmagan. «Xurshida» filmida tadbirkorlik uquvining shakllanishi, mulkdorlik yo‘lidagi ilk intilishlar ko‘rsatilgan.

Filmning uchinchi va to‘rtinchи qismlarida kurash, asosan, Xurshida va Shokalon o‘rtasida davom etadi. Ta‘kidlash joizki, bu kurashda rahbarlik, yetakchilikning ikki — bir-biriga zid uslubi namoyon bo‘ladi. Shokalon (artist Muhammadjon Uzoqov) — sho‘ro boshqaruvini o‘zida mujassamlashtirgan rahbar. U hamisha omma orasida bo‘ladiki, o‘zini xalqparvar, mehribon qilib ko‘rsatadi. Aslida u baayni zamонавиј Yago: kishilar orasida gumon, ishonchsizlik paydo qiladi. Sobiq rais Xurshidanı ham, Beksultonni ham

osmon-u falakka ko'tarib maqtaydi. Mohiyatan esa u ishbilarmon yoshlar payini qirqishga intiladi. Uning rahbarlik uslublaridan biri yolg'onchilikka asoslangan. Bu jahbada u mashhur Xlestakovni ham yo'lida qoldirib ketadi. Mana, tumonat odam yig'ilgan. Hammaning diqqati Shokalonga qaratilgan. Sobiq rais yonidan telefonini chiqaradi-da, raqamlarni teradi, odamlarga mammun jilmayib turib, viloyat hokimi ism-familiyasini tilga oladi, suhbatni boshlaydi. Yig'ilganlar hang-mang bo'lib qoladilar: raisbuva kimsan, viloyat hokimi bilan to'ppa-to'g'ri gaplashyaptilar. Vaholanki, telefon yoqilmagan, hokim bilan suhbat qalbaki edi. Bu sirni Xurshidagina biladi, ensasi qotadi. Shokalon zinhor haqiqiy qiyofasini ko'rsatmaydi: yig'lab turib kuladi, yengilib turib g'oliblikni da'vo qiladi, ichidan qirindi o'tadi-yu shox tashlab, sho'x-sho'x raqs tushadi. O'zaro suhbatlarning birida raisning xotini (G.Qalandarova):

— Siz uch qavatlari uyga o'xshaysiz. Qirq yil siz bilan yashab arang bitta qavatingizni sal-pal o'rgandim, — deydi. Rais xaxolab kuladi. U na xudoga, na bandaga, na oxiratga ishonadi. Barcha raqiblari bilan shu dunyoda orani ochiq qilib olishni maqsad qilib yashaydi. Shokalon xarakteri yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyev, aktyor Muhammadjon Uzoqov ijodining ulkan yutug'i. Mana shu xarakter filmdagi hodisa-voqealarni umumlashtirib turadi, Xurshida, Beksloton singari qahramonlarni ogoh bo'lishga undaydi. Xurshida o'zi sezmagani holda sobiq raisdan kurashchanlikni, maqsad sari intilishni o'rganadi. Shokalon bilan kurashda chiniqqanligi bois, yo'l-yo'lakay kelgan taftishchi tekshiruvchilar kavushini to'g'rilaq qo'yadi. Darvoqe, filmda tadbirkorlar yo'lidagi katta to'siq — bank, pul oldi-berdisi masalalari sal-pal ko'rsatiladi. Imkoni bo'lsa, shu ziddiyatni chuqurroq yoritish joiz edi.

«Xurshida» telefilmida Tagob qishlog‘i ahli, «Ko‘kdala» fermasi, g‘isht zavodi ishchilari faoliyati tasvirlangan. Demoqchimizki, filmda hayot aslichcha: g‘ala-g‘ovuri, murakkabliklari, yetishmovchiliklari bilan aks ettirilgan. To‘y sahnasi, askiyachilar payrovi tabiiyligi bilan e‘tiborga molik. Lekin, afsuski, ba‘zi personajlar ruhiyati, betakror o‘zligi yetarlicha ochilmagan. O‘nboshi – filmdagi jiddiy timsollardan biri. Qolaversa, kimsan Shokalon rais ikki gapning birida: «Do‘stim O‘nboshi, Qadronim O‘nboshi», deb turadi. Beksultonday tadbirkor yigit O‘nboshining farzandi. Lekin O‘nboshidagi o‘ziga xoslik, betakrorlik fazilatlari yoritilmagan. Inoyat aya timsolida ham aniqlik ko‘rinib turmaydi.

Filmda Xurshida-yu Beksultonlar izidan kelayotgan avlod — Umida, Bahromlar timsoli berilgan. Muborak Ashurboyeva, Ilhom Muhammadibrohimov o‘z qahramoni ruhiyatini yoritishga harakat qilgan. Ijro etilgan qo‘shiqlar (D.Omonullayeva musiqasi, Usmon Qo‘chqor she’ri) film jozibasini oshirgan. Filmning yutug‘ida operator Abduhakim Qoriyev, bastakor Vladimir Baromikov va boshqa ijodiy xodimlarning xizmati katta.

Xullas, «Xurshida» zamondoshimiz hayotini, intilishlarini, qalbini ishonarli tasvirlab bergen film sifatida elga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz.

Abdug‘afur Rasulov,
filologiya fanlari doktori, professor

MUNDARIJA

Iste'dodning olmos qirrasi	3
Qiz talashgan o'smirlar (roman)	11
1-qism. Muhabbat mavsumi	12
2-qism. Ishqning lazzatli iztiroblari	92
3-qism. Muhabbat o'limdan kuchlimi?	154
Yozuvchi asaridagi o'ziga xos uslub haqida	206
Qiz bolaga tosh otmang (teleroman)	214
«Qiz bolaga tosh otmang» — «Xurshida» telefilmi haqida.....	327

Adabiy-badiiy nashr

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV

QIZ BOLAGA TOSH OTMANG

Muharrir
Gavhar MIRZAYEVA

Musahhih
Feruza SHOSAIDOVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Kompyuterda sahifalovchi
Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 02.10 da berilgan.
Bosishga 22.01.2014-y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 11,0. Shartli bosma tobog'i 18,48.

Garnitura «Bookman Cyr+Uzb». Ofset qog'ozи.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 21.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-36-89;

Marketing bo'limi – 128-78-43. faks – 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

**«Yangi asr avlodi» nashriyot matbaa markazi
«Kamolot kutubxonasi» ruknida quyidagi kitoblarni
nashrga tayyorladi:**

A.Dyuma

«GRAF MONTE-KRISTO - 1, 2»

Bichimi 84x108 1/32, 752, 756 bet

Qalin muqovada

Ikki kitobdan iborat asarning bosh qahramoni Edmon Dantes – Monte Kristo “If” qal’asidan xalos bo’lgach, razolat botqog‘iga botgan insonlarni zo’r matonat, aql-idrok bilan fosh etadi. Jazo ham, mukofot ham Allohning irodasi bilan inson tirikligidayoq uni benasib qoldirmasligi asar nihoyasi-da aks etadi, faqat, Graf ta’kidlaganidek, “kutmoq va umid qilmoq kerak”.

Artur Konan Doyl

«SHERLOK XOLMS VA DOKTOR VOTSONNING

SARGUZASHTLARI»

Bichimi 84x108 1/32, 528 bet

Qalin muqovada

Artur Konan Doylning «Yo‘qotilgan dunyo», «Zaharlangan mintaqa», «Dahshat vodiysi» kabi asarlari nafaqat Yevropa-da, balki butun dunyoga mashhur. Va ayni paytda yurtimiz kitobsevarlariga ham yaxshi tanish.

Bu to‘plamda yozuvchining detektiv, ilmiy fantastika, sarguzasht asarlaridan saralab olingan hayotiy dalillarga boy hikoya va qissalari joy olgan.

Charlz Baskervilning g‘aroyib tarzda o’ldirilishi odamlar ni dahshatga soladi. Hamma ulkan mulk sohibining fosiq ajdodlari aybi uchun jazo sifatida botqoq tubidan chiqqan dahshatli it haqida turli vahima gaplarni aytishadi. Xon-aki itlaridan mutlaqo farq qiladigan, salobati o‘rmon qora ayig‘ini eslatadigan, bir oilaning iziga tushgan Baskerville

iti insonlar kabi xufiyona ish tutadi. Faqat bugina emas, mashhur izquvarlar Sherlok Xolms va doktor Votsonning qator jinoyatlarni fosh qilishdagi bir-biridan qiziqarli sarguzashtlarini mazkur kitobdan bilib olishingiz mumkin.

1990-yilda «Baskervillar iti» nomi bilan nashr etilgan mazkur asar kitobxonlar iltimosiga ko'ra qayta chop etilm-oqda.

Andersen

“QOR ODAM”

Bichimi 84x108 1/32, 382 bet

Yumshoq muqovada

Andersenning ertaklari bugun ham eng ko'p o'qilayotgan asarlar sirasiga kiradi. Ularda bolalarga xos bo'lgan beg'ubor kechinmalar, ezgulikning g'alabasi, orzu-umidlarning ush-alishi, yorug' olamda har birimiz har qadamda duch kelib, kundalik hayotimizda yuz berayotgan oddiy voqe-a-hodisalarning o'zgacha talqini tilga olinadi.

Ertaklar katta-kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ular tasavvuringizni boyitadi, aqlingizni charxlaydi. Olis manzillardagi ertaklarning mo'jizaviy ohangi Siz aziz kitobxonlarni maftun etadi.

Daniel Defo

“ROBINZON KRUZONING HAYOTI VA AJOYIB

SARGUZASHTLARI”

Bichimi 84x108 1/32, 208 bet.

Yumshoq muqovada

Yigirma sakkiz yil kimsasiz va bepoyon orolda yolg'iz o'zi yashagan Robinzon Kruzoning boshidan kechirgan sarguzashtlarga boy hayoti va uning baxtli yakuni haqidagi qiziqarli hikoya sizni befarq qoldirmaydi.

Jyul Vern

“O‘N BESH YOSHLI KAPITAN”

Bichimi 84x108 1/32, 356 bet

Yumshoq muqovada

Lotin alifbosida

Asrlar osha qo‘ldan qo‘ymay o‘qib kelinayotgan mazkur asarda o‘n besh yoshli kapitan – Dik Sendning bir-biridan qiziqarli sarguzashtlari qalamga olinadi.

Jumladan, Janubiy Afrikada kechgan xunrezliklar, qullar savdosi bilan bog‘liq ayanchli voqealar, turli xavf-xatarlarga qolgan kapitan Dik va sayohatchi do‘srtlari – xizmatchisi Gerkules, missis Veldon va uning kichik o‘g‘li Jek, xayol-parast olim Benedikt tog‘aning boshidan kechirganlari sizni befarq qoldirmaydi, degan umiddamiz.

Chingiz Aytmatov

«KASSANDRA TAMG‘ASI»

Bichimi 84x108 1/32, 296 bet

Yumshoq muqovada

Buyuk adib ushbu falsafiy romanida butun sayyora, boringki, kosmos miqyosida keng va uzviy mushohada yuritgan. Bugungi shafqatsizlik, yovuzlik, vahshiylik urug‘lanini kelajakda qanday dahshatli mevalar berishini kosmik yuksaklikdan bashorat qilgan.

Jaloliddin Rumi

«ICHINDAGI ICHINDADUR»

Bichimi 84x108 1/32, 240 bet

Yumshoq muqovada

“Ichindagi ichindadur” Mavlono Jaloliddin Rumiining turli majlislarda bildirgan o‘tlug‘ fikrlaridan tarkib topgan. Siz ushbu risolani o‘qib, inson va olam, ong va borliq, inkor va isbot, xayol va amal singari falsafiy tushunchalarning asl mohiyatini anglaysiz. Va hamma narsa O‘zingizda, hamma narsa O‘zingizdan ekanligiga yana bir bor iymon keltirasiz.

Abdulla Qodiriy
“O’TKAN KUNLAR”
Bichimi 84x108 1/32, 442 bet
Qalin muqovada
Kirill va lotin yozuvlarida

Sevgi kimlarni yig‘latib, kimlarni kuldirmagan deysiz. Sharq adabiyotining nodir asarlaridan biri hisoblanmish mazkur asarda muhabbat o‘zgacha, takrorlanmas badiiy talqin qilinadi. Shuningdek, vatanparvarlik, chaqimchilik, andisha, xotinbozlik, muomala, behayolik singari mavzular ham qalamga olinadi. Mutolaaga shoshiling.

Alisher Navoiy
«XAMSA»
Bichimi 84x108 1/32, 432 bet
Qalin muqovada

Mazkur kitobda Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi barcha dostonlarning mazmuni bayon qilingan. Ularda shoir tomonidan tasvirlangan turli voqeа-hodisalar aks ettirilgan, faqat kirish qismlari, me'yordan cho'zilib ketgan manzaralar, monologlar bir oz qisqartirilgan. Ushbu Navoiy dostonlarining nasriy talqinini o'qib chiqib, alloma shoirimizning turkiy she'riyatning gultoji hisoblanmish «Xamsa» she'riy dostonlarini anglab olishingizga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

Cho'lpón
“KECHA VA KUNDUZ”
Bichimi 84x108 1/32, 332 bet
Qattiq muqova

Abdulhamid Sulaymon Cho'lpónning “Kecha va kunduz” romani yaratilganiga qariyb 80 yil bo'lsa-da, u hamon qo'ldan-qo'lga o'tib kelmoqda. Mazkur asar ikki qismdan iborat bo'lib, dastlabkisi – “Kecha” deb nomlangani qo'lin-gizdagи kitobda aks etadi. “Bugun” deb atalgan ikkinchi qismi haqida esa esa ma'lumotlar yo'q.

Kitobda o'zbeklarga xos andisha, himmat, iffat va sod-dalik kabi fazilatlar bilan birga, xotinbozlik, xudbinlik va mol-mulk orttirish yo'lidagi illatlar ham o'z in'ikosini topgan.

Bu kabi sifatlar va illatlar kitobxonni chuqur mushohada yuritishga undaydi.

Cho'lpox duniyosi, uning olami, ijodidagi nafislik va serjilolik siz, azizlarga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

Mirzakalon Ismoiliy
“QIZLAR DAFTARIGA”
Bichimi 84x108 1/32, 172 bet
Yumshoq muqovada

Ushbu kitob o'z davrida qo'lma-qo'l bo'lib ketgan. Unda buvining nabira-qiziga, shu orqali uning dugonalariga ha-yot saboqlari – muhabbat, vafo, burch va sadoqat, halollik, to'g'rilik xususidagi o'gitlari o'z aksini topgan. Shu bilan birga, egrilikning oqibatlari, oiladagi kelinlik vazifalari, farzand tarbiyasidagi nozik jihatlar bayon etiladi. Kitob mutolaasi balog'at yoshidagi har qanday qiz qalbidagi yashirin so'roqlarga, yurak tubida asragan, kimdandir so'rashga iymanayotgan savollariga javob bo'ladi.

Mazkur tuhfa turmush qurish arafasida turgan qizlarimizga, yosh kelinlarimizga mustahkam oila bekasi bo'lishlarida hissa qo'shami, degan umiddamiz.

Mirkarim Osim
“TO'MARIS”
Bichimi 84x108 1/32 140 bet
Yumshoq muqovada

Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi mardonavor kuraschlari bir necha ming yillar oldin Mag'rib va Mashriqda afsonalarga aylangan, ular haqida ko'plab asarlar yozilgan. Ushbu kitobda Mirkarim Osimning mazkur mavzuga oid eng sara asarlari jamlandi.

Aziz kitobxon, Vatanni sevgan, forslardan uni himoya qilgan, tinchligiga posbon bo'lgan massagetlar pod-sho-hokimasi To'maris, cho'pon Shiroq, mo'g'ullarga qarshi kurashgan engilmas bahodir Temur Malik jasoratidan hikoya qiluvchi qissalar mutolaasiga shoshiling.

**Xudoyberdi To‘xtaboev
«SARIQ DEVNI MINIB»
Bichimi 84X108 1/32, 544 bet
Qalin muqovada**

“Sariq devni minib” kitobi sevimli adibimizning ikki kitobining to‘plamidan iborat. “Sariq devni minib” va “Sariq devning o‘limi” sarguzasht romanlari bolalar hayotidan olib yozilgan bo‘lib, ularning sevimli kitoblaridandir. Bu asarda orzu-havasga eltadigan chinakam yo‘l halol mehnat, yaxshi xulq-odob va qunt bilan o‘qishda ekanligi ta’kidlanadi.

**O‘TKIR HOSHIMOV
«Dunyoning ishlari»
84x108 1/32, 336 bet, yumshoq muqova**

XX asr o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni va uslubiga ega bo‘lgan adib – O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov, aytish mumkinki, XXI asr o‘quvchisining ham sevimli adibi bo‘lib qoladi.

Jonli va hayotiy tasvirlar, sof o‘zbekona yondashuv va xarakter, qahramonlar o‘rtasidagi suhbatlar mutolaasi o‘quvchini o‘z ta’siriga oladi. Nafaqat millat, balki chin insoniylik tarannumi yozuvchi asarlarida yetakchilik qilishi kitobxon uchun tarbiyaviy va hayotiy saboq bo‘ladidi. Xoh jiddiy, xoh hajviy bo‘lsin O‘tkir Hoshimov asarlarida hayot qaynaydi: unda har birimiz o‘zimizni, oilamizni, do‘sstu yorimizni, hatto hech kimga o‘xshamagan onamizni ko‘ramiz...

Bir inson umrini qamragan roman bo‘lsin, qator novellalardan iborat qissa yoki hikoya bo‘lsin, janridan qat’i nazar, O‘tkir Hoshimov asarlarida dunyoning ishlari mujassam. Mutolaa har qanday o‘quvchi uchun katta hayotiy xulosa berishiga ishonamiz.